Наряду с этим способом выявления специфики стиля писателя должна быть отмечена ещё одна возможность исследования того же самого объекта, – возможность, возникающая в ограниченном числе случаев и состоящая в сопоставлении текстов одного и того же автора, созданных на разных языках. Речь идёт о случаях писательского двуязычия. Эти случаи представляют совершенно особый аспект проблемы индивидуального стиля в его отношении к родному и неродному языку автора, но также позволяют ставить вопрос о специфике стиля в его отношении к языку.

Термин «картина мира» появился в начале XX века в работах Г. Герца по физике (1914) применительно к физической картине мира, трактуемой им как «совокупность внутренних образов внешних предметов, из которых логическим путем можно получать сведения относительно поведения этих предметов. Внутренние образы, или символы, внешних предметов, создаваемые исследователями, должны быть такими, чтобы логически необходимые следствия этих представлений в свою очередь были образами естественно необходимых следствий отображенных предметов»⁵.

Термином «картина мира» широко пользовался М. Планк, назвавший так одну из своих работ. Планк понимал под физической картиной мира «образ мира», формируемый физической наукой и отражающий реальные закономерности природы⁶.

Мысль о том, что создание картины мира является необходимым моментом для жизнедеятельности человека, развивал А. Эйнштейн: «Человек стремится каким-то адекватным способом создать в себе простую и ясную картину мира для того, чтобы в известной степени попытаться заменить этот мир

⁵ Герц Г. Принципы механики, изложенные в новой связи. // Жизнь науки. Антология вступлений к классическому естествознанию. М., 1973. – С. 208.

⁶ Планк М. Единство физической картины мира. М., 1966. М.

созданной таким образом картиной. Этим занимаются художник, поэт, теоретизирующий философ и естествоиспытатель, каждый по-своему. На эту картину мира и ее оформление человек переносит центр тяжести своей духовной жизни, чтобы в ней обрести покой и уверенность, которые он не может найти в слишком тесном головкружительном круговороте собственной жизни».

Теория языковой картины мира в современной науке находится в стадии осмысления и активной разработки. Можно выделить два основных направления в изучении этого вопроса: философское, идущее от Гегеля⁷.

«Язык непосредственно участвует в двух процессах, связанных с картиной мира. Во-первых, в его недрах формируется языковая картина мира у человека. Во-вторых, сам язык выражает и эксплицирует другие картины мира человека, которые через посредство специальной лексики входят в язык, принося в него черты человека, его культуры. При помощи языка опытное знание, полученное отдельными индивидами, превращается в коллективное достояние, коллективный опыт».

Языковая картина мира не принадлежит к числу частнонаучных или специальных картин мира, являясь предшественником многих других картин и до определенной степени формируя их. Ю.Д. Апресян называл языковую картину мира наивной и подчеркивал ее донаучный характер. Поскольку процесс познания человеком мира идет постоянно, следовательно, концептуальная картина мира постоянно дополняется и изменяется, тогда как языковая картина мира более консервативна и еще долго сохраняет следы устаревших представлений человека о мире⁸.

Рассмотрим стихотворение корейского поэта Хан Ёнг Уна (1879-1944)

⁷ Брутян 1956, Павиленис 1983) и лингвистическое (Караулов 1976, 1981, Колшанский 1990, Комлев 1981, Кубрякова 1988, Постовалова 1988, Сулейманова 1989, Когай 1996 и др). [2, с. 32-37].

⁸ Михайленко О.М. Лингвоэтическая картина мира: концепты «счастье» и «блаженство» как семантические дуплеты. Автореф. канд. дисс...К., 2006. – С. 4-9.

Счастье

나는 당신을 사랑하고 당신의 행복을 사랑합니다.

나는 온 세상 사람이 당신을 사랑하고 당신의 행복을 사랑하기를 바랍니다.

그러나 정말로 당신을 사랑하는 사람이 있다면

나는 그 사람을 미워하겠습니다. 그 사람을 미워하는 것은

당신을 사랑하는 마음의 한 부분입니다.

그러므로 그 사람을 미워하는 고통도 나에게서는 행복입니다.

만일 온 세상 사람이 당신을 미워한다면 나는 그 사람을
얼마나 미워하겠습니까?

만일 온 세상 사람이 당신을 사랑하지도 않고 미워하지도 않는다면
그것은 나의 일생에 견딜 수 없는 불행입니다.

만일 온 세상 사람이 당신을 사랑하고자 하여 나를 미워한다면
나의 행복은 더 클 수가 없습니다.

그것은 모든 사람의 나를 미워하는 원한의 두만강이 깊을 수록
나의 당신을 사랑하는 행복의 백두산이 높아지는 까닭입니다.

Я люблю тебя, люблю твое счастье.

Я желаю, чтобы все люди мира любили тебя и любили твое счастье,

Но, если кто-то действительно полюбит тебя, его я возненавижу.

Ненависть к тому человеку – это часть любви к тебе

Однако, даже боль от ненависти к тому человеку тоже для меня счастье.

И если весь мир возненавидит тебя, то насколько я возненавижу тех людей?

Но, если весь мир не будет тебя, ни любить, ни ненавидеть – это несчастье в моей жизни,

И это я не смогу перенести.

А, если весь мир, возлюбив тебя, возненавидит меня, то мое счастье будет огромным,

Потому что, если злоба ненавидящих меня людей глубока как река Туман, то мое счастье будет выше гор Пекдусан⁹.

(перевод автора данной статьи)

Из данного стихотворения корейского поэта не вытекает основания для утверждения о включенности «взаимной любви» в его личный концепт «счастье», нет данных о том, что чувства мужчин и женщин друг к другу составляют счастье. В этом видится особенность концепта «счастье» в индивидуальной ментальности поэта, который был буддийским монахом, что фундаментально определяет основу его ментальной и языковой картины мира. Монаху категорически запрещено любить женщину, он не имел права создавать семью, иметь детей, более того земные радости считались греховными и суетными желаниями, отрывающими от высокого и благородного. В традиции конфуцианства аскетический образ жизни считался достойным и приличным. Особо необходимо отметить годы жизни поэта – это период колониального господства Японии в Корее, период горя, страданий и слез всего народа, мучающегося и стонающего от захватчиков. Разве возможно кому-то в такое время даже помышлять о своем личном счастье, тем более буддийскому монаху.

Счастье для героя вышеприведенного стихотворения – это радость видеть счастье любимого человека, однако тут же присутствует элемент эгоизма – нежелание делить любимого человека с кем-то другим даже на уровне чувств.

В целом, если сравнить с представлениями о счастье носителей западной культуры, то в западной культуре любовь (во всех её проявлениях) является

⁹ Сборник стихотворений Хан Ёнг Уна. Песня монаха- песня молчания. Ассоциация культуры корейских издательств, Сеул, 1990. – С.76-77.

неотъемлемым компонентом концепта «счастье». В корейской традиционной культуре не принято было говорить о сокровенном, открыто говорить о своих чувствах, признаваться в любви, говорить об этом считалось неудобным. Это одна из тем - табу.

Философская традиция и обыденное сознание, как правило, отождествляют Счастье с высшим благом, рассматривают его в качестве общего знаменателя всех ценностных устремлений человека. Как слово живого языка и категория культуры Счастье имеет многоаспектное, трудно поддающееся систематизации содержание. Польский исследователь В. Татаркевич (1886—1980), написавший фундаментальный труд «О счастье», выделил следующие 4 основные значения понятия Счастье: 1) благосклонность судьбы, удача, 2) состояние интенсивной радости; 3) обладание наивысшими благами, положительный баланс жизни; 4) чувство удовлетворения жизнью. Философско-этический анализ Счастья связан с разграничением в его содержании того, что зависит от самого индивида, определяется степенью его духовного развития, совершенства, добродетельности, от того, что ему не подконтрольно, предзадано внешними условиям. Этическое направление, рассматривающее Счастье в качестве высшего человеческого блага, получило название эвдемонизма. Сторонником данного направления наряду с Аристотелем был Фейербах. По его мнению, эвдемонизм становится этическим принципом как желание Счастья другому. Эвдемонистические мотивы представлены в подавляющем большинстве этических учений, в т. ч. таких, как, например, этика Платона, Фомы Аквинского и др. Традицию этического эвдемонизма прервал, по сути дела, впервые Кант, полагавший, что Счастье является всего лишь высшей природной (но не моральной!) целью человека»¹⁰.

Категория счастья – многомерное интегративное ментальное образование, включающее интеллектуальную общеаксиологическую оценку и оценку

¹⁰ Степин В.С. Картина мира // Философский словарь / Под ред. И.Т.Фролова. 7-е изд., перераб. и доп. М.: Республика, 2001. -720 с.С. 234-235

эмоциональную в форме радости либо удовлетворения. Считается, что ментальное существование абстрактных категорий в обыденном, языковом сознании преимущественно интуитивно, эти понятия не имеют здесь дискурсивного представления. Любой человек прекрасно сознает, что такое счастье, пока его об этом не спрашивают (Ср.: "Что такое время? Если никто меня об этом не спрашивает, я знаю, что такое время; если бы я захотел объяснить спрашивающему - нет, не знаю". Однако "интуитивно" в случае счастья едва ли равнозначно образно, поскольку нарисовать картинку счастья оказывается невозможным, и, в конечном итоге, используя прием своего рода сократовской "майевтики" - системы наводящих вопросов - можно получить от респондента его словесное определение.

Заключение

В ходе анализа стихотворений Хан Ён Уна необходимо отметить, что в данных произведениях автор активно использует стилистический приём антитезы, которая функционирует как один из видов семантико-синтаксической организации текста.

Можно согласиться с утверждением, что человек формирует целостный глобальный образ мира, именуемый «картиной мира», в результате всей своей духовной-практической активности, следовательно, любая попытка обнаружить какой-либо один процесс, доминирующий в формировании общей картины мира у человека, с неизбежностью оканчивается неудачей.

Счастье для героя вышеприведенных поэтических текстов – это радость видеть счастье любимого человека, однако тут же присутствует элемент эгоизма – нежелание делить любимого человека с кем-то другим даже на уровне чувств.

В целом, если сравнить с представлениями о счастье носителей западной культуры, то в западной культуре любовь (во всех её проявлениях) является неотъемлемым компонентом концепта «счастье». В корейской традиционной

культуре не принято говорить о сокровенном - это считается постыдным. Это одна из тем - табу. Однако любой человек, даже монах нуждается в состоянии под названием «Счастье», который выражает свои противоречивые чувства в поэтической форме.

Список использованной литературы:

1. Брутян 1956, Павиленис 1983) и лингвистическое (Караулов 1976, 1981, Колшанский 1990, Комлев 1981, Кубрякова 1988, Постовалова 1988, Сулейманова 1989, Когай 1996 и др). [2, с. 32-37].
2. Вардзелашвили Ж. Метафорические номинации в языковой картине мира. Санкт-Петербургский государственный университет и Тбилисский государственный университет. Научные труды. Серия: филология. Выпуск II. СПб-Тб., 2001, с. 32-37.
3. Воркачев С. Г. Концепт счастья: понятийный и образный компоненты Известия РАН. Серия лит-ры и языка - 2001. - Т. 60, № 6. - с. 47-58.
4. Герц Г. Принципы механики, изложенные в новой связи. // Жизнь науки. Антология вступлений к классическому естествознанию. М., 1973. с. 208.
5. Григорьев В.П. Грамматика идиостиля: Хлебников. – М.: Изд. «Наука», 1983. – 223 с.
6. Михайленко О.М. Лингвоэтическая картина мира: концепты «счастье» и «блаженство» как семантические дуплеты. Автореф. канд. дисс...К.,2006.С. 4-9.
7. Планк М. Единство физической картины мира. М., 1966. М.
8. Постовалова В. Картина мира в жизнедеятельности мира.// Роль человеческого фактора в языке. М., 1988. с. 11.
9. Сборник стихотворений Хан Ёнг Уна. Песня монаха- песня молчания. Ассоциация культуры корейских издательств, Сеул,1990. с.76-77.
10. Степанов Ю. С. Французская стилистика (в сравнении с русской): Учебное пособие. Изд. 3-е, стереотипное. М., 2003. С. 24.
11. Степин В.С. Картина мира // Философский словарь / Под ред. И.Т.Фролова. 7-е изд., перераб. и доп. М.: Республика, 2001. -720 с.С. 234-235
12. Стилистический энциклопедический словарь русского языка.– М.: 'Флинта', Наука' Под редакцией М.Н. Кожинной, 2003. – С.
13. Тарасов Е. Ф. Введение // Язык и сознание: парадоксальная рациональность. М., 1993. С. 6—15.

MUKOVISSIDOZNING PRENATAL HAMDA POSTNATAL DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTİKASINI TAKOMILLASHTIRISH

G'oyibnazarova Kumush Sherali qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 3-bosqich talabasi

Anvarova E'zoza Yanvar qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Xatar darajasi umumiy populyatsiya xatar darajasidan yuqori bo'lgan, og'ir oqibat va asoratlarga olib keluvchi, jamiyatda ijtimoiy faolligi past aholi qatlamini yaratuvchi mukovissidoz irsiy patologiyasini prenatal bosqichda aniqlash va oldini olish, postnatal davrdagi salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar, tibbiy genetik maslahatni keng yo'lga qo'yish, kasallik profilaktikasini yangi bosqichga olib chiqish.

Kalit so'zlar: autosom-retsessiv monogen kasallik, prenatal va postnatal diagnostika, noinvaziv usullar, differensial diagnostika, tibbiy-genetik maslahat, kista fibrozi, transmembran regulyator gen, prognoz.

Monogen kasalliklar ichida autosom-retsessiv tipda irsiylanuvchi mukovissidoz (ikkinchi nomi kista fibrozi) uchrash chastotasi, oqibat va asoratlari jihatidan aholi populyatsiyasiga jiddiy xavf solib kelmoqda. Uning jinslarda tarqalish nisbati 1:1, avlodlarda yuzaga kelishi 25% ni tashkil qiladi. Mazkur kasallik shakllarining uchrash foizi quyidagicha:

1. Myekonyeal ilyeus shakli 1-2%;
2. Oshqozon-ichak shakli 5 %;
3. O'pka shakli 15-20 %;
4. Aralash shakli 75-80%;

Yosh ko'rsatkichlari bo'yicha bolalar hayotining dastlabki yillarida uchrashi 90-94%, voyaga yetgan yoshdagi aholida namoyon bo'lishi esa 6-10% ni tashkil etadi. 30-40 yil

oldin balog'at yoshiga yetgan bemorlar deyarli uchramasdi. Shu sababdan ham oldinlari bu kasallik faqat bolalar uchun xos deb tahmin qilingan. Kasallarning o'rtacha umr ko'rish yoshi 30, yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 40 yoshga, Kanada va AQSHda 48 yoshga, Rossiyada 22-30 yoshga yetadi. Mukovissidozga qo'shimcha ikkilamchi, yondosh nafas infeksiyalari, hazm organlaridagi patologiyalar, poligipovitaminoz, poliorgan yetishmovchiligi, metabolik kasalliklar, sinusit, kistalar, pankreatit kabilar o'lim chaqiruvchi omillar sanaladi. O'lim darajasi 50-60%ni tashkil etadi. 2010-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra kistoz fibrozidan aziyat chekuvchilar eng ko'p uchraydigan davlatlar o'ntaligini Rossiya(2186 kishi), Avstriya(227 kishi), Belorussiya(150 kishi) uchligi boshlab bergan.

Hozirda olimlar mukovissidozga sabab bo'luvchi transmembran regulyator genda 600 ga yaqin mutatsiyalarni aniqlashgan, ularning uchrash foizi oq tanlilar-yevropoid irqida yuqori ko'rsatkichga egaligi ma'lum, ammo buning ilmiy asosi o'rganilmagan. Yosh bolalarda kattalarga nisbatan ko'proq uchrash sababi esa kasallikning tez rivojlanib, bemor ulg'aymasdan o'lim kuzatilishi bilan bog'liq. Kasallikning ko'p uchrashini, salbiy holatlarini oldini olish, o'lim darajasini kamaytirish bo'yicha qo'llaniladigan terapevtik davo choralari ko'p hollarda bemorlarning umumiy ahvolini biroz yaxshilashi mumkin, biroq butunlay og'riq va asoratlardan holi qilolmaydi va oqibatda depressiya, nerv zo'riqishlar bemorni umrini yanada qisqartirib, o'limni tezlashtiradi. Buni raqamlarda ifodalangan statistikasini tahlil qiladigan bo'lsak, irsiy kasalliklar ichida mukovissidoz bilan xastalanganlar orasida organizm zaifligi oqibatida baxtsiz hodisa holatlari 0,5-1%, depressiya natijasidagi suitsid holatlari esa 1-1,5%ni tashkil etadi.

Mukovissidozni erta aniqlash va tashxis qo'yish hamda shunga mos chora-tadbirlar o'tkazishda prenatal(homiladorlik davridagi), postnatal(bola tug'ilgandan so'ng) diagnostika va profilaktika, tibbiy genetik maslahat kasallikkka qarshi eng samarali usullardan hisoblanadi.

Prenatal diagnostika quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Homiladorlikning 17-22 haftalarida noinvaziv usullardan UTT(Ultratovush tekshiruvi) o'tkazish;

2. Mutant genni PZR(Polimeraza zanjir reaksiyasi) usulida aniqlash;
3. Homilador qon zardobida AFP, xorion gonadotropin, birikmagan estradiol, atsetilxolinesteraza miqdorini skrining orqali aniqlash;

Postnatal diagnostika esa quyidagicha o'tkaziladi:

1. Chaqaloqlar qonida immunoreaktiv tripsin miqdorini aniqlash;
2. Ter sinamasi(pilokarpin bilan elektroforez qilinib, ter suyuqligi yig'iladi va undagi Na va Cl konsentratsiyasi aniqlanadi) 1yoshgacha bo'lgan bolalarda 40 mmol/l dan, 1 yoshdan katta bo'lgan bolalarda esa 60 mmol/l dan yuqori ekanligi aniqlanadi;
3. Koprogrammada ko'p neytral yog'lar, kamroq miqdorda yog' kislotalari aniqlanadi;
4. Shvaxman sinamasi(Rentgenplyonkali test) o'tkaziladi;
5. Duodyenum shirasida lipaza, tripsin, diastazaning faolligini kamayishi kuzatiladi;

Diffirensial diagnostika quyidagilar bilan o'tkaziladi;

- Seliakiya, disaxaridaza yetishmovchiligi, ekssudativ enteropatiya, surunkali, nospetsifik bronx-o'pka kasalliklari, surunkali ovqatlanishni buzulishi kasalliklari;

Prenatal profilaktika quyidagicha o'tkaziladi:

- Emlash taqvimiga muvofiq emlash (shu jumladan yillik grippga qarshi emlash);
- Respirator infeksiyani yuqtirish xavfini kamaytiradigan dorilarni qo'llash;
- Faol turmush tarzi, shu jumladan sport (yugurish, suzish, chang'i, velosiped, voleybol, badminton, tennis va boshqalar);
- Parhez;
- Barcha kerakli tekshiruvlar va testlarni o'tkazish bilan shifokor tomonidan muntazam kuzatuv.

Tibbiy-genetik maslahat o'tkazish tartibi:

- Maxsus tibbiy muassasa tibbiy genetik maslahatxonalarida qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tufayli kelib chiqadigan anomaliyalar, geterozigotali irsiyatga ega erkak va ayollar turmushida farzandlarning xastalik bilan tug'ilish ehtimoli borligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borish;

- Agar oilada irsiy patologiyali bola tug'ilib o'lgan bo'lsa yoki buning gumoni bo'lsa, oilaning bir nechta a'zolarida o'xshash patologik alomatlar yoki kasalliklar, ba'zi ovqatlarni yoki dorilarni ko'tarolmaslik holatlari kuzatilganda;
- Bolalarda jismoniy va ruhiy rivojlanishdan ortda qolish, har xil tug'ma rivojlanish nuqsonlari kuzatilganda, homiladorlikning odatda oxirigacha yetmasligi, spontan abortlar, bola tushishi, o'lik tug'ilish holatlarida;
- Homiladorlikning 3 oyigacha teratogenlar ta'siri kuzatilganda, er-xotinlar qonqarindosh bo'lganda, raxit kasalligini og'ir kechishi va davolashga berilmasligi;
- Oilaviy nevrologik kasalliklar(mushaklarning rivojlanmasligi, to'g'ri yura olmaslik, titrash) kuzatilganda;

Ko'pchilik sog'liqni saqlash tizimi yaxshi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda TGM(Tibbiy genetik maslahat) 3 darajada o'tkaziladi:

1. Oddiy holatlarda avlod prognozi oilaviy shifokor tomonidan aniqlanadi;
2. Murakkabroq holatlarda prognozni yirik tibbiyot markazida ishlovchi genetik shifokor aniqlaydi;
3. O'ta murakkab holatlarda prognoz maxsuslashtirilgan genetik maslahatxonalarida aniqlanadi;

TGM maslahatlari ham o'z navbatida passiv va faol turda amalga oshiriladi. Passiv maslahat genetik vrachdan o'z xohishi bilan yordam so'rab kelgan kam foiz aholigagina konsultatsiya o'tish, faol maslahat esa tibbiy genetik tavsiya va ko'rsatmalarga muhtoj har bir aholi qatlamini topib, ular o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishdir. Ayniqsa aholi irsiy kasalliklar haqida kam bilim, tushunchaga ega bo'lgan bizning sharoitda faol maslahat juda muhimdir. Umumiy profildagi TGM shtatiga genetik-shifokor, sitogenetik va genetik biokimyoviy kirishi lozim. Probandni va uning ota-onalarini birlamchi ko'rikdan o'tkazish uchun 1,5-2 soat, takroriy ko'rik uchun 30 daqiqa vaqt ketadi. Ish kuni davomida genetik-shifokor 5 ta oilani qabuldan o'tkazishi mumkin. TGMga shifokor yo'llanmasisiz, o'zlari mustaqil murojat qilganlar 10%dan 50% gachani tashkil qiladi. TGMga murojat qilganlarning 90%i sog'lom bola ko'rishni, 10%i esa kasal bolasini davolash uchun kelishadi. Bundan kelib chiqadiki, aholining tibbiy madaniyati yetarli darajada emas, avvalo turmush qurish niyatida

bo'lgan yoshlarning genotipik va fenotipik belgi hamda xususiyatlarini tahlil qilish orqali kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan irsiy kasalliklarni turli zamonaviy genetik tekshiruv usullari orqali aniqlash nafaqat bir oilada tug'ilishi ehtimoliy kasal farzandlarni oldini olish, balki jamiyatda sog'lom muhitni yaratishga qodir ekanligini hamma birdek tushunib yetishi kerak va buning uchun profilaktik vrachlar, tibbiy genetiklar mas'uldir.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan rivojlangan mamlakatlar tajribasida qo'llanilgan TGM markazlari faoliyatini Respublikamiz hududida to'g'ri yo'lga qo'yish, mavjudlarini ish rejasini ham yanada takomillashtirish, maxsus kichik tibbiyot xodimlari yosh oilalar ro'yxatida turuvchi barcha xonadonlarda targ'ibot tushuntiruv ishlarini olib borishlari, har bir hudud uchun mas'ul QVPlarda homilador ayollarni muntazam ko'rikdan va irsiy kasalliklarga gumon qilingan holatda maxsus tekshiruvdan o'tkazishni keng yo'lga qo'yish, bu orqali kasallik prenatal davridayoq aniqlanib, oldini olish, populyatsiyada takrorlanish ko'rsatkichini sezilarli darajada kamaytirishga erishilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Рейдерман М. И. Муковисцидоз: (Генетика, патогенез, клиника). — М.: Медицина, 1974. — 112 с.
- 2) Муковисцидоз у детей и взрослых. Сборник По материалам X национального конгресса «Муковисцидоз у детей и взрослых», 1-2 июня 2011, г. Ярославль
- 3) Липпикотт Р., Дотри М., Иаконис Т. В метре друг от друга. — 2019.
- 4) Юрий Лазаревич. Почему в Беларуси больные муковисцидозом умирают молодыми?. Заўтра тваёй краіны (5 октября 2011). Дата обращения: 16 июня 2016
- 5) Муковисцидоз: определение продолжительности жизни. usefulnurse.ucoz.ru (3 мая 2009). Дата обращения: 16 июня 2016.
- 6) "Tibbiyot genetikasi" K.N.Nishonboyev, O.E.Eshonqulov, M.Sh.Bosimov 176-192;
- 7) "Genetika" P.R.Olimxo'jayeva, D.R.Inog'omova

ОРОЛ ДЕНГИЗИ ХУДУДИДА ТАРҚАЛГАН ТУПРОҚЛАРНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШИ ВА МЕХАНИК ТАРКИБИ

Каттаева Гулноза Норқуловна

Тупроқшинослик ва агрокимё илмий – тадқиқот институти таянч докторанти

gulnozakattayeva@mail.ru

Аннотация. Оролни қуриган тубдан ҳар йили 75 млн тонна қум, 65 танно юпка дисперсион чанг ва туз кўтарилади. Орол денгизи тупроқ механик таркиб жиҳатидан бир биридан фарқ қилиб оғир ва ўрта, майда кумоқлидир. Орол денгизининг қуриган тубидаги тупроқ-грунтларни механик таркиби Н.А. Качинский усулида гексометофосфат диспергатори ёрдамида аниқланди.

Калит сўзлар. Орол денгизи, тупроқлар, механик таркиби, қолдиқ ўтлоқи, экологик инқироз.

Табиий муҳит ҳолатининг инсон таъсирида ўзгариши, жонли ва жонсиз компонентларга кучли антропоген таъсир маҳаллий, минтақавий ва умумжаҳон экологик муаммоларни келтириб чиқаради. Жумладан, шу каби таъсирлар натижасида, минтақадаги экологик инқирознинг энг ҳавfli ҳисобланган "Орол муаммоси" юзага келган. Оролни қуриган тубидан юпка дисперсион чанг ва туз кўтарилади. Унинг натижасида Оролбўйи ва қўшни худудлардаги яйловлар махсулдорлиги ва экиладиган экинлар ҳосилдорлигининг пасайишига олиб келди. Орол ва Оролбўйи муаммосини ечишда Оролни қуриган тубида ихота саксовулзорларини барпо этиш натижасида қум кўчиши, чанг кўтарилишини олдини олиниши мутахассислар томонидан таъкидланган [1].


Орол денгизи худудида тупроқларнинг механик таркиби катта амалий аҳамиятга эга. Чунки бу тупроқлар бўз тупроқларга қараганда ўзининг вертикал кесмасида жуда мураккаб механик таркибга эга, тупроқлари кесмаси бўйича қумли, қумлок, қумоқ ва соз бўлибгина қолмасдан, балким қават-қаватли ўта мураккаб механик таркиблидир. Кесмасининг устки қатламидан пастга томон

оғирлашиб ёки енгиллашиб бориши ҳамда, қават-қават тез алмашинуви (қумли-соз-қумоқ; қумоқ- қумлоқ-соз-шағал ва ҳақозо) кузатилади[2].

Тупроқнинг қаттиқ қисми ҳар хил ўлчамдаги механик заррачалардан иборат. Улар тоғ жинслари, минералларнинг бўлаклари, шунингдек, тупроқ ҳосил бўлиш жараёнида ҳосил бўладиган турли хил минерал, органик ва органик – минерал бирикмалар.

Тупроқдаги механик заррачаларнинг турли фракциялари турли хил хусусиятларга эга, шунинг учун ҳам тупроқнинг механик таркиби кўп жиҳатдан унинг энг муҳим хоссаларини тавсифлайди, яъни, ғоваклик, сув-физик хоссалари, иссиқлик хоссалари, тупроқнинг структуравийлиги, кимёвий таркиби, сингдириш қобилияти, биологик фаоллиги ва унумдорлиги кабиларни.

Шу боис, тупроқнинг механик таркиби тупроқ ҳосил бўлиш жараёнида ва ерлардан қишлоқ хўжалигида фойдаланишда муҳим ўрин тутди. Тупроқнинг механик таркиби физик лой ва физик қумнинг нисбати билан белгиланади, унинг ёрдамида тупроқ намлигини ва озиқ моддаларни ўсимликлар томонидан ўзлаштирилиш даражасини сезиларли равишда аниқлаш мумкин. Шундай экан, механик таркибни тўғри аниқлаш тупроқнинг унумдорлик элементларини англаш ва уни ошириш бўйича чора тадбирлар ишлаб чиқиш учун муҳим ҳисобланади [3].



1-расм. Қолдиқ ўтлоқи тупроқларни механик таркибининг диаграммаси

Орол денгизи тупроқ механик таркиб жиҳатидан бир биридан фарқ қилиб оғир ва ўрта, майда кумоқлидир. Орол денгизининг қуриши натижасида ҳосил бўлган кенг қуруқликларда тупроқлар энди бошланғич тараққий этиш босқичини бошдан кечирмоқда.

Хулоса. Олинган маълумотлар шундан далолат берадики, тупроқларнинг юқори қатлаמידан пастга томон оғирлашиб борганини кўришимиз мумкин. Тупроқларнинг механик таркиби бўйича маъмурий ва геоморфологик туманлар ўзига хослиги билан ажралади. Тупроқлар механик таркиби бўйича кумлардан, кумлоқлардан, енгил кумоқлардан, ўрта кумоқлардан, оғир кумоқлардан, лойлардан иборатдир. Бундан кўриниб турибдики хилма-хиллик бир томондан тупроқ ҳосил қилувчи жинсларнинг келиб чиқиши билан боғлиқ бўлса, иккинчи томони инсониятнинг маданий ирригацион фаолияти билан боғлиқ. 1990-йилдан бошлаб оқимнинг тўхтаб қолиши ва дельтада гурунт сувлари чуқурлигининг пасайиши натижасида бу тупроқлар қуриш ҳамда чўлланиш жараёнлари бошланди, Бу тупроқларда рўй берган жараёнлар натижасида, автоморф тупроқ ҳосил бўлиш босқичига ўтган ва улар қолдик-ўтлоки-тақирли ва кумли тупроқларга айланди, Бу тупроқларнинг горизонтида кумлар, кумлоқ ва кумлар кетма кет алмашилиб жойлашган бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1]. Р.Қ. Қўзиев, Н.Ю. Абдурахманов, Б.Р. Рамазонов. Орол бўйи ҳудудларининг тупроқ ресурслари ва улардан самарали фойдаланишнинг илмий асослари. Тошкент, “Зилол булоқ” нашриёти. 2020 й. – 204 б.

[2]. Папов В.Г., Сектименко В.Е., Турсунов А.А. Изменение почвенного покрова современной дельты Амударьи под влиянием антропогенного опустынивания. Ташкент. Изд-во ”Фан” АН Республики Узбекистан. 1992. С. 82.

[3]. Жоллыбеков Б.Б., Жоллыбеков М.Б. Изменение содержания воднорастворимых солей на орошаемых почвах Каракалпакстана. ТАИТИ, Ўзбекистон тупроқшунослар ва агрохимёгарлар жамиятининг IV қурултойи материаллари, Тошкент 2005. Б. 153-154.

CHAKILKALYAN TOG‘LARINING PLITA ICHI MAGMATIZMI JARAYONIDA OLTIN MA‘DANLASHUVI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Qarshi, O'zbekiston, sultonovshuxrat87@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Chakilkalyan tog‘lari plitalar harakati natijasida oltin mineralining hosil bo‘lishida plita ichi magmatizmi jarayonida hosil bo‘lgan foydali qazilma mahsulotlari hudud bo‘ylab tarqalganligi haqida ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: plita ichi, magmatizm, postgeosinklinal , intruziya, plyum, tog` jinsi, kollizion, subduksion, minerallashuv, dayka, petrografiya, petrokimyo, geokimyo.

Plitaichi magmatizmi – o‘ziga xos geologik hodisa bo‘lib turli burmali hududlarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlangan – “postgeosinklinal magmatizm”, “postbatolit magmatizm”, “postorogen magmatizm”, “postkollizion magmatizm”, “epiorogen magmatizm”, “epiplatforma magmatizmi”, “subsekvet magmatizm”, “antidrom tektonomagmatik faollashuv”, “mayda porfirli intruziyalar va regional daykalar bosqichi” [6].

Yirik burmali oblastlarning plitaichi magmatizmi mahsulotlariga turli xil portlash trubkalari va ishqorli (kam ishqorli) gabbroidlar (bazaltoidlar), karbonatitlar va lamproitlar, traxitlar, elvanlar, ongoriolitlar, monsonitlarning kichik intruziyalari, siyenitlar va litiy-ftoritli granitoidlar daykalarining ko‘p sonli hosilalari kiradi.

Plitaichi magmatizmining mahsulotlari, katta bo‘lmagan hajmlariga qaramasdan, keng tarqalgan va ahamiyatli maydonlarni egallagan; vaqt bo‘yicha ular oldingi kollizion va subduksion granitoidlardan keskin ajralgan.

Plitaichi magmatizmini tushuntirish uchun qaynoq nuqtalar gipotezasi taklif qilingan – mantiya oqimi (plyumlar). Plyumlarning yuzaga kelishi fazali to‘siqlardagi

va asosan yadro/mantiya chegarasidagi termokimyoviy jarayonlar bilan bog‘liq, ular kirib keladigan konveksion oqimlarning ham doimiy, ham davriy yuzaga kelishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [14].

Geofizik maydonlarda “qaynoq nuqta” turli chuqurlikdagi “yuqori tezlik” anomaliyalari seriyasi bilan qayd qilinadi. Ularning tarkibini rekonstruksiya qilish uchun 350 dan ortiq namunalar o‘rganilgan. Aniqlanganki, mintaqaning markaziy qismida yuqori paleozoyda periferik (sirtqi) magmatik kameralarning baquvvat kolonnasi shakllanadi, va ulardan bir qismigina yer yuzasiga intruziv massislar ko‘rinishida chiqadi.

Shunday qilib, plitaichi magmatizmi o‘zining vujudga kelishi bilan mantiya plyumiga majbur. Magmatizmning antidrom xarakteri (asos jinslarning dakalari va sillarining butun maydon bo‘ylab tarqalgan, keng kompleksini vujudga kelishi) cho‘kayotgan D1 va S1 sleblarning qismlarini uzoqlashishi haqidagi taklifni [5] aytish imkonini beradi, bu mantiya (astenosfera?) plyumining ko‘tarilishiga va uning permdan burgacha avtonom rolga olib kelgan.

Plyum shakllanishining muhim detali sifatida mantiya magmatizmi mahsulotlarining ishqorli bazaltoidlarning dayka-diatremli kompleksiga va ishqorli gabbroidlarning lamprofirlar formatsiyasiga (mintaqaviy tarqalgan kompleks) birlashgan tarqoq xarakteri avvalroq I.V.Mushkin tomonidan qayd etilgan [10].

Mintaqaning ertapermda rivojlanish bosqichi har xil turdagi magmatik va tektonik hodisalarning (nordon va subishqor bazaltli vulqon, kichik chuqurlikdagi granitoid plutonizm, poyaslar, galalar va bog‘lamlarni hosil qilgan daykalarining ko‘p marotaba chiqishi) murakkab birgaligi bilan xarakterlanadi. Nordon subishqorli granitoidlarning kirib kelishi mintaqaning gomodrom rivojlanish bosqichini yakunlaydi. Aynan ana shu oraliqda mintaqaning kechki orogen rivojlaning bosqichi bilan permning ikkinchi yarmidan bur davrini o‘z ichiga olib shakllangan, tarqoq subishqor vulqon, plutonizm va ko‘p sonli daykalar bog‘lamiga ega bo‘lgan plitaichi bosqichi o‘rtasidagi chegara o‘tadi [5].

Mintaqaning magmatik faolligi quyi mezozoyda subplatforma sharoitlarida yer qobig‘ining chuqurlikdagi bo‘laklari chetlari bo‘ylab, daykasimon tanalar va

kimberlitga o‘xshash portlash trubkalarini hosil qilgan, mantiya subishqor-bazaltoid magmaning kirib kelishi bilan yangilanadi. Yuqori paleozoy granitoidli va liparit-traxiandezitli magmatizmining erta mezozoyda subishqor-bazaltoidli bilan almashinuvi palingen mazma hosil bo‘lish zonasining chuqurlashishidan guvoh berishi mumkin.

Magmatik va ma‘dan-magmatik formatsiyalarning masshtablari va moddiy tarkibini vaqt bo‘yicha o‘zgarish davriyligi yuqori mantiyaning issiqlik o‘yg‘onishini faollik va impulsliylilik funksiyasi hisoblanadi.

Ta‘kidlash lozimki, jinslarning ultrabazit-bazit assotsiatsiyasi O‘OTda (o‘rta-okean tizmasi) va turkiston paleookeani havzasining faol chetlarida (tarqoq spreading zonalarini hosil qilib) geodinamik evolyutsiyaning ertachi bosqichlarida chuqur geodinamik jarayonlarning namoyon bo‘lishi natijasi hisoblanadi, kechki bosqichlarda esa – plitaichi vaziyati [4]. Bunda ultrabazit-bazit jinslar magmalarining manbayi yuqori mantiya hisoblangan.

Plitaichi vaziyati Janubiy va O‘rta Tyan-Shan chegarasida erta mezozoy ishqor-bazaltoidli jinslarining ahamiyatli rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday hosilalarning birinchi topilmalari – monchiklar va kamptonitlar Janubiy Tyan-Shanning sharqida Toyun daryosi havzasida (Qirg‘iziston) XX asrning boshidayoq bajarilgan [2]. Keyinroq shunga o‘xshash jinslar Markaziy Tojikiston chegarasida aniqlandi [11]. Shunda ularning brekchiasimonligiga va gabbro, teralitlar va piroksenitlar turidagi to‘liq kristallangan jinslarni yetarli darajadagi ko‘p sonli mayda aralashmalarining miqdoriga etibor qaratilgan [3]. Eruptiv brekchiyalar va pikritli porfiritlarning tufobrekchiyalaridan tashkil topgan odatdagi diatremalar va portlash trubkalari 1961 yilda geolog V.M.Breyvinskiy tomonidan Karategin tizmasining suv ayirg‘icholdi qismlarida Tuvish daryosining yuqori oqimlarida topilgan (Tuvish trubkasi). Trubkalar jinslarining petrografik identifikatsiyasi u tomonidan I.V.Mushkin va boshqa geologlar bilan birgalikda amalga oshirilgan [7, 8].

Bu tadqiqotchilar tomonidan erta mezozoy ishqorli-bazaltoidlar formatsiyasiga kiritilgan, ishqorli va subishqorli magmatizm jinslarining Janubiy-Xisor, Nurota, Xisor-Alay va Bukantau subprovinsiyalari ajratilgan [9, 10]. Keyinchalik ishqorli

bazaltoidlar boshqa mintaqalarda ham aniqlandi (Kugitang, Xisorning janubi-gʻarbiy tizmasi, Yagnob daryosi havzasi).

Chakilkalyan togʻlarida plitaichi bosqichining hosilalari ikkita assotsiatsiya jinslarini birlashtiradi: oʻzining tarkibiga dioritli porfirtilar, amfibolli minetlar, kersantitlar, spessartitlar va piroksenli vogeziatlarni olgan lamprofirli hamda esseksit-diabazlar, kamptonitlar, monchekitlar va ularning oʻtish turlari bilan namoyon boʻlgan ishqorli-bazaltoidlar.

Sukar massivining monchekitlari ilk bor M.M.Posoxov va YE.I.Sigalovlar (1949 g.) tomonidan tavsiflangan. Keyinchalik tematik ishlarni oʻtkazish jarayonida [12, 15] plitaichi magmatizmining jinslari ishqorli (subishqorli) bazaltoidlar va kaynotip lamprofirlarning asosan daykalar koʻrinishidagi Chakilkalyan togʻlarining turli qismlarida aniqlandi. Ammo, ishqorli bazaltoidlar va lamprofirlar formatsiyasi jinslarining katta konsentratsiyasi ikkita maydonda aniqlandi: Yaxton (shimoliy-gʻarbiy sektor) va Sukar (janubiy-sharqiy sektor).

Plitaichi magmatizmini oʻrganish amaliy jihatdan juda muhim, chunki ular bilan yirik va noyob oltin, mis-nikel va polimetal maʼdanlari, olmos, apatit, temir, platina, titan, vanadiy, qalay, niobiy, tantal, sirkon, stronsiy va nodir yer elementlarining konlari bogʻliq [1].

Burmali oblastlar plitaichi magmatizmining metallogenetik natijasi Avstraliya olimi F. Pirajnoning ishlarida keng yoritilgan. U yirik mantiya plyumlari va ular bilan bogʻliq plitaichi magmatik jarayonlari va madanli sistemalarini planetar miqyosda tadqiqot qilib, burmali oblastlar plitaichi magmatik sistemalarining Ti, K, R, Y, Nb, Th, U, F, Ba, nodir yer elementlariga maʼdanliyigini koʻrsatdi. U tomonidan yirik mis-oltin maʼdanli (Ernest Genri), oltin maʼdanli (Telfer), besh elementli – Fe-Cu-Au-REE-U (Olimpik-Dam) konlarining, shuningdek, krasnomor turidagi sulfidli maʼdanlashuvi, karlin turidagi gidrotermal oltin maʼdanlashuvining genetik modeli ishlab chiqildi. Bu maʼdanli gigantlarning hosil boʻlishini F. Pirajno mantiya plitaichi maʼdan-magmatik sistemalar bilan bogʻlaydi.

Amerika va Avstraliya olimlarining maʼlumotlariga koʻra, Olimpik-Dam (Avstraliya) konining kompleks maʼdanlashuvi plitaichi vaziyatida shakllangan

ishqorli granitoidlar bilan assotsiatsiyalashgan siyenitoidlar bilan bog‘liq. Ular tomonidan zonal-bog‘langan porfirli va epitermal oltin konlarining siyenitoid intruziyalar birga tabiatda mavjudligi tasdiqlandi. Ularning fikrlariga ko‘ra, Kolorado intruziv-bog‘liq magma-ma‘dan-metasomatik sistemalarni o‘rganish misolida isbotlanganki, qimmat baho metalli porfir-mislilardan yuqorida va chetlari bo‘ylab shakllanishi mumkin bo‘lgan, ishqor-intruziv-bog‘liq sof oltin epitermal sistemalar birgalikda mavjud bo‘ladi. Bunday o‘zaro munosabatlar ma‘danlashuv siyenitlar, latitlar, lamprofirlar, mafik pegmatitlarni o‘z ichiga olgan ishqorli katta bo‘lmagan intruzivar komplekslari bilan bog‘liq Britaniya Kolumbiyasidagi Tudogona va Sulfureta ma‘danli maydoglarida qayd qilingan.

Karlin turidagi konlarning mantiya plitaichi magmatizmi bilan bog‘liqligi haqida birinchi marta Oppilger, Murphy i Brimhallarning hamkorlikdagi ishida ko‘rsatilgan [14]. Bu olimlarning tasavvurlariga ko‘ra, Nevadada (AQShning g‘arbiy qismi) joylashgan karlin turidagi konlarning kelib chiqishi Yelloustoun mantiya plyumining v eotsendagi faoliyati bilan bog‘liq. Uning ta‘siri kontinental litosferaning termik va metasomatik zaiflashuviga va plitaichi magmatizmining yuzaga kelishi, so‘ngra yuqori mantiyada gidrotermal eritmalarning konvektiv sirkulyatsiyalanishiga olib kelgan.

Plitaichi siyenitoidlari bilan bog‘liq jahon darajasidagi oltin konining bir misoli – Ontariodagi Kirklend Leyk koni. E.M. Cameron [13] oltinni chuqur kirib boradigan siljish zonalari bo‘ylab ma‘dan to‘planish joylariga tashiydigan, SO₂ ustun bo‘lgan flyuidlar bilan boyigan, siyenitoidli (ishqorli) magmaning mantiya generatsiyasi bilan bog‘liq konlarning hosil bo‘lish modelini taqdim qildi.

Shunday qilib, burmali oblastlarning plitaichi magmatik jinslarini qiyosiy tahlili ularning tabiati va hosil bo‘lish jarayonlarini hamda ular bilan bog‘liq ma‘danlashuvni chuqurroq tushinish imkonini beradi. Ushbu muammoni har tomonlama ko‘rib chiqish fundamental tadqiqotlarning juda dolzarb vazifasi hisoblanadi va plitaichi magmatizmi mahsulotlari orasida nodir, kamyob va noyob yer metallarining ma‘danli hosilalari rivojlanishi bilan bog‘liq holda amaliy ahamiyatga ega.

Aniq belgilangan geologik pozitsiyalarga ega va ko‘pincha ma‘danli hosilalar bilan tizimli ravishda birlashgan ishqor-bazaltoidli daykalar va portlash trubkalari mintaqaning turli xil ma‘danlashuvining genezisi va xronologik ketma-ketligining ko‘plab muammolarini aniqlashtirishga hissa qo‘shishi mumkin

Chakilkalyan tog‘lari uchun plitaichi magmatizmining ko‘plab savollari, shu jumladan, oltin va nodir metal ma‘danlashuvni bashoratlash uchun muhim bo‘lgan, ishqorli bazaltoidlar va lamprofirlar formatsiyasi jinslarining geokimyoviy va metallogenik ixtisoslashuvi kabi masalalar yechilmagan.

Ishqorli bazaltoidlar va lamprofirlar formatsiyasi jinslarining batafsil tavsifi (petrografik, petrokimyoviy, mineral-aksessor va geokimyoviy) va plitaichi magmatizmining potensial ma‘danliyligi bo‘yicha undan kelib chiqadigan xulosalar hududda kechgan plita ichi magmatik jarayonlar hisobiga oltin ma‘danlari hosil bo‘lganligini korishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахунджанов Р., Мамарозиков У.Д., Усманов А.И. и др. Петрогенезис потенциально рудоносных интрузивов Узбекистана (на примере Чаткало-Кураминского и Нуратинского регионов). – Т.: Фан. 2014. – 352 с.

2. Ганиев И.Н. Магматизм внутриплитного этапа развития Тянь-Шаня // Эволюция геологических процессов Тянь-Шаня. Мат-лы междунар. конф. – Т.: Университет, 1996. – С. 73-74.

3. Гапеева Г.М. Камптониты Тоюна (Южный Тянь-Шань). – Зап. Всес. мин. общ., 1949, ч.78, вып. 2, С.104-114.

4. Далимов Т.Н., Ганиев И.Н., Ишбаев Х.Д. Внутриплитный магматизм и эволюция земной коры Срединного Тянь-Шаня // Петрология и рудоносность магматических формаций складчатых областей. – Ташкент: Университет, 2000. – С. 6-8.

5. Далимов Т.Н. Эволюция и модель развития Чаткало-Кураминского плюма // Геология и минеральные ресурсы. – 2007. - № 3. – С. 3-18.

6. Мамарозиков У.Д. Состояние изученности проблемы рудоносности внутриплитного магматизма Среднего Тянь-Шаня // Геология и минеральные ресурсы – 2017. - № 1. С. 19-28.

7. Мушкин И.В., Брейвинская В.М., Кутенец В.А. – Петрохимические особенности и некоторые вопросы генезиса субщелочных габброидов и базальтоидов Южного Гиссара (Южный Тянь-Шань). – Сб. "Вопросы петрохимии", Л., 1969, с.361-363.

8. Мушкин И.В., Ларин Н.М., Старцев О.А., Деутов А.М. – Тералитопикритовая ассоциация Северного Нуратау (Зап.Узбекистан). – Узб. геол. журнал, 1971, № 1, с.80-82.

9. Мушкин И.В. Раннемезозойская щелочно-базальтоидная формация и проблемы состава гранулит-базитового слоя и верхней мантии южного Тянь-Шаня: Автореф. дис. докт. г-м. наук. - Новосибирск, 1977, 52 с.

10. Мушкин И.В. Петрология верхней мантии Южного Тянь-Шаня. – Т. Фан. 1979. – 136 с.

11. Хасанов А.Х. К вопросу о происхождении щелочных пород Центрального Таджикистана (Южный Тянь-Шань) // "Вопросы геологии Таджикистана", - 1973, - вып. 3, С.134-148.

12. Шпотова Л.В., Ушаков В.Н. Палеозойский щелочно-базальтовый вулканизм запада Южного Тянь-Шаня // Т.: Фан, 1981. – 150 с.

13. Cameron E.M. Alkaline magmatism at Kirkland Lake, Ontario // Geological Survey of Canada, Paper 90-1C, 1990. - P. 261-269.

14. Courtillot V., Olson P. Mantle Plumes Link Magnetic Superchrons to Phanerozoic Mass Depletion Events // EPSL. 2007. Vol. 260. № 3/4. P. 495-504.

15. Диваев Ф.К., Юдалевич З.А. и др. Отчет по теме «Фациально-формационный анализ интрузивных (гранитоидных) образований Западного и Южного Узбекистана в свете их рудоносности» // Ташкент, 1984. – 572 с.

OG‘IR NEFT VA TABIIY BITUM QAZIB CHIQRISHNING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI

Yarboboyev To‘lqin Nurboboyevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

Qosimova Karima Yodgor qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya. Maqolada og‘ir neft va tabiiy bitumlarni qazib chiqarishda yuzaga keladigan ba‘zi ekologik muammolar, va og‘ir neft va tabiiy bitumlarni qazib chiqarishni biosferaga salbiy ta‘sirini kamaytirish usullari muhokama qilingan. Muammoning iqtisodiy va ekologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu turdagi uglevodorod xom ashyosini o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladigan usullarning ekologik xavfi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: zaxiralar, biosfera, ekologiya, geoekologiya, qazib chiqarish, og‘ir neft, tabiiy bitum, texnologiya.

Atrof muhitning tabiiy holatiga iqtisodiyotning barcha tarmoqlari juda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ammo bugungi jiddiy holatda sanoatning rivojlanishi atrof muhit uchun nisbatan halokatli hisoblangan eng muhim turlarini alohida ajratish maqsadga muvofiq.

Uglevodorod xomashyo konlarini o‘zlashtirish geologik-qidiruv, burg‘ilash va qurilish ishlari, magistral quvirlar, yo‘llar o‘tkazish, shahar va aholi turar joylarining kengayishi, mahalliy sanoatning rivojlanishi bilan birgalikda boradi. Umumiy holda neftgaz qazib chiqarish hududlari chegarasida manbalari va turlarining yuzaga kelish usullari va xarakteriga ko‘ra tabiiy atrof muhitga ahamiyatli miqdordagi turlicha texnogen ta‘sir ko‘rsatish omillari mavjud.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy bosqichi tabiiy resurslardan foydalanish miqyosining ortib borishi, tabiat va jamiyatning o‘zaro ta‘sirlashuv jarayonini keskin

murakkablashishi, tabiatga texnogen ta'siri tufayli o'ziga xos tabiiy-antropogen jarayonlarning yuzaga kelish doirasining jadallashuvi va kengayishi bilan ajralib turadi.

Geoekologiya va tabiiy resurslardan foydalanish o'zaro chambarchas bog'liq: jarayonlarni (tabiiy va antropogen) global darajada tushunmasdan tabiiy resurslardan barqaror foydalanib bo'lmaydi. Geoekologiya va tabiiy resurslardan foydalanish orasidagi asosiy farq shundaki, geoekologiya juda murakkab tabiiy sistemalarni (eko-, geosistemalar) tushinishga yuqori darajada yo'naltirilgan, tabiiy resurslardan foydalanish esa – resurslardan oqilona foydalanishga. Tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy asoslangan tamoyillarini to'liq hisobga olmaslik yoki e'tiborsiz qoldirish tabiat va iqtisodiyotda jahonning aksariyat regionlari uchun xarakterli bo'lgan ko'p sonli krizisli holatlarga olib keladi [1].

Geoekologiya geologik-geofizik muhitni uning tabiiy tashkil etuvchilari (atmosfera, biosfera, gidrosfera) bilan bog'liqlik qonuniyatlarini o'rganish hamda tabiiy resurslardan foydalanishda insonlarni turli faoliyatining ta'sirini baholash imkonini beradi.

O'tgan o'n yilliklar mobaynida jahonning bir qator neft qazib chiqaruvchi mamlakatlari zaxiralarining tuzilmasida olinishi qiyin bo'lgan (noan'anaviy), shu jumladan og'ir yuqori qovushqoq neftlar va tabiiy bitumlarning ulushi ahamiyatli darajada oshdi. Bunday xomashyoni qazib chiqarish ularni zaxiralarning umumiy hajmidagi ulushiga nisbatan juda sekin ortib bormoqda. Bu disbalans xususan eski qazib chiqarish regionlari uchun xarakterli, resurs bazasining qisqarishi va uning sifatini yomonlashuviga olib bormoqda. Bu turdagi neft resurslarini o'zlashtirish masalasi keyingi vaqtlarda konditsion neft zaxiralari hajmining kamayib borayotganligi tufayli hozirda juda dolzarb sanaladi.

Og'ir neftlar va tabiiy bitumlar aromatik uglevodorodlar, smola-asfaltin moddalarning yuqori miqdori, metallar va oltingugurtli birikmalarning yuqori konsentratsiyasi, zichlik va qovushqoqlikning yuqori ko'rsatkichlari, yuqori kokslanuvchanligi bilan xarakterlanadi. Bu qazib chiqarishning yuqori tannarxiga,

mavjud neft quvirlari orqali uzatishni amalda mumkin emasligi va neftni klassik sxemalar bo‘yicha qayta ishlashning norentabelligiga olib keladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, bunday zaxiralarni qazib chiqarish, tashish va qayta ishlash texnologiyalari anchagina murakkab va katta mablag‘larni talab qiladi. Lekin ularning tarkibini ko‘p komponentligi tufayli ularga faqatgina energiya mabayi sifatida emas, balki XXI asrning kompleks xomashyosi sifatida qarash mumkin. Ularning tarkibi uglevodorodlar va boshqa komponentlardan tashqari kamyob va rangli metallarning kondension konsentratsiyasiga ega, xususan og‘ir uglevodorodlar vanadiy xomashyosining ma‘danli manbayidan yuqori potensial manbayi hisoblanadi. Masalan, Atabaska (Kanada) konining har bir tonna og‘ir neftida 250 g vanadiy, 100 g nikel, Bokan (Venesuela) konining neftida esa 1200 g vanadiy va 150 gramm nikel mavjud. Rossiyaning aksariyat neft konlarida vanadiy, nikel, kumushning miqdori ko‘p. Samotlor konining neftida vanadiy va nikeldan tashqari oltin, xrom, marganets, temir va boshqalar mavjudligi aniqlangan. Rossiyaning turli konlarining neftida jami ellikdan ortiq qimmatbaho metallar aniqlangan. Bu uglevodorod xomashyolaridan xalq xo‘jaligi uchun muhim bo‘lgan mahsulotlarni olish mumkin.

Og‘ir uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xossalari anomalligi va eng muhimi ularning yuqori qovushqoqligi va zichligi shunga olib keladiki, an’anaviy qazib chiqarish usullari og‘ir neft va tabiiy bitumlarni qazib chiqarish uchun ko‘pincha samarasiz va bir qator holatlarda mutlaqo yaroqsiz bo‘lib qoladi. Shu sababli yuqori qovushqoq og‘ir neft va tabiiy bitum konlarini sanoat ahamiyatida o‘zlashtirish uchun ularning xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus qazib chiqarish, tashish, birlamchi tayyorlash va qayta ishlash texnologiyalari zarur. Tabiiyki, bunday texnologiyalar katta energetik va material xarajatlarni talab qiladi. Bu xarajatlar ayniqsa sovuq kuz-qish davrida ahamiyatli darajada oshadi. Shuning uchun neftning olinishi qiyin bo‘lgan zaxiralarni va tabiiy bitum konlarini o‘zlashtirishning geoekologik muammolarini yechishda jahonda to‘plangan tajribalarni tahlil etish lozim.

Qazib chiqarish usuli uglevodorodlarning xossalari va yo‘ldosh komponentlarning saqlanib qolishiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir neft va tabiiy bitum konlarini ishlatish usulini tanlashda bu negativ ta’sirlarni hisobga olish

lozim. Quduq orqali qazib chiqarish usullarini amalga oshirishda og‘ir neft va tabiiy bitumlar qatlamni qizdirish yoki qatlamga eritmalar haydash yo‘li bilan birlamchi suyultiriladi, so‘ngra quduq orqali olinadi. Uglevodorodlarni qizdirish turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Issiqlik usullari qazib chiqariladigan mahsulotning fizik-kimyoviy xossalarni o‘zgartiradi. Qatlam ichida yong‘in hosil qilish usulini qo‘llash natijasida qazib chiqariladigan neftdagi metallarning qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotilishi sodir bo‘ladi. Qatlam ichida yong‘in hosil qilish usuli amalga oshirilganda neftdagi vanadiy va nikelning o‘rtacha miqdori (boshlang‘ichdan % da) kuchli ta‘sir ko‘rsatish zonasida 38,6-39,5%, o‘rtacha ta‘sir ko‘rsatish zonasida 64,24-77,2%, kuchsiz ta‘sir ko‘rsatish zonasida 81,5-91,7% va ta‘sir etmaydigan zonada 100% ni tashkil etadi. Issiq bug‘ bilan ta‘sir etish usuli qo‘llanilganda yo‘ldosh komponentlarning yo‘qotilishi 10-15% dan oshmaydi. Kon usullarida qazib chiqarishda neft yoki bitum bilan to‘yingan jins yer yuzasiga olib chiqiladi, uglevodorodlar esa undan erituvchilar, issiq suv va bug‘ bilan va boshqa reagentlar bilan ajratib olinadi. Bunda nisbatan yuqori neft olish koeffitsiyentiga erishiladi va xomashyodan kompleks foydalanish imkoni yuzaga keladi [2, 3].

Shunday konlar borki, xomashyosi tarkibi bo‘yicha potensial zaharli, masalan, tarkibida metallar, oltingugurt yoki simobli gazlar va shu kabilarning miqdori ko‘p bo‘lgan og‘ir oltingugurtli neftlar va tabiiy bitumlar. Shuning uchun bunday turdagi UV xomashyosini o‘zlashtirishda ekologik xatarlarni baholashning birinchi navbatdagi vazifasi qidirish ishlari bosqichidayoq xomashyoning sifatini o‘rganish sanaladi. Bu ekologik xavfsiz o‘zlashtirish, qayta ishlash va foydalanish sharoitlarini oldindan belgilab berish imkoniyatini yaratadi.

Ma‘lumki, neftlarda 60 dan ortiq turli xil elementlar aniqlangan. Biologik faol zaharli elementlar orasida vanadiy, nikel, kobalt, oltingugurt, gohida uran, simob, margimush nisbatan yuqori konsentratsiyalarga yetadi. Tabiiy xomashyoda ular faol yoki xavfsiz shaklda bo‘lishi mumkin. Vanadiy va nikel og‘ir neftlarning smola-asfaltli fraksiyalarida hatto vaqtning geologik davrlari mobaynida amalda eriydigan birikmalarga o‘tmasdan konsentrsiyalanadi. Qidiruv ishlari davrida ular atrof muhitga zaharli elementlarni olib kirmaydi. Ammo shu neftlarning o‘zi qazib chiqarish va qayta

ishlashda yuqori haroratning ta'siri sharoitlarida bu elementlarni og'ir qoldiq fraksiyalarda konsentratsiyalaydi va ishlatish uchun xavfli tovar mahsulotni shakllantiradi – vanadiy-nikelli mazutlar, gudron, ba'zida bu elementlarning konditsion konsentratsiyasi bilan.

Agar oltingugurtning mavjudligi hidi bo'yicha darhol sezilsa, unda aksariyat boshqa biotoksikantlar sezilmasdan qoladi. Lekin margimush yoki radioaktiv elementlarni faqatgina maxsus tadqiqotlar yordamida aniqlash mumkin. Bu neftlarning sifatini tarkibini oddiygina o'rganishni emas, balki ularda ko'proq uchraydigan zaharli komponentlarni o'rganish lozimligini ta'kidlaydi.

Agar atrof muhitda saqlanib turish davomiyligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, masalan, serovodorodli ifloslanishni nisbatan qisqa muddatli hisoblash mumkin, og'ir neftlarning metallari esa sezilmasdan to'planadi, sekin tarqaladi, kumulyativ samarasi amalda bartaraf qilib bo'lmaydigan bo'lishi mumkin, ularning biologik ta'sirining umumiy samarasini deyarli oldindan baholab bo'laydi.

Texnogen seysmiklikning ortishi bioresurslarning buzilishiga olib kelishi mumkin [4]. Tirik moddalarning anomal reaksiyalari jarayonlarini ham hisobga olish lozim, xususan ularning biotsenoz zonalarida toksikantlar bilan boyishini. Vanadiy va nikel o'simlik bilan faol assimilyatsiyalanadi (birlashib, aralashib ketadi), tabiiy biotsiklga kirishadi, grunt suvlariga o'tadi, chang uning aralashmalari bilan nafas oladi. Ya'ni, barcha tiriklikning neftdan ajralgan metallar bilan bevosita kontaktida ko'plab imkoniyatlar yaratiladi [5].

Garchi alohida konlarning neftlarida zaharli xavfli elementlarni miqdori haqidagi aniq ma'lumotlar yetarli darajada bo'lmasada, neftlarning metalliyligini umumiy o'rganilganlik darajasi bu muammo bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlarni to'g'ri yo'naltirish uchun nisbatan yuqori.

Neftlar uchun miqdorning bu nazorati, birinchi navbatda, oltingugurt, vanadiy, nikel, kobalt, uran va margimush, gazlar uchun – serovodorod, simob va margimush bug'lari. Shu jumladan, vanadiy, nikel va uran og'ir neftlarning asfalt-smolali fraksiyalarida to'planishi mumkin.

Bu turdagi umumiy bashoratlar alohida neftgazli oblastlar chegarasida ekologik vaziyatni oldindan tavsiflash uchun foydalanilishi mumkin, ammo aniq kimyoviy-analitik tadqiqotlarsiz uyumlarning tarkibida zaharli elementlarning mavjudligi yoki yo‘qligi, konning xavfsizligi haqida xulosa qilib bo‘lmaydi.

Og‘ir neftlar va tabiiy bitumlar tugallanmaydigan tabiiy resurslarga kiradi va nisbatan qayta tiklanmaydi. Bitumlar an‘anaviy neftlarning tarkibi va xossalarini takrorlamaydi, shu tufayli iqtisodiyotning bir qator tarmoqlari uchun kompleks xomashyosi sifatida qaraladi: neft kimyosi, kimyoviy metallurgiya, qurilish va boshqalar.

Shu paytgacha bitumlar energetik va kimyoviy xossalari bo‘yicha qimmatbaho uglevodorod xomashyo sifatida qaralmagan, chunki ularni qazib chiqarish va qayta ishlashning rentabelli texnologiyalari mavjud bo‘lmagan. Aksariyat mamlakatlardagi hozircha mavjud texnologiyalar tabiiy bitumlar qazib chiqarishni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va ekologik xavfsiz qilish imkonini bermaydi.

Tabiiy bitumlarni qazib chiqarish va qayta ishlashda atrof muhit muhofazasi muammolarini yechishning eng istiqbolli yo‘nalishlari kam chiqindili (kelajakda chiqindisiz ishlab chiqarish) texnologiyalar asosida tabiiy resurslardan samarali foydalanishga o‘tish hisoblanadi. Atmosferani aralashmalarning (oltingugurt, vanadiy va nikel) chiqindilari bilan ifloslanishidan himoyalash bo‘yicha tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazishga investitsiyalarning umumiy samaradorligi meyordagi ko‘rsatkichdan ahamiyatli yuqori, bu tadbirlarning yuqori samaradorligidan dalolat beradi [6, 7].

Neft va tabiiy bitumlarni qazib chiqarishda atrof muhitga texnogen ta’sirni geologik muhit komponentlarining holatini baholamasdan pasaytirishning imkoni yo‘q.

Geoekologik tahlilning asosiy vazifasi geologik-geofizik – tabiiy-texnogen jarayonlar” tizimini tadqiqot qilish hisoblanadi.

Og‘ir neft va tabiiy bitum konlarini o‘zlashtirishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

hududning geodinamik barqarorligini baholash;

hududni geokologik tahlil qilish tamoyillarini aniqlash;

geokologik xavflarning turlarini ajratish;

hududning geokologik xavfini baholash.

Uzoq istiqbolda bitum resurslarini o‘zlashtirish yo‘llarini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

og‘ir neftlar va tabiiy bitumlarning qidirilgan zaxiralarini qazib chiqarishning yangi texnologiyalari va usullarini birinchi navbat rivojlantirish;

xomashyoni uning qimmatbaho komponentlarini yo‘qotmasdan olish;

ishlatish obyektlarida ekologik vaziyat va tabiiy gidrogeologik rejimni hamda ishlarning iqtisodiy rentabelligini saqlash.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, neftgaz qazib chiqarish tarmog‘i yerdan foydalanishning ekologik xavfli tarmoqlaridan biri sanaladi. U katta energiya hajmligi, yirik hududlarni ahamiyatli ifloslanishi va sanoat obyektlarining yong‘inga yuqori xafvliyligi bilan ajralib turadi. Yer qa‘rini himoya qilish neft va gazni yo‘qolishini oldini olish, aholining xavfsizligini ta‘minlash, yer usti va yer osti suvlaridan oqilona foydalanish, ularning ifloslanishini oldini olish bo‘yicha tadbirlarning majmuasini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Голубев Г.Н. Геоэкология. Москва: Изд-во ГЕОС, 1999.

2. Искрицкая Н.И. Системный подход к освоению месторождений тяжелых высоковязких нефтей Российской Федерации // Недропользование XXI век. 2013. №4 (41).

3. Ярбобоев Т.Н. Республикамизнинг оғир нефть ва табиий битум захиралари бўйича истиқболлари ва уларни ўзлаштириш муаммолари // Кончилик иши. Навоий. 2017-2. №69.

4. Якуцени С.П. Экологические проблемы при освоении и разработке нефтяных месторождений// Геология нефти и газа. 2000. № 1.

5. Алемасов В.Е. О концепции освоения месторождений природных битумов и высоковязких нефтей// Комплексное освоение природных битумов и

высоковязких нефтей (извлечение и переработка): труды Всесоюзной конференции, г. Казань, 1992.

6. Алекперов Т. Проблемы добычи природных битумов. [Электронный ресурс]. URL: <https://polymus.ru/ru/news/blogs/channels/himiya-buduschego/11077/>.

7. Казанкова Э.Р., Корнилова Н.В. Геоэкологические проблемы при освоении месторождений тяжелых нефтей и природных битумов на примере Северо-Кавказской нефтегазоносной провинции. [Электронный ресурс]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/geoekologicheskie-problemy-pri-osvoenii-mestorozhdeniy-tyazhelyh-neftey-i-prirodnih-bitumov-na-primere-severo-kavkazskoy/viewer>.



CHAKILKALYAN TOG‘LARIDAGI KAVSAGAR MAYDONIDA APOKARBONAT OLTIN MA‘DAN MINERALLASHUVINING JOYLASHISH SHAROITLARI

¹Yarboboyev To‘lqin Nurboboyevich, ²Ochilov Ilyos Saidovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ¹dotsenti, ²mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Chakilkalyan tog‘laridagi Kavsagar maydonida apokarbonat oltin ma‘dan minerallashuvining joylashish sharoitlari, oltin ma‘danlashuvi, oltin ma‘dan hosil bo‘lishi, Karbonat jinslar bo‘ylab shakllangan oltinli ma‘danlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: apokarbonat oltin, karbonat formatsiya, metasomatitlar, dedolomitizatsiya, apodolomit, sulfosollar.

O‘zbekiston hududida apokarbonat oltin ma‘danlashuvining sanoat ahamiyatidagi konlarini aniqlashda uzoq janubiy-sharqiy qismi Chakilkalyan tog‘lari hisoblanadigan Afg‘on-Tojik kontinentining karbonat shelfi zonasi yuqori istiqbolga ega.

Oltin ma‘danlashuvining kavsagar turi dolomitlar bo‘ylab yaqqol ifodalangan magnezial erish va kalsiyli metasomatoz bilan yuzaga kelgan. Qamrab olgan jinslar karbonat formatsiyaning dolomitli fatsiyasi bilan namoyon bo‘lgan, kesimining pastki qismida 5-25 m qalinlikdagi amfiporli dolomitlar gorizonti yotadi. Fatsiya to‘lig‘icha to‘q kulrang, organik qoldiqlar mavjud bo‘lmagan dolomitlardan iborat, odatda yo‘l-yo‘lligi yaqqol ko‘rinmaydigan massiv teksturaga ega. Plitasimon dolomitlarlarning kul rangdan och kul ranggacha bo‘lgan turlari lokal, ko‘pincha fatsiyalarning chegarasida rivojlangan. Dolomitlarda silikatli va alyumosilikatli materialning biroz yuqori miqdori, kremniyli g‘urrallar va to‘plamlar, mayda kremniysimon tomirchalar aralashmasi mavjud.

Kavsagar ma'dan hosil bo'lishida oltinli metasomatitlardagi boshlang'ich dolomitlar chegaralari yuvilgan qadimdan saqlanib qolgan uchastkalar ko'rinishida kuzatiladi. Ulardagi dolomitlar kulrang, yupqa donali, sezilarli darajada g'ovak. Metasomatitlar hajmining katta qismi qamrab olgan massa bilan yaqqol chegaraga ega bo'lmagan massada afanitsimon struktura va yupqa tarqoqligi mikroskopik yaqqol ifodalangan uchastkani hosil qilgan metasomatik kalsitdan iborat, ko'rinishiga ko'ra yupqa darzliklar sistemasini to'ldiradi. Yangi hosil bo'lgan kalsitning uchastkalari linzasimon ko'rinishga ega, bu kalsiyli metasomatozning tanlangan xarakteri haqida dalolat berishi mumkin. Kechki kalsit ko'pincha boshlang'ich dolomitlar uchastkalari va metasomatik kalsitning chegarasida joylashgan, 2-3 mm qalinlikdagi tomirchasimon ajralishni hosil qiladi. Xalsedonsimon kvarts metasomatitlarda kamdan-kam uchraydigan linzasimon ajralmalarni (katta qismining o'lchamlari 10-15mmx4-6mm) hosil qiladi.

Karbonat jinslar bo'ylab shakllangan oltinli metasomatitlar brekchiasimon ko'rinishga ega. Oltinli apokarbonat metasomatitlarning hosil bo'lishi taxminan quyidagi sxema bo'yicha bo'lib o'tgan: metasomatik jarayongacha g'ovak karkasni (sinchni) shakllantiradigan dedolomitizatsiya – kalsiyli metasomatoz mahsulotlarining to'planishi – hosil bo'lgan metasomatitlarning yuqori deformatsiyaga uchrashi, makro- va mikrodarsliklarning yuzaga kelishi – darzliklarni kvarts va navbatdagi kechki kalsit bilan to'lishi.

Kavsagar maydonida ma'danli zona quyi- o'rta paleozoy karbonat yotqiziqlari va o'rta- yuqori toshko'mir davrining olistostromli qalinligi oraliq'ida regional tarqalgan formatsiyalararo uzilishni kesib o'tuvchi, shimoli-sharqiy va submeridional tarqalgan darzliklar sistemasi bilan bog'liq.

Ma'danli zona karbonat jinslarda oltin ma'danlashuvini izlashda aniq indikator mineral indikatorini o'zida namoyon qiladigan oltinli brekchiasimon apodolomitli metasomatitlar va xalsedonsimon kvartsning shtokverkasidan tashkil topgan.

Shtokverkada izometrik shaklga yaqin uchta uchastkada guruhlangan kvarts va kvarts-sulfidli tomirchalar mahalliylashgan. Alohida tomirchalarning qalinligi 1-2 dan 5-8 sm gacha o'zgaradi. Ma'danli kvarts tomirchalarning rivojlanishi asosan

submeridional tarqalgan darzliklar bilan nazorat qilinadi va faqatgina alohida tomirchalar, shu jumladan nisbatan qalinlari shimoli-gʻarbiy yoʻnalishda choʻzilgan darzliklarda joylashgan.

Kvars tomirchalardagi maʼdan minerallar murakkab tarkibli sulfosollar, xira maʼdan, kumush sulfidlari, baʼzida tabiiy oltin, oltin va kassiterit bilan namoyon boʻlgan. Sulfosollar orasida qoʻrgʻoshin-qalayli va qoʻrgʻoshin-surmali turlari hamda murakkab tarkibli sulfosollar ajratiladi.

Akantit turidagi kumush sulfidi sinkeit va bindgeymit bilan assotsiatsiyada kvarsda 0,1-0,2 mm oʻlchamli mayda qoʻshimchalarni hosil qiladi.

Oltin bindgeymitda yupqa tomirchalar va tolachalar bilan namoyon boʻlgan, rangi tillo-sariq. Tomirchalar avval keyinchalik bindgeymit bilan oʻrin almashgan sulfosollarni kesib oʻtgan. Tomirchalarning qalinligi mm ning mingdan ulushidan yuzdan ulushigacha.

Maʼdan hosil boʻlishida ikkilamchi minerallar bindgeymit va valentinit bilan namoyon boʻlgan.

Ikkilamchi minerallar asosan galit, kamroq bornit, xalkozin, sfalerit, murakkab tarkibli sulfosol kabi maʼdan minerallarning juda mayda (mm ning mingdan ulushidan kichik) qoldiqlari bilan boyigan.

Tarkibida turli kombinatsiyalardagi Pb, Sn, Sb, Cu va kam miqdorda Zn boʻlgan murakkab tarkibli sulfosolni oʻz ichiga olgan mineral kompleks; rux tarkibli tetraedrit; akantit; tabiiy kumush va tabiiy oltin apodolomitli oltin madanlashuvi uchun geokimyoviy maydonining tipomorf elementlar toʻplamini belgilaydi.

Asosiy anomaliya hosil qiladigan elementlar Au va Ag sanaladi, ikkinchi darajalilari Pb, Sb va Cu (Zn lokal, kam farqlanadigan doirani hosil qiladi).

Kavsagar kichik turdagi oltin maʼdanlashishining xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi: a) minerallashgan zonalarning karbonat kesimni magnezial seksiyalariga joylashganligi; b) dedolomitlashishning keng yuzaga kelishi va kalsitli metasomatitlarning xalsedonsimon kvars bilan yuzaga kelishi; v) tabiiy oltin toʻplanishiga yoʻldosh sulfosolli indikatorli minerallashish; g) Au, Cu, Sb, Ag va Zn larni oʻz ichiga olgan tipomorf geokimyoviy komplekslari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахмаджанов Б.А. Чакилкалон тоғларидаги Яхтон конининг маъданлашув хусусиятлари // «Интеграция науки и практики как механизм эффективного развития геологической отрасли республики Узбекистан» Материалы международной научно-технической конференции. -Ташкент 2016, С. 23-24

2. Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С., Султонов Ш.А.. Метасоматические изменения пород при формировании апокарбонатного золотого оруденения Чакылкалянского мегаблока // International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences ISSN Узбекистана. - Навои 2021, -№1. - С. 9-17.

3.Турапов М.К., Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С. Основные особенности геологического строения Чакылкалянских гор в свете его перспектив на выявление апокарбонатного золотого оруденения (Южный Узбекистан). Annali d'Italia (Итальянский научный журнал) // Италия, 2021. -№24.- С. 22-35.

4. Очилов И.С., Ярбобоев Т.Н. Условия размещения апокарбонатной золоторудной минерализации Чакылкалянских гор (Южный Узбекистан). German International Journal of Modern Science (Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft). // Германия, 2021. - №20. VOL. 1. P. 10-14.

INTENSIV PAKANA NOK NAVLARINING O’SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSIL ELEMENTLARI SHAKLLANISHINING NAV-PAYVANDTAGLAR KOMBINATSIYASI VA KO’CHAT QALINLIGIGA BOG’LIQLIGI

Yunusov Rustam

Buxoro davlat universiteti

Ganiyeva Feruza Amrillojevna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro tumani, “Bog’i Kalon” MFY hududida joylashgan “SiyovushAgro” MCHJ bog’dorchilik fermer xo’jaligida mavjud bog’larida pakana nok daraxtlarining o’sishi, rivojlanishi va hosil elementlarining shakllanishiga nav-payvandtag kombinatsiyalari hamda ko’chat qalinligiga bog’liqligi o’rganildi. Tadqiqotda serhosil nok navlari – Vilyams, Karmen va Abbat kabilar sekin sust o’suvchi S₁ payvandtagga ulangan pakana nok navlarini biologik xususiyatlari – o’sish, rivojlanish va hosil elementlarining shakllanishiga bog’liqligi har tomonlama o’rganildi.

Kalit so’zlar: Nok, pakana o’rta sekin o’suvchi payvandtaglar, nav-payvandtaglar kombinatsiyalari, biologik xususiyatlari, o’sish, rivojlanish, hosil elementlari, ko’chat qalinligi, samaradorlik.

Kirish. Intensiv mevachilik agrar sohasining eng zaruriy va o’ziga xos tarmoqlardan biri hisoblanadi, urug’li intensiv mevali bog’lar, jumladan ko’chatlari pakana vegetativ yo’li bilan sekin o’suvchi payvandtaglarda parvarish qilib qilinmoqda va muttasil mo’l va sifatli hosil berib kelmoqda.

O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan intensiv mevachilik tarmog’i oldiga ichki bozorni ta’minlash va xorijga eksport qilish salohiyatini kuchaytirish uchun mevachilik bilan bevosita shug’ullanadigan tashkilotlari ishlab chiqarish hajmini yana sezilarli miqdorda oshirish.

Yuqorida ko'rsatilgan mazkur sohada meva ishlab chiqarish miqdorini keskin oshirish, sifatini esa yaxshilash hamda meva ishlab chiqarish tan narxini kamaytirish asosan yangi mo'l va sifatli hosil beradigan intensiv bog'lar barpo qilish hamda mavjud bog'lardan ham yuqori va sifatli hosil olish ko'zda tutilgan.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jadallashtirilgan (intensiv) mevali bog'lar katta hajmda barpo qilinmoqda, bu intensiv bog'larda mevali daraxtlarga shakl berish, nav-payvandtaglarning biologik xususiyatlarini ilmiy asoslangan holda e'tiborga olib ularga muayyan shakl berish, kesish va tejamkor agrotexnologik omillar o'rganilgan bo'lsada, nav-payvandtaglarni biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, nok daraxtlarini yoshiga qarab kesish usullari va darajalari hamda muayyan shakl berish tadbirlari mamlakatimiz sharoitida ilmiy asosda o'rganib kelmoqda va ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda.

Ayni paytda intensiv bog'lardan muttasil mo'l va sifatli hosil etishtirish bilan birgalikda, yaratilgan bog'larni tezroq, ya'ni ekilgandan keyin 2-3 yilda muntazam hosilga kirishni ta'minlash talab qilinadi. SHuningdek, intensiv nok bog'larda payvandtagi sekin o'suvchi va sekin o'rta o'suvchi, tupi kichik, sifatli hosil beruvchi navlar tanlanib, ularni parvarishlash jarayonida yuqori resurs tejamkor agrotexnik tadbirlar majmuyi qo'llanilganda har yili muntazam ishlab chiqarish sharoitida 25-30 t/ga yuqori sifatli hosil etishtirish imkoniyati yaratiladi.

Tajriba o'tkazish joyi va uslubiyoti. Ilmiy tadqiqot ishlari 2020-2022 yillar davomida Buxoro viloyati, Buxoro tumani "Bog'ikalon" MFY hududida joylashgan "SiyovushAgro" MCHJ bog'dorchilik fermer xo'jaligida o'tkazilib kelinmoqda. Mazkur "SiyovushAgro" MCHJ bog'dorchilik fermer xo'jaligi tuprog'i allyuvial qadimdan sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan tuproqdan iborat bo'lib, sizot suvlarining sathini yuza joylashganligi bilan (0.80-1.50) farqlanadi. Mexanik tarkibi bo'yicha o'rtacha soz tuproq hisoblanadi.

Buxoro viloyati "Yer kadastri" laboratoriyasida MCHJ "AgroSiyovush" tuproqlarni agrokimyoviy xossa-xususiyatlari tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi, ya'ni o'tloqi qadimdan sug'orilib kelinayotgan tuproqlarda chirindi (gumus) miqdori 0.8-1.4%ni, azot esa 0.06-0.12%ni, umumiy fosfor 0.1-0.18%ni va kaliy –

1.22-1.45% ni tashkil qildi, sizot suvlari esa 0.80-1.50m chuqurlikda joylashganligi aniqlandi [2,4,6,9,10].

Tadqiqot ob’ekti o’rta o’suvchi S_1 , payvandtagiga ulangan pakana nok navlari Vilyams, Karmen va Abbat bo’lib, nokzor bog’lariga 4.0x1.0 va 4.0x1.2m tartibda joylashtirilgan va bir gektarga 2088-2500 dona ko’chat mavjud. Payvandtag sifatida S_1 behidan foydalangan, bu payvandtag Polsha mamlakatida topilgan. Nokni Vilyams, Karmen va Abbat navlari bu payvandtakka ulanganda 2-3yildan boshlab hosilga kiradi va bir tup nokdan 0.4-2.0 kg/ga sifatli hosil olindi. 20-25 yil davomida ustuvor mo’l va sifatli hosil beradi. O’rganilgan navlar bo’yicha o’rtacha hosildorlik 180-230/ga ni tashkil qiladi [1,3,5,7,8].

Nok daraxtlarini shox-shabballari yarim siyraklashtirilgan usulda shakl beriladi va bu shaklda nok daraxtlari maqbul o’sadi va rivojlanadi. Nok daraxtlari vegetativ davrida innovatsion tejamkor texnologiyalardan foydalanadi va tomchilatib sug’orish usulida sug’oriladi. Nok bog’lari kun oralab maxsus o’rnatilgan quvuplar orqali tomchilatib sug’oriladi, natijada esa suv sarfi 2-3 marotaba tejaladi, meva ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

Past bo’yli payvandtaglar, ayniqsa vegetativ payvandtaglarda o’stirilayotgan intensiv bog’larda nok daraxtini o’sishi va rivojlanishi jarayonida ko’pgina uglevodlar meva elementlarini hosil qilish uchun, nisbatan kam qismi daraxt va ildizlarining o’sishi va rivojlanishi uchun sarflanadi. Nok daraxtlari qator oralarini amal, ya’ni o’suv davrida begona o’tlardan 2 marta tozalanadi va azotli o’g’itlar – 250kg, fosforli o’g’itlar – 150-180kg hamda kaliyli o’g’itlar esa 45-60kg sof holda erga kiritilgan.

Tadqiqot natijalari. MCHJ “SiyovushAgro” bog’dorchilik fermer xo’jaligida o’tkazilgan ilmiy tadqiqotlarni maqsadi nok bog’larida pakana payvandtaglarning biologik xususiyatlari, ko’chat qalinligi va nav-payvandtaglar kombinatsiyalarining o’sish, rivojlanish va hosil elementlarini shakllanishiga ta’sirini o’rganish hamda pakana nok daraxtlarida yorug’likni maqbul rejimini belgilashdan iborat, pakana nok daraxtlarida yorug’lik rejimini yaxshilashi natijasida daraxtlarini optimal o’sish va rivojlanish jarayonlarini o’tishiga muayyan sharoit yaratilgandi. Vilyams, Abbat va Karmen kabi navlarida (payvandtag S_1) 2020 yilda shox-shabbani pastki qismida 66%,

o'rtangi qismida – 56%, va yuqori qismida esa 72%ni tashkil qildi, 2021 yil daraxtlarini ustuvor o'sishi natijasida yorug'lik 2-4%gacha kamaygani aniqlandi, bu ko'rsatkich daraxtlarni o'sishiga va rivojlanishiga deyarli ta'sir qilmaydi, mo'l va sifatli hosil berish imkoniyati pasaymaydi.

Pakana nok novlari daraxtlarining kompleks zararli organizmlardan himoya qilish ishlari MCHJ “SivushAgro” bog'dorchilik fermer xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan yuqori bilimga ega agronomlari bilan hamkorlikda va ularning qat'iy nazorati ostida bizni ishtirokimizda o'tkazib kelinmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan ilmiy tadqiqot tajribalaridan shu ma'lum bo'ldiki, MCHJ “SivushAgro” bog'dorchilik fermer xo'jaligida mavjud pakana nok navlarini shox-shabba tizimiga quyosh nurlari bir maromda tarqaladi, kompleks zararli organizmlardan to'g'ri himoya vositalari qo'llandi, zararkunandalarining miqdori keskin kamaygan, uch yillik nok daraxtlarini o'rta qismida ham havo almashinuvi jarayoni maqbul o'tdi va natijada quyosh nurlari hosil shakllanishi jarayoniga yaxshi ta'sir qildi va hosildorlikni muttasil mo'l va sifatli o'sishiga sabab bo'ldi.

O'rganilayotgan uch yillik pakana nok navlarini S₁ payvandtakka ulanganligi sababli ularni fitometrik ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga va pirovard natijada esa pakana nok navlarini hosildorligi 15-20%ga ko'payishiga olib keldi.

Shuningdek, tadqiqot va MCHJ “SivushAgro” bog'dorchilik fermer xo'jaligida olib borilgan resurs tejankor texnologiya natijalari shundan dalolat beradiki, intensiv pakana nok daraxtlariga mos va xos shakl berish, zamonaviy agrotexnologiyalar, tomchilatib sug'orish usullarini qo'llash, kasallik va zararli organizmlardan kompleks himoyalash, maqbul nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko'chat qalinligi hamda ularning biologik xususiyatlarini to'g'ri tanlash kabilar nok mevalarning etishtirishini iqtisodiy samaradorligini keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aripov A.U., Aripov A.A. Urug'lik intensiv meva bog'lari. – T. “Sharq”, 2013, 156bet.

2. Ganieva F.A., Yunusov R. Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmalarda o'sish va hosildorlikning nav-payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi. Monografiya. "Durdon", Buxoro, 2021, 102bet.

3. Yunusov, R., Ganieva F.A. (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. *TSentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz)*, 6.

4. Ganieva F. A., Yunusov R. (2021). Rost i razvitiya vegetativno razmnojaemykh podvoev yabloni v zavisimosti ot plotnosti posadki. *Stolitsa Nauki*". M.

5. Ganieva F. A., Yunusov R. "Rost i plodonoshenie derevev persika v oroshaemykh sadaх v zavisimosti ot konstruksii krony". *TSentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz)* 6.6 (2021).

6. Ganieva Feruza. "INTENSIV BOG'LARDA PAKANA NOKLARNI TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PARVARISHLASH OMILLARI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 6.6 (2021).

7. Yunusov Rustam, Ganieva Feruza. "БУХОРО ВИЛОЯТИ БУХОРО ТУМАН БОҒИКАЛОН МФЙ ХУДУДИДАГИ МЧЖ “СИЁВУШАГРО” БОҒДОРЧИЛИК ФЕРМЕР ХЎЖАЛИГИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ХОССА-ХУСУСИЯТЛАРИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).

8. Yunusov Rustam. Ganieva Feruza. "THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).

9. Yunusov, R., Ganieva FA (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).

10. Atayeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 10(9).

ТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИК ВА ТЕАТР: БИРИНЧИ ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ДРАМА ТЕАТРИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ТАРИХИ

Мавлуда Рахманова Эркин қизи

Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети 2-курс
магистри

Аннотация: Мақолада юртимиз тарихининг XIX асрнинг охири, XX аср бошларида муҳим ижтимоий – сиёсий ва маданий ўзгаришларга сабаб бўлган жадиदчилик ҳаракати ва уларнинг намоёндалари томонидан амалга оширилган ишлар, шу жумладан, театр соҳасининг пайдо бўлиши, ривожланиши ва жамият ҳаётида тутган ўрни ва рўли, Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний ва бошқа жадидчиларнинг Туркистонда дастлабки театрга таъмал тошини қўйишлари ва бу борадаги илк қадамлар ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: жадидчилик, Маҳмудхўжа Бехбудий, Театр, “Падаркуш” драмаси, Абдулла Авлоний, “Турон” труппаси.

Буюк инглиз драматурги Уильям Шекспир (1564-1616) бизни қуршаб турган оламни театрга, инсонларни эса театр сахнасидаги актёрларга ўхшатган эди. Улуғ маърифатпарвар шахс, “Туркистон жадиждлари отаси” номи ила тилга олинувчи Маҳмудхўжа Бехбудий (1875-1919) – “Театр бу- ибратхонадур” деган эдилар. Бу иккала шахс ҳам театр соҳасида ўз ўрнига ва ролига эга эканлиги бежизгамас, албатта. Бири жаҳонда ўзининг бетакрор драмалари билан шухрат қозониб, ўлмас асарлар яратиб кетган бўлса, яна бири ўз халқини маданиятли ва маърифатли бўлиши учун курашган, яратган сахна асарлари орқали кишилар онгини маънавият чироғи билан ёритган эди.

Театр сўзининг асли луғавий маъноси юнончадан таржима қилганда “Томошахона”, “Томоша учун жой” деганидир. Юртимизда дастлабки миллий

театрга асос солиниши XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида фаолият олиб борган жадидчилик ҳаракати ва уларнинг вакиллари саъй-ҳаракати билан амалга ошди.

“Жадидлар театрни миллий маданиятнинг янги шакли сифатида тарғиб қилиш билан бирга, унинг ғоявий асосини ташкил этувчи репертуар – драма, трагедия ва комедияларни яратиш, ижрочи труппаларни уюштириш, уларнинг иқтисодий ва бошқариш муаммоларини ҳал этишни ҳам ўз зиммасига олдилар. Жадидлар ўзбек театрининг ҳам тарғиботчиси, ҳам яратувчиси бўлиб майдонга чиқдилар. Уларнинг кўпчилиги бир вақтда тарғиботчи, ташкилотчи, драматург, режиссёр, актёр сифатида ижод қилган фидойилар эдилар.”¹¹

1913-йилда Абдулла Авлоний, Мунавварқори Абдурашидхонов ва Тавалло ташаббуслари билан Тошкентда Ўрта Осиёдаги биринчи – аъзолари сони 25 кишидан иборат бўлган - “Турон” театр труппасига асос солинди. Драма санъатини севувчи бу мусулмонлар жамияти ўз олдига театр санъатини тарғиб қилиш, халқ учун спектакллар ташкил этиш ва намойиш қилишни мақсал қилиб олган эди.

“1914-йилнинг 27-феврал санасида Тошкентдаги “Колизей” театри биносида Туркистон тарихидаги илк Миллий театрнинг расмий очилиш маросими бўлиб ўтди. Театр пардалари кўтарилиб, Мунавварқори Абдурашидхонов (1878-1931) сўзга чиқиб шундай дедилар: “Барчамизга маълумки, “Театр” сўзининг она тилимиздаги тарифи ўзга маънога эга. Яъни, “Театр” сўзи аслида “Ҳаёт дарси”, “Тарбия” бериладиган жой, ёки “Буюклар мактаби” деган маънони англатади. Театр сахнаси кўзгули хонага ўхшайди, бу ерга кирган инсон ундан ўз камчилик ва хусусиятларини кўради, улардан хулоса чиқаради.”¹²

“Турон” театр труппаси сахналаштирган биринчи спектакл бу Маҳмудхўжа Бехбудий қаламига мансуб бўлган “Падарқуш ёхуд ўкумаган

¹¹ Турсунов Т., XX аср ўзбек театри тарихи, - Т.,2009. 21-22 бетлар.

¹² Театральная труппа “Турон”, созданная А.Авлони – Письмо о Ташкенте.

<https://mytashkent.uz/2016/11/10/teatralnaya-truppa-turon-sozdannaya-a-avloni/>

боланинг ҳоли” драмаси эди. “Махмудхўжа Бехбудий биринчи ўзбек миллий драма театрини яратиш ташаббускори ва амалиётчиси бўлган. У газета ва журналларда чоп этилган “Театр нима?”, “Самарқандда театр”, “Туркистонда биринчи театр”, “Муסיкий ва шеърый театр” номли мақолаларида театр санъати тараққиётининг аҳамияти ва ўрни зарурлигини фаол тарғиб қилди. Бехбудий ўз замонида театр тушунчасининг ўзига хос хусусиятларини, халқ туйғулари ва кайфиятларини уйғотувчи фикрларини бадиий ижод саҳнаси билан очиб берди.”¹³ “Падаркуш” драмаси ғоявий жиҳатдан ўша даврнинг энг нозик муаммоси ҳисобланмиш илмсизлик, жаҳолатпарастлик ва унинг салбий оқибатларини қаҳрамонлар тақдири орқали ёрқин ифодалаб, кўрсатиб берган биринчи ўзбек миллий саҳна асари эди. Ундан сўнг кетма-кетликда жадиждлар томонидан яратилган бошқа саҳна асарларида ҳам асосий мақсад халқни билимсизлик ботқоғидан олиб чиқиш, илм-маърифат, санъат ва маданиятни тарғиб этиш, мамлакатни юксак тараққий этган диёрга айлантириш кўзланган эди.

1915-1916 йиллар давомида “Турон” труппаси Абдулла Қодирийнинг “Бахтсиз куёв”, Абдулла Авлонийнинг “Адвокатлик осонми?”, “Пинак”, Ҳожи Муъиннинг “Мазлума хотун” пьесаларини, Озорбайжон муסיкий драмасининг асосчиларидан бўлган У.Ҳожибеков билан ҳамкорликда Фузулий достони асосида “Лайли ва Мажнун”, озар миллий халқ достони “Асли ва Карам”, “У ўлмасун, бу ўлсун” қатор муסיкий спектаклларни халққа намойиш этишди. Шу йиллари етишиб чиққан дастлабки миллий режиссёрларимиз Низомиддин Хўжаев, Абдулла Авлоний, Бадриддин Аъламов кабилар театр соҳасининг ривожланишига ўз ҳиссалари қўшдилар. “XX аср бошларида Андижон, Бухоро, Хоразм, Кўкон шаҳарларида муסיқали театр труппаларида мустақил бадиий тўғарақлар ташкил этилиб, кейинчалик улар профессионал театр жамоаларига айланди.”¹⁴

¹³ Ризо Ахмад: Бехбуди и трагедия узбекского недомыслия. http://rizoahmad.blogspot.com/2021/08/blog-post_95.html?m=1

¹⁴ Ш.И. Нусратова. История формирования узбекского театра. <http://jurnal.org/articles/2016/iskus1.html>.

Туркистон маърифатпарвар жадидлари томонидан халқни илмли ва маънавиятли қилиш мақсадида дунёвий мактаблар ташкил этилди, газета, журнал, дарслик ва ўқув қўлланмалар чоп этилди, шу билан бирга театр, маданият, санъат соҳалари ривожлантирилди. “Жадид зиёлиларимизнинг фаолият қирралари кўрар эканмиз, уларнинг том маънода Уйғониш даврлари даҳоларига менгзагулик қатор фазилатларидан огоҳ бўламиз... Миллатни маърифат нури билан уйғотиб, озодлик ва тараққиёт тантанасини орзулаган жадид зиёлилар маслак йўлидаги буюк амаллардан бири театр, деб тушундилар ва шу йўлда саъй-ҳаракат бошлаб, қисқа бир муддатда ғоят шоён самараларга эришдилар.”¹⁵ Уларнинг бу ютуқлари бугунги кунда ўз мевасини бериб, миллий театр санъати ўзининг шонли тарихига муносиб зафарли фаолият олиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

6. Ш.Ризаев. Жадид драмаси. “Шарқ” нашриёти. Т.,-1997.
7. Турсунов Т., XX аср ўзбек театри тарихи, - Т.,2009.
8. Театральная труппа “Турон”, созданная А.Авлони – Письмо о Ташкенте. 2016.
9. Ризо Ахмад:Бехбуди и трагедия узбекского недомыслия. 2021
10. Ш.И.Нусратова. История формирования узбекского театра. 2016.
11. www.ziyonet.uz
12. www.arboblar.uz

¹⁵ Ш.Ризаев. Жадид драмаси. “Шарқ” нашриёти. Т.,-1997. 51-бет

OLIY TA'LIMDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Alimjanov Doniyorbek Yodgorbek o'g'li

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim jarayon “Uchinchi Renessans” kechmoqda. Bunday ijtimoiy noyob hodisa uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. Tarixdan bizga ma'lumki, har qanday yuksalishni yetuk ta'lim va bilim ko'nikmasiz amalga oshirib bo'lmaydi. Quyida ta'lim va oliy ta'lim sohasidagi ayrim kamchiliklar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator islohotlarni ko'rib chiqamiz .

Kalit so'zlar: paradigma, futuristik, kampus, interaktiv, strategiya, professional etika, innovatsion, estetik, etnik, kasta.

Ta'lim - bu hozirgi uyg'onish inqilobiga mos keladigan va ilg'or texnologiyalar va avtomatlashtirishdan foydalangan holda ta'lim kelajagini o'zgartirishga qaratilgan maqsadli yondashuv. Ijodkorlik ta'limning asosidir, bu talabalarni qiyinchiliklarni boshdan kechirishga tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi. O'zgarishlarni kuzatib borish uchun an'anaviy ta'lim paradigmalarni futuristik yondashuv bilan qayta ko'rib chiqish kerak.

Ta'lim - bu kelajakning o'quv dasturidan boshqa narsa emas. Bu zamon bilan taraqqiy etish, oliy o'quv yurtlari uchun esa bu ularning bo'lajak bitiruvchilaridan nima talab qilinishini tushunishni anglatadi. Jahon yetakchilari texnologiya va avtomatlashtirish yordamida kelajakda qanday ish o'rinlari paydo bo'lishi haqida ko'plab bashorat qilishgan. Ta'lim tizimining mazmunini yangilash va yetkazish dolzarb masala bo'lishi kerak.

Keling, birgalikda bugungi talabalar uchun afzal kelajakni rejalashtiraylik:

Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga sekin javob beradi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ta'lim modellaridan foydalangan holda talabalarning martabasini oldindan ko'ra olmaydi yoki shakllantirmaydi. Oliy ta'limda murakkab va innovatsion

ta'lim yondashuvlari tez o'zgaruvchan ta'lim sanoatida sifatni oshiradi. Ushbu bosqichga erishishning asosiy yo'llari bulutli, mobil va raqamli texnologiyalarning o'zgaruvchan afzalliklaridan ta'lim va ta'limni boyitish hamda talabalar tajribasini yaxshilashdan iborat.

Oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning ayrim usullari:

O'quvchilarni tezlashtirish uchun yangi texnologiyalar. Aloqa oliy ta'lim samarasi va samaradorligini oshirishning eng muhim omilidir. Muloqotsiz o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar buziladi va talaba erkinlikka erisha olmaydi. Munozara forumi, chat, xabarlar va ijtimoiy media orqali o'qituvchilarga oson bog'lanish, talabalarni tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish va ma'lumot almashish uchun xizmat qiladi.

Interaktiv ta'lim va o'qitish: Raqamli sinf o'quvchilarning test va topshiriqlarga kirishini ta'minlaydi. O'qituvchilar onlayn tarzda topshiriqlar, testlar, viktorinalar va anketalarni yuklashlari mumkin. Talabalar topshiriqlarga kirishlari va ko'rib chiqish uchun yuborishlari mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarni boshqa sohada yaxshilashga yordam berish uchun baho qo'yishlari va sharhlar berishlari mumkin. Natijalarni elektron pochta xabarnomalari va SMS ogohlantirishlar orqali talabalar va ota-onalarga taqdim etish. Bu interaktiv raqamli kontentni taqdim etish uchun katta ishonch beradi. Mobil qurilmaga o'tish istalgan joydan, istalgan vaqtda ko'plab ma'lumotlarga kirishni anglatadi. Bugungi talabalar texnologiyani juda yaxshi bilishadi. Mobil ilova yordamida talabalarni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash. Talabalar shaharchasi va undan tashqaridagi istalgan joydan yangiliklar, elektron kitoblar, darsliklar, jurnallar, va hokazolarga raqamli kirish imkoniyatini berish.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalar:

O'qituvchilar ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Ular o'quvchilarga ilmiy tushunchalar bo'yicha bilim va ma'lumot beribgina qolmay, ular o'rtasida odob-axloq, rostgo'ylik, kabi fazilatlarni singdiruvchi shaxslardir. Akademik bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishdan tashqari, bu xususiyatlar odamlarga o'zlarining yashash sharoitlarini munosib tarzda ta'minlash uchun zarurdir.

Sifatni oshirish bo'yicha o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalar quyidagilardan iborat:

Sifat haqida xabardorlik: O'qituvchilarning sifat xabardorligini oshirish qobiliyati ularning o'qitish usullariga e'tibor qaratishdir. O'qituvchilarning asosiy vazifasi ularning o'qitish va o'qitish usullarini qoniqarli tarzda ishga tushirishlarini ta'minlashdir. Bu talabalarga tushunchalarni samarali tushunishga yordam beradi. O'qituvchilardan qo'llaniladigan usullarni tahlil qilish va muqobil usullarni qo'llash talab qilinadi. O'qituvchilarning sifatli xabardorligini oshirish va ularning o'qitish metodikasi va malakasini oshirishga yordam berish uchun o'z-o'zini baholash usullarini amaliyotga tatbiq etish juda muhimdir. O'qituvchi o'z ta'lim usullarini o'z-o'zini baholashi kerak. Bu ularga kamchiliklar va nomuvofiqliklarni aniqlashda yordam beradi va yaxshilanishlarga olib keladi.

Kasbiy erkinlik: O'qituvchining kasbiy erkinligi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Kasbiy erkinlik, birinchi navbatda, optimal ta'lim vaziyatini yaratish uchun foydalaniladigan usullar bo'yicha qaror qabul qilish bilan bog'liq. Bundan tashqari, o'qituvchilarga har qanday siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va diniy ta'sirlardan mustaqil bo'lgan o'qitish usullarini amalga oshirish imkoniyatini berishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z vazifalarini bajarishda ijodiy va topqir bo'lishlari kerak. Sinfda o'qitish va o'qitish usullaridan qanday foydalanish sinfdan tashqarida bo'lgan shaxslar tomonidan belgilanmasligi kerak. Bu o'qituvchilar boshqa shaxslardan biron bir fikr va taklifni qabul qila olmaydi, degani emas. Ammo ular o'zlarining ta'lim-tarbiya usullari va o'qitish strategiyalarida turli modellar, yondashuvlar va innovatsion usullardan foydalanishlarini ta'minlashlari kerak.

Professional etika: O'qituvchilik ishlari qiyin. O'qituvchilar o'z ta'lim jarayonida bir qator muammolar va qiyinchiliklarni yengishlari kerak. Barcha darajadagi ta'lim muassasalarida ular barcha talabalar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashni kerak. Kasta, e'tiqod, irqiy, etnik kelib chiqishi, dini, jinsi, yoshi va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi kabi omillarga ko'ra kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Ular zamonaviy va innovatsion usullar va strategiyalar nuqtai nazaridan yangilanib turishlari talab etiladi. Buning uchun ular muntazam ravishda tadqiqot olib borishlari

va boshqa shaxslar bilan muloqot qilish shartlarini o'rnatishlari kerak. Muhim jihatlardan biri shundaki, o'qituvchilar o'quvchilarga hurmat va odob bilan munosabatda bo'lishini ta'minlashi kerak. Ular har qanday qo'pol muomaladan qochishlari va talabalarga mehr va e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Talabalardan tashqari, ular ta'lim muassasalarining boshqa a'zolari bilan ham muomala qilishda kasbiy axloqni tasvirlashlarini ta'minlashlari kerak.

Talabalarning ta'lim imkoniyatlarini tashkil qilish: O'qituvchilar talabalarning o'rganish imkoniyatlarini tashkil qilishlari kerak. Bular o'quvchilarning o'rganishini kuchaytiradigan imkoniyatlarga ishora qilinadi. Talabalarni faoliyat va funktsiyalarda ishtirok etishga rag'batlantirish kerak va ular faqat sinf ma'ruzalarini tinglash orqali bilim olishlari kerak emas.

Talabalarning turli xil ta'lim imkoniyatlari: Ularning faoliyatdagi ishtiroki, vazifalari va boshqa funktsiyalari. Jumladan, ta'lim muassasalarida seminar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilganda, talabalar turli mavzularda ma'ruza yoki nutq so'zlashlari rag'batlantiriladi. Shunday qilib, bu ularga nafaqat akademik bilimlarni oshirishga, balki samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ham imkon beradi. Talabalarning bilim olish imkoniyatlarini tashkil qilishda o'qituvchilar o'z xohish-istaklaridan foydalanadilar. Ammo ba'zi hollarda ular talabalar tomonidan bildirilgan g'oyalar va takliflarni inobatga oladi. Imkoniyatlar talabalar uchun foydali bo'lishi va akademik maqsadlarga erishishda yordam berishi kerak.

Talabalarning ta'lim jarayonini boshqarish: Barcha darajadagi ta'lim muassasalarida talabalar o'rganish qobiliyatlari jihatidan farq qiladi. Ba'zi talabalar akademik tushunchalarni tezda tushunishga qodir bo'lsa, boshqalari tushunish uchun vaqt talab etadi. Talabalar yaxshi akademik ko'rsatkichlarni tasvirley olsalar, o'qituvchilar o'zlarini qoniqishadi va ularning o'qitish va o'qitish usullari samarali ekanligi haqidagi nuqtai nazarni shakllantiradilar. Boshqa tomondan, o'quvchilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganlarida, o'qituvchilar odatda nafaqat talabalarning akademik ko'rsatkichlari, balki o'qitish va o'qitish usullari haqida ham tashvishlanadilar. Shu sababli, talabalarning o'quv jarayonini boshqarish qimmatli strategiyalardan biridir.

Talabalarning mehnat va o'qishga bo'lgan sadoqatini rivojlantirish: Ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilar talabalarning ishlash va o'rganishga sodiqligini ta'minlashi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ba'zi hollarda talabalar ta'lim olishga qiziqish bildirmaydilar. Majburiyat va qiziqishning yo'qligi, hatto ta'lim ko'nikmalarini oshirishdan oldin ham ularni o'qishni tark etishga majbur qiladi. Shuning uchun o'qituvchilarning vazifasi talabalarning majburiyatlarini oshiradigan chora-tadbirlarni amalda qo'llashdir. Eng samarali choralardan biri bu ularga mukofot berishdir. Talabalarga beriladigan mukofotlar ta'lim darajasiga bog'liq. Mukofotlarga misollar: yaxshi so'zlar, sovg'alar, kuboklar, sertifikatlar va boshqalar. Mukofot berishdan tashqari, o'qituvchilar samarali muloqotni rivojlantirishlari va talabalar o'rtasida ta'limning ahamiyatini tan olishga yordam berishlari kerak.

Tarkibiy qismlar sifatini oshirish: Ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish uchun uning tarkibiy qismlari sifatini yaxshilash kerak. Asosiy tarkibiy qismlarga o'quv rejasi va o'quv tizimlari, dasturlar va protseduralar, siyosat va qoidalar, baholash tartiblari, o'quv ilmiy adabiyotlari hamda elektron ilmiy mutaxassislik adabiyotlarni ishlab chiqish, darsdan tashqari mashg'ulotlar, o'qitish usullari, kutubxona jihozlari, texnologiya, zamonaviy va innovatsion usullar, faoliyatni tashkil etish va boshqalar kiradi. Tegishli ta'lim ma'muriyati va o'qituvchilari ushbu komponentlar amalga oshirilganda, ular o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham foydali ekanligini isbotlashlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, ularning sifati ustun va taniqli bo'lishi kerak.

O'quv adabiyotlari sifatini oshirish: Zarur bo'lgan ilmiy darslik va adabiyotlar yetishmasligi hattoki oily o'quv yurtlari uchun elektron darsliklarni jamlagan raqamli kutubxona mavjud emasligi. O'quv adabiyotlarini yozishda duch keladigan asosiy cheklov darsliklar va ijodiy ishlarni yaratuvchi yagona mualliflar guruhining yo'qligi hisoblanadi. Turli xil standartlarga mansub talabalar bir xil fanni turli shaxslar tomonidan yozilgan darsliklar bilan o'rgansalar, ko'p hollarda ular tushunchalar haqida samarali tushunchaga ega bo'lolmaydilar. Shu sababli, o'quv adabiyotlari sifatini oshirish uchun talabalar texnologiyadan foydalanishlari kerak.

Ta'lim sifatini oshirishning ayrim usullari:

Malakali o'qituvchini yollash: Faqat eng yaxshi o'qituvchilar eng yaxshi darslarni berishi mumkin. Agar universitetlarimiz nomi yuqori sifatli ta'lim bilan bog'lanishini istasak, buni qilishning birdan bir yo'li malakali o'qituvchilarni yollashdir. O'zlari o'rgatadigan fanlarni tushunadigan va ularga g'amxo'rlik qiladigan odamlarni yollashimiz. Yaxshi ma'ruzachi, shuningdek, o'z talabasining e'tiborini jalb qila oladigan va darsni qiziqarli va ma'rifiy qila oladigan kishidir. Yaxshi o'qituvchini yollash uchun biz universitetlarimizdagi lavozimga davogarlarni tanlash jarayonida bir qator standartlarga murojaat qilishimiz kerak. Biz ishlayotgan o'qituvchilar va professorlar ham ta'lim sifatini oshirish uchun ushbu standartlarga rioya qilishlariga ishonch hosil qilishimiz lozim.

Talabalar natijalarini o'lchash va yaxshilash: Universitetlarimizda ta'lim sifatini oshirish uchun biz o'quvchilaringizning faoliyatini ko'rib chiqishimiz kerak. Talabalar natijalari bizning ta'lim tizimimiz ularni o'qitishda qanchalik samarali ekanligining aniq dalilidir. Agar ularning ishlashi ta'sirchan bo'lsa, ularni saqlab qolish yo'llarini topishimiz kerak. Biroq, agar ular yaxshilanishga muhtoj bo'lsa, ta'lim tizimingizda nima ishlamayotganini ko'rib chiqishimiz kerak bo'lishi mumkin. Biroz tahlil qilib va qaysi usullar to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini ko'ramiz. Masalan, biz maktab dasturini o'zgartirishimiz va yangi narsalarni o'rgatishimiz yoki o'qituvchilar tarkibiga yangi amaliyotlarni kiritishimiz kerak bo'lishi mumkin. Qanday o'zgarishlar bo'lishidan qat'iy nazar, unutmazlik lozimki, bundan maqsad talabalarning ta'lim sifatini oshirish va biror narsani o'rganishlari uchun ularning o'quv jarayonini yaxshilashdir. O'rganish uchun imkoniyatlarni taqdim etishimiz zarur. O'rganish sinfdan tashqarida to'xtamaydi. Bizning universitetlarimiz talabalarni sinfdan tashqarida o'rganishga undaydigan turli xil dasturlar va tadbirlarda ishtirok etishi kerak. Talabalarimizga boshqa narsalarni o'rganish imkoniyatini berish ularga shaxs sifatida o'sishga va darslarda o'rgangan ba'zi narsalarni amaliy narsaga qo'llashga imkon beradi. Bundan tashqari, biz to'garaklar, seminarlar va stajirovkalarni tashkil qilishingiz mumkin, ularda talabalar o'z ta'lim tajribasini kengaytirish uchun qo'shilishlari mumkin. Shuningdek, ushbu o'rganish tajribasini osonlashtirishda bizga yordam berish uchun turli tashkilotlar bilan hamkorlik qilishingiz mumkin. O'rganish

uchun ushbu imkoniyatlarni taqdim etish talabalarga keyingi hayotlarida karyeralarida yordam beradigan boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatini beradi. Sinfda va undan tashqarida o'rganishni rag'batlantiradigan universitet, albatta, yuqori sifatli ta'lim joyidir.

Ta'lim usullarini takomillashtirish: Dunyo bilan hamqadam bo'lish uchun bizning universitetlarimiz talabalarimizga o'z vaqtida va tegishli ta'lim berish uchun o'qitish usullarini yaxshilashi kerak. O'qitish usullarini yaxshilash uchun sinf xonasini ko'rib chiqishga harakat qilishimiz va o'qituvchilar dars olib borishini kuzatishimiz lozim. O'qituvchining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni va ularning talabalarining baholari natijalarini tekshirishimiz. O'qitish usullarini takomillashtirishga yordam beradigan yana bir yo'l - o'qituvchilar o'z talabalari bilan do'stona, ammo professional munosabatlar o'rnatishdir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi keskinlikning yo'qligi o'rganish qulay sur'atda bo'ladigan muhitni yaratadi. Innovatsion infratuzilma va texnologiyalarni joriy etish. Universitetning ta'lim sifatini oshirishning yana bir yo'li; texnologik yutuqlarni joriy etish va kampusda raqamli ta'limni qabul qilish kabi zamonaviy jihozlarga ega bo'lishdir. Texnologiyadan foydalanish samarali va qiziqarli ta'lim turiga imkon beradi.

Innovatsion texnologiyani qo'shishning bir usuli: Bu nafaqat eng yaxshi kompyuterlar yoki uskunalarni sotib olish, balki o'qituvchilar va maktab xodimlari bilan bog'lanish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishdir. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklaridan biri shundaki, biz ta'lim mazmunini yaratishimiz va baham ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun, buni amalga oshirishda texnologiyadan foydalanishimiz kerak. Bizning onlayn kontentimiz qiziqarli va dolzarb bo'lishi kerak, shunda talabalar uni ko'rib chiqishni xohlashadi. Universitetlarimiz infratuzilmasini yaxshilash ham talabalar uchun katta ish bo'lishi mumkin. Xonani qulay va estetik jihatdan yoqimli qilish kabi oddiy narsalar sinf mashg'ulotlarida ularga yaxshi kayfiyat va ko'proq qabul qiluvchi munosabatda bo'lishi mumkin.

Doimiy sifatni yaxshilash: Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan tashqari, universitetlarimizdagi ta'lim sifatini oshirish uchun nima qila olamiz, uni eng yaxshi holatda saqlashdir. Universitetlarimiz eng yaxshisi bo'lib qolishi uchun har doim qaysi

jihatlari bo'lsa, uni yaxshilashda davom etishimiz lozim. U o'qitish tizimida, texnologiyada yoki kampus madaniyatida bo'ladimi, uni har doim eng samarali va qiziqarli darajalariga moslash. Har doim universitetlarimiz taqdim etayotgan ta'lim sifatini kuzatib borish uchun o'zimiz ishlab chiqqan standartlar to'plamiga rioya qilishni unutmasligimiz lozim. Dunyo o'zgargan sari, yangi narsalarni o'rgatish va o'rganish kerak, shuning uchun mos ravishda moslashish va yangi dasturlar va kurslarni ishlab chiqish orqali bundan foydalanishimiz. Dunyo o'zgaradi va biz universitetni boshqaradigan shaxs sifatida institut tizimiga ham o'zgartirish kiritishimiz kerak. Shunday qilib, biz talabalarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim eta olamiz. Universitetlarimizning barcha jihatlarini takomillashtirish bizning o'qitish tizimimizni yuqori sifatli ta'lim bilan sinonimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.M. Mutanov, A.K. Tomilin, Yu.E. Kukina, N.A. Duzkeneva, A.M. Abdixalikova, A.E. Nurkanova. Управление качеством в высшем учебном заведении. Ust-Kamenogorsk-2011.
2. V.P. Stupnitskiy, O.P. Sherbakova, V.E. Stepanov. Psixologiya. Moskva-2013.
3. Bordovskaya Nina Valentinovna, Rean Artur Aleksandrovich Pedagogika Piter-2006.
4. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent-2017.
5. <https://yuz.uz/>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FANLARNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Hakimova Marjona Oybek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz tili birinchi fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar va metodlarning umumta'lim maktablaridagi dars o'tish jarayonida kasb etgan ahamiyati hamda ta'siri haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada hozirgi kunda yurtimizda umumta'lim maktablarida zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirishda qay darajada tayyor ekanligi va ushbu yondashuvlari tadbiiq etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga muqobil yechimlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy texnologiya, metodlar, zamonaviy sinf jihozlari, kompyuter savodxonligi.

Umumta'lim maktablarida fanlarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish metodikasiga umumiy ta'rif beradigan bo'lsak, ta'lim oluvchilar uchun yanada qulay va samarali sharoitni yaratgan holda, muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirishda zamonaviy metodlardan foydalanish tushunildi. Shu o'rinda, umumta'lim muassasasida zamonaviy texnologiya va metodlarni qo'llash ma'lum bir shartlarni talab qiladi ya'ni bular sinf jihozlarining zamonaviy standartlarga javob bera olishi, maktab ma'muriyati tomonidan kerakli sharoitlarni yaratib berishi, ta'lim jarayonini to'liq nazoratga olish, ta'lim beruvchining o'z kasbining ustasi bo'lishdan tashqari zamonaviy texnologiyalar haqida ko'nikmaga ega bo'lishi, shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchilar ham ushbu jarayonga tayyor bo'lishlari lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, maktablarda fanlarni zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash o'z navbatida ham o'qituvchi, ham o'quvchi, ham maktab ma'muriyatidan faollikni talab qiladi. Shuni aytib o'tish joizki, zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etishda sinf xonasining tayyorligi deganda, sinfda elektron doska, kompyuter, televizor, proyektr kabilar bilan jihozlangan bo'lishi tushunildi. O'z nomidan ma'lum bo'lganidek, zamonaviy jihoz o'z navbatida Internetni ham talab qiladi. Shu o'rinda sinfxonani Internet bilan ta'minlash maktab ma'muriyatining zimmasida bo'ladi.

To‘lqinli maydon tahlili T_{Φ} tuzilmali rejasi differensial xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yuqorida yotgan yotqiziqlar yuqori yura va quyi bo‘r yotqiziqlari hajmida (Shoda maydoni) yassi strukturalar hosil qilib, T_{Φ} yuzasini nivelerlaydi. Sardob, Markovskaya, Burun, Sartepa tuzilmalarida OG T_7 yuqorida yotgan OG T_6 va T_2 ga nisbatan keskin burmalar kuzatiladi. Murakkab yakka konuslar hosil qilgan xolmasimon geologik tanalar kuzatiladi. Bunday konuslar bilan yaxshi kollektorlik xususiyatga ega bo‘lgan qumtoshlar bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xolmasimon strukturalarning ichki tuzilishida qaytaruvchi gorizontlarning tartibsiz joylashganligini belgilash mumkin, bunda konsedimentatsion deformatsiya natijasida qisman yo‘qolgan boshlang‘ich sloylar chegarasini aniqlash mumkin. Yura yotqiziqlari ustki yuzasidan to‘lqinlarni qaytishi muhitli va amplitudasi xarakterini o‘zgarishi (amplitudaning qisqarish va qaytarish chastotasining ortishi) ko‘riladigan geologik obyektida litologik xususiyatlarning almashinishi bilan bog‘liq. Zichlashgan glina bilan (yuqori jadallikda qayid qilinishga ega) qumtoshlarning (regulyar yuqori sifatli xarakter namayonlanadigan) fatsial almashinish zonasi yuqori sifatli yozuv bilan korrelyatsiya yo‘qolguncha yozuv jadaligi keskin pasaygan o‘tish yozuvlarini namayonlaydi.

O‘rganiladigan hududda paleoko‘tarilma adirida murakkab sigmosimon qiyiq sloyli rasimlarni kuzatish mumkin, bu qatlamlanishning klinoformali yuzasi bo‘yicha cho‘kindi tananing jadalashi holitaga muvofiq kealadi. Bu o‘zida sigmavidli va aralash sloyliy shakllilarni turlicha almashinish kombinatsiyasini namayonlaydi. Yuqorida qayid qilingan ma’lumotlar mahsuldor tutqichlarni prognozlash bo‘yicha qo‘shimcha mezonlar sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Султанова Д.Б., Жамолов А.Н. выделение неантиклинальных ловушек в юрской терригенной формации центральной части чарджоуской ступени
Республиканская научно-практическая конференция /“Современный прогноз углеводородного потенциала недр и прогрессивные технологии поисково-разведочных работ на нефть и газ” 17-18 ноября 2016 г. Ташкент – 2016. С 26-28
2. Xalimatov I.X., Axmedov X.R., Babalov J.Q. Neft va gaz resurslari va zaxiralarini hisoblash, дарслик, Qarshi – 2021
3. Трудноизвлекаемая нефть: потенциал, состояние и возможности освоения, Олег Приёпа, Элик Халимов, Нефтегазовая Вертикаль 5/2011
4. Хаимов Р.Н., Ходжаев Р.А. Закономерности размещения и условия формирования скоплений природных битумов и высоковязких нефтей // Ташкент: Фан, 1987, С. 79-86.



РОЛЬ 3D ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСТРУКТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

Мухитдинов Абдувахоб Абдувалиевич

Ассистент кафедры Инженерная и компьютерная графика,
Джизакского политехнического института

Email: a.muxitdinov1987@gmail.com

Аннотация: В данной статье описаны дидактические особенности 3D-технологии в формировании конструктивных компетенций учащихся. Кроме того, разработана система педагогических условий для эффективного формирования профессиональных компетенций будущих инженеров сферы услуг. Были проанализированы интернет-сервисы, источники информации по общетехническим наукам, «Компьютерная графика», использование 3D-технологий и т.д.

Ключевые слова: Компьютерная графика, инженерная графика, 3D-технологии, информационно - коммуникационные технологии, конструктивная компетенция.

К дидактическим особенностям 3D-технологий в формировании конструктивных компетенций учащихся относятся:

- а) обучающийся должен уметь полноценно работать в информационно-коммуникационных технологиях;
- б) Компетентность в использовании 3D-технологий;
- в) иметь возможность творчески мыслить с использованием 3D-технологий;
- г) Студент должен уметь создавать проектные документы с использованием 3D-технологий в информационных и коммуникационных технологиях.

Студент должен уметь полноценно работать в области информационных и коммуникационных технологий. Основные компоненты информационной компетентности студентов:

- умение правильно выбирать источники информации;
- возможность находить и редактировать информацию из различных источников;
- иметь определенные технические навыки;
- умение использовать информационные технологии в своей работе;
- знать характеристики информационных потоков в желаемой области.

В результате обучения студенты используют компьютер для выполнения простых операций с файлами (создание, сохранение, поиск, запуск программы) для решения учебных и несложных практических задач; уметь выполнять практические задания и творческую работу в программах: Word Pad, Microsoft Power Point, Microsoft Excel, Microsoft Word; запуск широко используемых программ: текстовый и графический редактор на экране компьютера, тесты; работа с текстами и изображениями (информацией), объектами; поиск, внесение простых изменений, сохранение, использование и передача информации и данных, использование Интернета для создания небольших компьютерных проектов и презентаций [2].

Студентам необходимы знания в области мультимедийных технологий [1]:

- Преимущества и недостатки различных форматов графических файлов;
- Особенности тематического оформления медиакомпонентов;
- Общие правила авторского права при использовании цифровых источников;
- Цели и принципы создания сложной компьютерной анимации.

Профессиональная квалификация будущего инженера базируется на знании инженерной графики.

Будущий инженер:

- Построение прообразов пространственных объектов с использованием 2D и 3D технологий;

– Нанесение точек на различные октанты, прямые, плоскости и поверхности вращения;

– Трансформация дизайна с использованием современных компьютерных систем (КОМПАС 3D, AutoCAD и др.);

– Решить основные позиционные и метрические задачи с использованием мультимедийных технологий (3ds Max, Adobe Flash и др.);

– Построение чертежей, технических чертежей и эскизов типовых деталей, неразъемных и разъемных соединений сборочных единиц и деталей с использованием технологий 2D и 3D;

В наше время инженер должен знать компьютерную графику.

Знание компьютерной графики необходимо для инженеров, поскольку это ведущий технологический компонент инженерного проектирования и разработки [4].

Следует отметить, что компьютерная графика как часть информатики является основой технологической деятельности будущего инженера. Будущий инженер должен освоить основные понятия компьютерной графики: области применения компьютерной графики, виды компьютерной графики, форматы графических файлов, векторная графика в Интернете, цветовые модели и их виды, цветовая модель RGB, цветовая модель HSB, модель CMY. (Cyan Magenta Yellow), цветовая модель CMYK, цветовая модель Lab и другие [3].

Конструктивная компетентность будущего инженера отражает способность деятельностного компонента решать профессиональные задачи на основе знаний, полученных в области инженерии с использованием компьютерных технологий. В современных педагогических научных источниках навыки являются важнейшими составляющими компетентности. Конструктивная компетенция связана с инженерной графикой.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Б.Я.Советов, В.В.Сехановский. Информационные технологии: Учебник для прикладного бакалавра. М., 2017, 327 с.
2. Петров М.Н. Компьютерная графика. СПб. 2011. 544 стр.
3. В.И. Кочетов. Инженерная и компьютерная графика. Тамбов, 2010, с.80
4. Фетисов В.М. Инженерная графика и компьютерный дизайн. Шахти, 2009, 139 стр.



INFLYATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY MAZMUN MOHIYATI

Mingboyev Ibrohim Alisher o'g'li

Toshkent moliya instituti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ma'lumki, inflyatsiya darajasi (narxlarning oshishi) mamlakatning bevosita makroiqtisodiy rivojlanishi, aholi daromadlari va turmush farovonligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya holatini nazariy jihatdan o'rganib chiqish va unga qarshi choralarni yoritib berish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, Pul islohoti, Inflyatsiyaga qarshi siyosat

Bizga ma'lumki, Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish Markaziy banklarning bosh maqsadi hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori darajada namoyon bo'lishi iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga va aholi daromadlarining real qiymatining tushib ketishiga olib keladi. Inflyatsiya mamlakat iqtisodiyoti uchun haqiqiy sinovdir. Bu uning paydo bo'lishiga olib keladigan bitta sabab emas, balki nafaqat ishlab chiqarish holatiga, balki ijtimoiy-siyosiy kayfiyatiga bog'liq bo'lgan omillarning butun majmui. Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga

oladigan bo`lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta`sir ko`rsatayotgani haqida gapirib o`tirishning hech qanday zarurati bo`lmasa kerak, deb o`ylayman. Avvalo, inflyasiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas. Inflyatsiya - bu tovarlar va xizmatlar baholarining o`shishi natijasida muomaladagi pul massasining ko`payishi va shuning natijasida pulning qadrsizlanishidir. Men ushbu omillarning mohiyatini yoritishga xarakat qilaman. Xalqaro amaliyotda iqtisodchi olimlar inflyatsiyani yuzaga chiqaradigan omillar asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar.

Ichki omillarni mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi, davlat qarzdorligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko`payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;

Tashqi omillar o`z mohiyatiga asosan biron aniq davlat rivojlanishiga ta`sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks etadi. Ushbu omillarga dune mamlakatlarda yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashyo, energetika, neft, valyuta inqirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqari biron-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqiyosidagi valyuta siyosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin.

Inflyatsiya yuzaga chiqish shakllari:

Mahsulotlar va xizmatlarga narxni o`shishi natijasida pulning qadrsizlanishi

Milliy pul birligining xarid qilish qobiliyatini pasayishi

Milliy pul birligining xorijiy valyutaga nisbatan kursini tushishi

Aholi va xo`jalik sub`ektlarida xorijiy valyutaning jamg`arilishi

Oltin va xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxini ko`tarilishi


Mamlakat aholisida oltinning to`planishi (tezavratsiya)

Hozirgi vaqtda inflyatsiya tabiatini o`rganishda iqtisodchi olimlar uning monetar sabablarini, ya`ni tovar massasiga nisbatan pul massasining xajmini o`zgarishini asosi qilib ko`rsatadilar. Inflyatsiyaga qarshi kurash choralari:

1. Pul islohoti- davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarini tartibga solish va kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul tizimini to'liq yoki qisman o'zgartirish.
2. Inflyatsiyaga qarshi siyosat- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha inflyatsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.
3. Deflyatsion siyosat- pulga bo'lgan talabni pul soliq mexanizmi orqali tartibga solishni nazarda tutadi.
4. Daromad siyosati- narxlar ustidan parallel nazoratni o'z ichiga oladi va ish haqi, ularni butunlay muzlatish orqali.

Narxlar darajasining o'sish sur'ati yiliga 10% dan oshsa, aholi moddiy qiyinchiliklarni his qila boshlaydi. Bunday inflyatsiya bilan kurashish kerak, chunki u ko'plab odamlarni qashshoqlik chegarasidan pastga tushiradi. Hayot kundan-kunga qiyinlashmoqda, shuning uchun inflyatsiyani qanday to'xtatish va mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni normallashtirishni tezda hal qilish kerak. Lekin jiddiy inflyatsiya bilan kurashish usullari. Ushbu holatda faqat davlat tomonidan ishlatilishi mumkin, chunki bunday vaziyatda aholi hech narsaga ta'sir qila olmaydi. Hukumat qilish kerak bo'lgan birinchi narsa - bu tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni kamaytirishdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega: bu imtiyozli soliqqa tortish, subsidiyalar berish va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar tovar massasining ko'payishiga va import qilinadigan tovarlarning ichki bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi kerak. Ammo mamlakatning ishlab chiqarish sohasi talabni qondira olmasa, mahsulot taqchilligidan qutulish uchun import tovarlarni jalb qilish kerak. Iqtisodiyotimizning bozor munosabatlariga o'tishi pul qiymatini keskin oshirdi. Valyuta iqtisodiyoti muammolari milliy iqtisodiyotni qayta qurishning amaliy chora-tadbirlarida ham, nazariy tadqiqotlarda ham asosiy muammolarga aylanadi. Shu bois iqtisodiy matbuot sahifalarida bu masalalar qizg'in muhokama qilinayotganiga qaramay, ularning dolzarbligi pasaymayapti. Inflyatsiya

jarayonlarini tahlil qilishning yuqori narxi, ko'p sonli operatsion omillar to'g'ri pul-kredit siyosatini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Mamlakatimiz tajribasidan ko'rinib turibdiki, boshqa mamlakatlar qatori bozor munosabatlariga o'tish narxlarning tez o'sishi va inflyatsiya omillari ta'sirining kuchayishi bilan kechmoqda. Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.



2020 yilda inflyatsiya darajasi uchun 12, 5 foizli target o'rnatilgan edi. Tepadagi rasmda ko'rinib turganidek, o'tgan yil uchun inflyatsiya darajasi 11–11,5 foiz prognoz qilingan. 2020 yilda iste'mol sektorida inflyatsiya 11,1 foizni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari 15,3 foiz, noziq-ovqat mahsulotlari 8,8 foiz va xizmatlar 7,1 foizga qimmatlashdi. Inflatsion targetlash rejimini samarali joriy qilish uchun pul-kredit siyosati inflatsiyaning belgilangan maqsadli darajasiga erishish zaruriyatidan kelib chiqib, bozor instrumentlari ta'sirini qo'llagan holda banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarini Markaziy bank intervensiyalari orqali samarali boshqarish yo'li bilan amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan keyingi davrida yuqori inflyatsiya darajasi kuzatilgani va faqatgina 2003-2016 yillarda inflyatsiya bitta

raqam bilan ifodalanishiga erishgan. Ammo 2017 yildan mamlakatimizda inflyatsiya darajasining oshishi kuzatilgan. Bunda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarni, xususan keng qamrovli davlat dasturlarining bajarilishi, naqt pul masalasining xal etilishi, milliy valyutamizning erkin konvertirlanishi taminlanishi va boshqa shu kabi dolzarb masalalarni sabab sifatida keltirishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya darjasining optimal barqarorligiga erishish hozirgi zamon iqtisodiyotining dolzarb masalalaridan biri xisoblanib, bu yo'lda mamlakatda fiscal va monitar siyosat olib boriladi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, AQSh va ko'pgina Yevropa davlatlarida monitar siyosatga kata ustunlik berilgan bo'lsa, ya'ni Markaziy bank iqtisodiyotda dominant xisoblansa, xususan Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarda hamda Rossiya va bizda ham fiskal siyosatga kata ahamiyat berilib kelmoqda. *. Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qarama-qarishliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun, davlat iflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi kerak.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.X. Nazarova. *“Makroiqtisodiyot” fanidan ma'ruzalar matni.*
- 2.Mirziyoyev Sh. *Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2017y*
- 3.X.S.Xadjaev, I.A.Bakiyeva, Sh.Sh. Fayziev. *Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma) - T.:*
4. *<http://www.cbu.uz>- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti*

QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANINING GEOLOGIK TUZILISHI VA RELYEF SHAKLLARI

Azimov Azamat Faxriddin o‘g‘li¹

Normurodov Asadbek Abdishukur o‘g‘li²

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti 3-bosqich talabasi ¹

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti 2-bosqich talabasi ²

Annotatsiya: Maqolada Qamashi tumanini ma’lum geologik vaqt davomida rivojlanish tarixi, geologik hosilalarning rivojlanishi va ro‘y bergan burmalanishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ordovik, gertsin, gips-angidrid, kaynozoy, kontenintal, gorizonta, tektonik, paleogen, assimetrik, lyoss.

Qamashi tumanining geologik tuzilishi murakkab bo‘lib, metamorfik jinslaridan tashkil topgan.

Ordovik silur va devon davrlarida bu xududda dengiz bo‘lgan. Uning oxaktosh, gil, qumtosh tarkibli hosilalari bu davrlardan keyin ro‘y bergan gertsin burmalanishi natijasida metamorflashgan.

Tumanning tog‘ va tog‘ oldi qismi yura va bo‘r davrlarining dengiz yotqiziqlaridan iborat. Chunki tog‘ tizmalari avval gertsin va so‘ng alp orogenizida burmalangan. Bunga tuman hududiga tegishli qismi yura davri iliq dengiz mahsulotlari bo‘lgan oxaktosh va gips-angidridli jins majmualaridan tashkil topganligi bunga ishoradir. Kaynozoy erasining paleogen davrida bu joylar o‘rtacha sayozliklardagi iliqroq dengiz bilan qoplangan. Chunki bunday sharoit hosilasi bo‘lgan paleogen davri Buxoro geologik asri chig‘anoqli oxaktoshlar aksariyat kichik tog‘ tizmalarining yadrosini tashkil etadi. Endilikda o‘ziga xos yemrilishga moyil va assimetrik kichik tizmalar sifatida namoyon bo‘lgan chig‘anoqli ohaktosh tog‘-qir silsilasi bu joylar relyefining xarakterli xususiyatidir.

Tumanning tog‘ oldi mintaqasi adirlar siniq-chaqiq jins qatlamlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular neogen davri dengiz va quruqlik o‘zaro ta‘sirida jarayonining natijasida tog‘ oldi relyefining o‘ziga xos hosilasi bo‘lgan adirlar yuzasi to‘rtlamchi davr lyossimon yotqiziqlari bilan qoplangan. Kontenital hosilalari bo‘lmish adir zonasidagi konglomeratlarning qalinligi 100 metrgacha yetadi. Tumanning tekislik qismi to‘rtlamchi davrning turli geologik asrlarida vujudga kelgan daryo yotqiziqlari ta‘sirida tuzilgan qum vag gil toshlar bilan qoplangan. 10-15 metr qalinlikdagi bu qoplam tagida paleogen yotqiziqlari bor. Yura davriga mansub dengiz gil toshlari va qum toshlarining qatlamlari joylashgan. Qizil, ko‘k va jigarrang gil toshlar tagida o‘rtacha 800-1000 metr chuqurlikda yura davri marjonli ohaktoshlari, shuningdek ayrim joylarda gips angidrit, toshtuz qatlamlaridan iborat yotqiziqalar joylashgan, xususan gorizontallarni tashkil etuvchi bu jinslarning majmualari qo‘ng‘ir tog‘ kabi qoldiq tog‘larining tektonik tuzilmalari yer yuzasiga yorib chiqqan burmalaridan ko‘rinadi.

Tuman relyefi g‘arbdan sharqqa va Qashqadaryo o‘zanidan janubiy shimolga tomon asta-sekin ko‘tarilib boradi. Bu hududning g‘arbiy qismi relyefi tekisliklardan iborat bo‘lib, umumiy maydonining 1/4 qismini Qarshi dashtlari egallagan. Tuman relyefi sharqqa va janubga tomon ko‘tarila borib tekisliklar-adirlar, so‘ngra past va balandroq tog‘lar bilan almashinadi. Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlaridan bo‘lgan Chaqchar tog‘i eng baland tog‘ bo‘lib, katta Xuroson, katta Xarsang cho‘qqisining dengiz sathidan balandligi 3749 metrni tashkil qiladi va u Qashqadaryo havzasini Surxondaryo havzasidan ajratib turadi.

Ma‘lumki, tuman yer yuzasining hozirgi qiyofasi geologik taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ana shu bog‘liqlikni hamda hozirgi relyef hosil qiluvchi jarayonlarning xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tuman hududida uchta relyef mintaqasini ajratish mumkin .

1. Tekislik relyefi mintaqasi
2. Tog‘ oldi yoki adir relyefi mintaqasi
3. Tog‘ burmali relyefi mintaqasi

Tekislik relyefi tuman hududining katta qismini egallaydi. U Qarshi cho‘llariga tutash qismida va Yakkabog‘ tumanini chegarasigacha davom etadi. Qamashi tumanining tekislik hududini ikki qismga ajratadi.

1. To‘lqinsimon yassi tekisliklardan tashkil topgan Qashqadaryo o‘ng sohili tekisliklari.

2. To‘lqinsimon yassi va qiya tekisliklardan tashkil topgan Qashqadaryo chap sohili tekisliklari.

Bu tekisliklar relyefi tumanning tog‘ va tog‘oldi mintaqalaridan tashqari, hamma joyda keng tarqalgan bo‘lib, janubda Hisor tog‘lari tomon ko‘tarilib, to‘lqinsimon qiya tekisliklar relyefi bilan almashinadi. Tog‘oldi adirlaridan boshlanadigan ko‘pchilik soylarning quyi oqimidagi yoyilma konuslar to‘lqinsimon o‘rkachli tekisliklarni hosil qiladi. Ayni xildagi relyef G‘uzor-Qamashi oralig‘ida juda aniq namoyon bo‘lgan. Bu yerlarni 40-60 metr qalinlikdagi to‘rtlamchi davr lyoss yotqiziqlaridan tashkil topgan qirlarda eroziyaning kuchli rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Yuqorida takidlangan tekisliklarning janubida ya‘ni Hisor tog‘ tizmalarining shimoliy etaklarida adir mintaqasi yotadi.

Tog‘oldi qiya tekisliklari hisoblangan adirlar shimoldan janubga tomon 600-1200 metr balandliklargacha ko‘tarilib boradi. Bu adirlar (8x18 km) Chaqchar tizmalariga tutashib ketadi. Langar, Yakkabog‘ daryo havzalarini ishg‘ol qiluvchi va anchagina keng maydonlarni egallab yotgan tuman, adir mintaqasi tog‘ va tekislik oralig‘ida yaqqol ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Qarshi-1994.
2. Qamashi tumani pasporti. 2017-2019.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

ИСПАНЛИ-ЧАНИР КЎТАРИЛМАСИНИНГ ГИДРОГЕОЛОГИК ТАВСНИФИ

Ҳ.А.Панжиев

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
мустақил изланувчиси

Аннотация: Ер ости сувлари ҳосил бўлиш шароитлари турлича бўлиб, ҳосил бўлиш жараёнларида ер остига сингиб кириш натижасида ўтаётган қатламлар таркибини ювиб ўтади. Нефтли сувларда тикловчи бўлиб водородсульфид, икки валентли темир ионлари ва углеводородлар (нефть, газ) ҳисобланади. Нефтли сувларнинг Eh кўрсаткичи паст, манфий бўлади.

Калит сўзлар: юқори юра – неоком, қуйи-ўртаальб, қуйи турон ва ёпиб турувчи палеоген сув-босимлари. Матонат, Дивалкак

Матонат майдони гидрогеологик жиҳатдан мураккаб тузилган Амударё артезиан ҳавзасининг жанубий-шарқий қисимида жойлашган.

Бухоро – Хива нефтгазлий области тўрта сув – босимли комплексга бўлинади:

Юра, неоком – апт, альб – сеноман, турон усти.

Улар бир – биридан регионал изчилсув – босимлари билан ажралиб туради: юқори юра – неоком, қуйи-ўртаальб, қуйи турон ва ёпиб турувчи палеоген сув-босимлари.

Ўрганиладиган ҳудудда палеозой сувлари ўрганилмаган.

Чуқур қуйилган сув ҳавзаларига гидрогеологик тадқиқотлар ўтказилмаганлигини ҳисобга олиб ва ўрганиладиган Матонат майдонинг газлилиги юра терреген ва карбонат ётқизиқлари билан боғлиқлигини ҳисобга олиб, асосан юра сувлий комплексини гидрогеологик шароити ёритиб берилган. Бу кумтош, алевролит сувли горизонтларни ўз ичига олиб, юра терреген

ётқизиклари (XVIII, XVII горизонтлар) ва юқори юра карбонат қатлари сувли горизонтлари (XVI, XV-ро, XV-р, XV-ру горизонтлар)

Матонат майдонида №1 параметрик қудукда 11та объект синалган бўлиб, биттаси палеозой, олтитаси терреген, иккита риф, ва иккита юра ётқизиклари риф усти оралиқлари.

Палеозой ётқизикларидан оқим олинмаган. Юра терреген ётқизиклари учта оралиқдан қатлам суви олинган. 2806-2816 м оралиқдан саноат миқёсда газ олинган.

XV-р горизонтида 2 та оралиқ синалган бўлиб, қатлам суви олинган. XV-ру горизонти иккита синалган оралиқдан биттасидан қатлам суви олинган, бошқасидан кам нефтоқими қатлам суви билан олинган

Матонат майдонида олинган намунанинг таҳлили бўйича ўрта юра терреген комплекс сувларининг минерализацияси хлорид – кальций турга мансуб.

r_{Na} ва r_{Cl} коэффициентларининг қиймати бу сувларни юқори метаморфизациядан далолат беради. (0,56-0,75; 2,58-15,97 муносиб). Сувнинг сульфатланиши паст $r_{SO_4} = 0,08$ r_{Cl} бир хил ион-туз таркиблий. Бу сувларнинг ион-туз таркиби натрий ва калий ионларидан иборат (10,8-52,4г/л), калий миқдори (46,4-30,1г/м) магнийга (0,4-4,3г/л) нисбатан сезиларли даражада юқори. Сульфат ва гидрокарбонатлар миқдори 0,01-3,14г/л ва 0,03-0,6г/л, хлор 55-620г/л.

Йод, бром, окись бор ва олтингугурт микрокомпонентлар аниқланмаган, аммоний 0,004-0,012 г/л, ташкил қилади, ис газ 0,009-0,65 г/л, азот окиси 0,001-0,005 г/л, темир 0,002-0,005 г/л, кремнезем окиси 0,004-0,014г/л, нефтли кислоталар аниқланмаган.

Матонат майдонида терреген юра сувларининг газга тўйинганлиги ўрганилмаган. Дивалкак қонида XVIII горизонт газли ва XV-ру горизонти нефтгазли.

(В.А.Кудрякова, Т.Н.Авазова ва б, 1985й) маълумотлари бўйича «Сувнинг газга тўйинганлиги ошиб бориши» кесим бўйича юқорида 0,6-0,8 дан 1,16-1,39 м³/м³ гача ўзгаради.

Юра ётизиғи сувлари С бит билан бойиган (7,49 мг/л, гача) Ф (0,95мг/л), НК (1,3мг/л), Б (0,1мг/л дан кам) таркиби паст.

Матонат майдонида №1, №2, №3 кудуқларда юра ётқиқиқларини синаш давомида газ пайдо бўлиши содир бўлган, XV-ру горизонтида №1 кудуқдан газ нефт билан кучсиз оқими олинган.

XV-ру горизонти қатлам сувларининг газга тўйинганлиги №2 кудуқда 1-1,85м³/м³ ни ташкил қилади. Қуйи-ўрта юра ётқиқиқларида қуйидагича ошиб боради 0,92м³/м³ 1 кудуқ. №3 дан 1,28-2,6м³/м³, кудуқ№2 гача.

№2 кудуқ юра ётқиқиқларидан олинган сув намунаси таркибига фенол 5,08мг/л етади, нафтин кислота 1,5мг/л, бензол 0,57мг/л. №3 кудуқдан қуйи – ўрта юра ётқиқиқларидан олинган сув намунаси бўйича фенол миқдори бир қанча кам (3,9 мг/л) ва бензол бир қанча кўп (2,25мг/л).

Ўрганилган кўтарилма адирли мураккаб тузилишга эга, бу худудлардаги ер ости сувларида юра, бўр даврларига мансуб бўлиб кам миқдорда фенол, бензол ва газ таркибли. Ер ости сувларидаги микроэлементлар маълумотлар асосида маҳсулдорликни баҳолаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Бурцев М.И.*, Поиски и разведка месторождений нефти и газа.- М: Изд-во РУДН, 2006.
2. *Ермолкин В.И., Бакиров Э.А., Сорокова Е.И., и др.* Критерии прогноза фазовой зональности углеводородов в осадочный толщах земной коры. - М.: Недра, 1998.
3. *Габриэлянц Г.А.* Геология, поиски и разведка нефтяных и газовых месторождений. - М, Недра, 2002.
4. *Карцев А.А., Вагин СБ., Шугрин В.П., Брагин ЮЛ.* Нефтегазовая гидрогеология. - М, Высшая школа, 2001.
5. *Xalimatov I.X., Axmedov X.R., Babalov J.Q.* Neft va gaz resurslari va zaxiralarini hisoblash, дарслик, Qarshi – 2021

YER QOBIG‘IDA ZILZILALARNING PAYDO BO‘LISHI VA TARQALISHI

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, katta o‘qituvchi

Normo‘minov Mirkomil G‘aybulla o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, talaba

Annotatsiya: Zilzilalar yer sharining tektonik jihatdan eng faol bo‘lgan tog‘ tizmalari joylashgan hududlarda ko‘proq bo‘ladi. Bu joylar geologik nuqtai nazardan litosfera plitalari deb yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zilzilalar, tektonik, vulqonogen, o‘pirilish, zilzila o‘chog‘i, gipotsentr, epitsentr, izoseyst, tektonosfera, seysmograf, geologiya, seysmogramma.

Zilzila (yer qimirlash) — yer po‘stida yoki mantiyaning yuqori qismida to‘satdan siljish, sinish yoki o‘pirilish ro‘y berishi oqibatida vujudga keladigan va to‘lqinsimon tebranishlar tarzida uzoklarga tarqaladigan yer osti silkinishlari va tebranishlari. Sabablariga ko‘ra, tektonik, vulqonogen va o‘pirilish zilzilalariga bo‘linadi.

Yer po‘stining har xil chuqurligida tabiiy kuchlar ta‘sirida sodir bo‘ladigan silkinishlar tektonik zilzilalar deyiladi. Ular yer qa‘ridagi harakat va jarayonlarning mahsuli bo‘lib, bu jarayonlarning kinetik quvvat tarzida birdan sarflanishi oqibatidir.

Vulqoniy va o‘pirilish zilzilalari tabiatda juda kam sodir bo‘ladi; ular kuchi jixatidan tektonik zilzilalarning eng kuchsizi bilan tenglashadi. Yer sharida sodir bo‘ladigan zilzilalar soni yil davomida bir necha yuz mingga yetishi mumkin. Shulardan aksariyat ko‘pchilik kismi seysmograflargina sezadigan kuchsiz zilzilalar bo‘lib, odamlar sezadiganlari bir necha mingga yetadi. Xalq xo‘jaligiga zarar yetkazadigan zilzilalar esa bir necha o‘ndan bir necha yuztagacha bo‘lishi mumkin.

Zilzila tabiiy ofatlar ichida insoniyatni eng ko‘p tashvishga soladigan hodisalardan biri. Shuning uchun ham zilzila qanday sodir bo‘ladi, u qayoqdan kelib

chiqadi, degan masala qadimdan olimlarni o‘ylantirib keladi. Grek mutafakkirlari Demokrit, Aristotel va boshqalar o‘z asarlarida yer qimirlashi qanday yuz berishini tushuntirishga harakat qilgan. Ulug‘ mutafakkir Abu Ali Ibn Sino «Kitob ash-shifo» asarida yerning turli hududlarida zilzilaning silkinish kuchi va qaytarilish davri turlicha bo‘lishini qayd etgan.

YUNESKO ma’lumotiga ko‘ra zilzila keltiradigan iqtisodiy zarar va insonlar orasidagi qurbonlar bo‘yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o‘rinni egallaydi.


Avvalo, zilzilani kelib chiqishi sabablari shundayki, birinchidan, yer ostida kimyoviy va fizikaviy murakkab jarayonlar davomida temperaturaning o‘zgarishi jinslarning o‘rin almashish harakatini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, yerning o‘z o‘qi va quyosh atrofidagi harakati unga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, yer yadrosida termoyadro jarayonlari to‘xtovsiz bo‘lib turadi. Bunday harakatlar turli qatlamlarda turlicha bo‘ladi va yer qobig‘ida to‘lg‘ama harakat vujudga keladi. Buning oqibatida zilzilalar sodir bo‘ladi. Demak, zilzilani keltirib chiqaruvchi asosiy kuchlar yerning chuqur qatlamlarida joylashgandir [3].

Yer po‘stida yoki mantiyaning yuqori qismida to‘satdan siljish, sinish yoki o‘pirilish ro‘y berishi oqibatida vujudga keladigan va to‘lqinsimon tebranishlar tarzida uzoqlarga tarqaladigan yerosti silkinishlari va tebranishlari zilzila deyiladi. Bir yil davomida bir necha yuz ming zilzila yuz berishi mumkin, ularning aksariyati faqatgina seismograflar sezadigan kuchsiz zilzilalar bo‘lib, odamlar sezadiganlari bir necha mingga yetadi, vayronkor yer silkinishlari esa bir yilda bir necha o‘ndan bir necha yuztagacha bo‘lishi mumkin [3].

Zilzila hodisasini seismologiya fani o‘rganadi. Agar zilzila markazidan yo‘nalgan to‘lqin yer sirtiga tik yoki unga yaqin burchak ostida urilsa, yer ustidagi jismlar yuqoriga ko‘tari-libtushadi. To‘lqin qiya urilganda esa yer ustidagi jismlar gorizonta yo‘nalishda suriladi, ba’zan ular qayiqqa o‘xshab chayqaladi, daraxtlar og‘ib, yana tiklanadi, imorat bezaklari ko‘chib tushadi.

Zilzilalarni tahlil qilishda zilzila o‘chog‘i, gipotsentr, epitsentr, izoseyst va boshqa tushunchalardan foydalaniladi.


Zilzila o‘chog‘i – bu yer qa‘rida oniy buzilishga uchraydigan tog‘ jinslarining hajmi (1-rasm).



1-rasm. Zilzila o‘chog‘ining tuzilish sxemasi.

Yer ichidagi zilzila markazi - *gipotsentr*, uning yer yuzasidagi proyeksiyasi - fokusi *epitsentr* deb ataladi. *Izoseyst* – tebranishlar kuchi teng bo‘lgan chiziq.

Zilzilalar o‘chog‘ining ko‘pchiligi 10-30 km chuqurliklarda joylashgan. Ulardan asosiy qismi (85 %) tektonik siqilish va ozrog‘i (15 %) tektonik cho‘zilish vaziyatlari bilan bog‘liq.



2-rasm. Yer sharidagi zilzilalar faol hududlar

(Litosfera plitalari chegaralari).

Litosfera va astenosferadan tarkib topgan *tektonosferada* bunday jarayonlar natijasida gipotsentrda mexanik energiya hosil bo‘ladi. Bu energiya gipotsentr atrofidagi qatlamlarga elastik to‘lqinlar tarzida yoyiladi.


Yer sharida sodir bo‘ladigan zilzilalar yer po‘stining asosan ikki yirik harakatchan mintaqasida joylashgan.

1. *Tinch okeani mintaqasidagi* zilzilalar barcha zilzilalarning 80% ini tashkil etadi.


2. *O‘rta yer dengizi - Indoneziya mintaqasi.* Bu mintaqaga barcha zilzilalarning 12% to‘g‘ri keladi [1].

Zilzilalar ko‘p sodir bo‘ladigan har bir mamlakatda seysmograflar bilan jihozlangan seysmostansiyalar qurilgan bo‘ladi. Seymostan-siyalarda uchtdan seysmograf-lar o‘rnatilgan bo‘ladi. Ulardan ikkitasi o‘zaro prependicular bo‘lgan gorizontal yo‘nalishdagi, uchinchi esa vertikal yo‘nalishdagi tebranishlarni qayd etadi.

Seysmograflar tebranishlarni yorug‘lik yoki elektr signallariga aylantirib, magnit tasma-siga uzluksiz yozib boradi. Seysmik tebranishlar yozuvi seysmogramma deyiladi.



Grizontal tabranishlarni qayd etuvchi seysmograf.



Seysmogramma.

Tarixda eng kuchli zilzilalar Chili (1960), Alyaska (1969), Suriya, Falastin, Kichik Osiyo, Hindiston, Xitoy (1976), Yaponiya va O‘rta Osiyoda: Andijon

(1902), Almati (1911), Xait (1949), Ashgabad (1929, 1948), Toshkent (1966), Chotqol (1946) va boshqa joylarda sodir bo‘lgan.

Pireney yarim-orolida, Portugaliyaning poytaxti Lissabonda 1755 yil 1 noyabrda dunyoda eng kuchli zilzila (11 - 12 ball) sodir bo‘lgan. Bu zilziladan qo‘rqqan aholi dengiz sohiliga qochgan, biroq, sohil odamlar bilan birga bir zumda 200 metrgacha cho‘kib, ular ustiga dengiz bosib kelgan.

Olimlar Yer sharida 4000 yil davomida taxminan 13 mln. kishining zilziladan halok bo‘lganligini hisobga olganlar [1].

Ma’lumotlarga ko‘ra, har yili yer yuzida 500 mingga yaqin zilzila sodir bo‘ladi. Shuning taxminan 100 mingtasi jiddiy vayronagarchilik keltirib chiqaradi. Qolganlari uncha xavf tug‘dirmaydi. Birgina Janubiy Kaliforniyaning o‘zida har yili 10 ming marta yer qimirlaydi. Ularning aksariyati xavf tug‘dirmaydi [3].

AQSH Geologiya xizmati yoki Yevropa—O‘rtayer dengizi seysmologiya markazi kabi muassasalar deyarli butun jahon bo‘ylab yuz berayotgan yer qimirlashlari haqida onlayn axborot uzatadi. Yaqin qo‘shni mamlakatlar, xususan, Qozog‘istondagi Milliy axborot markazi Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi silkinishlar haqida o‘z saytida muntazam ma’lumot beradi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Seysmologiya instituti mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan olimlar faoliyatini muvofiqlashtirib tursa, “Toshkent” markaziy seysmik stansiyasi O‘zbekiston bo‘ylab yuz bergan silkinishlar haqidagi axborotlarni to‘playdi, mazkur axborotlar O‘zbekiston raqamli seysmik tarmog‘ida e‘lon qilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Chiniqulov X., Jo‘liyev A.X.. “Umumiy geologiya”. Toshkent-2010.
2. Toshmuxamedov B.T. “Umumiy geologiya”. Toshkent-2007.
3. www.google.com
4. www.geocniga.ru

УЎТ: 631.511.631.52

**ИСТИҚБОЛЛИ «ЎЗПИТИ – 203» ҒЎЗА НАВИНИНГ НАВДОРЛИГИНИ
ОШИРИШ НАТИЖАЛАРИ ВА ҚИСҚАЧА АГРОТЕХНИКАСИ**

Эгамов Хусанбой

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти доценти,

Эргашботиров Самандар Мухиддин ўғли

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти талабаси

Аннотация: Мақолада, олиб борилган тадқиқотлар натижасида навнинг соф элита уруғларини етиштиришга эришилди. Жумладан, биринчи йилги кўчатзордан 1540 якка танлов, 95 кг супер элита, уруғ кўпайтириш кўчатзоридан 1120 кг элита уруғи териб олинди. Ғўзанинг ҳосилдор, “ЎзПИТИ-203” навининг наводорлиги 100 фоизга етказилганлиги келтирилган.

Калит сўзлар: кўчатзор, супер элита, элита, кўчат қалинлиги, ягона, чилпиш, суғориш, маъдан ўғитлар.

Пахтачиликни юксалтиришда ғўза селекцияси ва уруғчилигини ривожлантириш ўта муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун, навларни наводорлиги оширилса, нав тозаллиги юқори бўлса, толанинг сифати юқорилигича сақланади. Шунингдек, тола чиқиши ҳам мазкур навга тааллуқли бўлган дастлабки ҳолда қолади. Булардан ташқари, навга хос агротехника қўллашда камчиликка йўл қўйилмайди. Бирламчи уруғчиликни ташкил этиб, супер элита ва элита уруғларини кўпайтириш орқали навни Республикамиз вилоятлари майдонларига кенг жорий этиш мумкин бўлади [1, с.1-64; 2, 115-117 б.].

“ЎзПИТИ – 203” нави селекциячилар Т. Комилов, Х. Эгамов ва бошқалар томонидан Андижон – 40 х Л –168 навларини ўзаро чатиштириб, кўп марта танлаш йўли билан яратилган.

«ЎзПТИ – 203» навининг тупи конуссимон шаклда, ихчам, бўйи 105-110 сантиметр. Пояси мустахам, ётиб қолмайди, кучсиз тукланган. Шохланиши 1 типга мансуб, биринчи ҳосил шохи 5-6 бўғиндан чиқади, ўртапишар навлар гурухига киради, амал даври 120-122 кун. Барглари ўртача катталиқда, 3-5 бўлмали, қирқилгансимон, кучсиз тукланган. Гули ўртача катталиқда, гултож барглари оч сариқ рангда. Кўсақлари ўртача катталиқда, овалсимон, 4-5 чаноқли. Бир дона кўсақдаги пахта вазни 6,0 грамм. Чигити тукли, кулранг.

Навнинг тола хусусиятлари: оқ рангли, узунлиги 33,2-34,3 миллиметр, тола чиқиши 37,5 фоиз, пишиқлиги 4,6 грамм/куч, нисбий узилиш узунлиги 28,6 грамм куч/текс, метрик рақами 5800 микронейри 4,3 IV-саноат типига мансуб.

Навни муайян майдон тупроқ шароитига, ернинг нишоблиги, рельефига қараб 60 ва 90 сантиметрли қатор ораларга экиш мумкин. Чигит экиш чуқурлиги бошқа навлардан фарқ қилмайди. Чигит экиш олдидан яхоб суви берилган майдонларда экилган бу навни чигити тез кунда, қийғос униб чиқади, соғлом, дуркун ўсиб ривожланабошлайди. Чигитни униб чиқиши учун тупроқ намлиги етарли бўлмаган далаларда чигит суви бериб уруғларни тўла униб чиқиши таъминланади. Чигити текис униб чиққан майдонларда ўсимлик ўртача 1-2 чинбарг ҳосил қилганда яганалаш ўтказилади. Ҳар бир уяда 1 донадан ўсимлик қолдириладиган экиш тартибини қўллаш мақбул бўлади. Изланишлар натижалари бўйича, мазкур нав учун муайян даланинг тупроқ шароитига қараб кўчат қалинлиги қолдирилади. Хусусан, тупроқ унумдорлиги юқори майдонларда гектар ҳисобига 90-100 минг туп, ўртача унумдор тупроқли далаларда 110-минг туп, тупроқ унумдорлиги паст, тошлоқ, адирли далалар шароитида 120 минг туп кўчат қалинлиги тавсия этилади. «ЎзПТИ – 203» ғўза навини амал даврида биринчи марта суғориш тупроқ шароити ҳамда ўсимлик ҳолатига қараб, сизот суви чуқур жойлашган майдонларда бир туп ўсимлик ўртача 6-7 чинбарг чиқарганда ёки шоналаш даври бошланганда, сизот суви юза жойлашган тупроқ шароитида эса (захкаш ерларда) ёппасига шоналаш даврида ўтказилади. Кейинги амал сувлари ўсимлик ҳолатига қараб, сувга талаб сезилганда ўтказилади.

Навни маъдан ўғитлар билан озиқлантиришнинг йиллик меъёри: азот билан 250 кг/га, фосфор билан 175 кг/га, калий билан 125 кг/га, нисбати эса 1:07:05 бўлиши лозим. Бу нав парваришланаётган далаларда ғўза қатор ораларига ишлов бериш чуқурлиги, қамров кенглиги, сони амалдаги тавсияларга мос келади. «ЎзПИТИ – 203» навини чилпиш муайян майдондаги ғўзанинг кўчат қалинлигини ҳисобга олиб ўтказилади. Нав кўчат қалинлиги гектар ҳисобига 90-100 минг туп бўлганда бир туп ўсимлик ўртача 13-14 ҳосил шохи, 110 минг туп бўлганда 12-13 ҳосил шохи, 120 минг туп бўлганда эса 12 ҳосил шохи пайдо бўлганда амалга ошириш тавсия этилади. Ушбу ғўза нави парваришланаётган майдонларда бегона ўтлар, хашоратлар ва касалликларга қарши кураш тадбирлари ҳамда дефолиация ўтказиш бошқа навлардан фарқ қилмайди. Бу агротадбирлар амалдаги тавсиялар асосида амалга оширилади. Ғўзанинг «ЎзПИТИ – 203» нави юқори агротехникавий савияда, ушбу илмий тавсияларга риоя қилинган ҳолда парвариш қилинса гектар ҳисобига 40-41 центнер сифатли ва эртаки пахта ҳосили етиштириш имконияти яратилади.

Нав 2017 йилдан истиқболи навлар қаторида Давлат реестрига киритилган. 2021 йилда нав Андижон вилоятининг айрим фермер хўжаликларида жами бўлиб 500 гектар майдонга экилди. Навни ўсув даврининг гуллаш фазасида биринчи дала кўриги, кўсаклаш фазасида иккинчи ва терим олдидан учинчи дала кўригидан ўтказилиши мақсадга мувофиқ деб топилган. Бунда биринчи кўрикда тажриба объекти бўлган навнинг бутун габитуисига асосланиб таҳлил қилинганда нав шакли тула намоён бўлмайди. Бу кўрикда ўсиш, шохлар ва ҳосил элементларини пайдо бўлиши охирига етмаган бўлади. Бунда асосий эътибор маҳаллий шароит таъсирида униб чиқиш, яъни кўчат сонига ва касалланиш ва хашаротлардан зарарланиш даражасига қаратилади. Иккинчи ва учунчи кўрикда эса, навга ҳос бўлган белгилар яққол кўзга ташланади ва бу ҳолат навга ҳос бўлмаган ўсимлик (оила)ларни аниқлаш ва чиқитга чиқариш имкониятини беради. Тадқиқотлар Ўзбекистан Республикасида доимий равишда қўлланилиб, оммавийлашган асосий меъерий ҳужжат, 1981 йилда қабул қилинган “Элита ва биринчи репродукция уруғларини

ишлаб чиқариш бўйича йўриқнома”да келтирилган услублар асосида олиб борилди. Тадқиқот мақсади *ПСУЕАИТИ Андижон илмий-тажриба станциясида 2019-2021 йилларда ўтказилди*. Худуднинг тупроқ шароитидан келиб чиқиб, чигит экиш ишлари апрел ойининг **1-10** кунлигида бажарилди.

Биринчи йилги кўчатзорга экилган 333 та оиланинг 140 таси чиқитга чиқарилди. Бунга асосий сабаб оиладаги ўсимликларнинг нотипиклиги, навга хос белги ва хусусиятларини намоён этмаганлигидир. Шунингдек, айрим оила ўсимликлари нормал ривожланишдан орқада қолганлиги ва касаллик ҳамда хашаротлар таъсирида зарарланганлиги ҳам айрим оилалар (2 %) ни чиқитга чиқаришга олиб келди. Айрим оилалар кўчат сонининг кескин сийрак бўлиб қолиши натижасида айрим морфологик белгиларни бузилишига олиб келди. Териб олинган оилалардан “Сифат” маркази тахлилларидан кейин тола узунлиги бўйича 14.3 % ва микронејри бўйича 16.2 % оила чиқитга чиқарилди. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида навнинг соф элита уруғларини етиштиришга эришилди. Жумладан, биринчи йилги кўчатзордан 1540 якка танлов, 95 кг супер элита, уруғ кўпайтириш кўчатзоридан 1120 кг элита уруғи териб олинди.

Хуллас, ғўзанинг ҳосилдор, “ЎзПТИ-203” навининг наводорлиги 100 фоизга етказилди. Мазкур навдан узоқ йиллар давомида ишлаб чиқаришда экиб фойдаланиш тавсия этилади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Кратиров О.В. и др. “Инструкция по производству семян элиты и первой репродукции районированных сортов хлопчатника”. Москва, Колос, 1981, с.1-64.
2. Эгамов Х., Комилов Т., Дадажонов М. “Наводорликни ошириш тадбирлари”. Дехқончилик муаммолари, тўплам: Фарғона, 2008, 115-117 б.

ТРУДОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ - ВАЖНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ И ПОДГОТОВКЕ К ЖИЗНИ

Акрамова Мадинабону Акмаль кызы

студентка 2 курса Джизакского политехнического института

Научный руководитель: **Гаппаров Бехзод Нематиллаевич**

старший преподаватель Джизакского политехнического института

Email: gapparov1174@mail.ru

Аннотация: В статье рассматривается значение трудового воспитания в современной педагогике с учетом взглядов восточных мыслителей, рассматривающих труд и трудовое воспитание как условие жизни, критерий определения духовного облика личности.

Ключевые слова: труд, образование, воспитание, нравы, этика, обычаи, древнее наследие, народные традиции.

На протяжении столетий узбекский народ уделял особое внимание подготовке подрастающего поколения к труду и самостоятельной жизни. Потому что людям приходилось изобретать труд, орудия труда, орудия труда, чтобы выжить. Люди поняли, что работа на их месте была источником борьбы за выживание. Со временем умственный труд отделился от труда физического, изменилось отношение к трудовому воспитанию. Подготовка детей к физическому труду сейчас является приоритетной задачей. Вот почему трудовое воспитание является основой народной педагогики.

Человеческую зрелость определяют три основных фактора:

1. Физическое здоровье.
2. Нравственная чистота.
3. Психическая зрелость.

В основе всех трех факторов - труд.

Потому что без работы невозможно быть физически здоровым. Работа - залог здоровья. Или жизнь без труда аморальна сама по себе. Никто не может быть нравственно чистым без труда, будь то физический или умственный труд. В основе умственной зрелости лежит упорный труд. Потому что человек не может достичь уровня умственной зрелости без страданий, без отдыха, без усердной учебы, без работы. Только упорным трудом молодые люди могут быть подготовлены к жизни и будущему. Если у человека нет потребности и трудоспособности, он также будет неспособен к жизни. Потому что без тяжелой работы никто в обществе не может иметь места или репутации. Без труда невозможно достичь ни материального, ни духовного богатства. Поэтому необходимо с самого раннего возраста приучать детей к работе, готовить как практическую, так и духовную. Чтобы молодежь не воспринимала труд как тяжкую обязанность, наказание, оскорбление. Для молодежи работа должна стать условием жизни, жизненной необходимостью, духовной потребностью. Для этого педагог должен уметь эффективно использовать замечательные методы воспитания народа, традиции народной педагогики как в образовательном процессе, так и в образовательном процессе, применять их вместо них. Только так работа является основой жизни молодых людей, наполняет их жизнь смыслом. Только тогда молодые люди не будут воспринимать жизнь как гладкий и гладкий путь, а работу - как трудности. Истинный честный труд украшает человеческую жизнь, обогащает сердце, облагораживает разум. В этом плане величайший учитель - это наш народ [1].

Здесь мы сочли необходимым процитировать повествование. Говорят, что больной отец, подводя итоги своей прошлой жизни в последние дни, сожалеет о том, что вовремя не подготовил своего ребенка к родам, исправляет эту ошибку и решает примириться с судьбой своего сына. Он позвал к себе сына и сказал: «Сынок, потрудись завтра утром и заработай мне немного денег». Как только мальчик вышел из дома, мать дала ему немного денег и сказала: «Иди, сынок, принеси эти деньги вечером и отдай своему отцу». Когда сын опаздывает, он приходит к отцу и дает ему деньги. Его отец берет деньги и бросает их в горящий

огонь (печь). Мальчик не ломает булавку. Отец сказал: «Сынок, завтра принеси еще пенни». Мальчик соглашается. Когда он выходит из дома, мать дает ему еще одну монету и поручает: «Сынок, не ложись спать всю ночь. «Просто беги вечером с начала улицы, чтобы ты немного попотел, и твой отец тебе поверил». Сын выходит, а вечером бегаёт по улице и отдаёт деньги отцу. Папа кидает деньги обратно в огонь. Мальчик равнодушен. Папа снова назначает его завтра заработать. На этот раз мать не дала сыну денег и сказала: «Сынок, если ты не будешь работать и не зарабатывать деньги, этого не будет». Мальчик уходит. Он зарабатывает копейки, перевозя груз до вечера. Он отдаёт его отцу. Когда отец берет деньги и снова пытается бросить их в огонь, сын нетерпеливо цепляется за своего отца: «Отец, это то, что ты сделал. «Мне трудно заработать такие деньги». Тогда отец будет в мире со своим сыном. Вклад рассказа в том, что хлеб труда сладок. Мы ценим то, что приходит взамен за упорный труд. Это тоже разумный способ подготовить детей нашего народа к работе. Молодым людям нужно на практике понять, что цель - это необходимость жить, что труд нужно прославлять, что работа должна стать жизненной потребностью каждого [2].

В то же время считаем уместным процитировать мнение первого Президента И.А. Каримова в его брошюре «Собственный путь Узбекистана к независимости и развитию»: они должны понимать, что это зависит от них, то есть от их стойкости, рвения, их полное самопожертвование и безграничное усердие. Это главное условие развития нашего государства и народа» [3]. Выполнение этих задач требует целеустремленности и упорной работы со стороны учителей и тренеров.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гаппаров Б.Н. и другие. «Народная педагогика». Методическое пособие. Ташкент. Издательство Тафаккур. 2009. стр. 216-218.
2. Очилов М., Очилова Н. «Педагогический этикет». Ташкент, 1997.
3. Каримов И.А. «Собственный путь Узбекистана к независимости и развитию», Ташкент – 1992 г.

ҲОЗИРГИ КУНДА ЎҚИТУВЧИНИНГ АҲЛОҚИЙ СИФАТЛАРИ

Ахмедов Алишер Тоирович

Жиззах Политехника Институтини ассистенти

alisheraxmedov.1972@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада ҳозирги кунда жамият тараққиётини, халқ ҳаётини илмсиз тасаввур этиб бўлмаслигини, ана шу тараққиётни ҳаракатга келтирувчи куч ва ёшларимизга илм зиёсини таратувчи қуёш бу албатта ўқитувчи эканлигини айтиб ўтилган. Бу йўлда ўқитувчи азал-азалдан халқ ҳаёти ва жамият тараққиётида марказий ўринни эгаллаб келганлиги хусусида шарқ мутафаккирлари томонидан кенг талқин қилиб берилган.

Калит сўзлар: «Авесто», Қуръони Карим, Ҳадиси Шариф, тош битиклар, буюк адиблар, алломаларнинг ижодий мероси, халқимизнинг миллий анъаналари, удумлари, маросимлар.

Одамларнинг билими, амалий малакаларимизсиз жамият тараққиётини тасаввур этиб бўлмайди. Дарҳақиқат, буюк педагог А.Авлоний «Тараққиёт илмдандур», - деб бежиз айтмаганлар, албатта. Авлоний: «Илм бизни жаҳолат қоронғусидан қутқарар, маданият, инсониятни маърифат дунёсига чиқарур, ёмон феъллардан, бузуқ ишлардан қайтарур. Яхши хулқ, одоб соҳиби қилур. Бутун ҳаётимиз, саломатлигимиз, саодатимиз, майишатимиз ҳимматимиз, ғайратимиз, дунё ва охиратимиз илмга боғлиқдур», - деб илмнинг халқ ҳаётида, жамият ривожланишида тутган ўрнини алоҳида эътироф этади. Яна шуни алоҳида таъкидлаш керакки, илм ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Унинг яратувчиси, ижодкори ва тарбиячиси ўқитувчидир. Ўқитувчи ўқувчиларни билимли қилиш учун, аввало, уларнинг ақлини чарҳлайди, фикрини тарбиялайди. Зеро, бу ҳақда ҳам Авлоний: «Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан бери тақдир қилиниб келган, муаллимларнинг диққатларига

суянган, виждонларига юкланган муқаддас бир вазифадир», - дейди. Яна А.Авлоний бу ҳақда шундай ёзади: «Фикр инсоннинг шарофатли, ғайратли бўлишига сабаб бўладир. Бу тарбия муаллимларнинг ёрдамига шу даражада муҳтождирки, фикрнинг қуввати, зийнати, кенглиги муаллимнинг тарбиясига боғлиқдур». Дарс ила иккиси бир-биридан айрилмайдурғон, бирининг вужуди бирига жойлашғон.

Ибн Ҳавқал Мовароуннаҳрнинг бошқа шаҳарлари бўйича ҳам қимматли маълумотларни қолдирган. “...ат-Тирмиз – Термиз шаҳрининг арабча номи. Хитой манбаларида унинг номи Та-ми шаклида келтирилган. Сюан Цзан маълумотида кўра, VII асрда бу шаҳар туркларга қарашли бўлган. Бу ерда 10 та буддавий ибодатхоналар ва 1000 га яқин роҳиблар, шунингдек ступалар ва Будда ҳайкаллари бўлган. IX-X асрларда Термиз шаҳри Жайхун дарёсининг юқори оқими ҳавзасидаги энг катта ва аҳолиси кўп шаҳар бўлган. У Чағонийон ва Хутгалон вилоятларининг савдо маркази бўлган. Бу ерда энг катта даромад келтирувчи работлар бўлиб, уларга саёҳатчилар тўхтовсиз келиб турган. Ундан ташқари Термизда машҳур шифохона бўлган. Термиз шаҳри 3 қисмдан иборат бўлган, уларнинг ҳар бири VII асрда мудофаа деворлари билан ўралган. Куҳандизнинг 1 та дарвозаси, мадинанинг эса 3 та дарвозаси бўлган. Шаҳар рабадининг ташқарисида Суродикот деб аталувчи яна бир қисми бўлган. Шаҳарнинг деворлар ичидаги қисми 500 га, шаҳар чеккасидаги маҳаллалар ва боғлар билан эса тахминан 1000 га майдонни эгаллаган, бу Жайхун [дарёси]нинг юқори қисмида [жойлашган] шаҳардир. Унда куҳандиз (арабчада “қалъа”) ва уни ўраб турган рабад(ташқи шаҳар) мавжуд. Рабад ҳам девор билан [ўралган]. Амир қароргоҳи куҳандизда, қамоқхона куҳандиз ташқарисида, шаҳар бозорида [жойлашган], жоме масжиди ҳам шундай. Намозгоҳдевор ичкарисида, рабад

худудида, бозорлар эса [шаҳар ичида]. Унинг бинолари пахсадан[қурилган], кўчалари ва бозорларининг кўп қисмига пишиқ ғишт ётқизилган. Ташқи шаҳарда асосан савдо ва ҳунармандчилик марказлари, бозорлар ва қарвонсаройлар жойлашган”.[8]

Ибн Ҳавқал Хоразм ҳақида қуйидагиларни ёзиб қолдирган: “[Хоразм] пойтахти Кот Дархош[номи] билан машҳур эди. У вайрон бўлди, ва унинг аҳли унинг ёнида ал-Журжонийага ўхшаш бошқа [бир шаҳар]га асос солдилар. Кот [шаҳри]да, [яъни] унинг пойтахтида, қуҳандиз ва мадинабор эди, [лекин] уни дарё вайрон қилди, [шунингдек] қуҳандиз орқасидаги жомеъ масжидини ҳам [вайрон] қилди. Улардан ҳеч қандай из ёки хароба ҳам қолмади.

Шаҳарнинг ўртасида шаҳарни ва бозорни кесиб ўтувчи Харкрукномли ариқ [оқиб] ўтган. Шаҳар бу ариқнинг икки томонида [жойлашган] эди. [Шаҳар]нинг узунлиги тахминан учдан бир фарсахни, [энига] ҳам шунчани [ташқил этган]. Унинг бозорлари қулай жойлашган, савдоси эса чаққон ва даромадли бўлган. [Кейин] улар унинг ортида ўзларига бошқа [бир шаҳар] қурдилар.

Турк хоқонлиги даврида Чоч воҳасида шаҳарсозликнинг шиддат билан ривожланиши айнан турклар билан боғлиқ бўлган. Буни Чочнинг кўплаб шаҳар номларининг туркчадан келиб чиққанлиги ҳам исботлайди. Илоқ шаҳрида ҳам (Илоқ бу ойлоқ, йайлоқ, яъни “ёзги турар жой” деган маънони беради) туркчадан келиб чиққан шаҳар номлари келтирилган. Жумладан, Алханджас, Арбилах Итлиг (Итлух, Атлах), Намудлик (Йахудлик), Тунканд (Тункат), Арпалиқ (Абарлик), Баланканак, Гузджанд ва бошқалар. Турк ва Сўғдийлар маданиятининг уйғунлашуви билан шаҳарсозлик ва архитектура ривожланган. Илк ислом даврида араб, форс ва турк каби турли маданиятларнинг синтези натижасида “мусулмон ренессанси” деб номланган ижодий баркамолликга эришилган. Турклар VI-VII асрларда Сўғд, Тохаристон, Хоразм, Фарғона ва Шош шаҳарлари аҳолисининг каттагина қисмини ташқил этган ва улар икки тилда гаплашишган. Ушбу даврларда нафақат шаҳарсозлик, балки ҳайкалтарошлик, ганч ўймакорлиги, деворий рангтасвир каби соҳалар ҳам кенг

ривожланган. Бу шундан далолат берадики, турклар ўзининг жуда юқори даражада ривожланган шахарсозлик анъаналарига эга бўлган.[9]

“Мусулмон ренессанси” нафақат Мовароуннаҳрдаги юқори ривожланган маданиятни, балки бутун Араб халифалигида юксак тараққиётни англатади. Араб халифалигининг сиёсий ва маданий маркази Боғдод ҳисобланган. Айнан Боғдодда мусулмон дунёсида биринчи Фан Академияси – “Байт ал-Хикма” (Донишмандлар уйи) очилган эди. “Мусулмон ренессанси” ва “Мусулмон тикланиши” атамалари биринчи марта илмий муомалага А.Мец томонидан киритилган.[10]

1940-1980 йиллардаги археологик изланишлар натижасида шахарларни бир-бири билан боғловчи қадимги ва ўрта асрлар карвон йўллари аниқланган эди. Ушбу карвон йўлларида қалъалар ва сардобага эга карвонсаройлар маълум бир масофаларда жойлашган. Ушбу жанубий-ғарбдан шимолий шарққа қараб чўзилган кўчалар ислом цивилизациясининг тарқалиш йўналишини акс эттиради. Ушбу йўлда аниқланган кўпчилик ёдгорликлар IX-XII асрларга мансубдир. Араб халифалигининг таназзули ва 840 йилдаги Қорахонийлар турк сулоласининг шаклланиши билан Бухоронинг шахристон ва арки рабод девори билан ўраб олинади. Бу Самарқанд арки ва рабоди учун модел вазифасини ўтаган.[11]

Марказий Осиё шахарларида бу даврда урбанизациялашув жараёни Россиядаги шундай ҳудудлардан анча илгарилаб кетган эди. Бухоро IX-Хасрларда айлана девор билан ўраб олинган эди. XI асрда Афросиёбдан жанубга қараб ўсган, тигиз аҳолига эга рабод девор билан ўраб олинган эди. Самарқанднинг бу ҳудудлари шахри берун – ташқи шахар деб номланган. Шахарлар тезда кенгая боради. Атрофдаги фаол кўчманчилар Бухоро деворларининг мустаҳкамланишига мажбур этган. 1102-1130 йилларда пахса ва хом ғиштдан ва 1164-1165 йилларда эса пишиқ ғиштдан деворлар мустаҳкамланган.[12]

Термиз ҳам ушбу даврда ички ва ташқи рабодга эга эди. Шахристон ҳудудида термизлик шоҳлар арки, зарбхона, бош бозор, турма ва бошқалар

жойлашган эди. Шахристондан ташқарида деворлар билан ўралган савдогарлар ва хунармандлар рабоди жойлашган эди. Деворнинг 2-ҳалқаси шаҳарнинг қолган қисмларини ўраб турган. Янги савдо-хунармандчилик ва диний марказлар Термизда ҳам ички ва ташқи рабод чегарасида пайдо бўлган эди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Ернинг сурати китоби. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш.С.Камолиддин. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2011. -40-49 бетлар.
2. Ўша асар қаранг.
3. Муҳаммад ан-Наршаҳй. Тарихи Бухара. История Бухары. Перевод, комментарий и примечания Ш.С.Камолиддин, Е.Г.Некрасова. SMI-ASIA, MultiMedia-ASIA, 2011 г. – С. 26.
4. Ўша манбага қаранг.
5. Муҳаммад ан-Наршаҳй. Тарихи Бухара. История Бухары. Перевод, комментарий и примечания Ш.С.Камолиддин, Е.Г.Некрасова. SMI-ASIA, MultiMedia-ASIA, 2011 г. – С. 26.
6. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Ернинг сурати китоби. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш.С.Камолиддин. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2011. -40-49 бетлар.
7. Рабад мавжуд адабиётда рабод деб ёзилади, бироқ Ш.Камолиддин “рабад” деб берган, муаллиф транскрипцияси сақлаб қолинди (Т.М.).
8. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Ернинг сурати китоби. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш.С.Камолиддин. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2011. – 33-34 бетлар.
9. Шамсиддин Камолиддин (ред.). Проблемы древней и средневековой истории Чача. LAPLAMBERT Academic Publishing. 2013 г. – С. 203-205.
10. Шамсиддин Камолиддин (ред.). Проблемы древней и средневековой истории Чача. LAPLAMBERT Academic Publishing. 2013 г. – С. 217-219, 229.
11. Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014.- С. 16.
12. Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014.- С. 19-20.

YOSHLARNI KASB TANLASHGA YO`NALTRISH

Xolmatova Barno Azizjon qizi

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o`g`il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlar majmuasini nazarda tutib, ularning ruhiyatidagi tug`ma imkoniyatlar, hayot davomida tarkib topgan va mustahkamlanib, xarakteriga aylanib qolgan ma`lum bir kasb-hunarga nisbatan bo`lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste`dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovat ustunliklariga qarab kasb-hunar tanlashga yo`naltirish.

Kalit so`zlar: maqsad, yoshlar, kasb, xunar, istedod, qiziqish, moyillik, psixolog, mutaxassis, bantlik, shart-sharoit, maslaxat.

Kasb-hunarga yo`naltirishning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari Kasb-hunarga yo`naltirish - umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in`om etgan (tug`ma) qobiliyatlarini rivojlantirishga ko`maklashish, insonga kasbiy o`zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo`lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini xisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta`lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo`lgan ehtiyojlarda jamiyatning g`amxo`rligi sifatida namoyon bo`ladi. Kasb-hunarga yunaltilish ishining bosh maqsadi o`ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat.

Kasb-hunarga yo`naltirishning asosiy maqsadi - yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta`lim yunalishini (akademik litsey yoki kasbhunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo`lgan extiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat. Kasb-hunarga yo`naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani xal qilishga qaratilgan:

-mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish xisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustaxkamlash;

-shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.

Kasbga yo'naltirish - mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni xalq etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish xamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirish tadbirlari inson tomonidan o'z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama barkamol rivojlantirishning shart-sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni barcha o'quv-tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi. Kasbga yo'naltirish quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish. Kasbiy axborot - ma'lum bir kasbni egallash xoxishi bo'lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o'sish imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko'nikmalariga quyilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, targ'ibot qilish choratadbirlaridir. Kasbiy maslahat - kasb tanlash yoki faoliyat turini o'zgartirishda yordamga muhtoj bo'lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlarini, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog'ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini

o'rganish asosida psixologik-maslaxatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o'zaro muloqot tizimidan iborat. Kasbiy tanlov va saralash - kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo'lgan psixofiziologik me'yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o'rganish tizimidir. Kasbiy moslashish - ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvofaqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shartsharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Kasbni to'g'ri tanlash - inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini xisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda xammadan ko'ra ko'prok qaror topadi va namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-sonli Farmonida o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamalarini optimallashtirishni hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbga yo'naltirish, ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini joriy etish alohida belgilab qo'yildi.

Kasbni mustaqil tanlash kichik yosh davridanoq boshlanib insonning kelajakdagi butun hayotiga ta'sir etadigan zaruriy qaror qabul qiladigan o'spirinlik davrida yakunlanadi. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga kichik yoshdan tayyorlash uchun ularning psixofiziologik xususiyatlari asosida tashkil etish lozim.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari: - kasb-hunarga yo'naltirish haqida hikoyalar, suhbat, she'rlar, topishmoqlar, kitoblar, (katta bog'cha yosh davriga xos bo'lgan bolalarga tushunarli tilda kasbiy ma'lumot berish); - kasbga yunaltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, vidiofilmlar namoyish qilish (katta yosh davrga xos bo'lgan ko'rgazmaliobrazli kasbiy ma'lumot); - rivojlantiruvchi va

o'rgatuvchi kasbiy o'yinlar (katta yosh davrga xos bo'lgan kasbiy ma'lumot, o'yin, o'quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda); - o'quv darslari, “mehnat darsi” konkurslar (maktabgacha yosh davrida mehnat va ijodiy, o'quv-o'yin faoliyatining jarayonida kasbiy ma'lumot); - ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma'rifat, ularning bilimlarini mustaxkamlash va rivojlantirish, oddiy o'yin, o'quv, mehnat malakalari va ko'nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash) ishlarini olib borish nazarda tutilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy motiv va motivatsiyani shakllantirish Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan birorbir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivatsion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni

haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Agar o'quvchi, kasblar va kasbning muhim sifatlari haqida tushunchalarga ega bo'lsa, tashxislash metodikalarini o'zlashtirgan hamda o'zining shaxsiy sifatlarini aniqlab, kasbiy muhim sifatlarni solishtirsa, o'zini kasbga yaroqliligini baholay olsa, kasbiy tanlovida jamiyatning ehtiyojini hisobga olsa, shu bilan birga yuqori kasbiy qiziqishga ega bo'lsa, ijtimoiy va foydali tanlov qilishga tayyor bo'lsa, u holda kasb-hunarni tanlashga tayyorligi yuqori darajada deb tashxis qo'yish mumkin bo'ladi.

Yoshlar o'z oldilarida haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. Shu boisdan ham o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlar qanday kasb egasi bo'lishi to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yoshlar bizning kelajagimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

X. Aliqulov. Jaloliddin Davroniy. T.:O`zbekiston,1992,30bet. 2. – B. 2. 20 Pedagogik mahorat. Darslik / A.A.Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011, -420 b. 123 21 Тюшев Ю.В. Выбор профессии: тренинг для подростков. – СПб.: Питер, 2006. – 160 с.

Электрон ахборот ресурслари www.eLibrary.ru www.jstor.org www.lex.uz
www.metod.uz www.oak.uz www.tashxis.uz www.uis.unesco.org www.uzedu.uz

www.bam.uz



YUSUF OBRAZINING ASARLARDA TAHLILI XUSUSIDA

Yo‘ldoshaliyeva Muyassar Yo‘ldoshboy qizi

Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: bu maqolada Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni va Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi Yusuf obrazining ikki asarda tahlili va qurilishi jihatdan bir-biridan o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf, Zulayho, Ya‘qub, tush, ishq talqini, go‘zallik timsoli.

Yusuf va Zulayho- Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissasi. Asl manbai-ilohiy muqaddas kitoblar: Tavrot, Injil va Qur‘oni Karimdir. Qur‘ondagi talqini birmuncha ixcham shakllangan. Tavrotdagisi folklorga yaqin va qadimiy Misr afsonalariga borib taqaladi. Sharqda keng tarqalgan qissaning Abdurahmon Jomiy tomonidan yaratilgan varianti Qur‘oni Karimning 12-Yusuf surasi asosida shakllangan. Aslida, jamiki qissa va dostonlarning ilhom manbai ushbu suradir. Ushbu qissa Qur‘onda eng go‘zal “axsan ul-qisas” (qissalarning eng go‘zali) deya ta‘riflanadi. Mazkur qissa, davrlar o‘tishi bilan Sharqda go‘zal adabiyot namunasi sifatida keng tarqaladi, ko‘plab yangi voqealar bilan boyib, alohida asar holda qalamga olinib boshladi. Sharqda IX asrdan boshlab Yusuf haqida 150 dan ortiq doston-u, qissalar yaratildi. Xususan, eng mashhurlari, Firdavsiy, Abdulmajjid Balxiy, Shahobiddin A‘moq, Shohin Sheroziy, Abdulloh Ansoriy, Xo‘ja Ma’sud Iroqiy, Abdurahmon Jomiy, Nosiriddin Rabg‘uziy va boshqalarning qissa va dostonlarni ko‘ramiz. Asarning shuhrat qozonishi va keng tarqalishiga asosiy sabab, uning mazmun-mohiyatidagi muhabbat talqinidir. Asar turli davrlarda turlicha ijodkorlar tomonidan yozilishiga qaramay, unda ishq mavzusi so‘fiyona talqinning eng jozibador namunasi bo‘lib qolaveradi. Shu bilan birga Yusuf haqidagi dostonlar o‘ziga xos ilmiy muhabbatni tarannum etuvchi dunyoviy adabiyot namunasi hamdir.

Fikrimiz dalili sifatida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi Yusuf qissasini ko‘rib chiqamiz. Asar Yusufning tush ko‘rishi voqeasi bilan boshlanadi. Asar boshlanishi ham, o‘rtasi ham, yakuni ham tush bilan bog‘liq. Yusufning o‘nta ona boshqa ota bir akalari bo‘lib, ular oilada o‘n ikki o‘g‘il bo‘lgan. Uning onasi ukasi Yaminni dunyoga keltirayotganda vafot etgan. Ikki yoshli Yusufni xolasi o‘z tarbiyasiga olib, katta qiladi. Kundan kunga go‘zallashib borgan Yusufga Ya‘qubning mehri ortib boradi. Yusuf yetti yoshga to‘lganda tush ko‘radi. Tushida akalari bilan sahroga sayohatga chiqadi. Hammasi o‘z tayoqlarini yerga suqadilar, hammasining tayog‘i yerda ko‘karadi, lekin qurib qoladi. Birgina Yusufning tayog‘i ko‘karib gullaydi. Akalarining daraxti esa Yusufning tayog‘iga sajda qiladi. Ikkinchi tushida esa o‘n bir yulduz, oy va quyosh Yusufga sajda qiladi. Bu tushlarni otasiga aytgan Yusufga nisbatan Ya‘qubda mehr va muhabbat borgan sari avj ola boshlaydi. Yusufga xasadi kelgan akalari Ya‘qubning qarshiligiga qaramay, ukasini Navro‘z bayramiga sayrga va ovga olib borishib Nuh ibn Som qudug‘iga tashlab yuborishadi. Niyati buzuk bo‘lgan aka-ukalar Yusufning kiyimlarini yechib qo‘yning qoniga bo‘yaydilar. Otasiga esa “Yusufni bo‘ri yeb ketdi” deb aldaydilar. Ya‘qub “Agar bo‘ri yeganda kiyimlarini yirtmay yermidi” deb dod deb yig‘laydi. O‘g‘illariga Yusufni yeb ketgan bo‘rini topib kelishni buyuradi. Yusufni olib borishni istamagan aka-ukalar yo‘lda turgan bo‘rini ushlab kelib otasiga ko‘rsatishadi. Yig‘layotgan Ya‘qubni ko‘rgan bo‘ri ham tilga kirib, o‘z bolasini yo‘qotib izlab yurganini, bir necha kundan buyon ovqatlanmayotganini aytadi. Sahroda joylashgan Yusuf tashlangan quduqning oldidan savdogarlar o‘tib, quduqdan suv olmoqchi bo‘lishadi. Quduqqa charm chelak solishganda quduq tubidan Yusuf chiqadi. Savdogarlarning boshlig‘i Molik ibn Za‘r Yusufning akalari bilan sulh tuzib, Yusufni o‘ziga asir qilib oladi. Savdogarlar Misr shahriga kelgach, Yusufni qul bozorida sotib yubormoqchi bo‘ladi. Yusufning husnini ko‘rgan xaridorlar qul narxini oshirishadi. Bozorda Yusufni ko‘rgan Zulayho ham xaridor bo‘ladi. U Misr amiri nomidan xaridor bo‘lib kelgan o‘z turmush o‘rtog‘i-Misr Aziziga qulni o‘zlari sotib olish taklifini aytadi va o‘zlari Yusufni sotib olishadi. Zulayho kundan kunga Yusufni yoqtirib, unga mehri tobora ortib boradi. Unga qo‘yilgan mehr-muhabbat oxir-oqibat Yusufni zindonband qilinishiga sabab bo‘ladi.

Yusuf o‘zining yuksak aql-idrok sohibligi bilan tushlarni ta’bir qilgani sababli, Misr podshohining ham tushini ta’bir qilib zindondan ozod bo‘ladi. Yusuf dehqonchilik bilan shug‘ullanib, Misr omborlarini don-dunga to‘ldirib tashlaydi. Hosilsizlik yillarida turli yerlardan don so‘rab kelganlarga yordam beradi. Misrda g‘allaning ko‘pligini eshitib kelgan o‘zining akalariga ham yordam beradi. Ular kelganda o‘z otasi Ya‘qubning Yusuf yo‘qolib qolgach yig‘layverganidan ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolganini eshitadi. O‘n aka-uka otasi Ya‘qubning qarshiligiga qaramay, kelasi safar kelganida Yusufning tug‘ishgan ukasi Yaminni ham o‘zlari bilan birga olib kelishadi. O‘z yuzidagi pardani olganida akasini tanigan Yamin xushidan ketadi. O‘z ukasini o‘g‘irlikda ayblab, Yusuf Yaminni Misrda olib qoladi. O‘n aka-uka Ka‘non yurtiga borib bo‘lgan voqeani Ya‘qubga aytishadi. Ya‘qub chuqur iztirobga tushadi. Yusuf o‘z libosini quli Bashirga berib, uni Ka‘nonga jo‘natadi. Yo‘lda Bashir ham, o‘z onasi Mubashshira bilan topishadi. Ya‘qub ham o‘g‘lini iforini Bashir manzilga yetmasdanoq sezadi. Yusufning kiyimini ko‘zlariga surtgan Ya‘qubning ko‘zlariga yana nur ato etiladi. Ya‘qub Misrga, Yusufning oldiga boradi. Misr amiri Yusufni otasi bilan ko‘rishganda otdan tushmaslikni buyuradi. Agar otdan tushmasa, otasiga behurmatlik qilgan bo‘ladi, agar otdan tushsa amirning cheksiz g‘azabiga ro‘baro bo‘ladi. O‘sha kuni tunda Yusufning tushiga Jabroil alayhissalom kiradi va u Yusufga otasi bilan otdan tushmasdan so‘rashishni maslahat beradi. Yusuf o‘z padari Ya‘qub bilan sakson yillik ayriliqdan keyin ham otdan tushmay so‘rashgani tufayli ham, Yusufning avlodlari orasidan payg‘ambar chiqmagan deb taxmin qilinadi. Zulayho Yusufni ishqida yona-yona ko‘p yillarni o‘tkazadi. Uning ishqida yig‘layverib ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoladi. Yusuf ov qilgani chiqqan vaqtlarda uni yo‘llarini to‘sib uning ortidan qolgan hidni hidlagudek darajada telbaga aylanadi. Kunlarning birida, Ya‘qub Yusuf ovdan qaytguncha Zulayhoni saroyga olib keladi. Zulayho barcha bo‘lgan voqealarni Ya‘qubga aytib beradi. Ya‘qub Zulayhodan hali ham Yusufni yoqtirasanmi deb so‘raydi. Yusufning dastasi oltindan yasalgan, la‘lu kumush bilan ziynatlangan qamchisi bor edi. Zulayho qamchisi uchini olib bir oh tortganda qamchi olovda erib ketadi. Zulayho Yusufdan uning yoshlik chog‘lariga qaytarishni, go‘zalligini, ko‘z nurlarini qaytarishni va unga uylanishi kerakligini so‘raydi. Bunga rozi bo‘lgan Yusuf

Zulayhoni yoshlik paytiga qaytarib uni telbalarcha yoqtirib qoladi va unga uylanadi. Yusuf va Zulayho o‘n sakkiz yil birga yashab besh o‘g‘il va ikki qiz farzand ko‘rishadi. Rabg‘uziyning asarida Yusuf obrazi orqali barcha bo‘layotgan ishlarning sababchisi Alloh ekaniga yana bir bor amin bo‘lamiz. Asarda aka-ukalar o‘rtasidagi adovat, kuyukish, qalbi qoralik shu darajaga yetadiki, hattoki, u ota va o‘g‘il o‘rtasidagi uzoq yillik ajralishlarga, Yusufning o‘zga yurtlarda ko‘p zahmatlar chekishiga sabab bo‘ladi. Ushbu asar nafaqat Yusuf alayhissalom, balki ko‘plab payg‘ambarlarimiz haqida ma‘lumot beruvchi qimmatli manbadir. Asar 72 qissasida barcha payg‘ambarlarimizning hayotlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni uning “Haft avrang” deb atalgan va yetti kitobdan iborat asarining uchinchi kitobi sanaladi. Jomiyning “Yusuf va Zulayho”sida “Qissasi Rabuziy”dan ayrim joylari farqli ravishda talqin etiladi. Yoshligidan onasiz qolgan Yusuf ammasining qo‘lida tarbiyalanadi. Ammasi Yusufni kamar o‘g‘irlashda ayblab yoshligidan o‘zi boqadi. Akalari ham lola sayliga olib chiqish bahonasi bilan Yusufni uydan olib chiqib quduqqa tashlab yuboradi. Zulayho ham go‘zallikda benihoya tengsiz bo‘lgan Yusufni tushida uch marta ko‘rib ko‘rib yoqtirib qoladi. Yusufning kelajakda Misr Azizi bo‘lishini ham Zulayho uchinchi bor tushida ko‘rganda aytgan edi. Ikkalasi ham juda ko‘p azoblarga duchor bo‘lib, chekkan mashaqqatlari evaziga baxtli turmush kechirib oxiri birin-ketin dunyodan o‘tadilar.

Bu doston ayol muhabbatining qasidasidir. Dostonning asosiy qahramoni – Zulayho. Yusufni chin yuragidan sevadi, butun hayotini, borlig‘ini Yusufga bag‘ishlaydi. Dostonning baxtli yakuni ana shu chin, samimiy sevgining tantanasidir. Yusuf – pokizalik, go‘zallik, halollik timsoli. Zulayhoni maftun etgan narsa Yusufning komil go‘zalligidir. Hayot sevgi va go‘zallikni og‘ir imtixonlardan o‘tkazadi. Bu imtixonlardan o‘tgan pok insoniy tuyg‘ular nihoyat g‘alaba qozondilar. Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni chin insoniy tuyg‘ular -sevgi, go‘zallik, poklikning yovuzlik makr va tubanlik ustida mutlaq ustun chiqqanini ko‘rsatadi. Garchi doston syujetidagi ayrim voqealar diniy qobiqda bo‘lib, ilohiy irodaga bog‘liq ravishda rivojlantirilsa-da, dostonning tub mohiyati insoniyat, insoniylikni

ulug‘lashga qaratilgani ayon ko‘rinib turadi. Yusuf yashab o‘tgan barcha payg‘ambarlarimiz ichida husnda tengsiz, aql-zakovatli komil shaxs sifatida ajralib turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Abdurahmon Jomiy “Yusuf va Zulayho” T., 1959;
3. Qur’oni Karim T., 1992;



СУҒОРИЛАДИГАН БЎЗ-ЎТЛОҚИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ДИНАМИКАДА ЎЗГАРИШИ

Бобоноров Бекзод Боймирзаевич

Тупроқшунослик ва агрокимё илмий-тадқиқот институти

Аннотация

Мақолада Мирзачўл текислигининг маълум бир қисми (сув босган ҳудуд) яъни сув тошқини оқибатида ўзгаришга учраган (ювилиш) суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқларнинг гипс, карбонат ва агрокимёвий кўрсаткичларни ҳозирги ҳолати баён этилган. Бунда суғориладиган тупроқларнинг унумдорлигини асосий кўрсаткичлари бири ҳисобланган гумус ва озика моддаларининг маълум бир миқдорда камайиб бориши келтирилган.

Калит сўзлар: суғориладиган тупроқ, гумус, (рН) кучсиз ишқорий, ювилиш, ҳаракатчан фосфор, алмашинувчи калий, карбонат, гипс.

Кириш. Мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги ерларидан айниқса суғориладиган ерлардан унумли фойдаланиш бугунги кунда олиб борилаётган ислохатларнинг асосий мезонларидан биридир. Натижада табиий (техноген) ва антропоген омиллар таъсирида яъни, табиий (техноген) офат юз берган ҳудуд суғориладиган тупроқларнинг ҳолатини таққослаш орқали сув босиши яъни (ювилиши), деградация жараёнларини ҳисобга олган ҳолда суғориладиган тупроқлар унумдорлигини қайта тиклаш йўллари излаб топиш ҳамда амалиётга кенг жорий этиш бугунги куннинг долзарб масалалардан биридир.

Тадқиқот жойи ва услублари. Тадқиқот объекти бўлиб Сирдарё вилояти оч тусли бўз тупроқлар минтақаси табиий офат юз бермаган ва берган (сув босиш натижаси) эрозияга учраган ҳудудлари ҳисобланган Мирзаобод туманидаги Юнусов номли ҳамда Гулистон массивларида кенг тарқалган суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқлари хизмат қилади. Тадқиқотларни бажаришда генетик-географик, профил-геокимёвий [1], стационар-дала ва кимёвий-аналитик

(ТАИТИ) услублардан фойдаланилди. Тупрокни кимёвий, физик-кимёвий таҳлиллари умумқабул қилинган услублар [2] асосида бажарилди.


Тадқиқот хурудининг ўрганилганлик даражаси. Сирдарё вилояти суғориладиган тупроқларининг эрозияси, унумдорлиги ва мелиоратив ҳолатини аниқлаш масалалари институтимиз олимлари томонидан олиб борилган илмий-тадқиқот ишларида кенг ёритилган [3;4;5;]. Шу нуқтаи назардан табиий офат юз берган суғориладиган майдонларда комплекс тупроқ-тадқиқот ишларини ўтказиш орқали суғориладиган тупроқларнинг аввалги ва ҳозирги ҳолатини таққослаб, улар унумдорлигини қайта тиклаш йўлларини излаш, тупроқлар қопламида ва генетик қатламларида кечаётган ўзгаришларни чуқур таҳлил этиш орқали унда кечаётган жараёнларни ёритиб бериш ҳамда аниқланган салбий ҳолатларни ўз ўрнида бартараф этишга доир чора-тадбирлар мажмуасини ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг таҳлили. Ўрганилаётган суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқларнинг ер ости сизот суви 2,5 метр чуқурликда жойлашган бўлиб бўз тупроқдан ўтлоқи тупроқга ўтувчи тупроқ бўлиб (8-кесма) тупроқнинг ҳайдов қатлами гумус билан кам (0,642%) таъминланган бўлиб, она жинсга томон камайиб бориши жуда кам (0-0,5%) ва кам (0,5-1%) кўрсаткичда (0,075-0,578%) кузатилади. Ҳаракатчан фосфор 19,5 мг/кг кам, алмашинувчи калий 331 мг/кг ўртача, тупроқ профилининг қуйи томон камайиб 0,6-2,7 ва 67-206 мг/кг, гумус ва озика моддалар билан жуда кам ва кам айрим ҳолатларда ўртача даражада таъминланган. Карбонат (CO_2)лар бутун генетик қатламларда 4,37 дан 5,17% гача, гипс кристаллар шаклида учраб унинг ҳайдов ва ҳайдов ости қатламидаги миқдори 10,73 дан 11,39 гача кам гипслашган, кесманинг пастки қатламларида 6,97 дан 13,27% гача кузатилиб гипслашмаган ва кам гипслашган кўрсаткични ташкил этади.

Кучсиз даражада ювилишга учраган (9-кесма) суғориладиган бўз-ўтлоқи тупроқларнинг ҳайдов қатламидаги гумус миқдори кам 0,781%, генетик қатламнинг пастига томон секин аста камайиб, жуда кам ва кам 0,118-0,631%ни, ҳаракатчан фосфор 0,6 дан 8,5 мг/кг гача, алмашинувчи калий 132 дан 297 мг/кг

гача тебраниб, озиқа моддалар билан жуда кам, баъзида кам ҳамда ўртача даражада таъминланган тупроқлар учрайди. Карбонат (CO_2) лар миқдори юқорида таъкидланган ювилишга учрамаган тупроқ сингари тақсимланиб 4,35-5,88% ни ташкил этгани ҳолда генетик жиҳатдан она жинсдан мерос бўлганлиги кузатилади. Гипсининг 0-44 см даги миқдори 2,31-5,42% бўлиб гипслашмаган, 44-79 см даги қатламда 10,31% кам гипслашганлиги, ундан кейинги қатламлар гипслашмаганлиги кузатилади. Бунда карбонатлар йиллар давомида суғориш ишлари натижасида кесма қатламининг 44-79 см ли қатламида ювилиб тўпланганлиги билан изоҳлаш мумкин. Ҳар иккала (8 ва 9) тупроқ кесмасининг бутун генетик қатламлар бўйича (pH) кўрсаткичи кучсиз ишқорий муҳитга эга (7,24-7,46).

Институтимиз олимлари тамонидан (2014йил) тупроқ унумдорлигини баҳолаш ишлари натижалари билан ҳозирги ўтказилаётган (2021йил) тадқиқот ишларини солиштириш натижасига кўра гумус миқдори сув босмаган ҳамда сув босган худуд суғориладиган тупроқларни ((%) ва (т/га)) таққослаганда ҳайдалма қатламларидаги (0-30 см) гумус миқдори олдинги ҳолати 0,67-0,83 % ни кам ва ўртача таъминланаган ва 22,5-31,3 т/га ташкил этган бўлса, ҳозирги ҳолатига кўра 0,642-0,781 % ни кам ва 22,0-29,0 т/га ни ташкил этиб, ўрганилган тупроқлардаги (8-9-кесмалар) фарқлар унчалик катта бўлмасида ювилишга учраган тупроқда 2,3 т/га камайганлиги кузатилди (расм).



расм. 2014-2021 йиллардаги гумус миқдори т/га миқдорида (0-30смгача)

Хулоса ўрнида ўрганилган ҳудуд бўз-ўтлоқи тупроқлардан иборат бўлиб гумус ва озика моддалар билан жуда кам, кам ва баъзан ўртача таъминланган кўрсаткичларга мансуб. Ушбу ҳудудда ўсимликнинг ривожланишига салбий тасир этувчи гипсининг миқдори жиҳатидан (>10) камлиги баъзи қатламларда кам (<10) гипслашган, (CO_2) карбонатлар ҳар иккала кесмаларда бир хил тақсимланганлиги, ювилган тупроқда ювилмаган тупроққа нисбатан 2,3 т/га гумус захираси камайиб кетганлиги кузатилди.

Фойдаланган адабиётлар

1. Қўзиев Р. ва бошқалар. Давлат ер кадастрини юритиш учун тупроқ тадқиқотларини бажариш ва тупроқ карталарини тузиш бўйича йўриқнома. Меъёрий ҳужжат, Тошкент, 2013. 52 бет
2. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почвы. М., 1970г. стр. 28-75
3. Исмонов А.Ж., Парпиев Г.Т. Умаров М.И., Мамажанова Ў.Х. Орошаемые почвы сероземной зоны южной части Узбекистана и их плодородие. Ўздаверлойиҳа институтининг “Ўзбекистон замини” илмий-амалий ва инновацион журнали. Тошкент. № 3. 2019. 25-29 бетлар.
4. Тошқўзиев М.М., Шербекоев А.А, Бердиев Т.Т. Тупроқ унумдорлигини ошириш, уни органик моддага бойитиш агротехнологияси ва уни шўрланган тупроқлар шароитида тадбиқ этиш // ”Суғориладиган тупроқлар унумдорлигини тиклаш, сақлаш, ошириш агротехнологиялари ва унинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами 20 октябрь 2020 йил Гулистон, 5-11бет
5. Х.М.Махсудов Эрозияшунослик //Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти Тошкент 2012 йил. 280 бет.

TOLALI CHIQINDILAR BO`LGAN CHANGLI HAVO TARKIBINI O`RGANISHDA OLIB BORILGAN NAZARIY TADQIQOTLAR

Murodov Orif Jumayevich,

Adilova Aziza Shuhratovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Maqolada paxtaga dastlabki ishlov berishda mashinalardan chiqadigan chang havoni tozalovchi siklonlarning yangi simulyatsiyasini ya'ni modelini yaratish. Siklon ichki yuzalariga o'rtacha tezlikda uriladigan va turli o'lchamdagi chang havo zarrachalari harakat qiladigan markazdan qochma kuch va tortishish kuchlari aniqlanadi. Changli havo tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: chang havo, siklon, dinamik tahlil, chang zarrachalari, simulyatsiya - yangi modellashtirish, CFD usuli, Reynolds tenglamalarini, Navier-Stokes tenglamasi.

Paxtani dastlabki qayta ishlash jarayonini hamma bosqichlarida ko'p miqdorda chang ajralib chiqadi, bu chang ishlab chiqarish binolari va atmosfera havosini ifloslantiradi. Chang zarralarni tozalashda siklon separatorlari keng qo'llanilib, ular o'lchamlari 50 mkm (10^{-6}) dan yirik chang zarrachalaridan tozalanadi.

Siklonlar birinchi marta qattiq moddalarni gazlardan ajratish uchun sanoatda ishlatilgan va bu hali ham eng keng qo'llanilib kelinmoqda. Eng qadimgi siklon, 1885 yillarda atrofida Knickerbocker AQShda qurilgan siklon xisoblanadi. Hozirgi vaqtda eng ko'p ishlatiladigan chang siklon turidagi barcha asosiy elementlar bu siklonda mavjud. Aslida paxta tozalash zavodlaridagi siklonlar texnologik havo oqimlaridan qattiq moddalarni ajratib olish, yuqori temperaturada va katta bosim ostida harakat qiluvchi zarralar uchun yaratilgan [1]. Siklon ichida havo oqimi Arximed spirali shaklida aylanganida markazdan qochima kuchlar paydo bo'ladi. Bu kuchlar ta'sirida


chang zarrachalari tashqi devorga urilib, uning tezligi kamayib siklon tubiga tushib ketadi va tozalangan havo kamaygan tezlik bilan yuqoriga ko'tarilib siklondan atmosferaga chiqadi.

Paxtani tozalash paytida havo oqimidagi zararli aralashmalarning harakatini dinamik tahlil qilish asosida yangi modellashtirilgan siklonlarning samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish va taxlil qilish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Changsizlantirish va atmosfera havosini tozalash tizimlarini yaxshilash bo'yicha ham kechiktirib bo'lmaydigan choralarni amalga oshirilishi kerak [2, 3]

CFD usulida chang havo tarkibidagi iflosliklarni ajratishda siklon ichki yuzasida hosil bo'ladigan kuchlarni taqqoslab chiqish mumkin 1-rasm. Havoni uzluksiz vosita, chang havo zarralari esa dispers sifatida qabul qilinib, barcha raqamli simulyatsiyalar cheklangan hajmli CFD kodi yordamida amalga oshirildi.

Siklondagi chang xavo zarralari va devorlari o'rtasidagi to'qnashuvlar, chiqayotgan chang zarrachalar miqdorini kuzatish orqali tozalash samaradorligi statistikasi olingan. Dastur yordamida simulyatsiya qilinganda sirdagi havoning kirish va chiqishdagi o'rtacha statik bosimi doimiy bo'lgunga qadar nazorat qilinadi.



1-rasm. CFD usulida chang havo tarkibidagi iflosliklarni ajratishda siklon ichki yuzasida hosil bo'ladigan kuchlarni taqqosh

Siklon separatorlari uchun tezlik pulsatsiyasini modellashtirish va tozalash samaradorligini oshishiga olib kelish mumkin.

$$\rho \frac{\partial \bar{u}_j \bar{u}_i}{\partial x_j} = \rho \bar{f}_i + \frac{\partial}{\partial x_j} [-\bar{p} \delta_{ij} + \mu \left(\frac{\partial \bar{u}_i}{\partial x_j} + \frac{\partial \bar{u}_j}{\partial x_i} \right) - \rho \bar{u}_i \bar{u}_j]. \quad (1)$$

$$J(f) = \int_a^b F(x_1, f(x), f'(x)) dx \quad (2)$$

$$\frac{\partial F}{\partial f} - \frac{d}{dx} \frac{\partial F}{\partial f'} = 0$$

Siklonlaridagi changli havo oqimi siqilmaydigan izotermik va turbulent oqimi deb hisoblanganda

$$u_i = U_i + u_i', \quad (3)$$

$$\frac{\partial U_i}{\partial x_i} = 0 \quad (4)$$


$$\rho U_j \frac{\partial U_i}{\partial x_j} = -\frac{\partial U_i}{\partial x_i} + \frac{\partial}{\partial x_j} [2\mu S_{ij} - \overline{\rho u_i' u_j'}] \quad (5)$$

Reynolds tenglamalarini o'rtacha qiymatlari massani saqlanishi va Navier-Stokes tenglamasi orqali ifodalanishi mumkin. Bunda chang zarralarini (4) va (5), formulada ko'rsatilganidek, u_i lahzalik tezligi U_i o'rtacha qiymati va u_i' tebranishiga aylanganda (3) tenglik orqali ifodalanadi.

Bu yerda $\tau = -\overline{\rho u_i' u_j'}$, x_i – pozitsiya, t – vaqt, ρ – doimiy chang zichligi, P – changli havo o'rtacha statik bosimi, l – changning molekulyar yopishqoqligi, τ_{ij} – Reynolds Stress tenzori, va S_{ij} – o'rtacha kuchlanish darajasi tenzori.

Siklon ichki yuzasida hosil bo'lgan turbulent chang havo va hosil bo'lgan bosimni Reynolds komponentlari orqali ifodalash mumkin. Siklonlar ichidagi kuchli aylanuvchi changli havo oqimlari miqdorlari o'zgarishi va boshqa kattaliklarning muntazam o'zgarishiga bog'liq bo'ladi [7].

Siklonlarni yangi dizayndagilarini simulyatsiya qilish, modellashtirish, siklonlarning turli xil konstruksiyalarini ishlab chiqish ko'plab hisob-kitoblardan keyin amalga oshiriladi. Paxta changining xususiyatlariga qarab, ishlab chiqarish sexlarida texnologik asbob-uskunalardan chiqarilgan havoning chang miqdori paxta xomashyosining naviga, namligiga va ifloslanishiga bog'liq; past navli paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonida chang emissiyasi eng kuchli bo'ladi.



2-rasmda paxta xom ashyosining chang tarkibi ko'rsatilgan (III nav qo'lda terilgan, “Namangan-77” navi)

Samaradorlik va siklonni hajmiy traektoriyasini hisoblash turli o'lchamlarga ega bo'lgan ko'plab zarralarni yo'li orqali aniqlanishi mumkin (siklonning cheklangan kattaligi chang havo zarrachasi hajmini nazarda tutadi, buning uchun tozalash samaradorligi 90% ni tashkil qiladi).

Kichik chang zarrachalarni tozalash samaradorligin extimol qilishdagi kelishmovchilikni zarralarni tozalash mexanizmi bilan izohlash mumkin. Yirik chang zarrachalar nisbatan katta inersiyaga ega va markazdan qochma kuch bilan ajralib turadi, turbulent dispersiyaning katta chang zarralarga ta'siri esa unchalik yuqori emas. Chang havo fazasining turbulent tebranishlari natijasida hosil bo'lgan chang zarrachalarning turbulent tarqalishi mayda zarrachalarning ajralishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chang zarralar juda kichik bo'lgani uchun (masalan, 0,5-6,8 mkm) oniy tebranishining ta'siri va kichik chang zarrachalarning turbulent kengayish tezligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Chang havo oniy tezligidan foydalanib, alohida zarralar uchun traektoriya tenglamalarini birlashtirib kichik chang zarrachalarning turbulent tarqalishi hisobga olingan $u_i = U_i + u_i'$ tenglamani xosil qilamiz.

Turbulent girdobni vaqt davomida yuqoriga ta'sir qiladigan pulsatsiyalanuvchi tezliklarining qiymatlari va ularni o'zaro bog'liqligi yordamida Gaussning ehtimolik taqsimotiga bo'ysunishini nazarda tutgan holda:

$$u_i' = \zeta \sqrt{u_i' u_j'} \quad (6)$$

bu yerda ζ odatda taqsimlangan tasodifiy son, va $\sqrt{u_i' u_j'}$ qiymat tezlik pulsatsiyasining o'rtacha kvadrat qiymat.

Siklonda chang zarracha traektoriyasi zarrachaga ta'sir qiluvchi markazdan qochma kuchlar va tortishish kuchlarining nisbiy kattaligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, chang havo fazasining turbulent tebranishlari natijasida chang zarrachalarga ta'sir etadigan ichki qarshilik kuchi sezilarli bo'ladi va chang zarrachasi xajmi kichiklashgani sari markazdan qochma kuchni tashqariga chiqaradi. Simulyatsiya natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, tezlik pulsatsiyasini aniq

simulyatsiya qilish siklon tozalash samaradorligini, ayniqsa kichik chang zarrachalarni ajratib olinishini asosiy talabidir.

Xulosa

Siklonning ishlashi uning konfiguratsiyasini o'zgartirish orqali optimallashtirildi.

Siklon geometrik o'lchov nisbatlarining optimal diapazoni uchun siklon ishlashiga geometrik konfiguratsiyalarning turli ta'sirini o'rganish uchun qiyosiy eksperimental tadqiqotlar olib borildi.

Adabiyotlar

1. Murodov O.J., A.SH. Adilova Analysis of harmful mixtures in air flow during cotton cleaning // Tashkent state technical university named after Islam Karimov. Technical science and innovation. The Journal was established in 1993, Renamed in 2019. Published 4 times a year Tashkent-2021, №3(09). Page-79-87.
2. Муродов О.Ж., Адилова А.Ш. Оценка параметров газового потока циклона и разработка новых технических решений пылеуловителей // «Роль и задачи в развитии систем автоматизации технологических процессов». Республиканская научно-практическая конференция. Фергана. 22-23 октября 2021 г. С. 36-40.
3. Raoufi, A., Shams, M., Kanani, H. (2009) CFD analysis of flow field in square cyclones. Powder Tech. (191), 349-357.
4. Gimbin, J., Chuah, T.G, Fakhru'l-Razi,A, Choong, T.S.Y. (2005) The influence of temperature and inlet velocity on cyclone pressure drop: A CFD study. Chemical engineering and Processing, 44, 7-12.
5. Адилова А.Ш., Муродов О.Ж // Проблемы развития современного общества, Сборник научных статей 7-й Всероссийской национальной научно-практической конференции, (20-21 января 2022 года) / под редакцией: Кузьминой В.М., в 5-х томах, Том 5, – Курск: Юго-Зап. гос. ун-т, 2022. С 57-61.

TARIXIMIZGA NAZAR

Doliyeva Dilnura Alisher qizi

Toshkent davlat texnika universiteti Neft va Gaz fakulteti 2-bosqich talabasi

fortunatelyperson@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur shaxsiga qiziqish uyg'otish, tarixini butun vujudi bilan qiziqib o'qishga va hozirgi kunda qanday metodlarda o'quvchiga o'rgata olish kabi masalalar ko'tarilgan. Qolaversa Amir Temur shaxsini o'rganishdagi muammolarni bartaraf etish uyg'unlashgan. Bundan tashqari kitob o'qish inson hayotidagi eng muhim va foydali ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Marsel Brion, Usmonli imperiyasi, Movarounnaxr, jangchi, otliq suvoriy, sulton Mansur.

Ichida nima yozilganini bilmay turib, xulosa chiqarib bo'lmaydi. Kitob o'qishdan qochish bu o'ziga qilingan eng katta dushmanlikdir! Sen o'zinga dushman emassan-ku! Tariximiz shu qadar qiziq ekanki, faqat ko'p yoshlarimiz bu haqida bilmaydilar. Hatto o'zim ham yaqin-yaqin kunlarda katta qiziqish bilan Amir Temur bobomizga qiziqib qoldim. Bunga sabab Usmonli imperiyasidir. Men ko'p bora Usmonli imperiyasini buyuk bobomiz Amir Temur parchalagani haqida gapirishganini eshitganman va qay tarzda bunga erisha olgani haqida bilgim kelgan. Turk seriali bo'lgan “Muhtasham yuz yil”dan men Amir Temur qatnashgan qismi bor yo'qligini bilishni istadim va qidirdim. U serialda Amir Temur qatnashmagandi, shundan so'ng fransuz yozuvchisi Marsel Brionning “Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur” asarini o'qib, xulosa qildimki, Amir Temur Usmonli imperiyasidan bo'lmish Boyazid Yildirimni tor-mor etib, o'zini asir oladi. Lekin ko'p o'tmay Boyazid vafot etadi. Vafotidan oldin sulton Boyazid Amir Temurdan Usmoniylar imperiyasi batamom yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymasligini, o'rniga o'gli taxtga o'tirishini, o'g'li hech qachon Amir Temurga qarshi bormasligini yozib qoldirgan. Boyazid Sultondan so'ng

Usmonli Imperiyasi davom etavergan. Amir Temur haqida o'ylasam: “Bunday insonlar ming yilda bir tug'iladi. Balkim bundan buyogi yaralmasa ham kerak”-deya o'z o'zimga aytib hayron qolaman. Amir Temur kabi o'ziga ishongan, maqsadga intiluvchan va Vatani uchun o'lishga-da tayyor boshqa bir qahramon ko'z oldimda gavdalanmaydi.

Yoshligimizdan bizga maslahat berishsa, aql o'rgatishsa, aksariyatimiz yomon ko'rganmiz. Amir Temur esa yoshi ulug' bo'lgan kezlarida ham olimu-ulamolarni eshitib, kerakli xulosalarni chiqarib, bosib olgan mamlakatlarida ham ularga katta e'tibor berib hurmatini joyiga qo'yganlar. Hunarmad-u olimlarni Movarounnaxrga olib kelgan. Amir Temur shaxsini yoshlarimizning qalbiga va ongiga singdirishda bizdagi katta xato faqat yillarga bog'lanib qolganimizdir. Bu orqali muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Nechanchi yilda qayerni bosib olgan yoki shunga o'xshash mavzular insonni zeriktirib qo'yishi hech gap emas. Ya'ni avvalambor qay tarzda qiynalib erishgani, ikki qo'lini janglarda birday ishlata olgani, aslida urushlar arzimagan sabablar bilan boshlanib ketgani-yu qaysi jangda Sohibqironning o'ng qo'lga aynan qaysi mamlakatga yurish qilganida sekira bilan zarba berishgani va bu voqeadan so'ng Sohibqiron yozish qobiliyatini yo'qotganligi, aynan qaysi vaqtda o'zini tajribasiz his qilgani va Amir Temurning kuragi hech qachon yerga tegmagani haqida chin yurakdan gapirib bera olsak, yoshlarimizning o'zi u inson haqida ma'lumot qidira boshlaydi. Yoshlarimiz bu haqida bilishi kerak. Biz ularni qiziqтира olsak yillar haqida o'zlari izlanishadi va o'rganishadi. Lekin bu voqealarni gapirib beruvchi inson o'zi ham izlanishi, talaba yoshlarni qiziqтира olishi muhim. Hamma narsa kichik bir qiziqishdan boshlanadi. Hattoki biznes boshlagan insonlar ham, sotayotgan mahsulotini avval narxini aytmaydi. Birinchi bo'lib qiziqish uyg'otishga intiladi, bor va yo'q afzalliklarini maqtaydi. Chindan ham bu hayotda pulga bog'liq bo'lmagan narsalar haqida gapni avval raqamlardan boshlab bo'lmaydi. Fransuz yozuvchisi Marsel Brionning “Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur” asari haqida eshitmagan yoki-da o'qimagan inson bo'lmasa kerak. Bu asar hayotimizda muhim ro'l o'ynaydi. Asar shu qadar qiziqarli yozilganki 500 betlik kitobni qanday o'qib bo'laman degan inson bu kitobni 5 kunda o'qib bo'lganini ham bilmay qoladi. Amir Temur haqida qancha

gapirsam ham kam. Buni his qilishingiz uchun sizga Marsel Brionning “Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur” asaridan parcha keltiraman va buni o’zingiz yanada teranroq tushuna olasiz.

Amir Temur: “Chap qanotni mening o’g’lim Mironshoh boshqarmoqda edi. O’sha kunga qadar men unga qo’shinga boshchilik qilishni topshirmagan edim. Biroq endi buning fursati yetdi, u janglarda ishtirok etishi, qahri qattiqlikni, o’lim qarshisida o’zidan qo’rquvni quvishni o’rganishi kerak degan qarorga kelgan edim. Jang boshlanishi arafasida unga dedim: “Sen qo’shinning chap qanotiga boshsan. Demak, senga dushmanning o’ng qanoti qarshilik ko’rsatadi. Sening jangchilaring otliq suvoriylar, dushman esa-piyoda. Jang maydoni tekis, demak bu borada ustunlik sen tomonda. Menda dushman piyoda qo’shining jangovar sifatleri haqida ma’lumot yo’q. biroq sening otliq qo’shining kurashlarda chiniqqan. Ayrimlari salkam o’n besh yildan beri xizmatda. Bularning barini senga aytayotganim muvaffaqiyatsizlikka uchrasang, sendan hech qanday sabab, bahona qabul qilmayman. Sening o’lishing mumkinligi haqidagi ehtimol ham meni havotirga solmaydi. O’g’lim bo’lishingga qaramay sening jang maydonida o’lishing men uchun bir jangchimning o’limi bilan teng - unga qanchalik kuyunsam senga ham o’shancha qayg’uraman. Men bu kunni ko’pdan kutgan edim: sulton Muzaffarini munosib jazolashim kerak. Jang maydoni barcha shart-sharoitlari bilan menga ma’qul. Agar shunday kunda muvaffaqiyatsizlikka uchrasam, bu faqatgina sarkardalarimning qobiliyatsizliklaridan bo’lishi mumkin.

Biroq men o’z sarkardalarimning mahoratiga ishonaman, illo ular mening sinovimdan o’tgan. Sen ham janglarda ishtirok etib, mardlik va matonat maktabini o’tading. Lekin bugun harbiy sarkarda sifatida sinovdan o’tishing lozim. Mabodo qaqshatqich qarshilikka uchrasang, uni to’g’ri yorib kirishga urinma, yahshisi aylanib o’t- dushman qo’shining o’ng qanotini halqa qilib o’rab ol. Fattoh Bek ham shunday qiladi: siz ikkingiz dushman qo’shining ortida birlashasiz. Men agar keskin qarshilikka uchrasam, old qatorni-markazdagi kuchni oldga tortib olib chiqishga harakat qilaman. Shunda sizlarning dushman ortiga aylanib o’tishlaring oson kechadi. Men Sulton Mansurning harbiy sarkardalari vijdonan, jonbozlik ko’rsatib jang qilishlariga

ishonmayman, ammo sen dushmanga o'z hukmdori uchun o'lishga tayyor jangchi sifatida qara!”

Vatani sarhadlarini kengaytirish va jang maydonidagi sharaflı o'limga o'z o'g'lini munosib ko'rgan inson bo'lganlar bizning bobokolonimiz. Buni bir necha so'zlar bilan his qildirib bo'lmaydi. Ammo o'zingiz Amir Temur haqida o'qiganingizdan so'ng, bobokolonimiz qanchalar aqlli, qanchalar zukko va kuchli psixolog bo'lganlarini his qilasiz. Ko'z oldingizda har tomonlama ideal inson gavdalanadi.

Xulosa. Amir Temur kabi bobolarimiz yashab o'tgan yurtda yashayotganimizning o'zi baxt emas-mi? Hammasi o'z qo'limizda! Har kuni o'z ustimizda ishlab rivojlanish ham, rivojlanmasdan bir chekkada qo'l qovushtirib o'tirish ham. Amir Temur yashagan davrda ham dunyoning bir burchagi kuchli rivojlanish bilan, boshqa bir qismi esa olovni o'chib qolishidan qo'rqib yashagan xalq bo'lgan. Izlaning, o'qing va hayot haqiqatiga yaqinlashasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marsel Brion 2020 y. Fransiya

ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ БУ АТРОФ-МУҲИТНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ

Хасанов Хайитмурод Абдирашит ўғли

Камолов Фаррух Мехриддин ўғли

Термиз мухандислик-технология институти магистрантлари

Аннотация: Мақолада экологик таълим-тарбия табиат ва жамият ўртасидаги узвийликни боғлаш ҳамда табиий барқарорликни сақлаш, республика ҳудудларидаги экологик муаммолар ечимига таълим тизимини жорий қилиш билан ҳисса қўшиш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, экологик онгни ва экологик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини самарали ташкил этиш.

Таянч сўзлар: Экологик таълим-тарбия, она табиат, табиатни муҳофаза қилиш, табиий ресурслар, атроф-муҳит, конунлар, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, экологик муаммолар, табиат ва жамият.

Ҳозирги кунда бутун инсониятнинг она табиатга бўлган салбий муносабатлари оқибатларига барчамиз гувоҳ бўлиб турибмиз. Баъзи бир мамлакатларда сув тошқинлари, зилзилалар рўй бераётган бўлса, бошқа жойларда ўрмон ёнғинлари тез-тез кузатилиб турибди. Шу каби глобал муаммолар, табиат бойликларидан экологик омиллар ҳисобга олинмаган ҳолда фойдаланиш натижасида ўтган асрнинг иккинчи ярмида авж ола бошлаган эди.

Қайд этиш жоизки, узоқ йиллар мобайнида она табиатга етказилган салбий таъсирлар оқибатида табиий мувозанатга путур ета бошлади. Бугунги кунга келиб эса, инсоният тамаддуни, унинг эртанги тақдири айнан шундай масалаларни ҳал этишни тақозо этмоқда. Айни чоғда экологик муаммоларни ҳал этишда тежамкор ва экологик тоза технологияларни амалда жорий қилиш, табиатни муҳофаза қилиш тадбирларини изчил олиб бориш, ёки соҳага оид

қонунчиликни такомиллаштириш борасидаги саъй-ҳаракатлар, уларни хал этишда етарли эмаслигини кўрсатмоқда. Аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш, атроф-муҳитга оқилона муносабатда бўлиш ва табиат неъматларини келгуси авлодлар учун авайлаб асраш ҳис туйғусини шакллантириш, инсонларнинг салбий таъсирларининг олдини олишда асосий омилларидандир. Бунда экологик таълим-тарбиянинг аҳамияти жуда ҳам каттадир. Албатта, ёш авлод қалбида табиатга бўлган ҳурмат ҳиссини шакллантириш ва ривожлантириш муҳим масалалардан биридир ва бу, ўз навбатида, ўқитувчи яъни педагог кадрларнинг зиммасига катта масъулият юклайди.

Экологик таълим-тарбия табиат ва жамият ўртасидаги узвийликни боғлаш ҳамда табиий барқарорликни сақлашда муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, экологик таълим-тарбия ёшларни табиатдан онгли равишда фойдаланиш ва улар қалбида табиатга бўлган меҳр-муҳаббатни уйғотиш ҳамда тежамкорликка ўргатишда қўл келади.

Мустақилликка эришганимиздан сўнг мамлакатимизнинг барча жабҳалари қаторида экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ҳамда табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасида тўлақонли ҳукукий-меъёрий базалари бирин кетин яратилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуни, “Таълим тўғрисида”ги қонунлар ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, ва бошқа бир қатор қатор ҳужжатлар экологик таълим тарбия тизимининг ҳукукий асосини ташкил этади. Экологик муаммоларнинг тобора глобал аҳамият касб этиб бораётганлиги инобатга олиниб, сўнгги йилларда муҳим устувор вазифалар билан бир қаторда атроф муҳит муҳофазаси, экологик маданият, экологик таълим-тарбия, экологик маърифат масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда.

2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича [Ҳаракатлар стратегиясида](#) белгиланган вазифаларни сўзсиз амалга ошириш, республика ҳудудларидаги экологик муаммолар ечимига таълим тизимини жорий қилиш билан ҳисса қўшиш, ўсиб

келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, экологик онги ва экологик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини самарали ташкил этиш жоиз. Экологик таълимнинг долзарблиги мамлакатимиз табиати, экотизимлари, атроф муҳитни беқарорлик ва издан чиқишдан асраш, аҳолининг экологик маданиятини ошириш, ушбу ўта жиддий, ҳаётий масалаларга аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшлар ҳисса қўшиши зарурлиги билан белгиланади. Лекин экологик хавфсизлик ва атроф-муҳит муҳофазасига алоҳида эътибор қаратилаётган бир пайтда экологик маданият тушунчасининг мағзини ҳамма ҳам бирдек англаб етаётгани йўқ. Табиат бойликларидан унумли фойдаланиш, уларни муҳофаза қилиш масалаларини онгли равишда ҳал этиш учун оила, мактабгача таълим ташкилотидан бошлаб болаларда табиатга бўлган меҳр-муҳаббат руҳини шакллантириш ҳамда экология ва атроф-муҳитга бўлган билимларни боитиб бориш уларнинг онгига сингдириш лозим.

Бу келажакда атроф-муҳитни муҳофаза қила оладиган ва табиатдан оқилона фойдаланадиган авлодларни шакллантиришнинг муҳим омилidir. ўсиб келаётган ёш авлод табиат ҳақидаги билимларни эгаллаб, теварак атрофнинг нозиклигини, унинг гўзалликларини қалбан ҳис қила олсагина, она-Ватанга, ва она табиатга меҳр-муҳаббати ошади. Таълим муассасаларида ўқитиш жараёнида ўқувчилар онгини ҳозирги экологик муаммолар моҳиятини очиб берувчи билимлар билан бойитиш ва шу билимларни уларнинг амалий фаолияти, ижтимоий меҳнати билан мустаҳкамлаб бориш мақсадга мувофиқдир. Бундай масъулиятли вазифани ҳал қилиш учун ўқитувчилардан шу соҳа бўйича билимга, педагогик маҳоратга, юксак экологик маданиятга эга бўлиш, шунингдек, тинимсиз изланиш, ўрганиш талаб қилинади. Бу борада ўқув муассасаларида “Экологик марказ”, “Экологик тўғарак”ларни ташкил қилиш, мунтазам равишда экофестиваллар ёки танловлар ўтказиб туриш, ўқув-методик қўлланмалар, дарсликлар, кўргазмали материалларни нашр этиш яхши самара бериши, шубҳасиз.

Бундан ташқари, оммавий ахборот воситаларида экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишга бағишланган туркум кўрсатув, эшиттиришлар, ижтимоий экологик роликларни мунтазам эфирга узатиб бориш, вақтли матбуот нашрларида мақолалар чоп этиш орқали тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш ҳам аҳолининг экологик маданиятини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Ундан ташқари Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сон қарори билан Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси тасдиқланди.

Концепциянинг мақсади ёш авлодда экологик билим, онг ва маданиятни шакллантириш, экология соҳасидаги илм-фанни инновацион технологияларни жалб қилган ҳолда такомиллаштиришдан иборат.

Мактабгача таълим муассасаларида «Эколог болажон» дастури жорий этилади ва «Экологик йўлакчалар» ташкил этилади, шунингдек, «Она табиат» мавзусида очиқ ҳавода таништирув соатлари ўтказилади, Мактабларда «Энг яхши экологик тоза мактаб», «Энг яхши эколог ўқувчи» кўрик танловлари ўтказилади, Лицейлар ва коллежлар ўқувчилари ўртасида «Экология билимдони» мусобақаси ташкил этилади, Олий таълим муассасалари, талабалар турар жойларида «Эко-клублар» фаолияти йўлга қўйилади деб таъкидлаб утилган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак: Экологик таълимнинг долзарблиги ва экологик маданиятни ривожлантиришимиз лозим сабаби келажакда атроф-муҳитни муҳофаза қила оладиган ва табиатдан оқилона фойдаланадиган авлодларни шакллантиришимиз, ўсиб келаётган ёш авлод табиат ҳақидаги билимларни эгаллаб, теварак атрофнинг нозиклигини, унинг гўзалликларини қалбан ҳис қила олсагина, она-Ватанга, ва она табиатга меҳр-муҳаббати ошади ва уларни авайлаб асрайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. <https://lex/uz> Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сон қарори.
2. Эргашев.А, Эргашев.Т Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. Тошкент 2005.
3. Зокиров.Х.Х Колдошева Ш.А Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш Тошкент янги нашр 2011

**ВОСИТАИ ИМПЛИТСИТИИ ИФОДАИ МУНОСИБАТҲОИ САБАБ ВА
НАТИЧА ДАР ҚОЛАБҲОИ МАСДАРӢ ВА GERUNДИАЛӢ ДАР
ЗАБОНҲОИ АНГЛИСӢ ВА ТОЧИКӢ**

Эшонкулова Муслима Бахтиёрвна

докторанти факултети забонҳои хориҷии МТД “Донишгоҳи давлатии Хучанд
ба номи академик Б.Ғафуров” (Тоҷикистон, Хучанд)

Эшанкулова Муслима Бахтиёрвна

докторант факультета иностранных языков ГОУ «ХГУ имени академика Б.
Ғафурова» (Таджикистан, Худжанд)

Eshankulova Muslima Bakhtiyorovna

Doctoral student of the Faculty of Foreign Languages, Khujand State University
named after academician B.Gafurov (Tajikistan, Khujand)

Дар мақола масъалаи воситаи имплитсии ифодаи муносибати сабабу
натиҷа дар забонҳои тоҷикӣ ва англисӣ мавриди тадқиқ қарор гирифтааст.
Воситаи мазкур дар забонҳои муқоисавӣ хусусиятҳои ба худ хосро дорад.
Интихоби воситаи имплитсии муносибатҳои сабабу натиҷа ба қонуни сарфои
забон таъҷиб мекунад. Дар истифодабарии воситаи имплитсӣ гӯянда ба интихоби
воҳидҳои забонӣ кӯшиш ба харҷ намедихад. Барои дарк кардани ин намуд
муносибат мавқеи асосиро шароити пешакии гуфтор, муродифҳо ва таърибаи
забонии ҳамсӯҳбатон мебозад. Ба ғайр аз ин дар ифодаи муносибати сабабу
натиҷа мавқеи асосиро қолабҳои гуногуни синтаксисӣ мебозанд.

Қалидвожаҳо: сабаб, натиҷа, воситаи имплитсӣ, қолаби масдарӣ, қолаби
герундиалӣ, муодил, ҷумлаи сода, ҷумлаи мураккаби тобеъ

ИМПЛИЦИТНЫЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ПРИЧИННО-СЛЕДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИНФИНИТИВНЫХ И GERUNДИАЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЯХ В АНГЛИЙСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В статье рассматриваются имплицитные способы выражения причинно-следственных отношений в таджикском и английском языках. Это отношение имеет свои особенности в сопоставляемых языках. Выбор имплицитного выражения причинно-следственных отношений основан на законе экономии языка. В использование имплицитных средств выражения говорящий (автор) не прилагает никаких усилий для выбора языковых единиц. Необходимым условием для понимания этого отношения являются предварительные условия для говорения, синонимы и языковой опыт. Кроме того, при причинно-следственных отношениях главную роль играют различные синтаксические формы.

Ключевые слова: причина, следствие, имплицитные средства, инфинитивная конструкция, герундиальная конструкция, простое предложение, сложноподчиненное предложение

IMPLICIT MEANS OF EXPRESSIONS OF THE RELATION OF CAUSE AND RESULT IN INFINITIVE AND GERUNDIAL CONSTRUCTIONS IN TAJIK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation: The article deals with the implicit means of expressions of the relation of cause and result in English and Tajik languages. This relation has its peculiarities in the comparative languages. The choice of implicit means of cause and result is based on the law of economy of language. While using the implicit means, the speaker does not make any effort to choose language units.

The necessary requirement for understanding this type of relation is preliminary condition for speaking, synonyms and linguistic experience. In addition, various syntax forms play the main role in the relation of cause and result.

Keywords: course, result, implicit means, Infinitive construction, Gerundial constructions, simple sentence, complex sentence

Дар забон чараёни баёни муносибати сабабу натиҷа байни предметҳо ва ҳодисаҳои олами материалӣ чор марҳиларо дар бар мегирад. Дар марҳилаи аввал инсон диққати худро ба муносибати байниҳамдигарии предмет ва ҳодисоти олами моддӣ равона мекунад. Дар марҳилаи дуюм инсон тавассути узвҳои ҳис муносибати байниҳамдигарии ишорашударо қабул мекунад. Дар марҳилаи сеюм вобаста ба таҷриба ва дониш инсон муносибати байниҳамдигарии мазкурро дарк менамояд. Дар марҳилаи чорум ӯ воситаҳои зарурии забониро барои хабар додани муносибати байниҳамдигарии ба шунаванда интиҳоб менамояд.

Роҳ ва воситаи ифодаи муносибати сабабу натиҷа байни предметҳо ва ҳодисаи олами ҳастӣ аз салоҳияти забонӣ ва таъби ғӯянда вобастагӣ дорад. Дар як ҳолати ғӯянда метавонад муносибати сабабу натиҷаро ба намуди кушод ва дар ҳолати дигар ба намуди пӯшида ифода намояд. Вай метавонад дар як ҳолат барои ифодаи муносибати сабабу натиҷа воситаҳои муайяни забониро истифода барад ва дар ҳолати дигар бошад ғӯянда воситаҳои имплитситии забонро истифода мебарад. Дар ҳолати имплитситӣ ғӯянда метавонад пайвандакҳо, калимаҳои пайваस्तкунанда ва дигар воситаҳои созмонёбии муносибатҳои сабабу натиҷаро бо мақсади сарфакорӣ кӯшишу вақти худ истифода набарад. Бинобар ин дар забоншиносӣ дар як радиф бо воситаҳои эксплитситии ифодаи муносибатҳои сабабу натиҷа воситаҳои имплиттситӣ низ қайд карда мешаванд.

Л.А.Дидковская оид ба муносибати имплитситии гуфтор менависад: “таҳти воситаи имплитситии ифодаи муносибати сабаб ҷобачогузории содаи аъзоҳои ҷумла, ки бе ягон нишондиҳандаи воситаи алоқа ифода ёфтааст, фаҳмида мешавад. Намудҳои муносибат, ки байни ин аъзоҳо мавҷуданд, аз маънои онҳо муайян карда мешавад” [1, 24].

Бояд қайд намуд, ки “ҷобачогузории содаи аъзоҳои ҷумла” нишондиҳандаи воситаи имплитситии ифодаи муносибатҳои каузали ба ҳисоб намеравад, зеро мавридҳои ба назар мерасанд, ки дар як ҳолат аввал натиҷа ва дар

ҳолати дигар сабаб хотиррасон карда мешавад. Дар ин ҳолат мавқеи асосиро воҳиди луғавии сохтор ва тобеияти дугарафаи маъноӣ байни муносибатҳои мазкур мебозад. Ҳар як сабаб натиҷаи худро пешниҳод менамояд ва ҳар як натиҷа дар навбати худ сабаб бояд дошта бошад. Бинобар ин дар мавриди мавҷуд набудани воситаҳои эксплицитии алоқа шунаванда воситаи имплицитиро мушоҳида менамояд, ки он аз контекст ё дониши забонӣ хулосабарорӣ карда мешавад.

Ба ғайр аз ин нуқтаи назари В.А.Норинскийро бояд ба назар гирифт, ки мегуяд: “мавҷудияти алоқаи мантиқӣ хосияти муҳими сохтори концептуалии сабабу натиҷа ба шумор меравад...”[3, 16].

Омилҳои мазкур ба он мусоидат менамояд, ки ин намуд муносибат бе истифодаи нишондиҳандаҳои махсуси сабабу натиҷа амалӣ мегардад.

Н.Л.Новикова қайд менамояд, ки маъноӣ каузалии дар қолабҳои шаклҳои ғайритасрифӣи феъл, хабарҳои чида, дар маъноӣ исмҳои маънӣ ва феълҳои гурӯҳи алоҳида метавонад инъикоси худро ёбад [2, 4].

Дар мақолаи мазкур оид ба қолабҳои масдарӣ ва герундиалии низ сухан меравад, ки алоқаи кузалии доранд. Одатан ин муносибат дар дар забонҳои муқоисашаванда дар ҷумлаҳои сода ва ҷумлаҳои мураккаби тобеъ ба назар мерасанд.

Маводҳои забонҳои муқоисашаванда аз он шаҳодат медиҳанд, ки ҳам дар забони англисӣ ва ҳам забони тоҷикӣ қолаби синтаксии масдар барои ифодаи алоқаи сабабии гурӯҳи предикативӣ, ки баъд аз худ ё пеш аз худ омадааст ва ба натиҷаи сабаби мазкур ишора менамояд, хизмат мекунад.

Мисол:

1. *Бо шунидани ин овоз ... ходимони банк беихтиёр дастҳояшонро боло мегиранд (5, 163). - On hearing this news the representatives of the bank will raise their hands.*
2. *Аз гузаштани вақт ва осуда хобидан ман андак ба ҳол омадам (6, 105). - I became a little bit stronger of passing some time and sleeping calmly.*

Дар мисоли якум қолаби масдарӣ «*бо шунидани ин овоз*» ба сабаби ҳодисае ишора карда истодааст, ки он бо созмони предикативии «*ходимони банк*

беихтиёр дастҳояшонро боло мегиранд» ифода ёфтааст. Созмони предикативии мазкур ба натиҷаи амали масдар далолат менамояд. Ин алоқаи сабабу натиҷа дар ҳолати табдил додани ҷумлаи мазкури сода ба ҷумлаи мураккаби тобеъ бо ҷумлаи пайрави сабаб баръало ба назар мерасад:

Бо он сабаб ки ходимони банк ин овозро мешунаванд, беихтиёр онҳо дастҳояшонро боло мекунанд.

Айнан Ӣамин хел муносибати сабабу натиҷа дар тарҷумаи англисии ҷумлаи болоӣ ба назар мерасад. Лекин дар ин ҷо ба ҷои қолаби масдарӣ қолаби герундиалӣ «*on hearing this news*» истифода бурда мешавад.

Дар мисоли дуюм ду қолаби масдарӣ «*аз гузаштани вақт; осуда хобидан*», мавҷуд аст, ки онҳо низ сабабҳои натиҷаи гурӯҳи предикативии «*ман андак ба ҳол омадам*»-ро ифода менамояд. Дар тарҷумаи англисии ҷумлаи мазкур ба ҷои қолаби масдарӣ қолаби герундиалӣ истифода бурда шудааст. Қолаби герундиалӣ дар ин ҷо ба сабаб ишора карда истодааст ва натиҷаи он тавассути ҷумлаи сода «*ман андак ба ҳол омадам*» ва муодили англисии он «*I became a little bit stronger*» ифода ёфтааст. Фарқият дар байни онҳо дар он аст, ки дар забони тоҷикӣ аввал сабаб номбар карда мешавад, дар забони англисӣ бошад сабаб баъд аз натиҷа ҷойгир шудааст.

Акнун ба маводҳои забони англисӣ рӯй меоварем, ки бо қолабҳои масдарӣ ифода ёфтаанд. Қолабҳои масдарӣ дар ҷумлаҳо барои ифодаи сабабу натиҷа хизмат мекунанд. Чи тавре, ки А.Ганшина ва Н.М.Василевсакая қайд мекунанд, масдари забони англисӣ метавонад ба вазифаи синтаксисии ҳоли натиҷа ояд, хосатан вақте ки дар ҷумла зарфҳои *enough, so, too* ё ҷонишинҳои ишоратии «*such*» истифода бурда шуда бошад [4, 260]. Ҳолатҳои низ ба назар мерасанд, ки дар ҷумла воҳидҳои ишорашуда ба назар намерасанд:

1. *It was too dark to distinguish anything (4, 260)*
2. *The rest of the conversation is not important enough to be here related. (4, 260)*

Дар чумлаи аввал «*to distinguish anything*» натиҷа, вале «*it was too dark*» сабабро ифода мекунад. Чумлаи мазкур ба забони тоҷикӣ ба таври зер тарҷума мешавад:

Аз сабаби он ки хеле торик буд, чизеро аз ҷам фарқ кардан имконнопазир буд.

Чи хеле ки аз тарҷума мебинем, дар забони тоҷикӣ ба ҷои қолаби масдарӣ масдарӣ чумлаи содда истифода бурда шудааст. Метавон чунин хулоса кард, ки дар забони тоҷикӣ низ алоқаи сабабу натиҷа ифодаи худро на дар шакли чумла бо қолаби масдарӣ меёбад, балки он метавонад тавассути чумлаи мураккаби тобеъ бо воситаи калимаҳои пайвастанандаи «*аз сабаби он ки*» баён шавад.

Дар мисоли дуюм гурӯҳи предикативӣ сабабро ифода ва қолаби масдарӣ бошад натиҷаи амалро ифода карда истодааст. Чумлаи мазкур ба забони тоҷикӣ чунин тарҷума карда мешавад:

Азбаски боқимондаи сӯхбат ин қадар ҳам муҳим нест, он ҳоҷати таваққуф карданро надорад.

Аз тарҷума бармеояд, ки дар ин ҳолат қолаби масдари забони англисӣ ба забони тоҷикӣ бо ёрии шакли тасрифии феъл тарҷума карда мешавад. Бинобар ин, чумлаи содаи забони англисӣ, ки муносибати сабабу натиҷаро тавассути қолаби масдарӣ бо чумлаи сода ифода карда истодааст ба забони тоҷикӣ чун чумлаи мураккаби тобеъ тарҷума карда мешавад. Қисмати якуми он сабаб ва қисмати дуюм натиҷаро ифода мекунад. Мутаносибан дар қолаби масдари забони англисӣ байни забонҳои муқоисашаванда монандӣ аз ҷиҳати сохт ба назар намерасад. Муносибати сабабу натиҷа ифодаи худро бо роҳи гуногун меёбад. Агар дар забони англисӣ тавассути чумлаи содда бо қолаби масдарӣ ифода ёбад, дар забони тоҷикӣ он чумлаи мураккаби тобеъ аст.

Маводои забони англисӣ ба он шаҳодат медиҳад, ки муносибати сабабу натиҷа метавонад ифодаи худро бо ёрии чумлаҳои сода, ки дорои қолаби синтаксии герундий мебошанд, ёбад. Мисол:

4. *The woman, on hearing him speak, quickly looked up, examined the side of his face, and recognized the soldier (7, 126).*

5. *On being told that Jon was about to do something (8, 154).*

6. *I step across now to beg your forgiveness a thousand times for having been led by my feelings to express myself too strongly for a stranger (7, 17).*

Дар љумлаи якум қолаби герундиалии «*on hearing him speak*» (шунидани суханони *ӯ*) ба назар мерасад, ки ба сабаби ичроиши амал ишора менамояд, натиҷаи амали мазкур «*looked up*», «*examined*» ва «*recognized*» мебошанд. Инро дар ҳолати трансформатсияи чумлаи мазкур дарк кардан мумкин аст:

As the women heard him speak, she quickly looked up, examined the side of his face, and recognized the soldier.

Чумлаи болоии бо қолаби герундиалӣ ба забони тоҷикӣ чунин тарҷума карда мешавад:

Бо шунидани суханони ӯ он зан якбора ба боло нигоҳ кард, як қониби рӯи ӯро синча кард ва аскарро шинохт.

Чӣ хеле ки аз тарҷума дида мешавад қолаби герундиалӣ ба забони тоҷикӣ тавассути қолаби масдарӣ, ифода ёфтааст, ки ба сабабе ишора дорад ва натиҷаи он бо хабари чида тарҷума карда шуда аст. Мутаносибан дар ин ҷо метавон дар бораи изоморфизм сухан кард, яъне аз рӯи маъно монандӣ ба назар мерасад, вале аз рӯи ифодаи муносибати сабабу натиҷа байни забонҳои муқоисашаванда алломорфизм аст.

Дар мисоли дуюм низ қолаби герундиалӣ «*on being told*» мавҷуд аст, ки ба сабаб ишора дорад, ва натиҷаи амал бо герундий ифода ёфта шарҳи худро бо ёрии гурӯҳи предикативӣ «*Jon was about to do something*» баён мекунад.

Дар тарҷумаи забони тоҷикии чумлаи мазкур муносибати сабабу натиҷа бо ёрии қолаби масдарӣ бо гурӯҳи предикативӣ ифода меёбад:

Баробари гуфтани ин сухан Ҷон ким - кадом қореро ба сомон расониданӣ шуд.

Чумлаи соддаи мазкурро метавон ба чумлаи мураккаби тобеъ бо муносибати сабабу натиҷа ифода кард:

Аз сабаби он ки ин суханон гуфта шуданд, Ҷим ким кадом қореро ба сомон расониданӣ шуд.

Дар мисоли сеюм низ қолаби герундиалӣ «*for having been led by my feelings...*» ба назар мерасад, ки сабабро ифода менамояд ва натиҷаи он гурӯҳи

предикативии «*I step across now to beg your forgiveness a thousand times*» ба шумор меравад. Чумлаи додашударо ба забони тоҷикӣ метавон чунин тарҷума кард:

Аз сабаби ҳиссиётамро нисбати як шахси ношинос дағалона инҳор карданам ман ҳоло ба он тараф гузашта аз шумо ҳазор бор узр мепурсам.

Аз тарҷума дида мешавад, ки дар ин ҷо қолаби герундиалӣ ба забони тоҷикӣ тавассути қолаби масдарӣ ифода ёфтааст.

Ҳамин тавр, дар забонҳои англисӣ ва тоҷикӣ воситаҳои имплитситии ифодаи сабабу натиҷа ба назар мерасанд. Воситаҳои мазкур дар ҳар ду забон хусусиятҳои ба худ хосро дорад. Агар онҳо аз рӯи маъно монанд бошанд аз ҷиҳати ифода гуногунанд. Дар ҳар ду забон қолабҳои синтаксисии шаклҳои ғайритасрифии феъл, аз чумла қолаби масдарӣ ва қолаби герундиалӣ метавонанд барои ифодаи муносибати сабабу натиҷа хизмат кунанд. Азбаски дар забони тоҷикӣ герундия ба назар намерасад, қолаби герундиалӣ ба забони тоҷикӣ тавассути қолаби масдарӣ ва гурӯҳи предикативӣ ифода меёбанд.

Пайнавишт

1. Дидковская Л.А. Причинно-следственные отношения в сложном предложении и тексте. (на материале англ.яз.XVIII-XX в.). – АКД. М., 1985, с.24
2. Новикова Н.Л. Способы выражения причинно-следственных отношений в синтаксических единицах. Канд. дисс. Саранск, 1989. -193с.
3. Норинский В.А. Структуро – семантические особенности причинно – следственного периода (на материале соврем. англ. яз.). –АКД. Киев, 1987. -22с.
4. Ganshina M.A., Vasilevskaya N.M. English Grammer. M.: Higher school Publishing house, 1964.
5. Айнӣ С. Ёддоштҳо (қисми 1 ва 2). Душанбе: Адиб, 1990. -352с.
6. Икромӣ Ҷ. Духтари оташ. Душанбе: Ирфон, 1968. -527с.
7. Hardy T. Far from the Madding Crowd, pan books Ltd. London, 1967
8. Galsworthy J. A modern comedy. Moscow, 1976. -367р.

**QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UCHUVCHISIZ UCHISH
APPARATLARINING O‘RNI**

Aliqulov G‘olib Nortoshevich

Aralov Muzaffar Muhammadiyevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligi yerlarini turli xil usullar yordamida monitoring qilish va ekish ishlari nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlarini foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Geodeziya, agrodron, qishloq xo‘jaligi yerlari, monitoring, uchuvchisiz uchish apparatlari, karta, plan va dronlar.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida “Geodeziya va kartografiya” faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish hamda sohaga oid ishlarni tashkil etish tartibi, geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarish aniqligi, vositalari, usullari va texnologiyalariga, geodeziya tarmoqlariga, karta va atlaslarning mazmuniga, joyning raqamli modellariga doir asosiy texnik talablar, shuningdek geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning bajarilishi hamda ularning sifatiga oid talablar geodeziya va kartografiya faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilab berildi[1].

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanish, geodeziya-kartografiya sohasi faoliyati bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta‘minlash, yerlarni saqlash va muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish, geodeziya va kartografiya faoliyati samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish,

ko‘chmas mulk obyektlarining elektron ma‘lumotlar bazasini takomillashtirish va doimiy yangilab borish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etgan holda, davlat kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlariga tezkor va sifatli xizmatlar ko‘rsatish belgilandi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligi yerlarini turli xil usullar yordamida monitoring qilish va ekish ishlari nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlarini xarid qilish ishlarini yakunlash, bunday apparatlarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida sohada bir qator keng kulamda ishlar olib borilmoqda[4,5,6].

Agrodronlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ❖ Kamroq vaqt sarflanishi. Sinov va dronlardan amaliy foydalanish shuni ko‘rsatadiki, sprej zonasini keng bo‘lgani uchun ular parvozning 20 daqiqasida 4-6 ga maydonni qayta ishlashi mumkin.
- ❖ Funkcionallik. Sig‘imli suyuqlik rezervuar va purkagich bilan jihozlangan samolyotlar daladagi va borish qiyin bo‘lgan joylarni, pestitsidlar yoki o‘g‘itlarni tashib, ularning dozalarini to‘g‘ri va bir xilda purkashni amalga oshirishi mumkin.
- ❖ Mablag‘ni tejash. Maxsus uskunalar va yoqilg‘i-moylash materiallarini ishlatish narxini pasaytirish.
- ❖ Manevr qilish qobiliyati. Agrodronlar to‘siqlarga tezda javob bera oladilar va ularni aylanib o‘tadilar, shuning uchun ularni bog‘larda, o‘rmonlarda, tog‘larda ishlatish mumkin.

Keng imkoniyatlar. Dronlarda samarali ishlash uchun marshrutni qurishning turli usullari va turli xil tizimlari taqdim etiladi. Bundan tashqari, agrodronlar avtomatik ravishda tanaffuslarni yozib olishlari, boshlang‘ich nuqtaga qaytishlari va ilgari ishlagan joylaridan ishni davom ettirishlari mumkin.

Samolyot tipidagi uchuvchisiz uchish apparatidan foydalanish qulayligi, uni ozgina mashqdan keyin har kim bajarishi mumkin[2].

Dronlarning kamchiliklari. Barcha ijobiy tomonlarga qaramay dronlar bir qator kamchiliklarga ega:

- ❖ Agrodron bajaradigan operatsiyalarga qarab, cheklangan parvoz vaqti 30 daqiqadan oshmaydi.
- ❖ Taxminan 12 kg yukni ko‘tarish quvvati.
- ❖ Bak hajmi 12 litrgacha.
- ❖ Ob-havo sharoitiga qarab, agrodronni faqat mo‘tadil qor yoki yomg‘ir yog‘ishi va 8 m/s gacha tezlikda shamol esishi to‘xtatilishi mumkin.

So‘nggi yillardagi amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida agrodronlarni faol qo‘llashning birinchi yilidayoq qilingan investitsiyalar o‘z samarasini bermoqda. So‘nggi paytlarda uchuvchisiz uchish apparatlari narxining asta-sekin pasayishi va dronlardan foydalangan holda professional xizmatlarning takliflari sonining ko‘payishi tendensiyasi kuzatilmoqda.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligida agrodronlardan foydalanish.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yaqin kelajakda agrodron kultivator yoki kombayn kabi zarur bo‘ladi.

Umuman olgan qishloq xo‘jaligida UUALardan foydalanish usullari:

- ❖ sug‘oriladigan ekin maydonlarini sug‘orish mashinalari yordamida sug‘orish va tomchilatib sug‘orish sifatini kuzatish;
- ❖ hududga tushib qolgan hayvonlarni aniqlash (zararlardan himoya qilish) maqsadida dala monitoringi;
- ❖ qishloq xo‘jaligi texnikasining joylashishi va ishlatilishini monitoring qilish;
- ❖ melioratsiya qurilishini o‘tkazish, sug‘orish tizimlari monitoringi;

- ❖ chorva mollarini boqish, podadan adashgan hayvonlarni qidirish, ularni podaga yo‘naltirish;
- ❖ ekin maydonlari va haydaladigan yerlarning obyektiv maydonini belgilaydigan ekinlar va dalalarni, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik o‘tlar, konlarni ro‘yxatga olish;
- ❖ topografik planlarni yaratish;
- ❖ yong‘inlarni tahlil qilishda, yong‘inlarni kuzatishda foydalanish;
- ❖ ish hajmini baholash va ularning bajarilishini doimiy nazorat qilish;
- ❖ tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararni hujjatlashtirish va h.k. larni yuritishda asqotadi.

An’anaviy usulga nisbatan, zamonaviy usullarda qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringi yuritishda keskin farqlar kuzatiladi[2].

Qishloq xo‘jaligi yerlarini turli xil usullar yordamida monitoring qilishda kvadrokopter (Phantom 4 pro+) uchuvchisiz uchish apparatining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- ❖ uchirish uchun maxsus joy tanlamaydi;
- ❖ kam xarajat;
- ❖ juda past balandliklarda, ya’ni yer yuza sathidan 5 m balandlikda uchishi imkoniyati mavjud;
- ❖ kichik hajmdagi, ya’ni 500-1000 gektargacha bo‘lgan dala maydonlarida uchun qo‘llash samarali;
- ❖ qishloq xo‘jalik elektron raqamli xaritasini 5 sm gacha bo‘lgan aniqlikda yaratish imkoniyatiga ega;
- ❖ qayta ishlangan ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri geoportalga yuklash imkoniyatiga ega;
- ❖ Inson omili ta’siri yo‘q.

500 ga qishloq xo‘jaligi yer maydonini monitoring qilishda kvadrokopter (Phantom 4 pro+) uchuvchisiz uchish apparati parvoz davomiyligi 20 daqiqani tashkil etsa, kartografik dron (Foxtech AYK-250 VTOL Inspection Combo)ning parvoz davomiyligi 60 daqiqani tashkil etadi[2].

Uchuvchisiz uchish vositalaridan foydalanish davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari oldida turgan vazifalarni bajarishni jiddiy osonlashtiradi, yerdan oqilona foydalanmaslikni monitoring qilish, qurilish ishlari, davomli obektlar (temir yo‘llar, quvuro‘tkazgichlar va boshqalar)ni amalga oshirishda va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik imkonini beradi, shaharsozlik ishlari va geoaxborot xaritalarini yaratishni soddalashtiradi. Uchuvchisiz uchish vositalarining yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha bajarilganda eng asosiy afzaliklaridan biri bu inson xayotiga xavf tug‘dirmasligini aytish lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar yordamida qishloq xo‘jaligi yer maydonlari monitoringini yuritishda inson omili ta‘siri 65% gacha kamaytirish mumkin. Bundan tashqari GPS tizimi yordamida Davlat geodezik koordinatalar tizimiga bog‘langan yuqori sifatli aerosuratlar olinadi va muhimi bu jarayonlarning asosiy qismi avtomatlashgan holda bajariladi. Bundan tashqari, bir vaqtning o‘zida ko‘proq ma‘lumot olish uchun bir nechta agrodronlarni uchirish imkoniyati mavjud. Chunki, dronlarni uchirish uchun katta aerodrom yoki boshqa shunga o‘xshash to‘siqlar mavjud emas. Zamonaviy dasturlar va dronlardan olingan ma‘lumotlar geoaxborot tizimini qisqa muddatda shakillantirish va muntazam yangilab borish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 02.07.2020 yil // lex.uz
2. R.A. Turayev. “Sug‘oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish” . Dissertatsiya (DSc): 06.01.10. –T.: -2021.
3. Safarov E., Prenov Sh., Mo‘minov A. Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Sano-standart”. 2018.
- 4.Арапов М.М., Бердиев Д.Ф., Абдиязиев А.А. Uchuvchisiz uchish apparatlarini kartografiya sohasida qo‘llash tamoyillari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL 2021, апрел.

5. Аралов М.М., Берdiyev D.F., Abdiraxmatov N.A. Geodezik ishlarda sun`iy yo`ldosh orqali o`lchash usullari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL 2021, апрел.

6. M.M.Bozorov, G`N.Aliqulov, J.CH.Urinov, F.S.Safarov, X.N.Davlatov. Yer maydonlaridan foydalanishda davlat nazorati//Innovatsion texnologiyalar, 2021., maxsus soni, 117-124 b.



ANORNING BIOLOGIK AHAMIYATI

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, q.x.f.f.d (PhD)

FarDU ATSF kafedrası o‘qituvchisi

Soliyev Abdulvosit Mirolim o‘g‘li

FarDU UMS fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email: idrisovhusanzon@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada eng muhim bo‘lgan subtropik ekin anorning ahamiyati to‘grisida, undan samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha bayon etigan. Shuningdek, biologik qiymati, inson salomatligini oshirishdagi foydali xususiyatlari ham yoritib berilganligi bilan yanada ahamiyatlidir

Kalit so‘zlar: Anor, subropik, anorchilik, meva, vitamin, kimyo, fizika, biokimyo, biotexnologiya, biofizika, fiziologiya, o‘simlikhunoslik, mikrobiologiya

Keyingi yillarda axolini oziq-ovqat maxsulotlariga, sanoatni esa xom ashyoga bolgan talabini qondirish xamda mamlakatimizni eksport saloxiyatini oshirishga katta etibor berilmoqda. Shu jumladan qimmatbaxo meva-anor anorchilikni rivojlantirish maqsadida anorzorlar uchun yer maydonlari ajratish yangi serxosil maxalliy va istiqbolli navlarni ko‘paytirish, anor yetishtirishda ilg‘or innovatsion texnologiyalar qo‘llagan xolda hosildorligi va sifatini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda. Oxirgi 5-6 yil davomida Respublikamizda paxta va boshqli don maydonlari bosqichma-bosqich qisqartirilishi va bu maydonlarga sabzavot, poliz, oziq-ovqat, moyli ekinlar xamda meva, uzum shu jumladan anorzorlar tashkil qilish kengaymoqda. Birgina Farg‘ona viloyatida yangitdan 2000 gektar maydonga anorzorlar tashkil etildi.

Anor juda ham foydali osimlik, bevosita istemol qilinishidan tashqari xalq xojaligining kopgina tarmoqlarida ishlatiladi. Uning tarkibida har xil muhim moddalar bolishi bilan birga u xalq meditsinasida. Boyoqchilikda va manzarali osimlik sifatida juda qadirlanadi.

Bu esa respublikada meva-sabzavotlarni qayta ishlaydigan korxonalar sonini yanada oshirish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish asosida ularning yalpi ish unumdorligini kottarish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi vaqtda yer yuzi aholisi bir sutkada 4,5-5,0 mln tonna ovqat istemol qilayotgan bolib, bu korsatkich yildan yilga ortib bormoqda, chunki har bir sutkada tugilish sonini hisobga olsak, bu korsatkich oz-ozidan ortib boradi. Mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat muammosini kafolatlangan holda xal etish boyicha turli xildagi, mazmundagi Farmonu-qarorlar qabul qilinib hayotga tatbiq etilmoqda.

Bunda paxta maydonlarini qisqartirish hisobiga boshqoli ekinlar maydonini 50 ming gektarga, hamda sabzavot va boshqa oziqa ekinlar maydonini yanada kengaytirish kozda tutilgan. Shu farmon asosida birinchi Prezidentning 2009 yil 26 yanvardagi Qarorida ham mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kopaytirish va oziq-ovqat uchun ekiladigan ekinlarni turini kengaytirish, bu asosda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bolgan talabini tola qondirish vazifasi qoyilgan. Xalqimiz anorni mevalarning sultoni deya ataydi. Darhaqiqat, unga sinchiklab qarasangiz toj kiydirilganga oxshaydi.

Ona yurt nemati, xalqimiz tomonidan sevib istemol qilinadigan anor qadimdan tabobatda keng qollanilgan. Turli kasalliklarni davolash maqsadida uning mevasi, posti bilan birga daraxtning novdasi va postlogi ham ishlatiladi. Bobur Fargona viloyatining marifatida anor va orik mevasining bisyor bolishini qayd etgan. Osha zamonlarda Abi Samarqand va Anori Xojand iborasi mashhur bolgan. Bobur Margilonda Dono kalon va Sammon navli anorlarning shirinligini alohida qayd qilgan. Bobur keyinchalik Qobul va Odinapurda Samarqand boglaridagi kabi anor ektirgan. U kuz faslida anorning sariq rangdagi tovlanishini zavq bilan tariflagan. Bek va yaqin ayonlari bilan anorxorlik qilgan.

Alloma Abu Ali ibn Sino anor postini qon tupirganda, milk qonaganda, meda kasalliklari (ich ketish, qon aralash ich ketish)da, siydik haydash, tish-milkni mustahkamlashda, yaralarni va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatgan. Anor subtropik ekinlar turkumiga mansub bolib, tabiatda O'rta yer dengizi boyi mamlakatlarida, Qora dengiz atrofi yerlarida, Kavkaz ortida, Primore olkasida,

Xindistonda, Xitoy va O'rta Osiyoda tarqalgan. Yer yuzining anor qishda komilmay parvarish qilinadigan xududlarida balandligi 5-7 m gacha osuvchi daraxt-buta qishda komiladigan hududlarda buta holda osadi. Anor yovvoyi holda tabiatda bir ildizdan unib chiqqan bir necha shoxlardan iborat bolgan buta shaklida uchraydi. Anor osimligi O'zbekiston iqlim sharoitiga mahalliyashtirilgan issiq sevar, sug'orish suvi va tuproq unumdorligiga talabchan, sho'rga chidamli ekin. Anor XIX asrning oxirlaridan boshlab Farg'ona viloyatining Quva tumani xududida keng ekilib kelinmoqda. Bugungi kunda Anor Respublikamizning Farg'ona, Surxondaryo, Namangan, Qashqadaryo va boshqa barcha viloyatlarda ekilib ostirilib kelinmoqda. Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlaridan tashqari Respublikamizning barcha viloyatlarida anor qish oylarida sovuqdan komilib, baxorda ochilib parvarish qilinadi. Mustaqillik yillardan keyin ayniqsa keyingi 4-5 yillarda anorchilikni rivojlantirishga katta etibor berilmoqda. Mamlakatimizda anorchilik maktabi ilk bor Quvada tashkil etilib, butun Osiyoda tajriba sifatida organilgan. Bugungi kunda Quva tumanida 470 ta fermer xojaligi 1 ming 800 gektar maydonda anor yetishtirish bilan shugullanmoqda. Anorchilikni rivojlantirishda serhosil maxalliy navlar bilan bir qatorda kasallik va zararkunandalariga va noqulay ob-xavo sharoitlariga chidamli va hosildorligi yuqori hamda mevasining sifat korsatkichlari yuqori bolgan chet navlarini intraduksiya qilish, anorchilikka ilgor fan-texnika yutuqlarini inovatsion texnologiyalarni joriy qilish amalga oshirilmoqda.

Anorchilik Farg'ona sharoitida ozining istiqbolli dehqonchilik sohasi ekanini amalda isbotladi. Chunki shorga chidamli bu ekin turi har bir xonadonning tomorqasida mavjud. Bir tup anordan 40 kilogrammdan 80 kilogrammgacha hosil berishini hisoblaganda bu tabiat inomi qanchalik serdaromad ekanini anglash qiyin emas. Yana bir etiborli jihati shundaki, u boshqa mevalarga qaraganda uzoqroq saqlanish xususiyatiga ega. Bu ham anorning xaridorgirligini taminlaydi, albatta. Anor 200 (300) yilgacha umr korishi mumkin.

Sifatli oziq-ovqat tayyorlash avvalambor xom-ashyo tarkibida bolgan va mahsulotga qoshilgan kimyoviy moddalar turlarini, tarkibini, tuzulishini, olinish usulini hamda texnologik va organizmda xazm bolish jarayonlaridagi ozgarishlarga

uchrashi mumkinligini bilib olishga bogliq. Malumki qishloq xojaligi mahsulotlari yilning muayyan mavsumida yetishtiriladi, shu sababli ularni uzoq vaqt saqlash va qayta ishlashni tashkil holda aholini yil boyi sifatli turli xil mahsulotlar bilan taminlash masalasini hol qilib boladi.

Qishloq xojalig mahsulotlarini yigish, tashish, saqlash va qayta ishlashni ilmiy tashkil qilinsa bu borada fan-texnika yutuqlari hamda ilgor tajribaga suyanib ish korilsa mahsulotning isrof bolishi ancha kamayadi. Hozirgi vaqtda mahsulotni uzoq vaqt saqlashga imkon beradigan takomillashtirilgan texnologiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada kimyo, fizika, biokimyo, biotexnologiya, biofizika, fiziologiya, o'simlikhunoslik, mikrobiologiya va boshqa bir qator fanlarning yutuqlaridan ijodiy foydalanilmoqda.

Meva va sabzavotlarni qayta ishlash usulini mahsulotning turiga, naviga, yetishtirilgan regioniga, ularning kimyoviy tarkibiga va boshqa bir qator korsatkichlarga qarab tanlanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach dastlabki kunlaridan boshlab kichik va orta biznesga keng yol ochib berildi. Yurtimizga koplal chet el investoralari jalb qilindi.

Anor navlarini organish otgan asrning 20 yillaridan keyin boshlangan. Ozarbayjon quruq subtropik osimliklar stantsiyasida 1932-1939 yillar mobaynida Zakavkaze, O'rta Osiyo respublikalari, Dog'iston va Qrimda anor osimliklari boyicha tadqiqotlar otkazildi. 1935 yildan boshlab quruq subtropik osimliklar ilmiy-tadqiqot institutida ushbu osimlikning O'rta Osiyoga mansub navlarini va ularni ostirish usullarini organish davom ettirilgan.

Nikitski botanika bogi, Dog'iston mevachilik stantsiyasi va boshqa ilmiy muassasalarda mahalliy sharoitlarda anor osimligi keng kolamda sinab korildi. Qulay sharoitlar mavjudligi sababli O'rta Osiyo respublikalarida anorning turli xil navlari ostirilmoqda. Keng ishlab chiqarish sharoitlarida kopaytirishga anorning quyidagi navlari tavsiya etilgan.

Respublikamizda anorning 40 dan ortiq navlari bor. U O'zbekistonning deyarli barcha tumanlarida ostiriladi. Tabiiy holda osuvchi anorlar O'zbekistonning janubiy tumanlarida uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Aminov, O.Kulkov “O‘zbekiston anjir va anori” - “O‘zbekiston” nashriyoti -1996 yil
2. Isroil Ne‘matov -“Anorchilik sirlari” yosh bog‘bonlar, fermerlar va barcha qiziquvchilar uchun qo‘llanma. Toshkent - 2011yil
3. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. -O‘zbekiston mevacilig. T., 1981.
- 4.Mirzaev M.M., M.K. Sobirov -Bog‘dorchilik., T., 1987.
- 5.Mirzaev M.M., M.K. Sobirov -O‘zbekistonda bogdorchilik., T., 1990.
- 6.Bo‘riev X.,Ch. -Havaskor bog‘bonlarga qo‘llanma. T., 1997.



QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI XOSILDORLIGINI OSHIRISHDA ASALARILAR YORDAMIDA CHANGLATISHNING AHAMIYATI

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, q.x.f.f.d (PhD)

FarDU ATSF kafedrası o‘qituvchisi

Soliyev Abdulvosit Mirolim o‘g‘li

FarDU UMS fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email: idrisovhusanzon@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda asalarilar yordamida chanlatisning ahamiyati to‘grisida, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha aniq takliflar bilan bayon etigan. Shuning barobarida asalarilarnig tabiati, foydali xususiyatlari ham yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: Asalari, changlanish, hosildorlik, tabiat, oila, o‘simlik, gullar

O‘simliklar dunyosi tabiatni ajralmas qismi hisoblanadi. Yer yuzidagi hayotning davomiyligini o‘simliklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Insonlar o‘simliklardan turli sohalarda, tibbiyotda, sanoatda va kundalik hayotda foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-sonli qarorida biologik xilma xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta‘minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur‘atlarini pasaytirish, hayvonlar o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni qaratilgan kompleks choralarni amalga oirish lozim.

Asalarichilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada

ko‘paytirish, asalni qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg‘or tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda asalarichilik xo‘jaliklarini o‘rmon fondi yerlariga, tog‘ va tog‘oldi hududlariga, tabiiy pichanzor va yaylovlarga hamda qishloq xo‘jaligi yerlariga joylashtirishni amalga oshirish orqali o‘simliklar hosildorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Asalarilar ekinlar hosilini oshirish va urug‘chilikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Dalazordagi o‘simliklarning hosil berishlari uchun chang bir o‘simlik gulidagi ikkinchi o‘simlik o‘tmog‘i kerak. bu vazifani har xil hasharotlar, ayniqsa asalarilar bajaradi. Ekinlar gullagan vaqtda, asalarilarni ularga yaqinroq olib borishadi. Agar aksi bo‘lsa, ulardan mo‘l hosil olib bo‘lmaydi, chunki gulli o‘simliklarning 70 % qismi asalarilar bilan changlanadi. Asalarilar ko‘p miqdorda oziqa qidirib turli xil gullarga qo‘nadi va shu bilan birga bu gullarni changlantirib ham ketadi. Asalarilarning tanasi yetarli darajada sertukli bo‘ladi va bu tuklarga ko‘p miqdorda changchi gullarining changi ilashib qoladi.

Paxta hosilini oshirish qishloq xo‘jaligi xodimlari oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Manbalarga asoslangan holda asalarilar yordamida o‘simlikni chetdan changlatish katta ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlangan. G‘o‘zani changlatuvchi sifatida asalarilar bilan asrning boshidayoq qiziq boshlangan. Chunki paxta mahsulotiga bo‘lgan talabning yuqoriligi bu o‘simlikning hosildorligini oshirish yo‘llarini izlab topishni talab etmoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra asalarilar yordamida changlatilgan g‘o‘zadan asalarilar bo‘lmagan joyga nisbatan har gektardan 2,6 tsentner ko‘p paxta yig‘ib olingan.

O‘simliklarda gullash davri 15-20 minutdan (ayrim ko‘zachagullilarda) to 2-3 oygacha (Orxideyadoshlarda) cho‘ziladi. Ko‘pchilik o‘simliklar guli 6-8 soatdan to 1 sutkagacha ochilib turadi. Shuni aytib o‘tish keraki, o‘simliklarning gullashi changlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. O‘simlik gulidagi turli morfologik va fiziologik moslanishlar, uning mavsumiy va sutkalik ochilish karakteri shu o‘simlik gulini qaysi tipda va qanday vositalar yordamida changlanishini belgilab beradi.

Asalarilar guldan-gulga qo‘nib, o‘simliklarning g‘uj changini biridan ikkinchisiga o‘tkazib, ularning changlanishini ta‘minlaydi. Asalarilarning gullarning ayrim turlariga borib qo‘nishida va mo‘ljalga olishida ular hidlarining ahamiyati katta. Har xil turdagi o‘simliklarning gullari har xil hid ajratgani uchun ham asalarilar ularni yaxshi mo‘ljalga olib tez qidirib topadi.

Asalarilar ko‘proq borib qo‘nadigan gullarga yaxshi moslashib olib, har bitta asalari o‘nlab gullar orasidan o‘zi sharbat olayotgan gulni topa oladi. Asalari doimo bir xil turdagi o‘simlik gullariga qo‘nmaganda changlanish yaxshi bo‘lmas edi. Chunki asalarilar o‘simlik gullarida sharbat kamayib qolgandagina ayrim tur o‘simlik gullaridan boshqa tur o‘simlik gullariga borib qo‘nadi.

Asalarilar ozuqa qidirib gullarni changlatib, meva navlarini yaxshilab, hosildorlikni oshirsalar, gullar asalarilarni gulchang va sharbat (oqsil, uglevod) kabi oziq bilan ta‘minlaydi.

G.A.Avitsyan, I.Bulgakova., N.F.Gubin kabi tadqiqotchilar fikricha g‘o‘zani eng yaxshi changga boy o‘simlik qatoriga kiritib, unga asalarilar bajonidil qatnaydi va hosildorligini 20-25 foizga oshiradi.

M.Gubin, I.Klishen, E.Kander ma‘lumotlariga ko‘ra poliz ekinlari va meva daraxtlarini asalarilar yordamida changlatilganda ularning hosildorligi 4-5 marotaba oshganligini isbotlashgan.

Asalarilar yordamida va boshqa kompleks usullarni qo‘llab hosilni oshirish masalasiga, Yevropa davlatlarida hamda iqlim va tuproq sharoitlarining hilma-hilligi, yovvoyi va madaniy o‘simlik turlarining ko‘pligi bilan farq qiladigan O‘zbekistonda ham o‘simliklarni changlatish usuli keng qo‘llanilmoqda.

Ko‘pgina olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra o‘simliklar asalarilar yordamida changlatilganda, o‘simliklarning biologik hilma-hilligi saqlanadi, tabiatdan barqaror foydalanish yo‘lga qo‘yiladi, nayob o‘simliklar turi asrab qolinadi, ekologiya yaxshilanadi, hosildorlik oshiriladi. Shu bilan birga beda hosilini 180-250 % gacha, kungaboqarni 40-50 % gacha, qora bug‘doyni 1,5 martagacha, karam, sholg‘om, piyozni 30-40 %, zig‘irni 27 % gacha, rezovar meva hosilini 50-60 % ga oshiradi.

Changlatishda asalarilardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun: sog‘lom, kuchli asalari oilasi changlatish kerak bo‘lgan joyga olib chiqishdan 12-14 kun oldin oilada 5-6 ta naslli rom bo‘lib undagi asalarilar naslini boqishga yetadigan asal bo‘lishi kerak.

O‘simliklarni changlatishda yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarga erishishning asosiy shartlaridan biri asalari oilasini changlatiladigan maydonga yaqin qo‘yish va asalarining bu yerga uchib keladigan yo‘lida to‘siqlarning kamroq bo‘lishidir. (Tabiiy daryo, ko‘l, qirlar, qurilishlar, daraxtlar, zaharli gazlar, korxonalar tutuni, ximiyaviy chiqindilar) kabi to‘siqlar qanchalik kam bo‘lsa asalarilar shuncha tez joyga borib changlata boshlaydi, to‘siqlardan uchib o‘tishga kamroq quvvat sarflaydi, ularning ishlashida xavfsizroq bo‘ladi va belgilangan maydonni changlatish uchun kamroq asalari oilasi kerak bo‘ladi.

Katta cho‘zilgan yer maydonlarida changlatish samarasini oshirish uchun asalari oilalarini dalaning chetidan 200-300 metr ichkariga, bir-biridan 800-1200 metr masofada qo‘yish kerak. Shuni hisobga olish kerakki, changlatiladigan maydonning atrofida asalarilar diqqatini jalb qiladigan o‘simliklar bo‘lmasligi kerak, aks holda, ularda asalarilarning bir qismi qolib ketadi. Asalarilar bir xil o‘simlik changini iste‘mol qilishi ularning hayotiy faoliyatini tushurishini hisobga olib asosiy o‘simlik yonida boshqa ekinlar ekilishga yo‘l qo‘yiladi. Tarvuz, qovun, baqlajon, bodring va yovvoyi o‘simliklar, solyanka, chirmoviq, otquloq va hakoza ekinlar asalarilarning hayotiy faoliyatini kuchlantiradi. Lekin bularning maydoni changlatiluvchi ekin maydonining 2/3 qismidan oshiq bo‘lmasligi kerak.

Asalarilarning xohlagan o‘simlikka borishini ta‘minlash uchun qo‘llaniladigan usullardan biri bu ularni o‘rgatishdir, ya‘ni ularda ma‘lum bir o‘simlikka borish refleksini shakllantirish. Buning uchun tayyorlangan siropga (1 qism qand, 2 qism suv) belgilangan o‘simlikning changidan olingan gulini solish kerak va tun bo‘yi shu siropda qoldirish kerak. Ertalab asalarilar hali uchib chiqmaslaridan oldin, har oilaga 200 g hisobida shu siropdan oxurlarga quyiladi.

Asalarilarni ma‘lum bir joydan asal yig‘ishga o‘rgatish uchun kechqurun oxurga tayyorlangan ivitma quyiladi, ertalab qolgan ivitma bilan ichidagi asalarilar changlatish uchun belgilangan maydon o‘rtasiga ustiga doka yopib olib borib qo‘yiladi

va yana ivitma quyiladi. Asalarilar oxurdan o‘z uyalariga qaytib kelganida u yerdagilarga oxurning turgan joyi qayerdaligini «aytadilar». Bu ivitma bilan bir necha kun uyada ham oziqlantirib turilsa, asalarilar o‘rgatilgan joyga boradigan bo‘ladilar.

Qiziqarli usullardan biri – chang ushlab qoladigan asbob bilan asalarilarning changini tortib olish. Bunday vaqtda asalarilar yana chang yig‘ishga ketadi.

Asalarilarda o‘simliklarga qatnash uchun turg‘un refleks hosil qilish lozim.

Changlatuvchi asalarilardan foydalanishning optimal muddatlarini ishlab chiqish maqsadida o‘simliklarning biologik va fiziologik xususiyatlari, ularni o‘stirish texnikasi, o‘sish mavsumi, harorat omili va hokazolar hisobga olinishi lozim.

Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jalik ekinlarini chhanglatuvchi asalari oilalari joyini har 5–7 kunda almashtirib turish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asalari bilan changlatishda eng asosiysi bu bir gektardagi o‘simlikni changlatish uchun kerak bo‘ladigan asalari oilasining soni to‘g‘ri tanlab ulardan samarali foydalanishdir.

Respublikamizda jami bo‘lib 143 mingta asalari oilasi bo‘lib, bu mavjud ekilayotgan 1,5 million gektar g‘o‘za maydonlarini, 540 ming gektar bedazor, 482 ming gektar bog‘, poliz, sabzavotni, 387 ming gektar makkajo‘xori va boshqa ekinlar gulini changlatishga yetmaydi. Ana shu maydondagi ekinlar gulini changlatish uchun qo‘shimcha ravishda yana 1,5–2 millionta asalari oilasini tashkil etishni talab qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bir gektar bedazor gulini changlatish uchun 2–3 ta, 1 gektar g‘o‘za maydoni uchun 2–4 ta, mevazorlar uchun 2–4 ta, poliz ekinlari uchun 0,5–1 ta, sabzavot, uzumzor, perga, raps kabi ekinlar uchun 1–2 ta asalari oilasi talab qilinadi.

Hozirgi kunda mavjud asalari oilasi bilan faqatgina 200 ming gektardan ziyodroq g‘o‘za maydonlarini changlatish mumkin.

Asalari bir daqiqada o‘ndan ortiq, bir kunda esa 72 mingga yaqin g‘o‘za gulini changlatishga ko‘maklashadi. O‘z vaqtida yaxshi changlanish esa hosildorlikning oshishida katta ahamiyatga ega. Bu ayniqsa, beda urug‘i hosilini oshirishda yaqqol seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamuxammedov A.I. Asalarichilik rivojlantirish asoslari. Darslik. Toshkent, 2013 yil.
2. Qahramonov B.A., Isamuhammedov A.I., Ballasov U.Sh., Ergashyev S.F., To'rayev O.S.. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarda asalari oilalarini parvarishlash» O'quv qo'llanma Toshkent. 2009.
3. Qahramonov B.A., Isamuhammedov A.I., Ballasov U.Sh., Isamuhammedov S.Sh., To'rayev O.S.. «Asalarichilik» Toshkent – 2012.
4. Jurayev J.Ya., Ostonoqulov T.E., Farmonov N.O. Asalarichilik. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2012 yil.
5. Kraxotin N.F.. «O'zbekistonda asalarichilik» Toshkent. Mehnat, 1985.



OITS NI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI


Ibrohimova Dilrabo Ibrohim qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: UNAIDS ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 36,7 million odam va kuniga 5000 dan ortiq kasallanish soni qayd etilgan. OITS ni davolab bo'lmaganligi sababli asosiy choralar uni profilaktikasiga qaratilgan edi. Lekin hozirda tibbiyot va biotexnologiyada rivojlanib katta yutuqlarga erishilmoqda. Tuzatib bo'lmaydigan deb hisoblangan kasalliklarga yangi davolash usullari va preparatlar ishlab chiqarilmoqda

Kalit so'zlar: OIV, OITS, CCR5 geni, VRC01-sinfl antitela, EOD-Gt8, CRISPR/Cas9, antigen, immunogen.

OIV(orttirilgan immuntanqisligi virusi)- qondagi T-limfotsitlarni zararlaydi va odam immuniteti infeksiya bilan kurasha olmaydi. OIV ko'payish uchun T-limfotsitlardan foydalanadi. T-limfotitda virus RNK si asosida teskari transkriptaza orqali DNK sintezlanib, hujayra yadrosidagi DNK tarkibiga qo'shilib oladi va provirus holatiga o'tadi. Hosil bo'lgan provirusdan OIV virionlari sintezlanib, qonga tarqalib ko'payishni boshlaydi.



Custom Medical Stock Photo

OITS- OIV yuqishi natijasida kelib chiquvchi sindrom. OIV qon yoki jinsiy aloqa orqali bir odamdan boshqa odamga yuqadi. Virus antiretrovirus terapiya (ART) bo'lmaganda rivojlanadi. Antiretrovirus terapiya OIV o'sini sekinlashtiradi yoki oldini oladi.

OIV ni davolashda har xil tajribalar o'tkazilgan. 2007-yili tajribada virusni hujayraga kirishida rol o'ynaydigan oqsilga javobgar gen mutatsiyasi bo'lgan ya'ni **CCR5** geni mutatsiyaga uchragan donor iligi OIV bilan kasallangan bemorga transplantatsiya qilingan. 1-yildan so'ng kasallik yana rivojlana boshlagan, 2009-yili qayta operatsiyadan keyin unda virus qaytib kuzatilmagan. Ammo bunday tajriba har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmagan. Xitoylik olim Xe Tzyankuy bo'lsa, bunday mutatsiyani sun'iy ravishda DNK(CRISPR/Cas9) buzib hosil qilmoqchi bo'lgan, lekin uning tajribasida xatolik yuz bergan.


Scripps Research Institute olimlari ba'zi odamlarda OIV bilan kurasha oladigan - **VRC01** antitelani ishlab chiqaradigan immun hujayra aniqlashdi. Virus bilan kurasha oladigan kerakli antitela ishlab chiqarilishini ta'minlash uchun virusni maxsus oqsillari- antigenlari bilan immunizatsiya qilish lozim. Bu jarayon antigenni B-limfotsit bilan bog'lanib, uni antitelani qay darajada ishlab chiqarishiga bog'liq.

Olimlarni vazifasi immunotanqislik virusi bilan kurashishda ahamiyatli antitela ishlab chiqaruvchi B-limfotsitga mos antigenni ishlab chiqishda edi. Yaqinda immunologlar tomonidan **EOD-GT8 60mer** nomli immunogen sintezlandi. Sichqonlar ustida klinik tajribalar o'tkazilganda, ularda **VRC01- sinfli antitela** sintezlandi. Agar EOD-GT8 60mer odamlarda ham shunday reaksiyani yuzaga chiqara olsa, OIV bilan kurasha oladigan antitela sintezini kuchaytiradigan yana bir necha antigen ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Temple University dagi Kamel Khalili boshchiligida mikrobiologlar guruhi **CRISPR/Cas9** yordamida biotexnologiya orqali hayvonlar DNK sida OIV ga tegishli bo'lgan qismini qirqib olishga muvaffaq bo'lishdi.

Amerikalik olimlar Xe Tzankuy xatosini takrorlamaslik uchun CRISPR/Cas9 ni yanada spetsifikligini oshirishga qaratilgan izlanishlar olib borib, uni effektivligini oshirishga erishishdi.

Sichqonlarga odam gemopoetik stvol hujayralarini inyeksiya qilib, hayvon modelida olib borilgan tajribalar o'z natijasini ko'rsatdi. Sichqonda odamnikiga o'xshash immunitetini model yaratilgandan so'ng, uni OIV bilan zararlab, avval antiretrovirus terapiya bilan, so'ng CRISPR/Cas9 texnologiyasiga asoslanib davolashdi.



Medical school of Lewis Katz va Temple University OITS ni davolashda **EBT-101 preparatini** ishlab chiqishdi. Mayda hayvonlarda va primatlarda yuqori darajada natijaga erishishdi. 2021-yilning oxiridan boshlab odamlarda qo'llanilishini tajribada sinab ko'rish haqida aytilgan.

EBT-101 OIV genomining uchta saytini qirqib olishga qaratilgan preperatdir.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqotlar OITS ga qarshi kurashish imkonsiz emasligini ko'rsatadi. OITS ni davolashga qaratilgan izlanishlarni chuqurroq o'rganib, amalda uni effektivligini tekshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Nature Communications, 2019

Медицинская микробиология и иммунология У. Левинсон

Templehealth.org

Tass.ru

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА АНОР ЎСИМЛИГИДА УЧРАЙДИГАН БИРЛАМЧИ ЗАРАРКУНАНДАЛАР

Ганиева Мафтуна Вахобовна

Фарғона шаҳар 27-ўрта мактаб биология фани ўқитувчиси

Аннотация.: Мақолада Фарғона вилоятининг айрим туманларида анор мевахўрининг тарқалиши зарар келтириш даражаси, уларнинг тарқалиши ва зарарланиш даражасининг қиёсий таҳлиллари келтирилган.

Калит сўзлар: Анор мевахўри, бута, карпофаг, пўстлоқхўр, монофаг.

Турли минтақаларда анорга шикаст етказадиган кўплаб тур зараркунандалар белгилаб берилган. Буларнинг кўпчилиги анор бутасида «вақтинча» яшовчилар қаторига қўшилиб сезиларли даражада зарар етказа олмайди. Иккиламчи зараркунандалар қаторига пўстлоқхўр қўнғизларни ҳам киритса бўлади, чунки булар сўрувчи зараркунандалар, ёки ёмон агротехника таъсирида заифлашган буталарга ёпирилиб уни шикастлай бошлайди. Бундай бута (новда) эса қуришга маҳкум этилган бўлади. Анорнинг бирламчи (доим учрайдиган, зарари юқори бўлган) зараркунандалари қаторига, айниқса Водий, Сурхондарё, Қашқадарё ва буларга яқин вилоятларда қуйидаги ҳашаротлар, яъни анор мевахўри, анор шираси ва комсток куртани киритиш мумкин.

Анор мевахўри ҳашаротларнинг капалаклар (*Lepidoptera*) туркумига, барг ўровчилар (*Tortricidae*) оиласига мансуб бўлиб, типик карпофаг (мевахўр барг ўровчилар) ҳамда монофаг бўлиб ҳисобланади. У асосан курт (қисман ғумбак) шаклида ерга тўкилган мевалар ва бошқа пана жойларда қишлаб чиқади. Баҳорда, асосан апрел ойида ғумбаклашиб, майнинг бошларида капалаклар учиб чиқа бошлайди. Айни капалаклар қўшимча озиқланиб жинсий маҳсуллари етилгач, урчиб тухум қўйишга киришади. Ҳар бир урғочи зот ўз умрида ҳаммаси бўлиб 80-120 та тухумни гуллаб бўлган анорнинг асосан гулкосасига 1 тадан – 5

тагача кўяди. Тухумдан очиб чиққан қуртлар гулкоса орқали анор ичига ўтади ва мева доналарини шикастлаб озиқлана бошлайди. Қурт 6 ёшни бошдан кечириб, яна гулкоса атрофига қайтиб чиқади ва юмшоқ пилла ўраб ичида ғумбаклашади. 7-8 кундан кейин ундан капалак учиб чиқиб наслни давом эттиради. Ҳаммаси бўлиб бир авлодни ўтишга 32 кундан 21 кунгача вақт талаб этади. Бир мавсумда, бизларнинг кўп йиллик тадқиқотларимиз бўйича асосан 5 та, айрим йиллари (куз иссиқ келганида) 6- авлод ҳам ривожлана бошлаши мумкин.

Анор мевахўрининг капалаклари анор мевасининг қайси жойига тухум қўйиши муҳим аҳамиятга эга бўлганлиги сабабли, махсус назоратлар ўтказилди. Бу кузатувлар 2019-2020 йиллари Фарғона вилоятининг анор кўпроқ экиладиган туманларида ўтказилди.

Анор мевахўри томонидан, анор мевасини зарарлашни
афзал кўрган жойлари

Дала кузатувлари, Фарғона вилояти, 2019-2020 й.

	Назорат ўтказилган жой	Ҳаммаси бўлиб неча % мева зарарланган	Шу жумладан меванинг турли қисмига, %		
			Гулкосага	Ёнидан	Ёрилган жойдан
1	Бешариқ туман, Ҳадяхон она ф/х	39,0	79,5	10,2	10,3
2	Ўзбекистон тумани Оби хаёт ф/х	50,0	76,0	14,0	10,0
3	Данғара тумани Жалолдин файз ф/х	56,0	78,6	7,1	14,3

Жадвалда келтирилган натижалардан қуйидаги хулосалар қилса бўлади:

1. Кузатув олиб борилган туманларда анор мевахўри зарарлаган буталарда ҳосилнинг 39-56% зарарланган.

2. Парвона ўз тухумини асосан анорнинг гулкосасига қўяди (76-79%); 7-14% ини меваларнинг ёнидан ҳамда мевалар бир-бирига тегиб турган жойлардан ва яна 10-14% ини турлича шикастланган (ёрилган) ерлардан.

Мевахўр зарарлаган анор меваси анча вақтгача билинмай туриб, кейингина сарғайиб, қизариб, ёрилиб тўкилиб кетиши ва чириши мумкин. Мевахўрнинг I-II авлодлари деярли билинмай, кейингиларидагина зарар сезилиши мумкин. Авлоддан – авлодга ўтган сари зарар кўпроқ сезилади. Кузга бориб, кўпинча яширин зарарланиш кузатилади яъни мева ташқи кўринишидан ҳеч қандай зарарланганлиги сезилмаса ҳам, у ичидан зарарланган бўлиб, вақт ўтиши билан (1-2 ой) намоён бўлиши мумкин. Биз анорни Фарғона вилояти шароитларида анор мевахўри билан зарарланиш даражасини ўргандик.

Натижада шу нарса аён бўлдики, Бешариқ туман хўжаликларида анор сал камроқ (39%), Ўзбекистон туманида эса (50%) Данғара туманида эса (56 %) анор мевахўри билан зарарланар экан.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимликлари ҳамда маҳсулотларнинг зараркунандалари ва уларга қарши кураш.-Тошкент: „Ўрта ва олий мактаб“, 1962 й.
2. Шванвич Б.Н. Курс общей энтомологии.-М.-Л. : „Советская наука“, 1949.
3. Олимжонов Р.А. Энтомология.- Тошкент: „Ўқитувчи“, 1977

**ПРИМЕНЕНИЕ ИММУНОСТИМУЛЯТОРА «ЗЕРОМИКС» НА
ХЛОПЧАТНИКЕ БУХАРА-10, В СРЕДНЕЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВАХ
БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ**

Икрамова Махбуба Латиповна - кандидат биологических наук, старший
научный сотрудник

Рахматов Бахтиёр Ниматович - кандидат сельскохозяйственных наук,
старший научный сотрудник

Научно-исследовательский институт селекции, семеноводства и выращивания
агротехнологии хлопка Бухарской научно-опытной станции (НИИССВАХ
Бухарской НОС)

Аннотация: в статье приводятся 2^хлетние данные, о применении препарата с нано частицами серебра «Зеромикс» на сортах хлопчатника Бухара-8 в средnezасоленных почвах Бухарской области, Республики Узбекистан, с целью уничтожении грибковых и бактериальных заболеваний и влиянии на роста и развития хлопчатника. Проведенными исследованиями доказано, что при применении обработке семян хлопчатника в дозах 1,8 л/га и в течение вегетации суспендирован с иммуностимуляторами «Зеромикс» в нормах расхода 1,8 л/га +ПАВ 0,150 л/га, по сравнению контрольному варианту всхожесть семян повысилась на 18,5%. Биологическая эффективность по болезни корневого гниля, гоммоза и вертицелленого и фузариозного вилта соответственно составляли:71,3-98-70-70,2%, добавка урожая на 8,2 ц/га, что позволяет корректировать недостаток минеральных питаний и укрепляет устойчивость грибковых заболеваниях, обладает естественный иммунитет растения.

Abstract: The article presents 2-year data on the use of the drug with Nano-silver particles "Zeromiks" on cotton varieties Bukhara-8 in moderately saline soils of the Bukhara region, the Republic of Uzbekistan, in order to destroy fungal and bacterial diseases and influence the growth and development of cotton. Studies have shown that

when applying the treatment of cotton seeds in doses of 1.8 l/ha and during the growing season, it is suspended with immunostimulants "Zeromiks" at a consumption rate of 1.8 l/ha + surfactant 0.150 l/ha, compared to the control variant, seed germination increased by 18.5%. Biological effectiveness against root rot, gommosis and verticella and fusarium wilt, respectively, were 71.3-98-70-70.2%, yield addition by 8.2 c/ha, which allows you to correct the lack of mineral nutrition and strengthens the resistance to fungal diseases possesses the natural immunity of the plant.

Ключевые слова: комплексно действующие новый препарат, «Зеромикс», хлопчатник, грибковых и бактериальных инфекцией, биологическая эффективность.

Key words: complex acting new drug, Zeromix, cotton, fungal and bacterial infections, biological effectiveness.

Введение. Одним из важнейших проблем является выращивание качественной, скороспелой продукции из сельскохозяйственных культур и повышение устойчивости к различным неблагоприятным условиям природы. В этом области играют особую роль комплексно действующие иммуностимуляторы в преодолении таких проблем.

В последние годы наблюдается массовое развитие заболеваний растений, вызываемых обладающими повышенной устойчивостью к фунгицидам штаммами патогенных грибов и бактериями, на которые доступные на узбекском рынке пестициды практически не действуют. Поэтому необходимо изыскаться нового типа препаратов, отличающихся высокой эффективностью против широкого спектра грибных и бактериальных заболеваниях, универсально действующих и малотоксичных для людей, животных и окружающей среды. Универсально действующим веществом для подобных иммуностимуляторов является «ЗЕРОМИКС» которое содержится комплекс микроэлементов в хелатной форме с содержанием серебра и оказывает на растения комплексное действие по сравнению с другими стимуляторами [1-4]. Он придает растениям устойчивость к бактериальным и грибковым

заболеваниям, повышает фитоиммунитет и регулирует активность эндогенных фитогормонов в растениях. Позволяет корректировать недостаток питания растений, обеспечивает сбалансированное и доступное питание комплексом микроэлементов, позволяет управлять урожайностью и обеспечивает профилактику и сдерживание болезней, в том числе трудноискоренимых [5-12].

Целью исследований явилось изучение эффективности, комплексно действующие иммуностимулятора «Зеромикс», содержащих с нано частицами серебра, на сортах хлопчатнике «Бухара -8» в средnezасоленных почвах Бухарской области Республики Узбекистан.

Методика исследований. В 2019-2020 гг. изучали влияние разных доз и сроков иммуностимулятора «Зеромикс», (1,0–1,5–1,8л/га), на средnezасоленных почвенно-климатических условиях Бухарской области в экспериментальном хозяйстве НИИССАВХ Бухарской НОС, на хлопчатнике сорта «Бухара -8», устойчивости к основным заболеваниям и роста и развитие хлопчатника. В качестве эталона применяли иммуностимулятор Фитовак - 200 мл/т, мл/га, а в контрольном варианте использовали питьевую воду, суспендированную в течение вегетационного периода с водой и рабочими растворами «Зеромикс» в разных дозах. Экспериментальная схема представлена в таблице 1.

Все аналитические и фенологические наблюдения в полевых и лабораторных условиях проводились на основе «Методики проведения полевых экспериментов» [12,13] и ряда другой литературы, разработанной в НИИССАВХ и Методические указания по государственным испытаниям фунгицидов, антибиотиков и протравителей семян сельхозкультур [14,15,16]. Математическая обработка полученных данных проводилась по методике Б. А. Доспехова [17].

Опыт состоит из пяти вариантов. Почва средnezасоленная, лугово-аллювиальная. Глубина залегание грунтовых вод состоит из 2-2,5 м. Площадь опытных делянок в каждом повторение составляли по 25м² повторность 4^x кратная (100м² в каждом варианте). Размещение опыта рендомизированное.

Опрыскивание полевых опытов проводили с ранцевыми аппаратами с нормой расхода рабочей жидкости из расчета 10л на т и 300 л на гектар.

Таблица1

Схема опыта

№	Варианты опыта	Применение доз и сроков, л/т; л/га			
		Предпосевная обработка семян хлопчатника	Появлению в 2-4 настоящих листьев	В период бутонизации	цветению
1	Контроль	Замачивание с водой	Надземные органы хлопчатника суспендировали с питьевой водой		
2	Фитовак эталон	200 мл/т	200 мл/га	200 мл/га	200 мл/га
3	«Зеромикс»	1,0 л/т	1,0л/га+П АВ 0,15л/га	1,0л/га+ПАВ 0,15л/га	1,0л/га+ПАВ0,15л/га
4	«Зеромикс»	1,5 л/т	1,5л/га+П АВ 0,15л/га	1,5л/га+ПАВ 0,15л/га	1,5л/га+ПАВ0,15л/га
5	«Зеромикс»	1,8 л/т	1,8л/га+ ПАВ0,15л/га	1,8л/га+ПАВ 0,15л/га	1,8л/га+ ПАВ0,15л/га

Биологическая эффективность рассчитали по формуле: $БЭ = \frac{K_p - O_p}{K_p} \times 100\%$;
где, БЭ – биологическая эффективность препарата, %; K_p - в контроле распространение болезни; O_p - опытным варианте распространение болезни.

Годовая норма внесения удобрений по всем вариантам были $N_{200}P_{140}K_{100}$ кг/га.

Результаты исследования. Иммуностимуляторы регулируют рост и развитие, повышают адаптивность сопротивляемости растений к стрессам, повышая иммунитет к различным заболеваниям в природе [1,].

Изучали влияние новые перспективные комплексно действующие иммуностимулятор «Зеромикс» на рост и развитие хлопчатника, устойчивости к различным неблагоприятным условиям природы и различных заболеваниях растений.

«Зеромикс» действует на хлопчатник как иммунизатор ещё до контакта его с патогеном и способствует физиологической регуляции генетически детерминированного свойства адаптации растений.

Он особенно незаменим в годы с неблагоприятными погодными условиями, уничтожает возбудителей бактериальных и грибных заболеваний выработавших резистентность к системным фунгицидам, устойчивость к стрессовым факторам засухе, высоким жарким (гармсиль) температурам и укрепляют иммунную систему хлопчатника, способствует снижению пестицидной нагрузки, корректировать недостаток питания растений, обеспечивает сбалансированное и доступное питание комплексом микроэлементов, обладает ростостимулирующим действием, благоприятно действует на физиологические и биохимические процессы, тем самым ускоряет созревание, повышает урожайность и качество сельскохозяйственной продукции [1-12].

Проведенных двухлетних исследований установлено, что перед посевом обработки семян хлопчатника сорта «Бухара-8» замачиванием с препаратами «Зеромикс» на 1-1,5 и-1,8 л/га всхожесть семян по сравнению

контрольном было на 14,6-17,2-18,5% выше, на эталонном варианте эти показатели были соответственно-15,6% выше контрольного.

«Зеромикс» с наночастицами серебра способствуют снижению распространения корневая гниль, гоммоз, вертицеллезного и фузариозного вилта хлопчатника по сравнению с контролем, биологическая эффективность соответственно составляли: 71,3-98-70-70,2%.

Таким образом, при применении «Зеромикс» на 1-1,5 и 1,8 л/га дозах расхода самыми приемлимым вариантами оказались в нормах расхода 1,8 л/га, что составляли полевой всхожесть семян 90,0%, корневая гниль 71,3% гоммоз-98%, вертициллезный и фузариозный вилт 70-70,2% были выше на контрольного. Урожайные данные представлены в таблице 2.

Анализируя данные таблицы 2 по урожайности следует отметить, что существенной разницы урожайные показателю и прибавка урожая по сравнению с испытуемым и контрольному варианту были получены на 5-варианту, то есть с применением «Зеромикс» на 1,8 л/т и 1,8 л/га+ПАВ 0,150

Таблица 2

№	Варианты опыта	Кол-во коробо чки на одном кусте, шт.	Вес од-ной ко робочки, г	1-сбор урожая , ц/га	2-сбор урожая, ц/га	Вало вой сбор, ц/га	Прибав ка уро жая, ц/га ±
1	Контроль	12,5	6,5	36,0	6,5	42,5	± 0,0
2	Фитовак Эталон(200мл/т; мл/га)	15,5	7,0	44,0	3,0	47,0	+4,2
3	«Зеромикс» 1л/т; 1л/га	14,3	7,0	42,0	3,0	45,0	+2,5

4	«Зеромикс»1,5л/ т; 1,5л/га	16,4	7,1	45,0	3,0	48,0	+5,2
5	«Зеромикс»1,8л/ т; 1,8л/га	20,0	7,2	47,0	3,7	50,7	+8,2
	НСР ₀₅					2,3 ц/га	
	Р%					4,9%	

л/га дозах расхода в предпосевном обработке и в течении вегетации прибавка урожая и вес одной коробочки соответственно составила:4,2-2,5-5,2- 8,2 ц/га; 0,5-0,6- 0,7г больше контрольного.

Формирование большего числа коробочек на хлопчатнике в вариантах при применении препарата «Зеромикс» в предпосевной обработке семян 1,0-1,5-1,8 л/т и в течение вегетации (в появлении 2-4 настоящих листочков, в бутонизации и цветению) которую суспензировали по 1,0- 1,5-1,8 л/га + ПАВ 0,15 л/га предопределило большое количество (14,3-16,4-20,0 шт на раст.) коробочек по сравнению контролем (12,5 шт. на раст.).

При применение «Зеромикс» с нормой расхода 1,8 л/т; и 1,8 л/га + ПАВ 0,15л/га, образование большего числа коробочек на хлопчатнике в вариантах оказались на 5-варианте, в предпосевном обработке семян 1,8 л/т и в появлении 2-4 настоящих листочков, бутонизации и цветению которую суспензировали по 1,8 л/га+ПАВ 0,15л/га, предопределило большое количество (20,0 шт на раст.) коробочек по сравнению с контролем (12,5 шт. на раст.), что 7,5 штук коробочки больше на куст растений.

Выводы. Двухлетние изучение по применению препарата «Зеромикс» которые содержит комплекс микроэлементов в хелатной форме и с нано частицами серебра, на среднесоленых, лугово - аллювиальных почвах Бухарской области в дозах расхода в предпосевном обработке 1,8л/т и суспендированные в течение вегетации хлопчатника на 1,8 л/га + ПАВ 0,15 л/га на сортах хлопчатника “Бухара-8”, позволяют сделать вывод об эффективности при защите, усиливает устойчивость растений к развитию и распространению корневого гниля, гоммоза и вертицеллезной и фузариозной инфекций. Укрепляет

естественный иммунитет растения. Обеспечивает сбалансированное и доступное питание комплексом микроэлементов, вследствие чего, стимулирует развитие и продуктивность растений, увеличивается количество коробочек на куст, приводят к скороспелости и улучшает качественные показатели хлопчатника.

Литература (References)

1. Совместная инновационная разработка Группы компаний АгроХимПром и ученых МГУ имени М.В. Ломоносова / Зерокс фунгицид и бактерицид контактного действия на основе коллоидного действия. - М., 2016.-С16.
2. Еланский С.Н. Применение препаратов на основе коллоидного серебра для защиты картофеля / Н.С. Еланский, М.А. Побиденская, Ю.А. Крутяков, П.М. Жеребин, А.Н. Денисов // Развитие новых технологий селекции и создание отечественного конкурентоспособного семенного фонда картофеля: Материалы Международной научно-практической конференции. - Серия «Картофелеводство» / Под ред. С. В. Же воры. - М., 2016.-С.257-261.
3. Жеребин П.М., Крутяков Ю.А., Кудринский А.А. [и др.]. «Зерокс»: новый бактерицид и фунгицид широкого спектра действия на основе коллоидного серебра // Молодой ученый. — 2015. — № 9.2 (89.2). — С. 25-26. — URL: <https://moluch.ru/archive/89/18398/> (дата обращения: 17.04.2021).
4. Жеребин П.М. «Зерокс»: новый бактерицид и фунгицид широкого спектра действия на основе коллоидного серебра / П.М. Жеребен, Ю.А Крутяков, А.А. Кудринский, А.И.Климов, С.Н.Еланский, М.А.Побиденская, А.Н. Игнатов // Молодой ученый. - 2015. -№9.2. -С.25-26. URL: <https://moluch.ru/archive/89/18398/> (дата обращения: 04.02.2019).
5. Икрамова М.Л., Рахматов Б.Н., Гаффаров И.Ч., Аллакулов Д.Б. Экономическая оценка эффективности Фитовака при различных способах его применения / М.Л. Икрамова, Б.Н. Рахматов, И.Ч. Гаффаров, Д.Б. Аллакулов // Теория и практика коммерческой деятельности: Международной конференции совет молодых учёных. Москва, 2013. -с. 45-46.
6. Икрамова М.Л., Юнусов Р., Гаффаров И.Ч. Влияние препарата Зерокс в.к.р. (д.в. 3000 мг/л коллоидного серебра) на урожайность и грибковые заболевания

хлопчатника в условиях Бухарской области/ М.Л. Икрамова Б.Н. Раҳматов, И.Ч. Гаффаров//Научно-практический журнал «Столица Науки» в отделе “биологические науки” - 2018. 5(5). -С. 2-7.

7.Икрамова М.Л., Гаффаров И.Ч., Аллакулов Д.Б., Юнусов Р. Применение экологически безопасный биопрепарат комплексного действия «композиционная каша» для возделывания хлопчатника / М.Л. Икрамова, И.Ч. Гаффаров, Д.Б. Аллакулов, Р. Юнусов // Приоритетные направления развития современной науки молодых учёных аграриев. Материалы V-ой Международной научно-практической молодых учёных, посвящённые 25-летию ФГБНУ «Прикаспийский НИИ аридного земледелия». Россия, 2016. – С. 54-57.

8. M. Ikramova, B. Rakhmatov, Atoeva R. “Application of the immunostimulant zerox for determination of leaf surface, dry mass and net productivity of photo- synthesis of cotton plant”. *Asian Journal of Multidimensional Research*. 2021: 10(9): 244-250 doi: [10.5958/2278-4853.2021.00667.4](https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00667.4)

9. Ikramova M.L., Atoeva R.O., Atoeva D.O. Influence of the Zerox Immunostimulant on Cotton Production // *American Journal of Plant Sciences*. – 2020: № 11. - P. 564-568.

10. Jo.Y.K. Antifungal activity of silver ions and nanoparticles on phyto pathogenic fungi /Y.K. Jo, S.W. Kim, J.N. Jung // *Plant Dis*.-2009.-V.93.-P.1037-1043.

11. Kim S.W. Antifungal effect of silver nanoparticles (AgNPs) against various plant pathogenic fungi/ S.W. Kim, J.N. Jung, K. Lamsal, Y.S. Kim, J.S.Min, Y.S.Lee // *Micobiology*.-2012.-V.40(1).-P. 53-58.

12. Sun Y., Veerabomma S., Abdel - Mageed H. A., Fokar M., Asami T., Yoshida S., et al. Brassinosteroid regulates fiber development on cultured cotton ovules. *Plant Cell Physiology*, 2005. №46, – P. 1384-1391.

13. Методика проведения полевых исследований. *УзНИИССВАХ*: Ташкент: 2007: 147с.

14. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований посевов хлопчатника. *СоюзНИИХИ*. Ташкент: 1973:126 с.

15. Методические указания по государственным испытаниям фунгицидов, антибиотиков и протравителей семян сельскохозяйственной культур. - М., 1965.

16. Методические указания по проведению регистрационных испытаний Агро химикатов и регуляторов роста растений. -М., 2005.

17. Доспехов Б.А. Методика проведения полевых опытов. Колос, Москва: 1989. - 416 с.

USMON NOSIRNING CHAQMOQ IZLI QISQA UMRI

Allambergenov Davronbek Maxsudovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Usmon Nosirning hayoti va faoliyati, ijodiyoti tadqiq qilinadi. Shuningdek, shoir she'rlaridagi ichki kechinmalar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Usmon Nosir, tabiatan shoir, tug'ma shoir, O'zbekning Lermontovi, “Yurak” she'ri, tarjimon, erk kuychisi.

Ma'lumki, XX asr o'zbek adabiyotida juda ko'plab iste'dodli va zabardast shoirlar yetishib chiqqan. O'zbek she'riyatining yorqin yulduzi, erk kuychisi nomini olgan mashhur shoir Usmon Nosir serma'no va maftunkor she'rlari bilan xalqning hurmatiga sazovor bo'lgan mashhur ijodkordir. 1912-yilning 13-noyabrida Namangan shahrining Chuqur ko'cha dahasida qorachadan kelgan bir bola tug'ildi. U dunyoga kelganda xuddi “Mehrobdan chayon” asaridagi Anvar tug'ilgandagiday hech kim sevinmadi ham, hech kim xafa ham bo'lgani yo'q. To'shakda yotgan bemor ota esa bola go'dakligidayoq bu olamdan ko'z yumdi.

Ammo otalik mehrini to'rt yashar Usmon Masodiq o'g'li Nosirhoji xonadonidan topdi. Ikkinchi ota oilasini Qo'qon shahriga ko'chirib olib ketdi. Bola shu dargohda ulg'ayib, ko'p bolalar kabi internatda o'qib tarbiyalandi. O'rta maktabda va Samarqanddagi O'zbekiston dorilfununida o'qib yurgan kezlariyoq u shoir Usmon Nosir bo'lib tanildi.

Usmon Nosir!.. Bu nom yigirmanchi yillarning oxirlaridayoq ommaga tanila boshladi. O'ttizinchi yillarga kelib esa, uning asarlarini kitobxonlar intiqlik bilan kutadigan shoirga aylandi. Endi uni “tabiatan shoir”, “tug'ma shoir” deb ta'rifladilar. Ana shu paytlarda Usmon Nosir endi 20 yoshlarda edi. “Bo'ladigan bola boshidan ma'lum” deganlaridek, Usmon Nosir ham mashhur siymolarimiz kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega edi.

Shoirning hayot yo‘lini kuzatar ekanmiz, u hech bir joyda muqim yashamaganini, hattoki oliy ma‘lumotni ham tugatolmaganligini ko‘ramiz. Qo‘qon shahridagi o‘rta maktabda sakkiz yillik ta‘limdan so‘ng Moskvadagi Kinematografiya institutida bir yil, Samarqanddagi Pedagogika akademiyasi (hozirgi SamDU)da bir yil tahsil oldi.

U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash bo‘lgan. Shuning uchun ham Usmon Nosir ijodda yoshligidanoq iste‘dodli, tug‘ma shoir sifatida tanildi. Bu tanilish yosh shoirning shoirona tabiatidan tashqari, uning ijodga jondili bilan berilishi, ijod sirini bilishga urinishi, bu yo‘lda o‘rganishi va izlanishi samarasi edi. “Geyne bilan o‘rtoq tutindim, Lermontovdan ko‘mak o‘tindim” degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining maftunkor fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga, Sharq adabiyoti va og‘zaki ijodining bilimlarini egallashga ham intildi.

Uning ilk she‘ri 15 yoshida, ilk dostoni 19 yoshida, dastlabki she‘riy to‘plami esa 20 yoshida nashr qilindi. Yigirma to‘rt yoshigacha Usmon Nosir “Naxshon”, “Traktrobod”, “Yurak”, “Mehrim” kabi she‘riy to‘plamlarini chiqarib ulgurgandi. Bu to‘plamlarda inson ruhining ozod parvozi, tabiat va muhabbatdan to‘lqinlangan qalbning otashin sadosi ko‘rinib turardi.

“Hayotga, she‘riyatga bo‘lgan beqiyos muhabbat uning qo‘llariga qalam tutdi, qalbini hayajon va shodlikka to‘ldirdi. Yuragiga bir buyuk otash soldi!... Go‘zallikka tashna bo‘lgan o‘tli ko‘zlariga butun olam, tabiat she‘riyat bo‘lib ko‘rindi”¹. Shoir she‘riyati chaqmoqdek keskir, olovdek yorqin, buloq suvidek tiniqdir. Bu tiniqlik uning yuragini, qalbining odam va olam haqidagi tasavvurlarining tiniqligidan darak beradi. Uning tuyg‘ulari ham pokiza edi. Shoir o‘z qalbiga sira xiyonat qilmadi.

Usmon Nosir butun hayoti davomida tanlagan yo‘lidan ketdi. Butun umr yurakni, shoir yuragini kuylab o‘tdi. Mana oradan yuz yil o‘tibdiki, bu yurakdan chiqqan sohir, mungli, gohida esa hayotbaxsh, goh achchiq satrlar vaqt va sarhad chegaralarini yorib, hozirgacha she‘riyat shaydolarining ma‘naviy kamoloti yo‘lida xizmat qilmoqda.

Shoir asarlarining yutug‘ini ta‘minlagan omillardan biri xudo bergan iste‘dodi bo‘lsa, ikkinchisi Sharq va G‘arb adabiyoti tajribalarini ijodiy o‘zlashtira borganidir.

Usmon Nosirning adabiyotda paydo bo‘lishi hammaning e’tiborini tortgan edi. U ijod maydoniga yosh kirib keldi, ammo, katta kuch bilan keldi.

“Usmon she’riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘runday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s- to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda “O‘zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi” deb yozishdi”, - deydi shoir Turob To‘la.

Usmon Nosir kecha-yu kunduz she’r ishqi bilan yashadi, mehnatni sevdi. “Bemehnat sevmayman tirik tilimni” deganda bor haqiqatni aytgan edi. Qalbi shodlik nimaligini bilmay o‘tgan odamlarga achindi, iztiroblariga sherik bo‘ldi. U ozodlikni, yorqin kelajakni zo‘r ishonch, ko‘tarinki ruh shavqu zavq bilan tarannum etdi. “Shoir Vatan ishqi bilan yondi. Vatanim, elim, yurtim deb yonib yashadi. Unda hissiyot zo‘r edi. Shoir shu qaynoq hissiyot bilan o‘z taaassurotini yurak orqali bayon qilar edi. Yurakka murojaat qilishi, yurak orqali ijod qilishi tufayli u yurak shoiri bo‘lib tanildi. Usmon Nosir hayotga, she’riyat olamiga bulbul bo‘lib kelgan edi. Afsuski o‘sha paytdagi mustabid tuzum uni qiynadi, xo‘rladi”².

¹Ibrohim qizi, M. Shoir boqiy yashaydi//Diydor.-2002.-16 noyabr.-B. 3.

²Hasanova I. Isyonkor shoir nidosi//Zamondosh .-2002.-dekabr.-B.4.

Usmon Nosir ko‘p qirrali ijodkor edi. Muhabbat va sadoqat haqidagi lirik she‘rlardan tashqari pyesa, epik dostonlar ham yozgan. O‘z mahoratini tarjima sohasida ham namoyon eta olgan ijodkor edi. Pushkinning “Boqcharoy fontani”, Lermontovning “Demon”i Usmon Nosirning mohirona tarjimasi bilan o‘zbek adabiyoti xazinasiga katta hissa qo‘shdi. Usmon Nosirning tabiat manzaralarini, turfa xil go‘zalliklarni, odamlarning ruhiy kechinmalarini chuqur ifodalagan she‘rlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Marg‘uba Mirqosimovanning fikricha, Usmon Nosir ijodining mavzuyi, yaratgan obrazlari go‘yat xilma-xil. “Inson qalbining sirli tuyg‘ularini tasvirlovchi lirik she‘rlarida shoir siymosi gavdalansa, tabiatning turfa ranglarini singdirgan she‘rlarida nozik qalbli, ehtirosli lirik qahramon kechinmalari tasvirlanadi”.

Shoir el, yurt xizmatiga doim shay turdi. Ijodkor o‘zining ona vatanga bo‘lgan muhabbatini “Yurak” she’rida juda chiroyli ifoda qilgan.:

“Itoat et,
Agar sendan
Vatan rozi emas bo‘lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! mayli, tamom o‘lsam!..”

Usmon Nosir 1937-yilda xalq dushmani sifatida hibsga olinib, Magadanga yuborilgunga qadar erkin ijod bilan shug‘ullangan. Chaqmoq umriday hayot kechirgan shoir butun qalbini muqaddas Vatanimizga, uning ezgu xizmatlariga bag‘ishladi. Begunoh shoir temir panjaralar ortida ham ijodni davom ettirdi. Uning “Yurak tug‘yoni va “Tutqun bulbulcha” she’rlari fikrimiz isboti desak bo‘ladi.

U o‘z she’rlarida go‘zallikni tarannum etish bilan birga erkni, mustaqillikni, ozodlikni kuyladi.

Go‘zallikning umri hamisha ham uzun bo‘lavermaydi. Aksar go‘zal shoirlarning umri esa undan-da qisqaroq bo‘lgan. Pushkin, Lermontov, Yesenin, Cho‘lponlar qismati misol. Shoir 1944-yilda o‘z yurtidan ancha olisda Kemerovo turmalarida vafot etdi. Usmon Nosir o‘lgan bo‘lsa ham uning otashin she’rlari hech qachon o‘lmaydi. Uni Vatanimiz, xalqimiz, adabiyot unutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ibrohim qizi, M. “Shoir boqiy yashaydi” Diydor.-2002.-16 noyabr.-B. 3.
- 2.Hasanova I. “Isyonkor shoir nidosi” Zamondosh .-2002.-dekabr.-B.4.
- 3.“Yo‘lchiman, manzilim ufqdan nari” Jahon adabiyoti. - 2012.
- 4.“Usmon Nosir haqida”. N.Rashidova. Toshkent-2001.

O'ZBEKISTON SHAHARSOZLIGIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

Masaridinova Nilufar Abdirasulovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: “Univer Pro Stile“ MCHJ bosh rahbari **Badalov Alisher Kamilovich**

Annotatsiya: Maqolaning asosiy maqsadi, sayyohlarga tarixiy urf-odatlarimizni, yodgorliklarimizni yaqindan tanitish, yurtimizdagi yuzlab obidalarni qayta tiklashimiz (rekonstruktsiya), hamda dunyoga tanitishimiz shartliligi. Mamlakatimiz hududida turli davr va sivilizatsiyaga daxldor to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morlik va san'at yodgorliklarini kelgan sayyohlarga tanishtirish va kelajak avlodga saqlab qolish to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, O'zbekiston, ziyorat, ilm-fan, buyuk ipak yo'li, milliy qadriyatlar

Dunyo turizm sohasidagi o'sish O'zbekiston Respublikasi turizmidagi o'sishga ham ta'sir etdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O'zbekiston dunyo turizm bozoriga dadil qadamlar bilan kirib borib, jahon turizmidagi o'z o'rnini egallab kelmoqda.

Shuningdek, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-fevral kuni videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tanqidiy tahlil qilindi.* Undan oldin, davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018-

2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Milliy va madaniy an'analar insonlar orasida har doim qiziqishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Boshqa madaniyat bilan tanishish uchun eng yaxshi usul bu albatta turizm hisoblanadi. Bugungi kunda turizm dunyoning eng yetakchi sohalaridan biri hisoblanib, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotining rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. San'at, madaniyat, ilm-fan, din, tarix kabi milliy meros namunalari turistlarda juda katta qiziqish uyg'otib, turizm sanoatining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish bo'yicha qator loyiha va dasturlar tuzilgan bo'lib, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib boriladi.

Turizm sohasi mamlakatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotini rivojlantirish va yanada yaxshilash imkonini beradi. Nafaqat bizga, balki butun dunyoga ma'lumki, Buxoro o'zining qadimiy obidalarini, arxitektura inshootlari, uzoq asrlik tarixi va milliy-madaniy an'analari bilan mashhur. Bunga Buxoroga tashrif buyurayotgan turistlar oqimi va YUNESKO ning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obidalar yaqqol misol bo'la oladi. Muqaddas qadamjolar va fayzli go'shalar bilan birga mehmondo'stlik, o'zaro mehr-oqibat kabi milliy an'analimiz chet ellik sayyohlar diqqat-e'tiborini ortishiga sabab bo'lmoqda. Turizmning rivojlanishida xalq og'zaki ijodi, an'analar, folklorlar ijobiy o'ringa ega bo'lib, bu o'z navbatida, o'sha joy aholi madaniy hayotining jonlanishiga, tarixiy obidalarini tiklash va qayta rekonstruksiya qilishga bo'lgan istakning ortishiga, meros bo'lib qolgan milliy an'analarning davom ettirilib avlodlarga meros bo'lib qolishida muhim ahamiyatga ega.

Uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin.

2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli

KO‘RSATKICHLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.	2025- y.
1.	O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1450

O‘zbekistonga keluvchi xorijiy turistlarning aksariyati Toshkent– Samarqand– Buxoro–Xiva yo‘nalishi bo‘yicha sayohat qiladilar. Chunki O‘zbekiston turizm infratuzilmasi aynan shu mintaqalarda yaxshiroq rivojlangan hamda Buyuk Ipak yo‘liga taalluqli ko‘pgina obyektlar aynan shu joylarda saqlanib qolingan (O‘zbekistonga guruhlarda tashrif buyuruvchi Ziyorat turizm. 2019 yilda chop etilgan Global musulmon turizmi indeksi hisobotiga ko‘ra, 2018 yilda ziyorat maqsadlarida safar qilgan musulmonlarning soni 140 million kishini tashkil qilgan va 2026 yilga kelib bu raqam 230 millionga yetishi kutilmoqda.

O‘tkan davr mobaynida O‘zbekistonda turizmning Ziyorat turini rivojlantirish va uning turistik xizmatlar eksportidagi ulushini oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Buxoroda 34 mamlakatdan tashrif buyurgan 120 xorijiy mehmonlar

ishtirokida birinchi Ziyorat turizmi Forumi o‘tkazildi. Ziyorat turizmi bilan tashrif buyurgan sayyohlarga alohida qulaylik yaratish maqsadida mehmonxonalarda yangi talablar joriy etildi, respublika hududidagi masjidlarning xaritasi ishlab chiqilib, mobil dasturga joylashtirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, «CrescentRating» tashkiloti tomonidan tuziladigan Global musulmon turizmi indeksida O‘zbekiston 10 pog‘onaga ko‘tarilib 22-o‘rinni egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi TIV matbuot xizmati 2018-yil 23-fevral, Yangiliklar xabarnomasi №38*
2. *1. Birjakov M.B. Vvedeniye v turizm.S.Pb.: Izdatelskiy Torgoviy Dom «Gerda», 2006*
3. (ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli [Farmoni](#) tahririda — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2019-y., 06/19/5781/3567-son*)
4. <https://reviehyuyuyuuutgtrd45tps:/razvitie-turizma-v-uzbekistane>.



МАКТАБДА ЎҚУВЧИЛАРГА ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ФАНИНИНГ РОЛИ

Мамадова Салимачон Турдибоевна

Академик Бобожон Гафуров номидаги давлат таълим муассасаси Хужанд
давлат университети, университет қошидаги чет тиллар факултети

Аннотатсия: Ушбу мақола ўқувчиларнинг инглиз тилига бўлган қизиқишларини ўстириш, эстетик тарбия беришда инглиз тили курсини имкониятлари беқиёслигини англаш масалаларини ёритиб беради. Шу билан бирга, муаллиф инглиз тилида синфдан ташқари олиб бориладиган ишларни муҳим эканлигини айтиб ўтади ва тарбия ишининг муваффақияти айнан ўқитувчи шахсига эмас, унинг эстетик тарбия соҳасидаги мавжуд имкониятлардан фойдалана билишига, эстетик маданиятига кўп жиҳатдан боғлиқлигини кўрсатиб беради.

Калит сўзлар: мактаб, ўқитувчи, ўқувчи, эстетика тушунчаси, тарбия, синфдан ташқари ишлар, эстетик баҳолаш, жамият

Кишиларни хусусан ёшларимизни ҳар томонлама камол топтиришда, маданиятини юксалтиришда эстетик тарбия алоҳида аҳамиятга эгадир.

Эстетик тарбия кишиларни моддий ва маънавий соҳалардаги гўзалликни идрок қилиш, баҳолай олиш ва ижод этиш қобилиятларини тарбиялаб ўстириб бориш демакдир.

Ўқувчиларга эстетик тарбия беришни янада яхшилаш ҳозирги куннинг энг олий масалаларидан биридир. Бу вазифани ҳал қилишда мактабда синфдан ташқари қилинадиган ишлар алоҳида аҳамиятга эга.

Ҳозирги кунда мактабларимиз олдида турган долзарб масалалардан бири жамиятимиздаги кишиларни ҳар томонлама етук, гўзалликни, санъатни

севадиган, эстетик қарашлари шаклланган, маънавий ва бадий диди юксак ёшларни ўқитиш, тарбиялашдан иборатдир.

Ўқувчиларга эстетик тарбия беришда инглиз тили курсининг имкониятлари беқиёсдир. Чунки инглиз тили фани орқали ўқувчилар маданиятни, миллат тилини, урф-одатларини, таърихий обидаларни гўзал табиат ва тилни, ашула айтиш, шеър ўқишни ўрганадилар. Буларнинг барчаси ўқувчиларда эстетик дидни ривожланиши ва гўзалликни тушунишига ёрдам беради.

Бунда дарс жараёнида турли текстлар, лексик – грамматик машқлар тасвирлаш, диалоглар, ўйин, кўшиқ эшитиш, ўқишнинг роли катта, айниқса чет тили бўйича ташкил қилинган синфдан ташқари ишлар эстетик тарбия соҳасига катта ҳисса қўшади. Чет тилини ўрганиш тўғри йўлга солинса, у ўз-ўзидан ўқувчини ҳар томонлама тарбиялайди ва унга илм беради, у ўқувчига дунёни бошқа халқ маданиятини билиши учун янги восита беради, ҳақиқий борлиқни аниқлаш янги имконият оғзаки нутқ ёки китоб орқали ўз фикрини вужудга келтирмоқ ва уни ифода этмоқ учун янги усул беради.

Чет тили ва чет тили бўйича синфдан ташқари ишлар турли мақсадда қўйилади. Дарс ва тадбирлар жараёнида бу мақсадга эришиш шу фанни имкониятларидир. Чет тили дарсини ва синфдан ташқари ишнинг амалий мақсади оғзаки нутқни табиий нутқли вазиятларда тараққий эттириш ва уни такомиллаштиришдир. Дарсни ва синфдан ташқари ишнинг тарбиявий мақсади, ўқувчиларда ғоявий-сиёсий, ахлоқий ватанпарварлик, интернационал меҳнат ва эстетик тарбияни такомиллаштиришдир.

Дарсининг ва синфдан ташқари ишнинг илмий мақсади ўқувчиларни фикрлаш фаёлиятини тараққий эттириш, уларни филологик ва ижтимоий – сиёсий дунёқарашларини кенгайтиришдир.

Бизга маълумки, чет тили ўқитувчисининг фаёлияти фақат дарс ўтиш билан чегараланмайди. Таълим тарбия ишини чет тили бўйича синфдан ташқари ишларни турли шакллари билан олиб боришни тақозо этади.

Чет тилидан синфдан ташқари ишлар таълим тарбиянинг ажралмас қисми бўлиб, у ўқувчиларда чет тили фанига қизиқишларини, уларни амалий билим ва малакаларини орттиради, уларни маданиятли қилиб ўстиришда, халқлар дўстлиги руҳида тарбиялашда катта рол ўйнайди. Мактаб илғор тажрибаларини кўрсатишчи, синфдан ташқари ишлар қанчалар рангбаранг бўлса, ўқувчиларнинг ғоявий идроки ва дунёқарашининг шаклланиши шунчалик тез ривожланиб боради. Шу асосда талабаларни чет тили фани бўйича синфдан ташқари ишларни ўтказишга тайёрлаш муҳим касб этади. Эстетик тарбия беришда синфдан ташқари ишларни турли форма ва методларидан фойдаланиш яхши натижа беради. Ўқитувчиларга, тарбиячиларга эстетик тарбия беришда мактабдаги илғор тажрибалар билан таништириш муҳим аҳамият касб этади. Чет тили бўйича синфдан ташқари ишнинг уч формаси мавжуддир: индивидуал, группали ва умумий. Индивидуал форма алоҳида ўқувчилар билан ўтказилиб, унга синфдан ташқари ишнинг қуйидаги турлари киради: шеър ёки қўшиқни ёдлаш, пьеса роли устида ишлаш, альбом тайёрлаш, докладга, кеча дастурига чиқиш учун тайёрланиш ва бошқалар.

Группали формаларга тўғарак, клуб ишлари ҳамда радио эшиттиришга тайёрлаш ишлари ва бошқалар киради. Умумий формада иштирок қилувчиларнинг таркиби барқарор эмас, яъни баъзилари жуда актив бўлса, баъзилари тамошабин сифатида қатнашади. Кеча, конкурс, ҳафталик ва бошқалар умумий форма турларига киради. Бу синфдан ташқари иш формаларини эстетик тарбия беришда таълим билан узвий боғлаб олиб бориш керак, чунки ўқувчилар дарсда олган билимларидан синфдан ташқари ишларда кенг фойдаланадилар, билимларини мустаҳкамлайдилар ва қўшимча билимларга эга бўладилар, чет тили дарсларида ўқувчилар ўзга миллатлар ҳаёти, яшаш шароити, маданияти, тарихи, санъати, диққатга сазовор жойлари, буюк кишилари, ёзувчилари билан танишадилар. Бу ўқувчиларни эстетик билимларини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Масалан: 8 – синф дарслигида «Great Britain» (Буюк Британия) деган текст бор. Ўқувчилар бу текст орқали Буюк Британия давлати ҳақида, унинг

шаҳарлари, одамлари, тарихий жойлари ва бошқалар ҳақида тасаввурга эга бўладилар.

Ўқувчилар дарс давомида турли текстларни, машқларни, диалогларни ўрганадилар. Улар ёрдамида ўқувчилар ўзга миллат халқларини ҳурмат қилиш тўғрисида тарбияланиб борадилар.

Шунингдек, мактабларда чет тили бўйича ўтказиладиган ҳафталиклар ва турли ишларни олиб бораётган тўғараклар ўқувчиларга эстетик тарбия беришда катта ҳисса қўшади. Синфдан ташқари ишларни ташкил қилган вақтда болаларни тўғрилиқка, ўйинга чиройли ва қизиқарли нарсаларга қизиқишни эсдан чиқармаслик керак. Синфдан ташқари ишлар даврида шуни эсдан чиқармаслик керакки, ишлар давомида фақат амалий мақсадни эмас, тарбиявий ва умумтаълим мақсадни ҳам назарда тутиш керак. Синфдан ташқари ишлар болаларни фикрий қобилиятини эстетик дидларни ўстиришга ёрдам беради, ўқувчиларни фойдали ишга ўргатади. Уларни коллективизмга «мустақилликка» ўргатади ва машқларни, ҳамма ишларни тоза ва аниқ бажаришга ўргатади.

Синфдан ташқари ишларда уйга вазифа берилмайди, лекин янги сўзлар ёзиб борилади ва бу сўзлар ёрдамида гаплар тузилади. Диалог ва монологлар тузиб бир – бирлари билан гаплашиб юрган вақтида фойдаланадилар.

Ҳар қандай синфдан ташқари ишларни ташкил қилганда уларни психик хусусиятларини ҳар доим ҳисобга олиб эътибор бериш керак.

Масалан: ўсмирларда «Мен катта бўлдим, менга катталардай муомила қилинг» деган фикр уларда пайдо бўлади. Кичик ёшдаги болалар бўлса, тўғри сўз бир – бирини тез айблайдиган, ишонувчан бўлади. Шунинг учун шу ёшдаги болаларга эътибор бериб муомила қилиш керак. Ўсмирларга, ёш болаларга бериладиган дастурни ёки тарбия ишини олиб борсак, бизни қилган ишимиз фойдали бўлади. Кўзлаган мақсадимизга эришамиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аҳлиллоев Т.А., Исматов М.С. Педагогика, - Хужанд, 2009.
2. Бойматов А.Б., Мамуров К.Б., Сатторов Т.К., Ҳасанов В.Г. Ўрта мактабларда чет тиллар бўйича синфдан ташқари ишлар. Ленинобод, 1989.
3. Буров А.И. Эстетическое воспитание школьников. М.: 1989
4. Горелик И.Ф. Внеурочная работа средствами иностранного языка иняш. – 1986.
5. Пўлотов И.М. Асосҳои педагогикаи умумӣ. Хужанд, 2000



USMON AZIM SHE'RLARIDA ANAFORA

Abdunabiyeva Muborak Abdug'opir qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada anafora haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ularning epiforalardan farqli jihatlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi-nazaridan o'rganilish jihatlari yoritilgan. Anaforaning Usmon Azim ijodidagi ko'rinishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Takror, alliteratsiya, assonans, anafora, epifora, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ilmiy adabiyot, olmoshlar takrori.

Ma'lumki, ilmiy va badiiy adabiyotlarda, ayniqsa, she'riyatda anafora tushunchasi keng qo'llaniladi. Tilshunos olim A. Hojiyev o'zining " Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati " asarida anaforaga quyidagicha ta'rif beradi: Anafora - yun. anapqora - " yuqoriga chiqarish" deganidir.¹⁷ Darhaqiqat anafora gaplarning, misralarning mazmun-mohiyati, ohangdorligini yuqoriga chiqarib, oshirib beradi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilinsa, "anafora" - she'riy misralarning boshida va nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishidir.

T.T.Jo'rayev hamda S.G'.Halimovlar "anafora" ni tilning ifoda-tasvir vositalari qatoriga qo'shadilar.¹⁸ Tilning ifoda-tasvir vositalaridan biri "takror"dir. Badiiy adabiyotlarda takrorning alliteratsiya, assonans, anafora va epifora kabi turlari faol qo'llaniladi.

"Alliteratsiya" - undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishidir. Jumladan,

¹⁷ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" nashriyoti, 2002.- 168 b.

¹⁸ Jo'rayev T.T, Halimov S.G'. "Nutq madaniyati". O'quv qo'llanma – Samarqand: Tibbiyot ko'zgusi, 2021. – 69-97-betlar.

Qadadim qop-qora ko'ksingga

Cho'g' kabi qip-qizil lolalar. (Sh. Rahmon)

"**Assonans**" - she'r yoki matnlarda unli tovushlarning takrorlanish hodisasi hisoblanadi:

Ozar qizmi, hindmi, tatarmi,

Raqqosami, gulchimi attor... (E. Vohidov)

Anafora deganda, so'z yoki birikmalarning misralar boshida takrorlanishi tushuniladi.

Bunda shoir tomonidan tanlangan so'z yoki birikmalarning misralar boshidagi takrorlanishi ma'lum bir uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi:

Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,

Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi. (Cho'lpon)

Anafora nafaqat nazm ya'ni she'riyatda, balki nasriy asarlarda ham uchraydi:

"**Johillik** insonni shu holga soladi. **Johillik**ning o'ziga yarasha qoidasi, uslubi bor" (A. Shenliko'g'lu)

Anaforada takrorlanuvchi birliklar qaysi turkumga mansubligiga ko'ra, **ot takrori**, **sifat takrori**, **olmosh takrori**, **fe'l takrori** kabilarga bo'linadi.¹⁹

Takrorning yana bir ko'rinishi **epiforadir**. Uni anafora bilan almashtirmaslik kerak.

Anafora misralar boshidagi so'zlar takroriga asoslangan bo'lsa, epifora unga zid turuvchi vositadir. Ya'ni "epifora" - misralar oxiridagi bir xil so'z va qo'shimchalarning takrorlanish hodisasidir. Epiforaning qo'llanilishi she'rning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi. Masalan,

O'tkan kuning o'tkan **kundir**,

O'z boshingga yetgan **kun**,

Qodiriyni bergan zamin,

Qodiriyni sotgan **kun**. (M. Yusuf)

O'zbek xalqining ma'naviy dunyosini shakllantirishda g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatayotgan shaxs - Usmon Azimdir. Shoir o'zbek ijodkorlari orasida o'z o'rniga ega,

¹⁹ M.YOLDOSHEV, S.MUHAMEDOVA, M.SAPARNIYAZOVA. "Matn lingvistikasi". Tosh-2020. 51-bet

ma'rifat namoyondalaridan biri. Mazkur ijodkorning ijodi haqida gapirganda uning ijodiy me'rosining mazmunan boyligi, badiiy dahosi makon va zamon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxr bilan so'z yuritiladi.

Usmon Azim o'z ijodida, xususan, she'rlarida anaforaga ko'p marta murojaat qiladi:

Yugurdim - balandga o'rladi qalbim,

Yugurdim - qanotga aylandi qo'llar,

Yugurdim - eshitib zamonning zarbin,

Yugurdim - balandga ko'tardi yo'llar.

Endi she'r yozmayman unga bag'ishlab,

Endi xayolini o'ylab yig'layman.

Ayniqsa, shoir anaforani yuzaga keltirishda olmoshlar takroridan, xususan, **men** va **sen** olmoshlaridan unumli foydalangan:

Men - bir to'zg'in maysangman, tangrim,

Men - bir qatra yoshingman, jabbor.

Sen mening taqdirim, oxir azalim,

Sen mening bahorim, oyim g'azalim.

Endi esa quyidagi she'rga e'tibor qarataylik:

Men seni deb azoblarga urdim bosh,

Men seni deb xatolarga qayrildim.

Men seni deb gunoh bo'ldim, bag'ritosh,

Men seni deb bu dunyomdan ayrildim.

"Tangrim" dedim - bir bandacha bo'lmading,

"Tangrim" dedim - tubanlarga qayrilding.

Yuz o'girdim - xayolimda so'nmading,

Men seni deb u dunyomdan ayrildim.

Ushbu she'rda shoir **men** va **sen** olmoshlarining takroridan ustalik bilan foydalangan holda, lirik qahramonning sevgisi tufayli turli azoblarga duchor bo'lgani, aynan mana shu sevgi orqali u dunyodan ham, bu dunyodan ham ayrilganini juda chiroyli tarzda

yoritib bergan. Bundan tashqari shoirning yuqorida ko'rib o'tilgan barcha she'rlarida anaforadan unumli va mukammal tarzda foydalanganiligini ko'rish mumkin. Usmon Azim anaforalarni keltirish orqali she'rlarining ohangdorligini oshirishga, o'quvchi tomonidan oson uqib olinishiga erishgan.

Bir so'z bilan aytganda, Usmon Azim xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir.

"Usmon Azim hamisha shoir, faylasuf shoir, katta shoir. U hamma narsani she'r qila oladi, hamma narsadan she'r yasay oladi"²⁰. Darhaqiqat, shoir har bir narsani she'r qila oladi, har bir so'zdan oqilona foydalana oladi. Mazkur fikrlarni yuqorida ko'ribo'tilgan fikrlar ham, she'rlar ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hojiyev. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati". – T.,2002.
- 2.M. Yo'ldoshev, S. Muhammedova, M. Saparniyazova. "Matn lingvistikasi". – T.,2020.
- 3.Jo'rayev T.T, Halimov S.G' "Nutq madaniyati". – Samarqand: Tibbiyot ko'z'gusi nashriyoti, 2021.
- 4.Usmon Azim. "Saylanma". – T.: "Sharq" nashriyoti, 1995.

²⁰ Rajabova Dilbar. "Usmon Azimning poetik dunyosi" BMI. Samrqand – 2015. 44 b.

ЎҚИТИШНИНГ ИНТЕРАКТИВ УСЛУБЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Рахимов Октябр Дусткабилович

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат
муҳофазаси” кафедраси профессори

Ашурова Лайло

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат
муҳофазаси” кафедраси ассистенти

e-mail: rahmat1959@mail.ru

Аннотация. Мақолада интреактив ўқитишнинг мазмун моҳияти, таърифлари, интерактив услублар турлари, ўқув жараёнида талабаларнинг ўзлаштириш даражалари тўғрисида таҳлилий маълумотлар ёритилган. Интерактив ўқитиш технологияси анъанавий маъруза ўқиш услубини кўзда тутмаслиги ва шу билан бир қаторда маъруза дарсларини амалий дарсларга қарама-қарши қўймаслиги кўрсатилиб, интерактив ўқитишда маъруза ва амалиёт бир бутун машғулотнинг қисмлари деб қаралиши ва бу ўқитувчи ҳамда талабанинг ўзаро таъсири ҳамда талабаларнинг машғулот давомида фаол иштирок этиш даражаси билан белгиловчи метод эканлиги кўрсатилган.

Таянч сўзлар ва иборалар: интерактив ўқитиш, метод, ўзлаштириш даражаси, мустақил фикрлаш, илмий-ижодий фикрлаш.

Таълим жараёнидаги инновацион ислохотлар таълимга рақамли технологиялар ҳамда интерактив услублардан кенг фойдаланишни тақоза этмоқда. Бунинг асосий сабабларидан бири шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчилар тайёр билимларни эгаллашган бўлса, замонавий технологиялардан фойдаланиш эса уларнинг олаётган билимларини ўзлари қидириб топиши, мустақил ўрганиш, фикрлаш, таҳлил қила олиш ва, энг асосийси, якуний

хулосаларни келтириб чиқара олишга ўргатади. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ривожланиши, шаклланиши ва билим олишига шароит яратади. Шу қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради.

Интерактив ўқитиш - талаба ўзида олдин мужассамлашган тажрибадан фойдаланган ҳолда, ўқув жараёнида фаол иштирок этади, машғулот давомида шахсий рол ўйнаб, янги тажрибалар орттиради, олган тажрибалари асосида дарсни таҳлил қилиб, ўзига керакли муҳим материалларни олади ҳамда ўзининг кундалик фаолияти билан боғлайди.

Ўқитишнинг интерактив услублари дейилганда биринчи навбатда талабанинг ўқув жараёнини фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган инновацион педагогик услублар мажмуи ва техник воситалар тизими тушунилади. Интерактив услубдаги машғулотда талаба берилаётган маълумотларни тинглаши, ўқиши, кўриши, ёзиб бориши, мавзу бўйича саволлар бериши, ўз фикрини эркин баён этиши, амалий топшириқларни бажариши ва ўзининг ҳаётий тажрибаси билан боғлаб, мавзу бўйича назарий билим ва амалий кўникмалар ҳосил қилиши лозим.

Интерактив сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, “inter” – ўзаро (взаимный), “act”-фаолият қилмоқ (действовать) маъносини билдиради.

Ҳозирги кунда «Ақлий ҳужум», «Фикрлар ҳужуми», «Тармоқлар» методи, «Синквейн», «Кичик гуруҳларда ишлаш», «Охирги сўзни мен айтай», «Қорбўрон» ўйини, ФСМУ, «Арра» «Бумеранг», «Арра», “Дельфи”, “Каскад”, “Скарабей”, “Инсерт жадвали” ва шу каби ўнлаб интерактив услублар олий таълим ўқув жараёнида кенг фойдаланилиб келинмоқда.


Интерактивлик, бу ўзаро муносабатда бўлмоқ, диалог режимида ўқимок маъносини билдиради. Шу сабабли интерактив ўқитиш-диалогли ўқитиш демакдир. Диалог анъанавий ўқитиш услубларида ҳам мавжуд, жумладан “ўқитувчи-ўқувчи”, “ўқитувчи-ўқувчилар гуруҳи” кўринишида. Интерактив ўқитишда эса диалог “ўқувчи-ўқувчи”, ўқувчи-ўқувчилар гуруҳи”, “ўқувчи-аудитория”, “ўқувчилар гуруҳи-аудитория” (гуруҳлар презентацияси), “ўқувчи-

компьютер” каби кўринишларда ҳам бўлади. Ўқувчи маърузада фақат “пассив” тингловчи сифатида эмас, балки “актив” иштирокчи сифатида қатнашади.

Талаба маълумотларни фақат эшитиш орқали қабул қилса, берилган маълумотларнинг ўртача 20 фоизини ўзлаштиради. Шу сабабли агар маъруза фақат мавзунинг оғзаки тушунтириш шаклида (анъанавий) ўтилса, талабалар дарсда берилган маълумотларнинг 80 фоизини эса сақлаб қолмайди ва дарров унутишади. Ўртача одам бир минутда 800 тагача сўзни эшитиши ва тушуниши мумкин. Ваҳоланки, аудиториядаги талабалар ўқитувчи нутқига нисбатан 4 марта тез эшитиш қобилиятига эга. Демак, оғзаки тушунтириш вақтида вақтнинг 75 % қисмида талаба эшитмайди, у бўш қолади, агар ўқитувчи фақат оғзаки тушунтириб, маъруза қилса талаба диққатини йўқотади. Шу сабабли маърузани фақат ўқиб бериш ёки оғзаки тушунтириш шаклида олиб бориш самарасиз ҳисобланади.

Агар талаба маълумотларни бир марта ўзи ўқиса у 25 фоиз маълумотни эслаб қолади. Демак маърузада, талабалар олдида маъруза қилиш билан биргаликда, улардан мавзунинг асосий жойларини дарс давомида ўзлари ўқишлари талаб этилса, маъруза самараси ортади. Бунинг учун слайдлар, таянч иборалар, тарқатма материаллар зарур бўлади ва маъруза давомида улардан талаба фаоллиги таъминланган ҳолда фойдаланилади. Берилаётган маълумотлар икки марта такрорланса, талаба маълумотларнинг 30 фоизини эслаб қолади. Агар Сиз маърузада мавзунинг асосий, муҳим жойларини икки марта такрорласангиз, ўзлаштириш фақат ўқиб беришга нисбатан 10 фоизга ортади. Агар такрорлаш слайдлар, ўқув-визуал материаллар асосида бажарилса дарснинг самарадорлиги янада ортади, яъни асосий таянч иборалар ҳам икки марта такрорланади, ҳам талабалар томонидан ўқилади. Талаба ёзиб, ўқиса маълумотларни 45 фоизгача ўзлаштиради. Демак маърузанинг таянч ибораларини маъруза давомида ёздириб борилса, ўзлаштириш икки марта ортади. Талаба ўртача бир минутда 40 тагача сўз ёзиши мумкин. Лекин, мақсад фақат тез ёздириш бўлиб қолса, натижа етарли даражада самарали бўлмайди. Шунинг учун маърузанинг таянч иборалари

ёздирилатганда, талабага диққатини жамлаб, тушуниб ёзиши учун вақт бериш керак, яъни ёздирилатган ибораларни тўхтаб-тўхтаб, секин ифода этиш зарур.



Талабалар томонидан мавзу маълумотларини қабул қилиш ва ўзлаштириш даражаси

Кўпчилик муҳокама, баҳс жараёнида маълумотларнинг 60 фоизига яқинини ўзлаштиради, яъни ўқув жараёни оддий маъруза ўқишга нисбатан 3 марта самарали бўлади. Агар маърузада юқоридаги услублар (оғзаки тушунтириш, қайтариш, ўқув-визуал материаллар ёрдамида кўрсатиш, талабадан ўқишни талаб қилиш, таянч ибораларни ёздириб бориш) маълум боғлиқли кетма-кетлик асосида биргаликда жорий этилса ўқув самараси янада ортади.

Талаба берилаётган маълумотларни ҳаётини тажрибаси орқали таққосласа, билим амалиёт орқали етказилса, талабаларга доимий ушбу материалларни реал ҳаётда керак бўлиши тушунтирилса, машғулотда мавзунини реал ҳаёт билан боғлаб талабаларнинг фаол фикр билдиришларига шароит яратилса, мавзу бўйича берилаётган маълумотларни талабалар томонидан 80 фоизгача

ўзлаштиришларига эришиш мумкин. Яхши педагог ўртача бир минутда 170 тагача сўз талаффуз этиши мумкин. Ўртача студент минутига 400 тагача сўзни ўқиши ва тушуниши мумкин. Бу шуни билдирадики, ўқитувчи маълумотларни слайдлар кўринишида ёки тарқатма материаллар кўринишида тушунтиришдан олдин берса, ўқитувчи тушунтиргунча талабалар ушбу материалларни икки марта тез ўқиб улгурадилар. Талабалар ўзлари маълум миқдорда бўлсада ўқиб олгач, маърузачининг тушунтиришларига кам эътибор беришади. Шу сабабли, агар олдин тушунтириб, кейин ўқув-визуал материаллар орқали тушунтириш такрорланса, энг яхши натижага эришилади.

Айрим педагоглар ўқитишнинг интерактив услублари деганда замонавий ўқув-визуал материаллар (оддий, мультимедиа ва анимацион слайдлар, тарқатма материаллар, маъруза матнлари, техник воситаларнинг моделлари макетлари ва б.)дан ҳамда замонавий техник воситалар (компьютерлар, электрон доскалар ва б.)дан фойдаланиш, маъруза матнларини олдиндан талабага тақдим этиб, талабанинг дарсга тайёр бўлиб келишини таъминлаш кабиларни тушунишади. Албатта бу тўғри фикр эмас.

Интерактив ўқитиш технологияси анъанавий маъруза ўқиш услубини кўзда тутмайди ва шу билан бир қаторда маъруза дарсларини амалий дарсларга қарама-қарши қўймайди. Интерактив ўқитишда маъруза ва амалиёт бир бутун машғулотнинг қисмлари деб қаралади ва бу ўқитувчи ҳамда талабанинг ўзаро таъсири ҳамда талабаларнинг машғулот давомида фаол иштирок этиш даражаси билан белгиланади. Маълумки, анъанавий маъруза дарсларида ўқитувчи фаоллиги таъминланса, амалий машғулотларда талаба фаоллиги талаб этилади. Интерактив услубда ўқитувчидан машғулот давомида талаба ва ўқитувчи ўртасидаги ўзаро таъсир даражасининг бир кўринишидан иккинчисига мавзуга боғлиқ ҳолда устамонлик билан равоён ўтиши талаб этилади.

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, ўқитишнинг интерактив услубларидан кенг фойдаланиш талабаларнинг мустақил илмий-ва ижодий фикрлашга, ўз фикрини баён этишга ҳамда тезкор қарорлар қабул қилишга ўргатади, уларда касбий компетентликни шаклланишида энг муҳим рол ўйнайди.

Адабиётлар:

1.Рахимов О.Д., Рўзиев Х.Ж., Муродов М.О. Таълим сифати ва инновацион технологиялар. /Тошкент: “Фан ва технологиялар”нашриёти, 2016й. - 208б.

2.Рахимов О.Д., Турғунов О.М., Мустафаев Қ.О. Замонавий таълим технологиялари. /Тошкент: “Фан ва технологиялар”нашриёти, 2013й. - 210б.

3.Rakhimov O. D., Rakhimova D. O. Educational quality in the era of globalization //Проблемы науки. – 2021. – №. 1. – С. 36-39.

4.Raximov O. D. Quality of education-quality of life //Educational-methodical manual, Karshi: TUIT branch publishing house. 2015.

5. Raximov O. D. Requirements and technology for creating e-learning resources //Sovremennoe obrazovane (Uzbekistan). – 2016. – Т. 202. – С. 45-50.

6. Rakhimov O.D.1, Ashurova L. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization.// Проблемы современной науки и образования. 2020. №12(157), часть -1. С.41-46.

DOI: [10.24411/2304-2338-2020-11203](https://doi.org/10.24411/2304-2338-2020-11203)

**БЎЛАЖАК МЕНЕЖЕРЛАР ТАЙЁРЛАШДА ФОРСАЙТ
ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА
АҲАМИЯТИ**

Рахимова Дилрабо Октябровна

Қарши муҳандислик-иқтисодий институти “Бизнес ва инновацион менежмент”

кафедраси ассистенти

e-mail: rahmat1959@mail.ru

Аннотация. Мақолада бўлажак менежерларга қўйилган замонавий талаблар, уларда “Форсайт компетентлик”ни шакллантиришнинг муҳимлиги, форсайт-менежментнинг мазмун-моҳияти, форсайт технологиясини ўқитиш бўйича хорижий тажрибалар таҳлили ҳамда “Менежмент” таълим йўналиши ва магистратура мутахассисликларида форсайт технологиясига оид фанларни ўқитишнинг зарурияти ҳамда аҳамияти асосланган.

Таянч сўзлар ва атамалар: менежер, башоратлаш, стратегик режалаштириш, форсайт, форсайт-менежмент, форсайт компетентлик.

XXI асрдаги турболент муҳит, мураккаб ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий контекстда давлат ва хусусий сектор ривожини юқори технологияга асосланган ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, корхона ва ташкилотларнинг бугунги кундаги имкониятлари ҳисобида 10-30 йиллик келажагини башоратлаш билан боғлиқдир. Бу вазифа фақатгина форсайт асосида илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш орқали амалга оширилади. Шу сабабли бўлажак менежерлар корхона ёки компаниянинг келажак ривожини ҳамда рақобатбардош бўлишини таъминлашлари учун форсайт технология бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларга эга бўлишлари талаб этилади.

Менежер ривожланган мамлакатларда махсус ижтимоий қатламни ташкил қилади. Бозор иқтисодиёти шароитларида менежер хизмати ишлаб чиқаришда ва товарлар муомаласини уюштиришда зарур омил бўлиб қолади.

Ҳозирги глобаллашув шароитидаги мураккаб ижтимоий-иқтисодий муҳитда корхона, муассаса ва компаниялар кучли рақобат туфайли юқори даражадаги ўзгаришлар ҳамда ноаниқликларга дуч келмоқда. Менежердан бундай шароитда бошқарувнинг энг самарали, турғун, барқарор ва тезкор мосланувчан сиёсатини ҳамда услубларини ўз фаолиятида қўллаши талаб этилади. Бу ғоя ўз ичига корхонанинг келажагини кўра билиш ва башоратлаш, режалаштириш, ташқи муҳит таъсирини ва рақобатлар бозорини тўғри баҳолай олиш ҳамда корхонанинг ички ривожланиш динамикасини олдиндан кўра билишни ўз ичига олади. Бошқарувнинг ушбу механизми корхонанинг келажакда ривожланишини белгилаб берувчи энг муҳим омили ҳисобланади ва бу башоратлашнинг янги технологияларидан фойдаланишни талаб этади.

Ҳар қандай корхонани ўзгарувчан ижтимоий-иқтисодий шароитида энг янги замонавий технологияларни ўзлаштиришга ва такомиллаштиришга интилишлари менежерлар ва корхона раҳбарлари олдига янги вазифаларни келтириб чиқармоқда. Иқтисодиёт тармоқларининг турли соҳаларида давлат, тармоқ, минтақа, ташкилот, корхона ва муассасаларнинг келажак фаолиятини стратегик режалаштиришнинг энг асосий инструментларидан бири форсайт-менежментдир. Форсайт менежментдан фойдаланиш келажакда инқирозли вазиятлар юзага келишини олдини олади, хавфларни олдиндан аниқлаш ва бартараф этишга имкон яратади, ташқи ва ички муҳит тизимида ижтимоий-иқтисодий ривожланишни таъминлашга эришиш йўлларини очиб беради ҳамда корхонанинг барқарор фаолиятини ва самарадорлигини таъминлайди. Форсайт-менежмент корхонанинг фаолиятига таъсир этувчи салбий омилларни мунтазам аниқлаш ва бартараф этиш, келажак стратегиясини олдиндан кўра билишнинг инновацион роли вазифасини бажаради. Юқоридагилардан келиб чиқиб таъкидлаш лозимки, бўлажак менежерлар ўз бошқарувидаги тармоқ, соҳа ёки

корхонанинг узок муддатли келажagini башоратлаш услублари бўйича билим ҳамда амалий кўникмаларга эга бўлиши талаб этилади.

Ривожланган хорижий олий таълим муассасаларида менежерлар, иқтисодчилар ва хизматлар соҳасида кадрлар тайёрлашда форсайт технологияни алоҳида фан сифатида ўқитишга эътибор беришмоқда. Болостон технология университети (Польша) менежмент, логистика ва хизматлар соҳаси мутахассисликлари учун, Германияда шаҳарсозликни режалаштириш, архитектура, ва техник йўналишдаги мутахассисликлар учун форсайт таълим дастури ишлаб чиқишган. Кўпгина хорижий олий таълим муассасаларининг дастурлари форсайтдан фаол глобал миқёсда фойдаланишга қаратилган бўлса, айримлари регионал форсайт дастурлар ҳисобланади. Масалан, “Келажакга йўналтирилган стратегия” номли дастур Орхус университети (Дания), “Ўз келажакининг ярат: глобал команда учун инновацион ишланма” номли дастур Стенфорд университети (АҚШ), “Футуризм ва бизнес: мураккаб муаммоларни қадай ечиш мумкин” мавзусидаги форсайт дастур Стелленбош Университети (Жанубий Африка) томонидан ишлаб чиқилган. Ривожланган давлатлар олий таълим муассасаларидаги бакалавр, магистр ва PhD форсайт таълим дастурлари форсайтнинг асосий филозофик ўлчов мезонлари ҳамда методологик асосларини ўз ичига олган умумий контексти билан таништиришга қаратилган. Форсайт методологияси тўғрисида талалабларга форсайт лойиҳаларда энг кўп қўлланиладиган методлар: трендларни сканерлаш, сценарийлар ва стратегиялар яратиш, Дельфи, аклий ҳужум, экспертлар панели тўғрисида маълумотлар берилади. Шунингдек, стратегик ташаббускорлик, лойиҳалани бошқариш, инновацион фаолият, ўзгарувчан муҳитда бошқарув, технологияларни баҳолаш кабиларга ҳам етарли эътибор қаратилади. Форсайтнинг яна бир муҳим аспектларидан бири бошқа фанлар билан узвий боғлиқлиги ҳамда статистик, микро ва макроиқтисодий, маркетинг, эвристик ва ижтимоий услублар интеграцияси орқали амалга оширилиши ҳисобланади.

Россияда инновацион менежмент мутахассислиги бўйича кадрлар тайёрлашда “Менежмент асослари”, “Форсайт-менежмент”, “Форсайт-

технология методлари”, “Форсайт асосида режалаштиришга замонавий ёндошув”, “Форсайтда сценарийли режалаштириш”, “Форсайтни ташкил этиш ва бошқариш”, “Маркетингда форсайт технология”, “Форсайт –менежментда экспертлик”, “Форсайт тадқиқотлар ташкил этиш”, “Стратегик дрейф”, “Мутахассисликда форсайт компетентлик” ва “Янги бозор форсайти” каби фанлар ўқитилиб келинмоқда.

Ўзбекистонда олий таълим муассасалари узоқ муддатли келажакни кўра биладиган профессионал бошқарув кадрлари тайёрлаш имкониятига эгами ва ушбу мутахассислар Форсайт соҳаси бўйича қандай асосий компетентцияларни ўрганишлари керак? –деган ўринли савол туғилади. Ўзбекистон иқтисодиёт тармоқлари, шу жумладан олий таълимни ривожлантириш, ривожланишнинг асосий ва муҳим йўналишларини аниқлаш, форсайт тадқиқотлар асосида узоқ муддатли стратегик режалар тузиш амалиёти йўлга қўйилмаган. Менежмент таълим йўналиши ва магистратура мутахассисликлари малака талаблари ҳамда ўқув режаларида форсайт технологиясини ёритувчи фанлар киритилмаган, мутахассислик фанлари ўқув дастурларида ҳам ушбу соҳа бўйича мавзулар режалаштирилмаган. Шу сабабли Форсайт технология асосида амалга оширилган илмий-тадқиқот ишлари, лойиҳалар ва дастурлар бўйича илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш, Ўзбекистон иқтисодиёт тармоқларини узоқ муддатли башоратлашни форсайт технологиялар асосида амалиётга жорий этиш жараёнларини жадаллаштириш, яъни халқаро таълим хизматларининг эркин рақобат муҳитига киришга интилиш ва марказлаштирилган давлат режалаштириш ва бошқариш директивасидан воз кечиш зарур ҳисобланади.

Юқоридаги таҳлилий маълумотлар асосида хулосалаш мумкинки, Ўзбекистон олий таълим тизимида жаҳон стандартларига мос рақобатбардош кадрлар тайёрлашда барча таълим йўналишларида, айниқса менежмент, иқтисодиёт, хизматлар соҳаси, логистика каби йўналишлари талабаларига форсайт технология тўғрисида етарли маълумотлар бериш, ўқув режалар танлов фанлари блокига форсайтга оид фанларни киритиш ҳамда бўлажак

менежерларда “Форсайт компетентлик”ни шакллантириш замон талаби ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Зиборова А. И. Форсайт менеджмент: определение, применение, основные элементы

2. Форсайт-менеджмент –циклопедия. [Электрон манба]. URL: <http://cyclowiki.org/wiki>. Мурожаат этилган сана. 22.02.2022

3. Цодикова Д.С. Ключевые компетенции менеджера XX века. [Электрон манба]. URL:[http://www.buk.irk.ru/chairs/management/programs /zodikova.htm](http://www.buk.irk.ru/chairs/management/programs/zodikova.htm). Мурожаат этилган сана: 24.02.2002

4. Ejdys J. Furure oriented strategy for SMEs //Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2014. Vol. 156. P.8-12

5. Curaj A., Michel A., Saritas O., Rossel P., Tuomi I., Miller R. (2010) The FOR-UNI Blueprint. A Blueprint for Organizing Foresight in Universities, Bucharest: The Publishing House of the Romanian Academy.

6. Rakhimov O.D., Berdiyev Sh.J., Rakhmatov M.I., Nikboev A.T. [Foresight In The Higher Education Sector of Uzbekistan: Problems and Ways of Development.](#) //Psychology and Education Journal .2021. 58 (3), 957-968. DOI: 10.17762/pae.v58i3.3029

7. Рахимов О.Д., Отакулов У.Х., Рахимова Д.О. Образовательный форсайт качества и результативности самостоятельного образования. //Вестник науки и образования. 2021. № 7 (110). Часть 1. С.69-72

8. Рахимов О.Д., Манзаров Ю.Х., Ашурова Л. Ўзбекистон олий таълим тизимида дастлабки форсайт тадқиқотлар.//Современное образование (Узбекистан). 2021. №4. С. 16-22

**O‘QUVCHILARNING TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN KUCHLI
MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNGA
TA’SIR ETIVCHI OMILLAR**

Maxmudjonov Asrorjon Baxromovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: qdpi_kadr@mail.ru

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning ta‘lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo‘lgan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi, buning uchun har bir bosqichda muayyan vazifalar qo‘yilib, ularni yechish usullari belgilab berilishi kerakligi yoritib berilgan.

Kalit qo‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, faoliyat, ta‘lim, qadriyat, motivasiya, o‘quv jarayoni, daraja

O‘quvchilarning ijtimoiylashuvlari har bir davrda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlarini ta‘minlaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarni jamiyatdan ajralmagan holda o‘zlarining muammolarini hal qilishlari mumkinligiga ishontirishi lozim. Ba‘zan o‘quvchilar etnik va tashqi ko‘rinishlaridagi turli-tumanliklarga qarab o‘z tengdoshlari tomonidan kamsitiladilar va yakkalanib qoladilar.

Fikriy-qadriyatli hamda hissiy-affektiv komponentlarning o‘zaro birligi jarayonli qismning barqarorligi va rivojlanishini ta‘minlaydi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda shakllanadigan ta‘lim olishga nisbatan motivasiyaning uch darajasini aniqlash imkonini beradi. Ular:

Ta‘lim olish motivasiyasining quyi darajasi – hissiy daraja; uning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarning hissiy-affektiv rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar o‘zlarining his-tuyg‘ularini yashira olmaydilar, ularda xulq-atvorning ixtiyorsiz qo‘zg‘alishi kuzatiladi. Bu kabi o‘quvchilarda fikrlarni bayon qilish, xulq-

atvordagi anglashilganlik vaziyatli xarakter kasb etadi. Ularning hukmlari, ilgari surgan fikrlar u qadar qat'iy va barqaror bo'lmaydi. O'quvchilarning faoliyatlarida qadriyatlarni anglamaslik va ularga amal qilmaslik holatlari ham kuzatiladi.

O'quv jarayonida esa muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivlari ustuvor bo'ladi. O'qituvchi tomonidan jazolangandan keyin o'quvchilar o'z muvaffaqiyatsizliklarining tashqi jihatlarini izohlashga qiynaladilar. Bunday vaziyatda o'quvchilarda o'z-o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. O'ziga ishonmaslik o'quv jarayonining tashqi natijalariga barqaror munosabatda bo'lmaslikka olib keladi. Bu toifadagi o'quvchilarning bilimlari odatda yuzaki va tizimlashmagan xarakterga ega. Ularning nazariy bilimlari hayot va amaliyot bilan juda kam darajada bog'langan, ular tayyor bilimlarni o'zlashtirishlari natijasida bunday o'quvchilarda vaziyatlarni tahlil qilish layoqatlari past darajada rivojlanadi. Mazkur o'quvchilardagi fikriy jarayonlar chuqur mantiqiy asosga ega emas. Aqliy faoliyat esa muayyan turtki asosida vujudga keladi.

Fikriy-qadriyatli munosabatlarga ega bo'lgan o'quvchilar o'zlarining bevosita qiziquvchanliklari, o'quv faoliyatiga nisbatan yuqori darajadagi qiziqishlarga egaliklari bilan ajralib turadilar. Ularning ongida fikrlar qadriyat darajasiga yetmagan, balki tasodifiy tarzda vujudga kelgan bo'ladi. Shuning uchun ham ularning qiziqishlari uzoq vaqt davom etmaydi. Bunday o'quvchilarning diqqatlarini o'quv faoliyatiga jalb qilish, irodalarini safarbar etish, bilish faoliyatini barqaror, harakatlantiruvchi kuchga aylantirish talab etiladi. Ularning bilish qiziqishlari o'tkinchi xarakterga ega.

O'quvchilarning o'z-o'zlarini namoyon qilishlari past darajada shakllanganligining sabablaridan biri – o'quv-tarbiya jarayonining ular shaxsiyatini shakllantirish bilan bog'liq jihatlariga yetarlicha e'tibor berilmaganligidadir. Ularda ijtimoiy foydali faoliyat tajribasi mohiyatini anglash ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagan. O'quvchilar bunday faoliyatni o'zlari anglamagan holda muayyan vaziyatlarda amalga oshiradilar. Erkin tanlov vaziyatlari esa bunday o'quvchilarning bir-birlariga xalaqit berishlariga olib keladi. Mazkur o'quvchilar ushbu holatlarda o'zlarini yo'qotib qanday harakat qilishni bilmay qoladilar. Bu o'quvchilar mavqeining pasayishi, ularda individuallikning yetarlicha shakllanmasligi, shaxsiy mustaqillikning

rivojlanmasligiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda ularning sinfdoshlari bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishlari, bir-birlarini tushunishlari qiyin kechadi. Ular xulq-atvori va shaxsiyatining namoyon bo‘lishi odatda barqaror bo‘lmaydi, ularning xatti-harakatlarini bashorat va tahlil qilish murakkabdir.

Odatda ular o‘zlariga juda yuqori baho beradilar. Bunday o‘quvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar yakunlanmagan bo‘lib, qo‘yilgan maqsadlar amalga oshmaydi. Natijada ular muvaffaqiyatsizliklardan qochishga moyil bo‘ladilar. Bunday vaziyatlarda muvaffaqiyat qozonish uchun omillar yetarlicha mavjud bo‘lmaydi. Bunday o‘quvchilarning past baholari ularning bezovtalanishlari, qo‘zg‘alishlariga sabab bo‘lib, mazkur mayllarning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq. Bunday o‘quvchilar o‘z jamoalarida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lmaydilar, ularda mo‘ljallangan maqsadlarni o‘z imkoniyatlari bilan qiyoslash ko‘nikmasi shakllanmagan. Bu esa o‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Ulardagi o‘zlari qiziqadigan o‘quv predmetlari bo‘yicha egallagan bilimlaridan foydalanish, sinfdoshlar ibratini, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarining egallanishi, o‘quv-tarbiya jarayoni muhimligini anglash imkoniyatining mavjudligi o‘quvchilardagi ta‘lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiya darajasining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ladi.

Ta‘lim olishga motivatsiya shakllanganligining o‘rta darajasi – jarayonli daraja; bu o‘rinda o‘quvchilarda ko‘proq darajada his-tuyg‘ularni kuzatish jarayoni boshlanadi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilarning o‘z kechinmalarini boshqara olishlari nihoyatda zarur hisoblanadi. Shu asnoda ular o‘quv faoliyati bilan bog‘liq kundalik majburiyatlarini bajarishga kirishadilar. Natijada ularda hissiy holatlarning barqarorligi ortadi. O‘quvchilarning sinf va sinfdan tashqari pedagogik jarayonlarda o‘zaro manfaatdorlik hamda suhbatdoshiga hamdardlik his-tuyg‘ulari vujudga keladi.

Bunday o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga nisbatan ba‘zan ijobiy, ba‘zan esa vaziyatli munosabat shakllanadi. Mazkur o‘quvchilar o‘z kuchlari va layoqatlariga to‘liq ishonmaydilar. Ularga muntazam tarzda nazorat, qo‘llab-quvvatlash va yordam kerak bo‘ladi. Ularning muvaffaqiyatlari o‘qituvchilari va ota-onalari tomonidan muntazam tarzda e‘tirof etilishi kerak. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati yuqori

darajadagi kuchli va barqaror motivlar bilan tavsiflanadi. Ushbu mayllar o‘quvchilarning ichki qiziqishlarini shakllantiradi va chuqurlashtiradi. Natijada ularda bilish faoliyatiga nisbatan qadriyatli-fikriy munosabat tajribasi tarkib topadi. O‘quvchilarda fikrlar asosida muntazam tarzda qadriyatlarga amal qilish tajribasi shakllanadi, ular o‘zaro munosabatlarning ahamiyatli jihatlarini farqlay boshlaydilar. Bu esa fikriy-qadriyatli shakllanishning barqarorligini ta’minlaydi. Bunday munosabat o‘quvchilarning xulq-atvorni boshqaruvchi omil darajasiga ko‘tariladi. Natijada o‘quvchilar bosqichma-bosqich ijtimoiy qadriyatlarni anglaydilar va ularni tushuna boshlaydilar. Bunday munosabatlar vaqt o‘tishi bilan ularning shaxsiy ishonchi, maqsadlari va ideallariga aylanadi.

Mazkur darajaga ega bo‘lgan o‘quvchilarning layoqatlari bir qator aloqalar va munosabatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ular o‘qituvchi yordamida narsalar, buyumlar va moddiy borliq hodisalarini tahlil qilish, o‘qituvchilari bilan o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaziyatlarda qarorlar qabul qilish, xulosalar va umumlashmalar qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida mavjud hodisalarni chuqurlashtirish imkonini beradi. Bunday harakatlarni o‘quvchilar dastlab o‘qituvchilari yordamida keyinchalik esa o‘zlari mustaqil tarzda egallashga erishadilar.

O‘quv jarayonida o‘z-o‘zini namoyon qilishga intilish bu o‘rinda barqaror shakllanish imkoniyati sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur holat o‘quvchilarning xulq-atvori va tanlov imkoniyatining anglanganligini ifodalaydi. Bunday darajaga ega bo‘lgan o‘quvchilarda shaxsiy mustaqillik asoslari hamda o‘zlarini ta’limiy munosabatlar sub’yekti sifatida namoyon qilish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

O‘quv-biluv faoliyati natijasida amaliy tajribaning to‘planishi, o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli natijalarni qo‘lga kiritishga intilish o‘quvchilarni ta’lim olish motivasiyasini kuchaytirishga ko‘maklashadi.


Ta’lim olish motivasiyasi shakllanganligining yuqori darajasi – qadriyatli-fikriy daraja; bunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘quvchilar chuqur o‘ylangan harakatlarni amalga oshirish va hukmlar chiqarishga moyil bo‘ladilar. Ular o‘zlarining sabr-bardoshliliklari, his-tuyg‘ularni anglashlari, barqaror hissiy holatga egaliklari bilan farqlanadilar. Bunday o‘quvchilar og‘ir, vazmin va xushfe‘l bo‘ladilar.

Yuqori darajadagi aqliy rivojlanish turli tushunchalar orasida o‘zaro aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Intellektual jihatdan yuqori darajaga erishgan o‘quvchilar abstraksiyalash, umumlashtirish usullarini osongina o‘zlashtirish bilan bir qatorda, yangi usullar ustida mustaqil ishlash layoqatini ham egallaydilar. Bunday o‘quvchilarda natijalarni bashorat qilish va oldindan payqash sifatlari mavjud bo‘ladi.

Bunday o‘quvchilarning ta’lim olish motivlari ijtimoiy xarakterga ega. Shuning uchun ham ular bilishga intiladilar, jamiyat uchun foydali faoliyatni amalga oshirishga harakat qiladilar. O‘quv faoliyati mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan mayllar o‘quvchilarning yangiliklarni bilishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Ular shu asnoda yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, muayyan harakatlarni amalga oshiradilar, o‘z vazifalarini sidqidillik bilan bajaradilar, ijodiy izlanishlar qiladilar. Bunday o‘quvchilar uchun o‘z-o‘zini baholash va yuqori darajadagi intilish xarakterli bo‘lib, ular o‘z layoqatlari, imkoniyatlarini anglaydilar. Bu esa ularning o‘z muvaffaqiyatlariga bo‘lgan ishonchlari, mayllarini mustahkamlab barqarorlashtiradi.

Qadriyatli-fikriy munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlar bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Pedagogik faoliyat uchun shakllanishning ichki qo‘zg‘atuvchi omillarini ajratish muhim hisoblanadi. Ta’lim olish motivasiyasining rivojlanishi hamda uni ta’minlovchi didaktik sharoitlar uning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivasiyasini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta’sir etuvchi bir qator o‘ziga xos omillar mavjud (1-rasm).



1-rasm. O‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivasiyasini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar

O‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivasiyasini oshirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo‘lgan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun har bir bosqichda muayyan vazifalar qo‘yilib, ularni yechish usullari belgilab berilishi kerak. Shuning uchun ham, har bir bosqich aniq izchillikda loyihalashtiriladi. Buning natijasida aksariyat o‘quvchilarda muayyan shaxsiy sifatlar hamda o‘quv mayllari tarkib topadi. Mazkur vaziyatlarning har biri o‘zida quyidagilarni mujassamlashtirishi kerak:

- axloqiy tanlovga ega bo‘lish;
- o‘z ixtiyori va dunyoqarashi doirasida mustaqil maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘llarini belgilash;
- yechimlarni izlash va qarorlar qabul qilishda yaqinlarining o‘rnini belgilash;
- shaxsiy yutuqlaridan zavqlanish imkoniyatiga ega bo‘lish;
- o‘zining boshqalar uchun ahamiyatligini his qilish;
- o‘z yutuqlarini mustaqil tahlil qilish va baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- o‘zining oldingi qarashlaridan voz kechish va yangi qadriyatlarga amal qilish;
- o‘zi va boshqalarning mas’uliyatini anglab yetish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jamoa // Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
3. Abduraxmonov F.R. Mustaqillik va milliy manfaatlar. – Toshkent: Fan, 1994.

PROBLEMATIC SITUATIONS INVOLVING THE USAGE OF MODAL VERBS “MAY”AND “MIGHT”

Nematova Oygul Jamshid qizi

Student Faculty of first English

Uzbekistan State World Languages University

ABSTRACT

The distinctions and similarities between modal verbs such as "may" and "might" are discussed in this article. The rules for using the modal verbs in each of the three tenses (past, present, and future) are explained separately. In addition to this, you have also clarified and provided other instances of when these modal may be used interchangeably and when they can't. As a result, I recommend that you read this article, and I hope that you really like it and gain profit from it.

KEY WORDS: may, might, could, to be likely, bare infinitive, past participle, may not have, might not have

MAIN PART: There is no doubt that "may" and "might" often have a similar meaning when we talk about possibility. However, we prefer using "may" in academic or formal language to talk about the characteristics or behaviour of something: The seeds from the plant may grow up to 200 centimetres in length.

In addition, in speech we use "might" to say what we will possibly do in the future: She might paint her room pink.

We don't use the word "may" to ask about the possibility of something happening. Instead, we use, for example, "could(n't)" or the phrase "be likely": Could it be that you don't want to live? (not May it be that you ...?) Are you likely to be in the USA again this summer? (not May you be in the USA...?)

Despite the fact that it is possible to use "might" in this type of question, it is rather formal: Might he be persuaded to change his mind?

In addition to this, note that we can use "may" in formally asking for permission and offering help: May I come in? May I carry on it? Apart from that, "might" (rather than "may") + "bare infinitive" is sometimes used to describe what was typically the case in the past. It is used in a formal or literary context:

- During the war, you might be arrested by police for criticizing the king.
- Years ago, children as young as six might be sent down mines.

In examples like this, we can also use "could" + "bare infinitive" to talk about past ability. For example, 'During the war, the police could arrest you...' indicates that the police had the legal authority to arrest you.

When we say that a person or thing compensates for a limitation or weakness in some way by having another characteristic, we can use a pattern with may/might not + bare infinitive... but... or may/might not have + past participle... but... As an example:

- The painting may not be a masterpiece, but the colors are striking.
- She may not have danced gracefully, but she was full of energy and enthusiasm.

Furthermore, we use “may”/”might” (not 'can') + have+ past participle and “may”/”might” (not 'can') + be + -ing to discuss possible past, present, and future events:

- Do you believe Jean may/might have finished the report by now? (past)
- Malcolm isn't in his office, he may/might be working from home today (present)
- His math skills may/might have improved by the time the exam comes around.(future)

It's noteworthy that "could" can be used in the same contexts as "may" or "might": Do you believe Jean could have finished the report by now?

We can use "may/might have been" + -ing to discuss possible situations or activities that occurred in the past: David had no idea where the ball was, but he suspected his sister was playing.

We can use might/could + have + past participle to criticize someone for not doing something we believe they should have done:

- He's left without us. He might/could have waited us!
- Instead of leaving it all to me, you might/could have done the ironing.

REFERENCES

1. Martin Hewings, “Advanced Grammar in Use,” Cambridge University Press
2. Raymond Murphy, “English Grammar in Use,” Cambridge University Press
3. Raymond Murphy, “Essential Grammar in Use,” Cambridge University Press



PLASTIK DEFORMATSIYA USULIDA DETALLARNI TIKLASH

Safarov Husniddin Sirojiddin o`g`li,

Aldasheva Sarvinoz Alijon qizi

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Qishloq xo`jaligini
mexanizatsiyalash fakulteti

E-mail: husniddinsafarov569@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada detallarning ishlash imkoniyati tiklashning bir necha usullari bayon etilgan va aynan bir detallni tiklashda turli usullardan foydalanish mumkin, ammo bu usullarning hammasi ham bir xilda ratsional (maqbul) bo`la olmasligi, faqat bittasi eng ratsional usul bo`lishi mumkinligi, detallarni plastik deformatsiya usulida tiklashning afzalligi, uning oddiyliigi, sermehnatligining kamligi, narxining arzonligi va qo`shimcha material ishlatmagan holda remont sifatining yaxshiligi haqida ma`lumotlar keltitib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Detallarni tiklash, plastik deformatsiya, qo`llanuvchanlik mezoni, yeyilishga ta`sir qiluvchi omillar, sub`ektiv va ob`yektiv omillar, shikastlanishlar: siyqalanish, mikroqirqilish, qatlablanib kuchish, ezilish, uvalanish, yopishib qolish, yedirilish.

Detallarni tiklashning maqbul usuli deb, tiklangan detallning mumkin qadar uzoq vaqtga chidamliligini va tiklash narxining eng minimal bo`lishini ta`minlaydigan usulga aytiladi. Tiklash usulini tanlashda: detallarning konstruksion xususiyatlarini, uning uzelda ishlash sharoitini, yoyilganlik darajasini, detall materialining cho`zilishi va termik ishlov berilganligini, tiklangan detallning yeyilishga chidamliligini va tiklash harajatlarini hisobga olish lozim. Bu omillarning hammasini hisobga olish juda qiyin. Ammo, detallarni ishlash imkoniyatini tiklashning ratsional usulini tanlashning quyidagi to`rtta mezoni tavsiya etiladi.

1) **Texnologik mezon.** Aniq bir detallni tiklashda usullarning qo'llanuvchanligini aniqlash imkonini beruvchi mezon texnologik yoki qo'llanuvchanlik mezon deb ataladi. Bu mezon yordamida ma'lum detallni tiklashda qo'llanishi mumkin bo'lgan burcha usullarni tanlash imkoni bor, lekin ulardan qaysisi yaxshi usulligini aytib bo'lmaydi.

2) **Uzoq xizmat qilish (chidamlilik) mezon.** Bunda tiklangan va yangi detallar oxirgi holatgacha ishlash muddatlarini taqqoslab baholanadi, ya'ni detallni tiklash yoki yaroqsizga chiqarish zarurati aniqlanadi. Bu mezon uzoq xizmat qilish koeffitsienti bilan tavsiflanadi.

3) **Iqtisodiy mezon** detallarning ishlash imkoniyatini ayni bir usul bilan tiklashga ketadigan harajatlar bilan tavsiflanadi va quyidagi formuladan topiladi:

$$C = C_{\text{II}} + C_{\text{H}} + C_{\text{M}};$$

Plastik deformatsiya usulida tiklashning mohiyati va turlari. Bu usul detallarning plastik deformatsiyalanishiga, ya'ni o'z shaklini bosim ostida qizdirib yoki qizdirmasdan o'zgartirish xususiyatiga asoslanadi. Uglerodli po'latlar, rangli detallar va ularning qotishmalaridan tayyorlangan detallar sovuqlayin, tarkibida ko'pi bilan 0,3 foiz uglerod bor bo'lgan po'lat detallar esa issiqalayin plastik deformatsiyalab tiklanadi.

Detailarni qizdirmasdan tiklashda katta kuch quyish (yo'qlanish) talab qilinadi. Bunda detalning deformatsiyalanishida uning cho'zilishi o'zgarmaydi, kristallar ichidagi zarrachalarning siljishi tufayli sodir bo'ladi. Natijada detalning mexanik xususiyatlari o'zgaradi: qovushqoqligi kamayadi va qattiqqligi ortadi.

Detailarning suyuqlanish haroratining 0,8...0,9 qismigacha qizdirib tiklashda zarur kuch juda kamayadi, shunda uning cho'zilishi va mexanik xossalari sezilarli darajada o'zgarmaydi.

Cho'ktirish. Bu usul havol (ichi teshik) detallarning ichki diametrini kamaytirish va tashqi diametrini kattalashtirish, shuningdek yaxlit detallarning tashqi diametrini o'zunligini qisqartirish xisobiga kattalashtirishda ishlatiladi. Masalan, shatun yuqori kallagining bronza vtulkalari maxsus moslama yordamida sovuqlayin cho'qtirib tiklanadi.

Kengaytirish usulida havol detallarning tashqi o'lchami ularning ichki o'lchamlarini qatatalashtirish hisobiga tiklanadi. Bunda ta'sir kuchining yo'nalishi deformatsiya yo'nalishiga mos keladi. Porshyon barmoqlari, shlitsali va silliq vallar sirtlari, vtulkalar shu usulda tiklanadi.

Cho'zish usulidan detallarning ayrim qismlarini siqib, cho'zishda foydalaniladi. Bu usulda turli tortkilar, turtkichlar va boshqa detallarning o'zunligi tiklanadi. Lemex va kultivator panjalarini tiklashda ham cho'zish usulidan foydalaniladi.

Dumalatib puxtalash (nakatkalash) usuli detallarning yoyilgan tashqi silindrik sirtlarini va shu sirtlarning o'zidan siqib chiqariladigan detall hisobiga to'ldirib tiklashda qo'llaniladi. Bunda detall tokarlik stanogining patroniga yoki markazlariga o'rnatiladi, dumalatiladigan rolik yoki shariqli opravka esa, stanok potronida keskich o'rniga mahkamlanadi.

To'g'rilash ishlayotgan vaqtda detallarda qoldiq deformatsiyalar: egilish, burilish, tob tashlash sodir bo'lganda qo'llaniladi. To'g'rilash usuli bilan vallar, o'qlar, tortkilar, shatunlar, richaglar va boshqa detallarning dastlabki shakllari tiklanadi. Detallar o'lchami, deformatsiyalash darajasi, to'zilishi va materialiga qarab sovuq yoki issiq holda to'g'rilanadi.

Detallarni qizdirib to'g'rilash kalta detallarni (richag, kronshteyn va boshqalar) yong ko'p egilgan joylarini To'g'rilashda ishlatiladi. Detallning egilgan joyi 600...800S° gacha qizdirilib, keyin termik ishlov beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Вафоев, Р.Мусурмонов. “Курилиш ва мелиорация машиналарини ишлатиш”. Тошкент-2015 йил. “Тафаккур Бўстони”.
2. S.Vafoev, N.Dauletov. Melioratsiya va qurilish mashinalaridan foydalanish va texnik servis T. “Taffakur Bosoni” 2013 -264 b.
3. Yo`ldoshev Sh.U. Mashinalar ishonchliligi va ta`mirlash asoslari (darslik). - Toshkent: O`zbekiston, 2006. – 696 b.
4. Т.С.Борщов, И.В.Лисовский. «Настройка и регулировка мелиоративных машин». Ленинград ВО «Агропромиздат. 1989 г.

ВЛИЯНИЕ УСТРОЙСТВ ПНЕВОТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ НА ПРИРОДНЫЕ СВОЙСТВА ХЛОПКА-СЫРЦА

Мухаметшина Эльмира Талгатовна

Джизакский Политехнический институт, ассистент

Аннотация: В статье уделяется особое внимание влиянию устройств пневмотранспортной системы на природные свойства хлопка-сырца. Также в процессе пневмотранспортировки хлопка-сырца приборы в системе оказывают резкое влияние на качество сырья из-за условий труда и повышенной влажности. То есть повышение уровня влажности хлопка вызывает механическое повреждение семени при воздействии на хлопок рабочих органов аппарата, что в свою очередь вызывает отделение волокна с семенной оболочкой при очистке и попадание в отходы во время уборки.

Ключевые слова: переработка хлопка, пневмотранспортная система, высококачественное волокно, производство, устройство, хлопкоочистительные предприятия, трубопровод.

Республика Узбекистан является мировым лидером по производству, переработке и экспорту хлопка. Поэтому хлопковое волокно и его переработка играют важную роль в экономике страны.

Решение проблем, возникших при переходе к рыночной экономике, связано с реформированием всех видов производства. Для достижения этой цели, прежде всего, необходимо всемерно способствовать развитию науки и техники.

Нам хорошо известны богатые ресурсы легкой промышленности, в том числе текстильной, переработка сырья в нашей стране и потенциал для трудоустройства. Поэтому развитию и повышению эффективности этих направлений уделяется серьезное внимание.

Производство высококачественного волокна на уровне мировых стандартов поставило перед специалистами и учеными в области переработки хлопка важную задачу, заключающуюся в совершенствовании существующего оборудования и технологии. В свою очередь, возрастающий уровень совершенствования прядильного и ткацкого оборудования требует большого внимания к качеству хлопкового волокна.

Система пневмотранспорта является основным оборудованием при подаче сырья для технологических процессов на хлопкоочистительных предприятиях, а также при взаимосвязи технологического оборудования. Существует несколько видов пневмотранспорта в зависимости от обработки. То есть они бывают всасывающего, нагнетательного и всасывающе-нагнетательных типов.

Insoniyat yaralibdiki adabiyotga, san'atga, badiiyatga intilib, undan bahramand bo`lib yashaydi. Bu ma'naviy ehtiyoj tufayli ijodkor va adiblar tinimsiz izlanib, ijod qilishadi. Buyuk ijodkorlarning durdona asarlari ham shu zaylda dunyo yuzini ko`radi. "Adabiyot — fikr, tuyg`ularimizdagi to`lqinlarni so`zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to`lqinlarni yaratmoqdir"— degan edi ulug` ma`rifatparvar adib Abdurauf Fitrat. Haqiqatan ham adabiyot muallifning o`y-fikrlari, dunyoqarashi va ko`ngil kechinmalarini kitobxonga, uning qalbiga yetkazib beruvchi buyuk kuchdir.

ASOSIY QISM

Adabiyotimizda har bir davr va har bir ijodkorning o`z yo`li, usuli va g`oyalari bor. Ular bir-birini takrorlamaydi, aksincha, to`ldirib, boyitib boradi. Xuddi shu kabi ma`rifatchilik ya`ni jadid adabiyoti ham boshqa davrlar adabiyotidan o`zining mazmun-mohiyati va g`oyalari bilan ajralib turadi.. Millatni uyg`otish, ommani ma`rifatli qilish, yurtni ozod va obod etish jadid adabiyotining bosh maqsadi bo`lgan. Aynan shu g`oyalar tarannumini Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon ijodida ham yaqqol ko`rishimiz mumkin. Cho`lpon bir vaqtning o`zida shoir, nosir, dramaturg,

adabiy tanqidchi, tarjimon va o'z davrining ziyoli insoni bo'lgan. Yurtimizda Cho'lpon she'rlari, asarlari kirib bormagan biror bir xonadon bo'lmasa kerak. Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o'ynagan bo'lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik qimmatga ega. U maqolalarida adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan boyitishga, Sharq va G'arbning bebaho tajribasini yangi o'zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan. Cho'lponshunos olim N.Yo'ldoshevning ma'lumot berishicha, Cho'lponning adabiy-tanqidiy maqolalari soni 63 dan ortiq bo'lgan. Cho'lpon adabiy-tanqidiy faoliyatini ancha erta, ya'ni 16 yoshida boshlaydi. Uning birinchi tanqidiy asari «Adabiyot nadur?» maqolasi bo'lib, «Sadoi Turkiston» gazetasida 1914 yil 4-iyun kuni e'lon qilingan. Maqolada adabiyotning asl ma'nosi, maqsad va vazifalari to'g'risida so'z borib, shoir yashagan davr muhitida adabiyotga bo'lgan munosabat ham ko'rsatib berilgan. Suv va havo tanamiz uchun doimiy zarurat bo'lganidek, ruhiyatimiz ozuqasi uchun adabiyot ham shunchalik muhim va zarurligi aytib o'tilgan. Biz tez-tez tilga oladigan «Adabiyot yashasa – -millat yashar» maqoladan o'rin olgan ta'sirli fikrlardanidir.

«Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, 'ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'lur» -deyiladi maqolada.

«Adabiyot nadur? «dan keyin yozilgan va «Sadoi Turkiston» gazetasining 1915 yil 6 fevral sonida chop etilgan «Muhtaram yozg'uv chilarimizga» degan murojaatnomasida yozuvchilarni xalq ichiga kirishga, ular bilan hamnafas bo'lishga chaqiradi. Bundan ko'zlangan maqsad asarlarning yanada xalqchil bo'lishini ta'minlashdan iborat. «Ulug' hindi» maqolasida buyuk hind ijodkori Robindranat Tagor ijodiga yuqori baho berilib, unga «Sharq va g'arb o'rtasidagi oltin ko'prik» -deya yuksak ta'rif beriladi.

Mustaqillik yillarida Cho'lpon ijodiga bo'lgan e'tibor yanada ortdi. Cho'lpon asarlari ommaga qayta taqdim qilinayotgan pallada Ozod Sharafiddinov taqdimso'z, so'zboshilar yozdi. Cho'lpon ijodini yangicha tamoyillar asosida o'rganish natijalari sifatida «Cho'lpon», «Cho'lponni anglash» kitoblari, «Adabiyot yashasa – -millat yashar» tadqiqoti yuzaga keldi.

XULOSA

Har qanday jamiyatning taqdiri unda yashaydigan insonlar tomonidan belgilanadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylangan. Ularni har tomonlama barkamol, sog'lom fikrli, o'z shaxsiy fikri va dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashda adabiyotning o'rni va ahamiyati beqiyos. Cho'lpon adabiy-tanqidiy maqolalari ham adabiyotning asl ma'no-mazmuni, maqsadi va yozuvchilarga qo'yiladigan talablarni o'zida aks ettiradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu maqolalarni o'rganish, tahlil etish va adabiyotimizda, adabiy tanqidchiligimizda buni qo'llash va dasturulamal qilish burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhamid Cho'lpon “Adabiyot nadur?” maqolasi
2. Ozod Sharafiddinov “Tanlangan asrlar to'plami” Toshkent–2019[347,352]
3. Q. Husanboyeva, R.Niyozmetova “Adabiyot o'qitish metodikasi”
4. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

INFORMATION SYSTEM, THE IMPORTANCE OF INFORMATION IN MANAGEMENT AND ITS CLASSIFICATION

Sultanov Shokhjakhon Rakhmon oglu

Namangan Institute of Engineering Technology Management student

Annotation: This article discusses the information system and its concept, the role of information flow in management, and the classification of information according to its characteristics.

Keywords: Information, feedback, category.

Information is the main tool of any industry, and the more valuable information an organization or enterprise is provided with, the higher its hand in a competitive war.

“Information is a collection of information and messages, the content of which has elements of novelty and is essential for solving management tasks. without reliable and necessary information, management is impossible. Information is the basis of governance.”[1]

The management team is constantly receiving information on internal and external news. On the basis of incoming messages, the governing body develops decisions and orders, sends them to the executive body and monitors their implementation. Continuous provision of internal information in the management system is very important. Examples of internal information are:

- supply of raw materials to jobs;
- smooth operation of equipment and technology;
- fulfillment of daily, monthly, annual plans by employees;
- quantity and quality of finished products;

External information also has a significant impact on the activities of organizations and enterprises. Here are some of them:

- Decisions, orders and directives from higher authorities;

- consumer demand;
- Competitive enterprises;
- market situation and volatility;
- public policy.

Not all the messages and information you come across in the management system are important. Each piece of information should be considered and decided only after certain checks. The information must meet the following requirements:

- reliability;
- clear, unambiguous;
- speed;
- completeness;
- economy. ”[2]

In today's world of globalization, choosing the most appropriate from the myriad and chaotic information, assessing the situation correctly, making quick decisions and using resources efficiently is a process that is required of today's modern managers. The fact that the governing body is developed in a clear and understandable way, taking into account that not all employees have the same ability to think and understand in making each decision, will contribute to the speedy and quality implementation of decisions. Prompt analysis of incoming messages and timely transmission to the managed link ensures business continuity.

Elimination of adverse deviations due to internal or external influences depends on the timely receipt of the information provided and its compliance with the above requirements. Lack or oversupply of information hinders the decision-making process. The orderliness and consistency of information also depends on the organizational structure of the organization or enterprise. Employees and deputies of the leader should work in such a way that they do not address the leader with excessive and useless information. If possible, they should assess the situation themselves.

Feedback also plays an important role in the proper functioning of the management system. Feedback is the information provided by the governing body to the governing body based on the results of decisions and orders. It is important that the

feedback is accurate and clear. As mentioned above, not everyone has the same ability to perceive. If the governing body does not fully understand the decision or order and continues to work, it will not be as effective as expected.

“Feedback is the basis of feedback or exposure to what one hears, reads or sees. In this case, the person who received the information expresses his attitude to the information, whether he understands or does not fully understand, supports or denies the person who sent the information. Such communication is necessary to know how well both parties understand each other.”[3]

As the scope of an enterprise or organization expands, so does the amount of information. This makes it difficult to receive, process and transmit information. For this reason, dividing information into types and groups according to their specific characteristics, i.e., classification or classification, helps to eliminate or alleviate these difficulties. The information is categorized as follows:

1. Simple system.
2. Complex system.
3. Mixed information system.
4. Information system.
5. Tracking information system.
6. Information system.

The manager should not assume that all employees are treated equally and should state decisions and orders in as simple a language as possible. It will also be one of the best reforms of the leader to strengthen the feedback and establish better communication channels. One of the most important things a leader needs to do is to build a good organizational structure. Placing employees in the right place based on their strengths and interests will help maximize the effectiveness of the enterprise or organization.

References:

1. [1] [3] Abdurahmonov Q..H., Kholmominov Sh.R., Zokirova N.Q. Personnel management. Textbook. - "Teacher", 2008.
2. [2] Mahmudov I.I. Management psychology. - T., 2006.
3. www.uz.wikipedia.org

BADIIY ASARDA ODAM OBRAZI HAQIDA ILK QARASHLAR
("QISASI RABG‘UZIY " ASARI ASOSIDA)

Shokirova Gulhayo Bobir qizi

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Odam xilqati haqidagi ilk o‘ziga xos qarashlar va ularning adabiyotda ifodalanishi. Shuning bilan birga bu boradagi fikrlarning diniy asoslar asosida ifodalanishi, xususiyatlari , fe'l-atvori, yashash tarzi haqidagi adabiy faktlarning XIV asrda ifodalanganligi.

Kalit so‘zlar: Tuproq, qalampirmunchoq , sunbul, xinr, o‘sma, it, qo‘y, bug‘doy, qo‘y.

Adabiyot paydo bo‘lganidan buyon mana bir necha ming yillar o‘tibdiki, adiblar asarlar, so‘nmas badiiy namunalar yaratmoqdalar. Bu asarlarda bosh g‘oya inson obrazi turadi , yoki uning xususiyatlari, xarakteri, dunyoqarashi ham bo‘lishi mumkin. Chunki badiiy adabiyot inson uchun , uning kelajagi uchun tayanch vazifasini o‘taydi.Ko‘pchilik badiiy asarlarda inson yetakchilik qiladi va bu obrazning asarda kelishi komillik bilan bog‘liq. Insoniyat haqida, payg‘ambarlar tarixi haqida ilk qarashlardan biri Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning "Qisasi Rabg‘uziy" asaridir.

Bu asar adabiyotning eng go‘zal namunalaridan biri bo‘lib , bunda olamlarning ibtidosidan boshlab to so‘nggi payg‘ambargacha bo‘lgan davr go‘zal adabiy qarashlar, isbotlar bilan birga badiiy ifodalangan . Asar bevosita Qur‘oni karim oyatlari, hadisi sharif va bir qancha manbalar asosida yaratilgan . Asarning badiiy qimmati va o‘ziga xos jihati undagi badiiylikning asosiy tafsilotlar bilan boyitilib, har bir fikr sharhlanib berilganidadir.

Bu asarda insoniyat haqidagi go‘zal qarashlar mujassamlashgan. Olamning , yerning yaratilishi haqida fikr yuritilar ekan , insonning kamtarin bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Navoiy asarlarida ham biz bu kabi ifodalarni uchratishimiz mumkin. Butun

bashariyat yer yuzida turlicha tarqalganligi haqidagi qarashlar asarda tuproqning tarkibi orqali chiroyli tamsillangan bo‘lib , shuning uchun insonlar ham turlicha , ya'ni kimdir oq, kimdir qora , kimdir pok, kimdir nopok, kimdir xasis, kimdir saxiy deb xarakterlanadi.

Alloh taolo yer yuziga Odam bilan Havoni ayro holatda tushirgandan keyin ular ayriliqda yig‘lashadi. Shunda Momo Havoning ko‘z yoshlaridan qalampirmunchoq, sunbul , xino, o‘sma kabilar o‘sib chiqishi aytiladi. Bu ifoda bevosita ayol zotininig fe'l-atvori bilan bog‘liq bo‘lib , ayol-qizlarning munchoq-u taqinchoqqa o‘chligi go‘zal badiiy tasvirlangan . Asarda inson tajallisining fe'l-atvori yon atrof bilan hamisha bog‘liqligi ifodalangan.

Insonning halol rizq-nasiba topishi, mehnat qilishi kerakligi, azob-uqu-batlarda toblanishi Odam Ato va Momo Havoning bug‘doy ekib, yerda dehqonchilik qilishlari bilan gavdalanitirilgan . Bugun ham ko‘plab asarlarda halol mehnat qilish va uning mashaqqatli jihatlari tasvirlanadi. Misol sifatida , " Mashaqqatlar girdobi " romanini oladigan bo‘lsak , halol non topish uchun insonlarning og‘ir sharoitda mehnat qilishi tasvirlangan. Ovchilik haqida qarashlar ham asarda ta'kidlab o‘tilgan bo‘lib , bugun lazzatli bo‘lgan qirg‘ovul go‘shiti burgutga zidlanib tasvirlanga va burgut go‘shiting iste'mol qilib bo‘lmasligi asarda dalillangan. Ovchilik va chorvachilikning insoniyat mehnat faoliyatidan biri ekanligini adib asarida uchratishimiz va qo‘yning barakali jonzot ekanligini, itning nima uchun do‘st ekanligi obrazlantirilgan. Iblis barcha mavjudotni insonga qarshi qayraganda Odam itning boshini silashi va uning qadim zamondan do‘stligi asarda aytib o‘tiladi.

Insonlar orasida och- nahor , kambag‘al , to‘q kabilar bor bo‘lib Rabg‘uziy o‘z asarida bu holatni ham go‘zal ifodalaydi. "Agar Havo o‘ziga atalgan ulushning hammasini yeganda edi , qiyomatgacha yer yuzida och-nahor, kambag‘allar bo‘lmas edi" -deb aytadi. Va shu o‘rinda ayollarga xos noziklik , nafosat ham ifodalangan, ya'ni ayollar erkaklarga nisbatan kam taomlanishlar ham ta'kidlab o‘tilgan. Badiiy adabiyot hamisha dindand, dunyo haqiqatlaridan, olamdan ilhom olib yaratilar ekan, inson obrazi haqidagi qarashlar yanada chuqurroq tahlil qilib boriladi. Nafs va qanoat, haqiqat va

yolgʻon, yaxshilik va yomonlik kabi dualistik tushunchalar inson xarakterini yanada chuqurroq tahlil qilishga hamda mulohaza yuritishga koʻmaklashadi.

Insoniyat va uning xarakterlari "Qisasi Rabgʻuziy" asarining har qissasida yanada koʻproq ochib boriladi. Shuni taʼkidlash joizki , bu asar adabiyotimizdagi odam va uning xislatlarini goʻzal dalillar va timsollar orqali ifodalagan asarlarning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiruddin Rabgʻuziy "Qisasi Rabgʻuziy" asari 1990- yil
2. R. Vohidov, H. Eshonqulov "Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi" 2006-yil
3. "Oʻzbek adabiyoti tarixi" 1-kitob



UDK:631.624:621.319.44:621.3.016.24:621.3.016.25(575.111)

**NASOS STANSIYALARIDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDA
KOMPENSASIYALOVCHI QURILMALARDAN FOYDALANISH**

Turdibayev Abduvali Abdujalolovich

(PhD)“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Xudaynazarov Anvar Panji o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootidani nasos agregatlarining elektr energiyasi iste'molining tahlili keltirilgan bo'lib, kuzatishlar asosida nasos stansiyasidagi elektr iste'molchilarning aktiv quvvat koeffitsientining pastligi aniqlangan. Reaktiv energiyani kompensatsiya qilish uchun kondensator batareyalarini o'rnatish orqali elektr uskunalarni ekspluatatsiya sharoitlarini yaxshilash va elektr energiyasini tejash bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Elektr energiya isroflari, aktiv quvvat, reaktiv quvvat, to'la quvvat, quvvat koeffitsiyenti, kompensatsiyalovchi qurilma, kondensator batareyalari, texnik isrof.

Yoqilg'i-energetika resurslarini tejash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, Respublikamizning barcha tarmoqlarida ushbu resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish hamda iqtisod qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalariga qarashli nasos stansiyalarda 2015-2025 yillar davomida elektr energiyasini tejaydigan va unumli foydalanishga hizmat qiladigan elektrotexnik qurilmalarini o'rnatish bo'yicha dastur ishlab chiqilib, tasdiqlangan.


Tasdiqlangan dasturga asosan nasos stansiyalarga reaktiv quvvatni kompensatsiya qiluvchi kondensator qurilmalari, zamonaviy energotejamkor uskunalarni o'rtish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Ayniqsa, elektr ta'minoti tizimida aktiv va reaktiv quvvatni iste'mol qiladigan asinxron dvigatellar bilan jixozlangan nasos stansiyalarida ushbu masala dolzarb muammolar qatorida qabul qilinishi mumkin. Ushbu muammolarga yechim topish esa, nasos stansiyalarida nasos qurilmalaridan samarali foydalanish, avariya xolatlarini imkon qadar kamaytirish, uskunalarning xizmat muddatini oshirish, aktiv va reaktiv energiya sarfi tejamkorligiga erishish kabi masalalar muhim hisoblanadi.


Suv xo'jaligi tizimlarida, ayniqsa asosiy elektr energiya istemolchilari bo'lgan yirik nasos stansiyalari elektr tarmoqlarida energiya tejamkorligiga erishish chora tadbirlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish nixoyatda dolzarb bo'lgan energiya tejamkor masalalardan biri hisoblanadi.

Elektr tarmoqlarda elektr energiya isroflari miqdori asosan elektr iste'molchilarning energetik ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Yuqori foydali ish koeffitsent va aktiv quvvat koeffitsentlari elektr energiya isroflarini minimal, texnik isroflar darajasida bo'lishini ta'minlaydi. Texnik isroflar o'z navbatida tarmoq elementlarining qarshiligi va yuklanishiga proporsional bo'ladi. Mavjud elektr motorlarning ko'pchiligi eskirganligi va kapital ta'mirlanganligi ularning pasport kattaliklaridan ma'lum bir o'zgarishlariga olib kelishi mumkin. Ekspluatatsiya davrida elektr ta'minoti tizimi elementlari va elektr iste'molchilarda energetik ko'rsatkichlar, ayniqsa aktiv quvvat koeffitsiyentini nazorat qilib turilishi muhim tadbirlardan hisoblanadi.


Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, aktiv va reaktiv quvvatni xarakterlovchi kattaliklar, ya'ni aktiv va reaktiv quvvat koeffitsiyentlari ($\cos\varphi$, $\text{tg}\varphi$) haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va elektr energiyasi uchun haq to'lashda hisoblarni to'g'ri olib borishda kerakli ma'lumotlarni o'rganish maqsadida Qibray suv ta'minoti bo'limi Qibray Markaziy suv inshootida o'rnatilgan elektr motorlarning elektr energiyasi ist'emoli o'rganildi. 1-rasmda Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootida o'rnatilgan elektr qurilmalarning elektr hisoblagichlar ko'rsatkichlari bo'yicha olingan elektr energiyasining iste'moli keltirilgan.



1-rasm. Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootining 2021-yil davomida elektr energiyasi iste'moli. (Elektr hisoblagich bo'yicha)



2-rasm. Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootining 2021-yil davomida elektr energiyasi iste'moli hajmi. (Transformator va tarmoqdagi yo'qotishlar)



3-rasm. Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootining 2021-yil davomida elektr energiyasi ning umumiy sarfi.

Olib borilgan kuzatish natijalaridan shuni aniqladikki Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootidagi nasos agregatlaridaga elektr motorlarning pik yuklama vaqtidagi to'la quvvat iste'moli $S=71710$ kVA ni tashkil etmoqda. Bu xolatda quvvat koeffitsenti ($\cos\phi$) ning qiymati talab qilinadigan miqdoridan ($\cos\phi=0,94$) pastligini ko'rsatadi. Bu transformator va tarmoqlarning ortiqcha yuklanishiga va elektr energiyasining sarfiga olib keladi. 1-jadvalda Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootining 2021-yil davomida elektr energiyasining umumiy yo'qotishlari keltirilgan.

1-jadval

Qibray suv ta'minoti bo'limi Markaziy suv inshootining 2021-yil davomida elektr energiyasining umumiy yo'qotishlari

№	Oylar	Xisoblagichdagi sarf		Yo'qotishlar			Umumiy sarf	
		Aktiv	Reaktiv	Tarmoqd a	Transformatorida		Aktiv	Reaktiv v
					Aktiv	Reaktiv		
1	Yanvar	53940	17160	43	584	1064	54567	18224

2	Fevral	44880	19800	35	584	1064	45499	20864
3	Mart	46800	20040	37	584	1064	47421	21104
4	Aprel	47580	21720	38	584	1064	48202	22784
5	May	52620	24060	42	584	1064	53246	25124
6	Iyun	41100	18420	32	584	1064	41716	19484
7	Iyul	65460	29280	52	584	1064	66096	30344
8	Avgust	48120	21960	38	584	1064	48742	23024
9	Sentyabr	45060	18060	36	584	1064	45680	19124
10	Oktyabr	54960	27120	44	584	4064	55588	31184
11	Noyabr	51360	23580	41	584	1064	51985	24644
12	Dekabr	46020	20760	37	584	1064	46641	21824
	Jami:	597900	261960	475	7008	15768	605383	277728

Nasos stansiyalari va suv xo‘jaligi elektr ta‘minoti tarmoqlarida elektr energiya sarflarini kamaytirish usullaridan biri bu reaktiv quvvatni kompensiyalovchi qurilmalarni qo‘llash xisoblanadi. Nasos stansiyalaridagi 0,4 6;10 kVli elektr tarmoqlarda kompensatsiyalovchi qurilmalar, xususan kondensator batareyalarini qo‘llash yuqori samara berishi mumkin.

Nasos stansiyalarida elektr motorlar, ayniqsa asinxron motorlarning bo‘lishi ushbu tizimdagi aktiv quvvat koeffitsiyentini past bo‘lishiga olib keladi. $\cos\varphi$ ni oshirish uchun kompensatsiyalovchi qurilmalar komplekti transformatorning iste‘molchilar ulanadigan past kuchlanish shinalari (shkaflari)ga ulanadi. Kondensator batareyalarini ulanishi 0,4 kVli tarmoqlarda yiliga har bir kVAr kompensator quvvatiga 450 kVt s gacha elektr energiya tejab qolish imkonini beradi.

Kompensatsiyalovchi kondensator batareyalarini ulash uchun tarmoq ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi. Tarmoqning ekvivalent qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:[1]

$$R_{\text{ЭKB}} = \frac{\Delta P U_{nk}^2}{P_h (1 + tg^2 \varphi)} \cdot 100 \quad (1)$$

bu yerda: U_n - tarmoqning nominal kuchlanishi kV

P_h - yuklama quvvati, kVt

$tg\varphi$ - yuklamaning reaktiv quvvat koeffitsiyenti

ΔP_k - doimiy koeffitsiyent, suv xo'jaligi elektr tarmoqlari uchun $\Delta P_k = 76\%$

bo'ladi.

Nasos stansiyadagi reaktiv quvvat quyidagi ifoda orqali aniqlaniladi.

$$Q_1 = P \cdot tg\varphi \quad (2)$$

Kompensatsiyalovchi qurilmalar miqdori qishki va yozgi mavsumlar uchun alohida olinadi. Kompensatsiyalovchi qurilmalar yana tarmoqdagi elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarining samarali darajada bo'lishini ta'minlaydilar. Nasos stansiyalarida, elektr motorlar ishlab turgan elektr tarmoqlarda aktiv quvvat koeffitsiyenti 0,85 atrofida bo'ladi. Uni 0,92...0,95 gacha ko'tarish mumkin, buning uchun kompensatsiyalovchi kondensator qurilmalar ishlatiladi. U holda elektr tarmoqlar va ta'minlovchi transformatorlarda yuklama isroflari ham kamayadi. Kompensatsiyalovchi kondensator batareyalarning zarur quvvati iste'molchilarning aktiv quvvatidan kelib chiqib aniqlanadi.

$$Q_{kb} = P_{ist}(tg\varphi_2 - tg\varphi_1) \quad (3)$$

Bu yerda P_{ist} tarmoqdagi iste'molchining aktiv quvvati.

$tg\varphi_2, tg\varphi_1$ - haqiqiy va optimal reaktiv quvvat koeffitsiyentlari.

Kompensatsiyalovchi qurilmalar quvvati energosistemaning maksimal va minimal yuklama rejimlarida iste'molchilarning reaktiv quvvati miqdorlari uchun, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Elektr ta'minlovchi korxonalar energotarmoqning rejimlar xizmatining optimallashtirish xisoblari asosida kompensatsiyalovchi qurilmalar quvvatini aniqlaydi. Bu yerda kompensatsiyalovchi qurilmalarning optimal quvvatini tanlashda sistemaning shu rejimiga mos keluvchi reaktiv quvvat Q_{el} olinadi. esa sistemaning maksimal yuklanishlari rejimiga to'g'ri keladi.

Kompensatsiyalovchi qurilma quvvati quyidagi ifoda orqali aniqlaniladi.

$$Q_{\Sigma K} = Q_{\Sigma istemol} - Q_{ei} \quad (4)$$

Bu yerda: $Q_{\Sigma istemol}$ - tarmoqdagi iste'molchilarning tarmoq maksimal yuklamasidagi reaktiv quvvatlari yig'indisi .

Keltirilgan natijalar asosiy mezon bo'lsa uning miqdori uch qismdan iborat bo'ladi.

1 Kompensatsiyalovchi qurilma uchun zarur kapital mablag'lar, kapital sarf xarajatlari.

2 Kompensatsiyalovchi qurilmalardagi quvvat isroflari xarajatlari.

3 Elektr uzatish tarmog'idagi isroflar.

Xisoblarni soddalashtirish uchun kapital mablag'lardan ajratmalar miqdorini kompensatsiyalovchi qurilma quvvatini taqsimlashga bog'liq emas deb qabul qilamiz. Ya'ni kompensatsiyalovchi qurilma quvvatini iste'molchilararo taqsimlanishining o'zgarishlari uning tannarxiga ta'sir etadi. Kompensatsiyalovchi qurilmadagi quvvat isroflari ham bunda o'zgarishsiz qoladi.

Faqatgina tarmoqdagi energiya isroflari miqdori kompensatsiyalovchi qurilmalarning xar bir iste'molchi uchun optimal quvvatini tanlashda asosiy mezon bo'lib qoladi. Ma'lumki, quvvat isroflari ikki tashkil etuvchidan iborat bo'ladi:

$$\Delta P_{\Sigma} = \Delta P_A + \Delta P_p \quad (5)$$

bu yerda ΔP_a - aktiv quvvatni uzatishdagi aktiv quvvat isroflari,

$$\Delta P_a = \frac{Q^2}{U^2} \cdot R \quad (6)$$

ΔP_p - reaktiv quvvat mavjudligi uchun tarmoqda bo'layotgan aktiv quvvat isroflari.

$$\Delta P_p = \frac{Q^2}{U^2} \cdot R \quad (7)$$

Kompensatsiyalovchi qurilma quvvatini aniqlashda reaktiv quvvatlarni uzatishda bo'layotgan energiya isroflari xisobga olinadi. (R_a xisobga olinmaydi)

Ko'rilayotgan tarmoq uchun:

$$\Delta P_p = \frac{1}{U^2} [(Q_1 - Q_{KB1})^2 R_1 + (Q_2 - Q_{KB2})^2 R_2 + (Q_3 - Q_{KB3})^2 R_3] \quad (8)$$

Kompensatsiyalovchi qurilma quvvatini iste'molchilari tarmog'iga optimal taqsimlanishini aniqlash uchun oxirgi (8) ifodani Q_{ky} bo'yicha diffirensialaymiz va ularning qiymatlari 0 ga tenglaymiz.

$$\frac{\partial \Delta P}{\partial Q_{KB1}} = 0; \quad \frac{\partial \Delta P}{\partial Q_{KB2}} = 0; \quad \frac{\partial \Delta P}{\partial Q_{KB3}} = 0.. \quad (9)$$

Diffirensiallab va tegishli o'zgarishlardan so'ng quyidagilarga ega bo'lamiz.

$$R_1(Q_1 - Q_{KB1}) = R_2(Q_2 - Q_{KB2}) = R_3(Q_3 - Q_{KB3}) \quad (10)$$

6 va 9 ifodalarini birgalikda yechib Q_{KB163} miqdorlarni aniqlaymiz.

Agar Q_{KB1}, \dots, Q_{KB3} lardan birortasi miqdori 0 ga yaqin yoki manfiy chiqsa, shu tarmoqdagi iste'molchiga kompensatsiyalovchi qurilma o'rnatish iqtisodiy nuqtai nazardan to'g'ri emas samarali bo'lmaydi.

Xulosa

1. Olib borilgan izlanishlarda nasos stansiyalaridagi aktiv quvvat koeffitsiyenti ($\cos\phi$) ning kattaligini oshirish uchun elektr tarmog'iga kompensator qurilmalari yoki kondensator batareyalarini o'rnatish zarurligini ko'rsatadi. Kompensatsiyalovchi kondensator qurilmalarini o'rnatishda tavsiya qilingan hisoblash usullari va ifodalaridan foydalanish nasos stansiyalarida aktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilmalarni samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

2. Aktiv quvvat koeffitsiyenti qiymatining ko'tarilishi, nasos agregatlardan foydalanish samaradorligini oshiradi, uskunalarning zo'riqish va ortiqcha yuklanish ostida ishlashini yo'qotadi shuning uchun kompensatsiyalovchi qurilmalarni yanada kengroq joriy etish zarur. Bunda yana kompensatsiyalovchi qurilmalarni keyigi davrda elektr uskuna ishonchliligi ortadi, avariya holatlari kamayadi, elektr energiyasi tejaladi, ehtiyot qismlar va boshqa shunga o'xshash xarajatlar kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 noyabrdagi Respublika suv ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi PQ-4536-son qarori. Qonun

hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2019 y., 07/19/4536/4073-son; 26.09.2020 y., 06/20/6074/1322-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 maydagi 2017 — 2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida PQ-3012-son qarori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 22-son.

3. Nasos stansiyalarida o'rnatilgan elektr uskunalarni kafolatli ishlashini oshirish samarali ekspluatatsiya qilish hamda elektr energiyasini tejash bo'yicha qo'llanma ishlab, chiqish mavzusidagi xo'jalik shartnomasi bo'yicha yillik xisobot. Toshkent. TIMI 2011y. 74 bet.

4. Muxammadiyev A., Mamajonov M.M., Majidov T.Sh va boshqalar “Gidromashinalar” Toshkent - 2008y 115 bet.

5. Jelezko Yu.S. Kompensatsiya reaktivney moshnosti v elektricheskix sistemax M.Energoizdat. 1991 g. 274s.

6. Radjabov A., Ibragimov M., Berdishev A. Energiya tejamkorlik asoslari. O'quv qo'llanma.- T.: ToshDAU, 2009 y. 168 b.

7. Detlef Lucius. Planning of Electric Power Distribution. Technical Principles. Siemens AG. Germany. 2015.

8. Williams T Armstrong 2000, ‘EMC for Systems and Installations’, Newnes ISBN 0-7506-4167-3

9. Toshpo'latov N.T “Elektr tizimlarini loyixalash” o'quv qo'llanma- T.: TIMI, 2013-y, 322b.

10. A.Ya.Zmeyev Proyektirovaniye sistem elektrifikatsii: [uchebnoye posobiye dlya vuzov po spetsialnosti "Elektrifikatsiya i avtomatizatsiya selskogo xozyaystva". SGAU, 2010. 151

11. Allayev K.R. Energetika mira i Uzbekistana, – T.: Moliya, 2007. 388s.

12. A.Berdishev, O'.Xaliqnazarov. O.Matchanov “Ishchi kasbni egallash” fanidan o'quv qo'llanma TIQXMMI 2019 y. 24-28 b.

13. I.D. Tashev, T.M. Bayzakov, A.S.Berdishev. Suv xo'jaligida elektr ta'minot – T.: TIMI, 2008y.

YUKSAK MA`NAVIYATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

Xojiboyev Ahmadjon Abdulhoshim o`g`li

Namangan Muhandislik – Qurulish instituti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda qator sharq allomalarining boy ilmiy me`rosidagi – inson kamoloti bilan bog`lik masalalar, ko`plab dalillarga tayanib, ularning shu kunlardagi tarbiyaviy ahamiyati, zamonaviylik tamoyillariga tayanib tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: ma`naviylik, falsafiylik, barkamollik, taraqqiyot, tashabbuskorlik, barqarorlik, ezgulik, adolatlilik, donishmandlik, salohiyat.

Buyuk ajdodlarmizning ibratli hayot yo`llari va boy ilmiy – ma`naviy me`roslarini har tomonlama chuqur o`rganib, keng xalq ommasiga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Istiqlol yillarida bu muhim va dolzarb masalalar bo`yicha e`tiborga molik ko`plab salmoqli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

O`zbek xalqining ma`naviy dunyosining shakllanishiga g`oyat kuchli va samarali ta`sir ko`rsatgan ulug` zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo`tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so`z yuritamiz. Marhum birinchi prezidentimiz I.A. Karimov o`zlarining “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarlarida Alisher Navoiyga “Agar bu ulug` zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkuri, shoir desak shoirlarning sulтони” deb ta`kidlab o`tganlar.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g`ururi, shonu – sharafini dunyoga tarannum qilgan o`lmas so`z

sanatkoridir. Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron – bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat bilan qaramasa.

Alisher Navoiy o’z asarlarida insonni ikki olamning sarvari, Allohning dunyoni yaratishdan ko’zlagan oliy maqsadi yanglig’ qalamga oldi. Shunday ekanmi, demak, inson umrini ezguliklarga intilib o’tkazishi kerak.

Allohning undan kutgani – shu. Demak, shunday g’oyalarni tarannum etgan buyuk qalb egasining o’z hayotida ham mazkur aqidalarga mos ishlar qilishi tabiiy edi. Adolatli va donishmand bir davlat arbobi sifatida Navoiy o’z davrining yirik shaxsiga aylandi. XV asr forsiy – turkiy madaniyatlar ravnaqida uning ulkan o’rni bor. Navoiy Xuroson davlatining ma’naviy homiysi edi. Fan va madaniyatning turli sohalari vakillari ana shu buyuk rahnamo atrofida uyushgandi. Zahiriddin Bobur ta’rifi bilan aytganda “Har kishingkim, bir ishga mashg’ullig’i bor edi, himmati va niyati ul edikim, ul ishni kamolga tegurgay”. Ilmu adab va hunar ahlining o’zini imkoni qadar yuksak darajalarda kamolga yetkazishda Navoiyning ham hissasi beqiyos bo’lgan.

Inson qalbining quvonchu qayg’usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek te’ran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan – kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg’usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho me’rosdan xalqimizni qanchalik bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topdirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo’ladi. IX – XII asrlar O’rta Osiyo xalqlarini tarixida moddiy ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo’ldi. Buyuk mutafakkir va olim al – Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir “Kitob al – jabr val muqobala” (To’ldirish va qarama – qarshi qo’yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo’di, “Hind arifmetikasi haqida kitob” asari tufayli avval Sharq xalqlari, so’ngra esa Yevropa xalqlari ham qadimiy Hindistonning katta yutug’i – o’nli pozitsiyani hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. Shuningdek, “quyosh soatlari to’g’risida risola”, “Tarix risolasi”, “Usturlob haqida

risola” singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Al – Fargʻoniy buyuk olim, astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni. U Bogʻdod va Damashqdagi rasadxona qurulishida faol qatnashdi va u yerda Ptolemeyning “Yulduzlar jadvali” dagi maʼlumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Ilm–fan – inson kamolotiga poydevor. Maʼrifat va maʼnaviyat esa barkamollik ustunidir. Zero, Qadim Sharqda taʼlim va tarbiya hech vaqt ayro yoki biri ikkinchisidan ustun baholanmagan. Bu esa dunyo tamadduniga tamal toshlarini qoʻygan, Imom Buxoriy, Xorazmiy, Imom Nasafiy, Fargʻoniy kabi ne – ne dovrugʻi dunyoga doston ulugʻ qomusiy allomalarning bebaho meʼrosida ham namoyon. Dunyoni oʻz ilmi bilan larzaga solgan hadis ilmining sultoni, betakror ilm sohibi Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriy “ Musulmonlarning eʼtiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor boʻlgan, kalom ilmining yetuk allomasi Imom Moturudiy, “Din va millatning hujjat” degan nom bilan ijod qilgan islom huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Margʻinoniy va shunga oʻxshash minglab aziz avliyo, olimu ulamo, fozilu fuzalolarni misol keltira olamiz.

Ikkinchi sharq uygʻongish davri – XIV – XVI asrlardagi ikkinchi “Temuriylar Renessansi”dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulugʻ saltanatning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi davrda jahonga “hali – hanuz oʻz taʼsirini oʻtkazayotgan Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi asoschisi”, qolaversa, tarixda ham oʻchmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, muzaffar sarkarda, mohir diplomat, jonkuyar ilm – fan homiysi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur asos solgan saltanat oʻziga xos salmoqli oʻringa egadir. “XV asr taqdirini belgilab bergan buyuk siymo” – Sohibqiron va uning vorislari Turkiston, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Arab dunyosida bir yarim asrga yaqin hukm surib, markazlashgan salohiyatli Turkiy davlat tashkil etgan.

“Turkistonning suyangan togʻlaridan biri” – Amir Temur asos solgan tamaddun XIV – XVI asrlar Turon tarixining “Oltin davri” – uygʻonish davrining alohida bosqichi “Musulmon - Renessansi”, “Sharq uygʻonishi”, “Temuriylar Renessansi” nomlari bilan jahonda eʼtirof etildi va tarixga abadiy muhrlandi. Mashhur fransuz olimi Lusyen Keren taʼkidlaganidek, “Yevropalik ijodkorlar, Amir Temurni Sharq Renessansining bunyodkori sifatida qadrlaydilar”. XV asrda bugun Sohibqiron Amir

Temur bobokalonimiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi uyg`onish, ya`ni ikkinchi renessans davrini boshlab bergan. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug`bek, G`iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy Sakkokiy, Xofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boburmirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar Mahmud Muzakkib, Kamoliddin Bexzod singari musavvirlar, ko`plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me`morlarning shuhrati dunyoga yoyilgan.

Amir Temur ilm – fan madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san`atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g`amxo`rlik ko`rsatgan. Bu oliy maqom siyosat natijasida Sharq uyg`onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

XIV – asrdagi ulkan va yorqin siymo – Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab – yashnagan davlat barpo etib, O`rta asr dunyosining asl madaniy va ma`naviy markazlaridan biriga aylangan, inson aqli va este`dodining noyob ijodi bo`lib, bugungi kunda ham saqlanib qolgan mislsiz me`moriy obidalari bilan yer yuzining sayqali sifatida e`tirof etiladigan Samarqand shahrining o`z saltanatining poytaxtiga aylantirgan atoqli sarkarda va davlat arbobidir. Dunyo ilm fanining rivojlanishiga o`zlarining yuksak ilm salohiyatlarini qo`shgan buyuk allomalar yurtida yashar ekanmiz, biz yoshlar buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o`rgangan holda ilm fanning rivojlanib, yanada taraqqiy etishi uchun o`z hissamizni qo`shmog`imiz darkor. Bizningcha yoshlar salohiyatiga mos, hujjatli tarixiy haqiqatni aks ettiruvchi ilmiy ma`rifiy ishlarni chop ettirishni yanada ko`paytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz yoshlarni ma`naviy kamoloti bugungi glabbalashuv davrida barcha masalaga yagona yechimdir. Zero, ajdodlarimiz ham ilm bilan najot topdilar, jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashdilar, ilmni najot bilib, barchani unga da`vat qildilar. Shunday ekan, oldimizda turgan eng asosiy vazifalardan biri – ulug` ajdodlarimizning boy ilmiy merosini sodda, tushunarli tarzda yozilgan kitoblar orqali aholi, xususan, yoshlarga yetkazishdir. Umuman, O`zbekiston ming yillar davomida Buyuk Ipak yo`lini muhim qismi bo`lgan. Bu yerda savdo – sotiq, ilm

– fan, madaniyat, ma’rifat markazlari hamisha taraqqiy etgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan diniy – ma’rifiy sohada shuningdek ilm – fan sohasida ham olib borilayotgan ezgu tashabbuslar ham tom ma’noda dunyo mamlakatlarida tinchlik, osoyishtalik, va barqarorlik hamda ma’rifat tarqatishning asosi bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. 2008 – yil 47 – 48 betlar.
2. “Yangi O`zbekiston” gazetasi. 2021 – yil 22 – Aprel. 20 (336) .
3. “Buyuk yurt allomalari”. Toshkent – 2016.
4. Muslim.uz sayti.
5. Xorazmiy.uz sayti.
6. “Hurriyat” gazetasi.



O`QISH DARSLARIDA O`QUVCHILARNING NUTQIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Hoshimova Mahliyoxon Asorbek qizi

Toshtemirova Ozodaxon Ikromali qizi

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi

201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarning nutqiy qobiliyatini shakllantirish ,o`quvchilarning nutqidagi turli xil kamchiliklarni aniqlash va shu kamchiliklarni bartaraf qilish usullari yoritilgan.

Kalit so`zlar: Nutqiy qobiliyat,nutq nuqsonlari,duduqlanish,logomassaj,nutqni rivojlantiruvchi didaktik o`yinlar.

Nutqiy qobiliyat-ixcham, ma`noli,ohangdor,muayyan ritm,temp,chastotaga ega bo`lgan nutq.Shuningdek, ta`lim beruvchi nutqining jarangdorligi,uning pauza,mantiqiy urg`uga rioya qilishi. Qobiliyatli ta`lim beruvchining nutqi mashg`ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo`ladi.Ta`lim beruvchi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma`qullayotgan yoki qoralayotgan bo`lsa ham uning nutqi hamisha o`zining ichki kuchi, ishonchi, o`zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining dars jarayonida ularning hissiy holatlari tufayli, ya`ni qo`rquv, uyalish, o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qligi, uni bildirgan fikriga tengdoshlari yoki o`qituvchisining salbiy munosabati kabi ayrim sabablar o`quvchilar nutqidagi kamchiliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Duduqlanish, to`xtab-to`xtab gapirish yoki dars jarayonida o`zining mustaqil fikrlarini atrofdagilarga yetkazib bera olmaslik kabi holatlar nutqdagi kamchiliklarga misol bo`ladi. O`quvchilarning nutqdagi bunday kamchiliklarini bartaraf qilishda o`qituvchilarning ro`li katta. Yosh bolalarda duduqlanishni davolashda oilaviy psixoterapiyaga ham diqqatni qaratish

kerak, bunda bolani ishonitirish, qo`llab-quvvatlash, hayolini chalg`itish, relaksiya muhimdir. Nutqida kamchiligi bor bolalarni tarbiyalashda ota-onalar, logoped mutaxassislar, psixolog va pedagoglar, tibbiyot hodimlari birgalikda harakat qilishlari kerak. Bunday bolalar hayotida stress holatlariga yo`l qo`ymaslik lozim.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish yo`llari:

1. Artikulsiya, nafas, mayda qo`l muskullarini rivojlantiruvchi mashqlar.
2. Logomassaj (nuqtali, bo`shashtiruvchi, tetiklashtiruvchi massaj).
3. Muammoli tovushni nutqqa qo`yish (taqlid va mexanik usulida).
4. Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o`yinlar.

Nutq o`stirish metodikasi, bu bo`lim boshlang`ich sinflarda alohida o`rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni, o`quv predmeti sifatida anglaydilar va ular xohlagan va qiziqarli narsalargina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o`ylab rejali nutq tuzish zaruriylikni ham tushuna boshlaydilar. Ular o`zining grafik shaklinigina emas, balki leksikasi sintaktik va morfologik shakli bilan ham og`zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi sintaktik va bog`lanishi nutqini o`stirishni ham taminlashi kerak. Shuni aytib o`tish kerakki, bog`lanishli nutq maktablarda alohida bo`lim sifatida o`rganilmaydi, u til fanining boshqa bo`limlari bilan bog`langan holda shakllantiriladi. Tilga sezgirlikni o`stirish tamoyili. Til juda murakkab hodisa, uning tuzilishi, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo`lsa-da, tilning qonunyatlarini, o`xshashliklarini o`zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo`lmaydi. Bola gaplashish, o`qish eshitish bilan til materiallarini yig`adi va uning qonunlarini o`zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik, til hodisalarini tushunish xususiyatlari shakllanadi. Mashxur rus olimi K.D.Ushiniskiy tadqiqotlari yuzasidan fikr yuritadigan bo`lak, bolalar maktabga kelganga qadar ham nutqning tovush qurilishi amaliy o`zlashtiriladi ammo ular maxsus o`iganlariga qadar so`zni bo`g`inlarga bo`lishni, so`zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida so`zni tog`ri talaffuz qilish, bog`inlarga bo`lish, undagi har bir tovushni tartib bilan aniq aytish ko`nikmasini shakllantirish ustida maqadga muvofiq ishlash, o`z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so`z tarkibida bir- biriga

ta'siri kabi ayrim elementlar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning nutqiy qobiliyatini shakllantirish uchun o'quvchilarni matnlar, hikoyalar va ertaklar bilan tanishtirish va ular ustida o'z fikrlarini bayon qilish kabi ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Misol uchun 4-sinf o'qish kitobiga nazar soladigan bo'lsak, undagi “Iqbol Buyuksan” she'riy parchasini ko'rib chiqamiz. Bunda avvalo o'qituvchi o'quvchilarga talaffuz me'yorlariga to'g'ri keladigan, turli xil shevalardan holi bo'lgan tarzda she'rni ifodali o'qib beradi va sekin-astalik bilan o'quvchilarning o'ziga o'qitira boshlaydi. She'rni o'qish davomida bir yoki ikki marotaba takrorlash biz ko'zlagan natijani bermaydi. Buning uchun har bir o'quvchi uch yoki to'rt marta, ba'zi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bundan ham ko'proq takrorlashi evaziga yaxshi samaraga erishadi. Endi she'rni ifodali o'qib bo'lgandan keyin she'rni yodlash bosqichiga o'tamiz. She'r yodlash jarayonida har bir o'quvchi “Ko'zguyim-o'zim” metodidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu metod she'rni oson yodlashga va bundan tashqari she'rni yodlab bo'lgandan keyin uni ommaga yetkazish jarayonida o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda, to'g'ri so'zlay olishda sezilarli natija beradi. Bundan tashqari matnlar va tez aytishlar bilan ham juda ham ko'p ishlashimiz zarur. Tez aytishlar bilan ko'p ishlashimiz matnlar tarkibida uchraydigan ba'zi bir qiyin so'zlarni oson va tez talaffuz qilishimizga yordam beradi. Buning natijasida o'quvchi matn o'qiyotganda yoki nutq so'zlayotganda hech qanday to'siqlarga uchramaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini shakllantirishga qaratilgan fikr –mulohazalar jamlanmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T., 19 sentyabr, 2005.

Surdopedagogika pod red. Nikitinoy M.I. M., Prosveshenie, 2002

Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995

Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001

ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Toshtemirova Ozodaxon Ikromaliyevna

Hoshimova Mahliyo Asrorbekovna

Andijon viloyati Andijon davlat universiteti, Pedagogika fakulteti Boshlang'ich
ta'lim 201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, innavatsion texnologiyalarni qo'llash, interaktiv metodlar tadbiq qilish, o'quvchi va o'qtuvchi o'rtasida erkin fikrlarni bayon qilishga targ'iboti haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogika, noananaviy dars, texnologiya, innovatsion metod, dars qo'llanmalari bilan ishlash.

Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning yuqori darajadagi talab qilinishi zarur bo'lgan vazifalaridan biridir. Har bir dars, har bir qo'shimcha mashg'ulot eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish bu ta'lim sifatida yangi bir pog'onani ochib beradi. Buning uchun esa, avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiyani bilish va anglash zarur. Bunda nimalar yuz beradi; dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni o'qitishda yangicha, zamonaviy talablarga mos yondashish, pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasining uslubyatini yangisiga almashtirish, zamonaviy talablarga javob bera oladigan innavatsion loyhalarni darslarga tadbiq etish asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi kunga kelib, an'anaviy darslardan cheklashgan holda ta'lim tizimiga noan'anaviy dars dasturini joriy etish va amalda yuqori darajada ko'rsatish bu ta'lim sifatini baland cho'qqiga olib chiqish uchun yana bir ildam qadam hisoblanadi. Noan'anviy darsda o'qitish jarayonida asosiy ro'l ijro etuvchi aktyor bu o'quvchi hisoblanadi. Buning afzalliklari o'qitish maqsadini mazmun mohiyatini

yaxshi o'zlashtirilishiga olib keladi, asosiy yo'nalishlari esa, o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish, fikrlarini jamlash, fanning asosiy tushunchalarini to'liq holda anglashi va bilimlarini amalyotga tadbiq qilish hisoblanadi. Noan'anaviy darslarni esa, interaktiv metodlar va o'yinlarsiz tasavvur qilish biroz qiyinroq. Dars jarayonini kuzatadigan bo'lsak murakkab mavzularni o'quvchilar shunchaki qoidalar va ma'lumotlar orqali qabul qilishi biroz qiyinroq hisoblanadi buni oldini olish maqsadida o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun interfaol o'yinlar metodidan foydalanish afzaldir. Tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, bu orqali o'quvchi ongida mantiqiy, mulohazali hamda tezkor tarzda o'ylash qobiliyatini ham to'la qonli shakllantiradi. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, uchinchi sinf ona tili darslarida mavzulashtirilgan So'z turkumlari bo'limida to'qqiz ta dars mavjud bo'lib, bularning barini noan'anaviy shaklda ko'rib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bo'limda: ot, otlarda ko'plik va birlik, ot yasovchi qo'shimchalar, sifat, sifat yasovchi qo'shimchalar, son, fe'l, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, fe'l yasovchi qo'shimchalar mavzusi mavjud bo'lib, bular orqali o'quvchilar so'z turkumlari bo'yicha bir muncha ma'lumotlarga ega bo'lib, ularning mazmun-mohiyatini anglashni va o'zaro farqlarini ajrata olish qobiliyatini shakllantiriladi. Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan, interfaol o'yinlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Bunda zamonaviy pedagog quydagi usullardan foydalanishi mumkin; Misol tarqasida oladigan bo'lsak, uchinchi sinf ona tili darsligining otlarda birlik va ko'plik mavzusini yoritish maqsadida biz “ Bu meniki” o'yinidan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda birlik va ko'plikda berilgan otlar jamlanmasidan tuzilgan matn ustida ishlanadi, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va birinchi guruh o'zining ko'plikdagi otlarni qolgan guruh birlikdagi otlarni ajratib yozadilar, bu albatta, o'quvchi nazorati ostiga olingan holda bo'ladi. Bu metoddan asosiy ko'zlangan maqsad o'quvchilarni birlikdagi va ko'plikdagi otlarni aniq ma'nosini anglashi uchun qulaylik yaratishdir. Agar xatolikka yo'l qo'ygan o'quvchilar bo'lsa, bu o'qituvchi tomonidan qayta pedagogik mahorat talqinida tushuntirishlar o'tkaziladi va g'olib bo'lgan jamoa taqdirlanadi. Bu ham o'yinlarning eng muhim belgisi hisoblanadi, axir natijasizlik beparvolikni chiqarishi ko'plab amaliyotlarda ko'rilgandir. O'quvchilar uchun yana bir qiyinchilik tug'diruvchi

mavzu bu atoqli va turdosh otlarni farqlash bo'lib, bularning har ikkisi ham kim so'rog'iga javob bo'lishi ularni biroz chalg'ishlariga olib kelishi mumkin. Shunda yuqorida ta'kidlangan metod, tasvirli ko'rgazmali qurollar ham samarali usul hisoblanadi. Bundan tashqari o'quvchilarda atoqli otlarni matn ichida topish uchun orfografik me'yor tushunchasini ham sodda tilda bosh harf bilan yozilishini tushuntirib o'tish ham o'rinli hisoblanadi va bu mavzularga yuqori sinflarda yana ko'plab qaytiladi. Yana bir omil zamonaviy pedagogdan ham yuqori bilim va malaka talab qilinadi. Fe'l bo'limi bo'yicha bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar mavzusida 333- mashq yuzasida ko'radigan bo'lsak,

Yozdi – yozmadi uxlayapti - saqlaydi -

O'qidi – o'qimadi chiqyapti - ishlaydi -

bu mashqda bo'lishlik bo'lishsizlik mavzusini yanada yorqinroq ochib berish maqsadida turli harakatli o'yinlardan foydalanish afzalroqdir. Mashqning sharti bo'yicha bo'lishli bo'lgan fe'llarni bo'lishsiz shalkga o'tkazish zarur. Bunda faqatgina –ma qo'shimchasi orqaligina yasalishi bilan birga uning mohiyati tushunilishi ham muhim. O'quvchilar shart bo'yicha bir ustunga bo'lishli ikkinchi ustunga ularning bo'lishsizini yozib chiqadilar va bularni harakat orqali ham bajaradilar. Misol uchun yozyapti so'zi o'qituvchi tarafidan aytilganda o'quvchilar bu harakatni bajaradi lekin o'qituvchi bo'lishsiz shakldagi fe'lni aytganda bu harakat to'xtatiladi, to'xtatmagan o'quvchi o'yindan chetlashtiriladi, va qunt bilan tinglanishi talab qilinadi. Bu o'yinda asosi ko'zlangan maqsad o'quvchilarini qoidalarni ko'r-ko'rona mazmunini anglamasdan yodlashdan cheklaydi. Buning natijasida o'quvchida bu mavzularni esda saqlab qolish ancha osonlashadi. Mana nega ta'lim tizimi noan'anaviy ta'lim tizimiga, zamonaviy pedagogik texnologiyalariga muhtojlik sezayotganini yana bir bor yaqqol dalillarini ko'rib o'tdik. Bulardan ko'rilgan asosiy maqsad shundaki, kelajak avlodni bilim salohiyatlik, barkamol shaxs sifatida yetuk kadrlar qilib tayyorlashdir. Yuqoridagi berib o'tilgan ma'lumotlar bari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning yuqori saviyasi haqidagi fiklar jamlanmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНОИТИВА. Academic research in educational sciences, (3).
2. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash. vazifasining qisqacha tavsifi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar. 13-14.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: "Туй" концепти ва унинг универсал табиати. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 54-60.
4. Shayxislamov, N. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATNING TALQINI. Scientific Progress, 1(1), 59-70.
5. Shayxislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics Linguoculturology. Мироявая наука, (8). 33-36.
6. Шайхисламов, Н. (2020). Укувчиларнинг нуткий компетенцияларни ривожлантиришда нуткнинг илмий-назарий изохи. Science and Education, 1(5).
7. Shayxislamov, N. (2020). Problems of sociolinguistics: status of the language. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, 3, 279-281.



O'QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXALOGIK MAXORATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yo'ldoshboy Masharipov

Ilmiy rahbar dotsent, Samarqand davlat universiteti,

Iskandar Maxmudov

magistrant, Samarqand davlat universiteti

Anatatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarning pedagogik maxoratini oshirish va pedagogik maxoratni tashkil etuvchi komponentlar va o'qituvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maxorat, faoliyat, komponent, axborot texnologiyalar, hozirjanoblik, intellektual.


Ayrim o'qituvchilarimiz pedagogik maxorat to'g'risida tushunchaga ega bo'lmaganligi sababli bu yunalish eskirgan. Ilmiy izlanishlar olib borish shart emas degan xulosaga keladilar. Lekin biz o'zimizning izlanishimiz, o'rganishimiz shuni tasdiqladiki o'qituvchining pedagogik maxorati asrlar davomida o'rganilib kelsa ham bundan keyin ham o'qituvchining pedagogik maxoratini shakillantirishning takomillashtirish uchun ilmiy izlanishlar olib boriladi va olib borilmoqda. Jumladan jismoniy madaniyat o'qituvchisining o'qituvchilik qobiliyati uning istidodi, loyaqatliligi asosida pedagogik maxorat shakillanadi. Jismoniy madaniyat o'qituvchisi talabalar bilan ilmiy - amaliy ishlashda ularning har xil sport faoliyatiga yo'naltirish

bilan birga, pedagogik ta'sir o'tkazishning ustasi bo'lishi va sport texnikasini mukammal egallashlari lozim. Pedagogik ta'sir o'tkazish mahorati faqatgina texnik usullarni egallashdan iborat emas. Jismoniy madaniyat o'qituvchisi va murabbiyning pedagogik mahorati, talabalar sport jamoalarining ijtimoiy fikriga keng yo'l ochib berishidan iboratdir.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbi malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrlashi hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qatt'iy irodasi tushuniladi”. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:[15]

PEDAGOGIK MAHORATNING TASHKIL ETUVCHI KOMPONENTLARI



Jismoniy madaniyat o'qituvchisining pedagogik mahorati - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati natijasida tashkil etadi. O'qituvchi bilan o'quvchining amaliy faoliyati bir - biri bilan yaqindan bog'langan, birlashgan va bu bilan bir - birini to'ldiradi. O'qituvchi o'quvchiga yaxshi jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazmay turib, yaxshi sport turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazmay turib, yaxshi mahoratli o'qituvchi bo'lishi mumkin emas.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va bunda o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini oshiradi. O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qollash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi. Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rangbarangligi o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. O'qituvchining har xil usulda o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning echimi bo'la oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik maxoratini rivojlantirishda yangi axborot texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, pedagogik-psixologik texnologiyalar talabalarda hozirjanoblikni tarbiyalaydi. Ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga, xamkorlikda ishlashga yordam beradi. Tashabbuskor bo'lishga, mustaqil fikrlashga undaydi. Zero, ta'lim tizimini isloh qilish asosiy maqsadimiz ekan axborot texnologiyalarni darslarimizga joriy etib borish, davr talabidir. Ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.[359]

-o'rganilishi kerak bo'lgan materialning bir qismini o'qituvchining o'rniga tushuntirib berishi;

-o'qituvchining tushuntirishini ekranda ko'rsatib berishi;

-o'rganilayotgan hodisaning, qonunning texnik jihatdan qo'llanilishi;

-mavzuga yakun yasashi;

-yangi mavzuga kirish vazifasini bajarishi;

-o'quv sayrlarini o'tkazishning iloji bo'lmasa, uning o'rnini bosishi mumkin.

Bundan tashqari:

1. mavzularni to'liq yoritib (video orqali jismoniy xarakatlar) berishga imkon yaratiladi;

2. darsda ko'rgazmalilik ta'minlanadi;
3. o'quvchilar mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o'rgatiladi;
4. darsda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ishlashiga zamin yaratiladi;
5. o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari tezkor nazarot qilinadi.
6. o'quvchining darsda faolligi oshiriladi va yuqori samaradorlikk erishish uchun imkon bo'ladi.

Xulosa.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining pedagogik mahorati - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati natijasida tashkil etadi. O'qituvchi bilan o'quvchining amaliy faoliyati bir - biri bilan yaqindan bog'langan, birlashgan va bu bilan bir - birini to'ldiradi Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik maxoratini rivojlantirishda yangi axborot texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, pedagogik-psixalogik texnologiyalar talabalarda hozirjanoblikni tarbiyalaydi. Ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga, xamkorlikda ishlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.A'zam Xoliqov Pedagogik maxorat.Darslik Toshkent 2011 yil 15-b
- 2.Begimqulov U.Sh Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari monografiya-2007 yil.
- 3.Y.M.Masharipov Umumiy va sport psixologiyasi (darslik) Samarqand 2020-yil.

ЎЗБЕКИСТОН АРЧА ЎРМОНЛАРИНИНГ ҲОЛАТИНИ АНИҚЛАШ ВА УНИ ТАБИИЙ ҚАЙТА ТИКЛАШ

Юлдашов Якубжон Хатамович

Қишлоқ хўжалиги фан номзоди, профессор Тошкент давлат аграр
университети,

Абдурахмонов Ойбек Баходир Угли

Урмончилик йуналиши 3-60 гуруҳ талабаси Тошкент давлат аграр
университети

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон арча ўрмонларини ҳолатини ўрганиш бўйича йўриқнома ишлаб чиқилган. Уларни табиий тикланиши учун қандай ишлаб олиб бориш кераклиги тўғрисида тавсиялар берилган. Арчани табиий тикланиши қай жараёнда кетиши кўрсатилган.

Калит сўзлар. Зарафшон арча, туркистон арча, яримшарсиман арча, яйлов, эрозия, ўрмон.

Мавзунинг долзарблиги. Ўрта Осиё арча ўрмонзорлари Помир-олой ва Тянь-Шан тоғ тизмалари ўрмонларни асосини ташкил этади ва Ўзбекистон, Тожикистон ва Қирғизистонда 540 минг га майдонни ташкил эгаллайди ва катта экологик роль ўйнайди. Кўп асрлар давомида кучли антропоген таъсирида бўлиб, асосан ёғоч ва ўтин тайёрлаш учун хизмат қилган, улардан ташқари энг яхши мол-чорва яйлови бўлиб хизмат қилади [1]. Аҳоли сонининг кўпайиши ва унинг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабининг ортиб бориши яйловлар рўлини яна оширди [2].

Тадқиқот услуби. Тадқиқот ўтказиладиган жойнинг табиий шароитлари ва метереологик станциялар маълумотлари ўрганилади. Ўзбекистонда арчаларнинг турлари ва уларнинг тарқалишини А.Кулыбачныйнинг “Ўзбекистоннинг арчазор ўрмонлари” [3] китоби бўйича ўрганилади.

Арчазорларнинг табиий тикланишини аниклаш У.Ниғматовнинг “Меры содействия естественному возобновлению в арчовниках Узбекистана” ва Е.А.Бутковнинг “Ўзбекистон арча ўрмонларининг ҳолатини аниклаш ва уни қайта тиклашга ёрдам бериш тавсияси” бўйича ўрганилади [4,5].

Тадқиқот натижаси. Арчанинг табиий тикланиши оддий фитоценозда жуда секин амалга ошади. Мураккаб фетосенозларда олиб борилган илмий ишлар шуни кўрсатадики арчани қайта тикланиши 3-5 марта ортиқ бўлиб, ўрмон майдонинг ҳамма ерида бир текис ўсибчиқади. Булар эса уларни ёмонлашиш шкаласини яратишга олиб келди. Ёмонлашиш шкаласи ўрмонни қайси бир бўлаги қайси тарзда ёмонлашиб инқирозга учраб бораётгани кўрсатиб қолмай, уларни қайта тиклаш йўлларини ишлаб чиқишни ҳам ўз ичига олади. Изланишлар шуни кўрсатдики, ўсимлик турлари 52-55 тадан то 8-12 тагача камайиб кетган, сақланиб қолганлари ичида ёввойилари ҳам бор, қайсики моллар ўзлари билан олиб келганлар. Ўт ўланларни қопланиш миқдори 90-100% дан 20-30 % га тушиб қолган. Ўрмонларнинг табиий кўпаймаслиги ва майда дарахтларни камайтириш арча умрини қисқартиради, булар ўз оқибатида ўрмонларни ўсиш шароитларини ёмонлаштиради (тупроқ унумдорлигини пасайиши, парланишни кўпайиши, тупроқни зичланиши).

Қуйида келтирилган ўрмонларни ёмонлашиш кўрсаткичи 4 босқичдан иборат бўлиб улар арча ўрмонларининг, улардаги элементларнинг ёмонлашиш даражаси кўрсатилган ва уларни бир қараб чиқишда ажратиш қийин эмас.

1-жадвал

Ўзбекистонда арчаларнинг ёмонлашиш кўрсаткичи

Фитоценоз бўлаги	Бузилиш аломатлари
1 давр (босқич)	
Дарахтзорларнинг 1-чи поғонаси	Арчазорларнинг асл бузилмаган ёки енгил бузилган туркумлари, дарахтзор таркибини тиклашдан мураккаб. Зарафшон арчаси биринчи ярус тарқалиши деярли бир хил 0.7-1.0 бўлган, асосан 70 % уруғдан чиққан.

	Дарахтлар бир шоҳли 2-3 шоҳлилари кам миқдорда. 30-40 йил давомида камаймаган.
Дарахтзорнинг 2-чи поғонаси	Иккинчи поғонага биологик таркиби бўйича 2-3 тур ўсимликлар шароитига қараб учрайди: Туркистон заранги, Семенов заранги, Бухоро бодоми, олма. Уларнинг ёши ҳар хил бўлиб, ўрмоннинг ҳамма майдонларида жойлашган.
Ўрмонзор тагидаги буталар ва ёш дарахтлар	Бунинг таркибига наъмататк, зирк, тоғолча, тиканли бодом, ирғай, учқат, қарағай, қийшиқ мевали шумтол, торилис, четан, қизилча киради. Ўсимликлар ҳар хил ёшда, яхши тикланиш қобилиятига эга, ҳамма майдонида бор
Тупроқ ва ўрмон чириндиси қатлами	Тупроқдаги ювилиб кетмаган, юқори чиринди қатлами яхши ривожланган, унинг қалинлиги 10 см дан кам эмас. Унинг хажм бирлигининг массаси 1.10 г/см куб дан юқори эмас. Йўлак тармоқлари йўқ. Чиринди қатлами дарахтзорнинг ҳамма майдонида мавжуд бўлиб, тошлоқ ерларда учрамайди. Унинг қалинлиги очик жойларда 1-2 см, арча шоҳ шаббалари остида эса 10 см гачадир.
Тупроқ устидаги тирик қатлам	Шимолий қияликлардаги чиринди қатламида мох ўсимлиги ривожланган бўлиб – ўрмоннинг 30-80 % майдонида тарқалган. Жанубий қияликларда дарахтларнинг шоҳ-шаббаси ости ва танасида ривожланган. Ўт ўсимликлар қопламитаркиби мураккаб уч қаватли, баландлиги 120-150 см. Унга ёзги вақтда 40-50 дан кам бўлмаган ўт ўланлар тури киради. Улар ўрмон ўсимликлари, намликка талабчан (мезофит) ва дашт турларидир (мезоксерофит). Уларнинг ичида бир ва икки паллали ўсимликлар бор. Бошоқли ўсимликлардан тоғ

	арпаси, оқ сўхта, (биринчи қаватда), ялтирбош, буғдойик, бетага, қиёқлар (иккинчи қаватда) ва бошқалар.
2 давр (босқич)	
Дарахтзорларнинг 1-чи поғонаси	Моллар боқилиши сабабли дарахтзор ўртача дигрессия ҳолатига келган. Унинг таркиби мураккаб. 1 қаватида шох-шаббаларнинг зичлиги 0,5-0,8 га тенг бўлган зарафшон арчаси. Дарахтзорларнинг йирик йирик бўлакларга бўлинган. 50 % га яқини бачки новдалар билан қайта тикланган, шунинг учун таналари кўп. Охирги 30 йил ичида қалинликка ўсиш ўртача олганда пасаймаган.
Дарахтзорнинг 2-поғонаси	Иккинчи қаватни ташкил этган дарахтлар таркиби бўйича 1 бирликдан иборат, ёки айрим жойларда қисман бошқа турлар аралашган. Унинг таркибига бундан илгариги даврнинг даврнинг таркибида бўлган ўсимликлар бор, аммо тўп тўп бўлиб ўсган дарахтлар ичида ўсади. Улар қалин бўлиб (дарахтлар) жойлашганлиги учун моллар зарар келтирмаган.
Ўрмонзор шох-шаббалари остидаги ёш дарахт ва буталар	Унинг таркибига арчазорларга муносиб бўлган турлар киради, аммо унинг қалинлиги камроқ. Уларнинг асосий қисми тўп тўп жойлашган дарахтлар остидадир. Очiq жойларда мол кам ейдиган учқат ва ирғай қолган, аммо буталар бўлмаган майдонлар ҳам пайдо бўлади. Тўп тўп жойлашган дарахтлар шох-шаббасининг зичлиги 50 % дан юқори, шу билан бирга умумий зичлиги 20 % дан ошмайди. Буталарнинг шох-шаббаси юқорига кўтарилган, пастдан таналар ён новдаларидан ва баргларида тозаланган.

<p>Тупроқ ва ўрмон чириндилари қатлами.</p>	<p>Тупроқлар ювилмаган, чириндиқатлами яхши ривожланган, тўп тўп дарахтларда 10 см дан юқори, очик жойларда эса 5 см га яқин. Хажм бирлиги оғирлиги 1,10 г/см куб дан юқори эмас. Йўлаклар унча кўп эмас ва улар майдоннинг 3-5 % дан камини эгаллайди. Чиринди қатлами тўп тўп дарахтзорлар тагида ялпи равишда жойлашган, қалинлиги 1-2 см дан 5+7 см гача. Очик жойларда унинг қалинлиги 0,5-1 см бўлиб майдоннинг 50 % дан ошмаган қисмини ёпади.</p>
<p>Тупроқнинг устки қисмидаги тирик қатлам</p>	<p>Мох қатлами шимолий қияликлардаги арчалар остида ва тўп тўп арчалар тагида ривожланган. Жанубий қияликларда эса дарахт таналарида учрайди. Ўт-ўланлар қатлами таркиби мураккаб бўлиб, уч қаватдан иборат. Ёзги фаслда бу ерда ўрмон ва дашт турларидан 30-40 таси учрайди. Ўрмон турларидан ёввойи хина, қисқа оёқлилар тушиб қолади. Мезофиль турларидан ҳам қуйидагилар камаяди: беда, хашаки нўхот ва биринчи даврда кўрсатилган ўсимликлар. Тўп-тўп дарахтлар остида кўпроқ қисман ойболдирғон, бузульник, бўтакўз эгаллайди. Очик жойларда дашт ўсимликлари тарқалган, аммо моллар ейдиган ҳар хил ўтлар ўрнини моллар емайдиган ўсимликлар эгаллайди. Тоғ арпаси, ўрмон кўнғирбоши, қора қиёк, оқ сўхта ва бошқалар камаяди. Оқтасма, тоғрайхон, бўғдойиқ, бетага, қиёк, кўнғирбош кўпайиб боради. Тепалик ва қуруқ ерларда бўтакўз пайдо бўлади. Ўт ўланларнинг зичлиги ўрмонда 90-100%, очик ерларда 70-80%. Уларнинг қуруқ массаси 5-8 ц/га ни ташкил этади. Тўп-тўп ичидаги тупроқда уруғлар бўлиб,</p>

	улар дарахт ва ўт-ўланларга тегишлидир. Очиқ жойларда эса асосан бошоқли ўт ўсимликларнинг уруғи бор.
3 давр (босқич)	
Дарахтзорнинг 1-поғонаси	Дарахтзор мол боқилиши таъсирида бўлиб, таркиби оддийдир, фақат асосий турдан иборат. Тўп тўп ўсиб турган дарахтзорлар яққол ажралиб туради. Дарахтларнинг зичлиги 0,3-0,6. Кўп танали бачки новдалардан тикланган дарахтлар 50% дан кўп. Арчанинг бир йилда қалинлиги бўйича ўсиши охириги 30 йил ичида кескин камайган.
Дарахтзорнинг 2-поғонаси	Дарахтларнинг иккинчи қавати учрамайди.
Дарахтзор остидаги ёш дарахтлар ва буталар	Бу ерда асосан учқат, зирк, ирғай, наъматак ўсади. Улар тўп тўп дарахтлар остида учрайди. Бу ерга моллар киради. Очиқ жойларда наъматакнинг турлари (кўқон ва бошқа турлари) учрайди, у илдиз новдалари билан кўпаяди ва қалин жойлашиб чакалакзор ҳосил қилади. Тўп тўп дарахтзорлар остидаги ёш ўсимликларнинг қалинлиги 20 % дан ошмайди, умумий қалинлиги эса 5% дан кўп эмас. Буталар 1,5 м баландликкача яланғочдир.
Тупроқ ва ўрмон чириндиси қатлами	Тупроқ баланд бўлган ерларда кучсиз ва ўртача эрозияланган. Чиринди қатлами ярмисигача камайган, айрим жойларда эса умуман йўқ. Юқори қисмининг солиштира ҳажм бирлиги массаси 1,2 г/см куб гача ортган. Йўлка тармоғи яхши ривожланган ва умумий майдоннинг 15 % ни эгаллайди. Чиринди қатлами арча шоҳ-шаббаси қолган ва қалинлиги 2-4 см га тенг. Тўп тўп дарахтлар орасида эса 50 % ни эгаллаб қалинлиги 0,5-0,9 см дан ошмайди.

<p>Тупроқ устидаги тирик қатлам</p>	<p>Мох қатлами йўқ, шимолий қиялтиқлардаги дарахт танасида учраб туради. Ўт-ўланлар қатлами мураккаб, икки қаватли. Ёзги даврдаги таркибига 25-30 тур кириб улар асосан даштга мансубдир. Ўрмон турларига мансуб ўт ўланлар арчанинг шоҳ-шаббалри остида учраб бўтакўз, сийрак равишда эса бузульник, ойболдирғон, каррак қолади. Тўп тўп дарахтзорлар ичида мол емайдиган бир қанча бошоқли турлар асосан илдиз пояли бетага, буғдойик, қиёқ, сийрак равишда оқ сўхта ва бошқалар учрайди. Очик ерларда наъматак бўлмаган майдонларда эфемерлар кўпроқ бўлиб, моллар боқилишига қадар уруғи пишиб тўкилади (кўнғирбош ва бошқалар), моллар емайдиган ва унча иштаха билан емайдиган дуккакли ўсимликлар (оқтасма, матлак), трагакантлар, бегона ўтлар тури (қора бўтакўз, сигир қуйрук, отқулоқ, қариқиз ва бошқалар). Тиканбарглилар (акантолимонлар ва бошқалар), моллар ёмон ейдиган лабгуллилар (тоғрайхон, ялпиз, хапри (қисрок) ва бошқалар), қизилча (чойўт) ва бошқалар. Ўтларнинг зичлиги тўп тўп ўрмонларда 70 %, очик жойларда 50 % дан ошмайди. Тирик уруғлар запаси (дарахт ва буталарнинг) ҳамма майдонларда учрамайди, фақат шоҳ-шаббалар остида арчанинг уруғлари бор. Икки паллали ўт ўсимликларнинг уруғ запаси, фақат тўп тўп ўрмонларда бор, лекин очик жойларда оз миқдорда бор.</p>
<p>4 давр (босқич)</p>	
<p>Дарахтзорнинг 1 поғонаси</p>	<p>Моллар боқилиши кучли бўлгани сабабли дарахтзорга катта зиён келтирилган. Унинг таркиби оддий зарафшон арчасидан иборат, кучли сийраклашган ўрмон тубини</p>

	<p>барпо этмайди, тўп-тўп дарахтзорлар учрамайди., агар бўлса ҳам унча катта эмас. Сийрак дарахтзорлар зичлиги 0,3. Арча дарахтларининг танаси 1 м баландликкача очилиб қолган, чунки ён новдаларини моллар еб қўйган. Дарахтлар сонининг 70 % бачки новдалардан қайта тикланган. Дарахт танасининг қалинликка ўсиши бир йилда ўрта ҳисобда охириги 15 йил ичида камайган.</p>
<p>Дарахтзорнинг 2 поғонаси</p>	<p>Дарахтзорнинг 2 поғонаси йўқ.</p>
<p>Дарахтзор тагидаги</p>	<p>Дарахтзор тагида ёш дарахтлар йўқ. Айрим жойларда арча дарахтлари остида учкат (дукчўп) бутаси учрайди. Унинг аҳволи яхши эмас. Қуруқ мевали наъматак йўқ бўлиб кетаябди. Унинг буталари ёмон аҳволда бўлиб оралари йўлкалар билан кесилган.</p>
<p>Тупроқ ва тупроқ устидаги чиринди қоплами</p>	<p>Тупроқнинг устки қатлами ўртача кучли равишда ювилган. Чиринди қатлами кичик-кичик майдончаларда қолган, бошқа майдонлардагиси ювилиб кетган. Тупроқнинг юқори қатлами хажм бирлиги массаси 1,35 г/см куб дан ошмайди. Ўлкалар тармоғи ўрмон майдонининг 30 % ни эгаллайди; 35 градусдан юқори бўлган қияликларда ундан ҳам юқоридир. Шох-шаббаларидан ташқари жойларда йиллик ўт-ўсимликлари тагида қолган холос. Чиринди қатлами майдони 10 % дан ошмайди.</p>
<p>Тупроқ устидаги тирик қатлам</p>	<p>Мох қатлами йўқ. Ўт-ўланлар қатлами сийрак жойлашган, қаватлиги унча билинмайди. Унинг таркибига 20 дан кам ўт ўланлар киради. Асосан ёмон аҳволдаги илдиз пояли ўсимликлар, айниқса дағал танали, тикан баргли ва моллар емайдиган турлар-</p>

	<p>тарагакантлар, игна барглилар, каррак, ялпиз, хапри (қисрок), шувоқ ва бошқалар учрайди. Бу ўтлар молларнинг туёғидан зарарланган. Ўт-ўланларнинг зичлиги 20 % дан ошмайди. Тупроқнинг устки қисмидаги қуруқ биомассаси 2 ц/га дан ошмайди. Тупроқда уруғлар запаси йўқдир, бундан арча ва эфемерлар мустасно, чунки моллар ўсимликларнинг уруғ беришига ҳалақит беради.</p>
--	---

Арчазорлар учун ишлаб чиқилган шкала асосида тупроғи биринчи босқичда ёмонлашган арча дарахтзорларида ҳеч қандай хўжалик тадбир-чоралари амалга оширилмайди. Иккинчи босқичда эса арча ўрмонзорларини қайтадан тиклаш учун маълум вақтгача мол боқишни тақиқлаб қўйиш керак. Учинчи босқичда бузилган арчазорларда мол боқишни тақиқлашдан ташқари унга ўзини қайтадан тиклаш учун ёрдам бериш лозим. Бунинг учун дарахт ва буталар турлари бўйича уларни уруғларини ишлаб чиқилган технология бўйича сепиш амалга оширилади. Тўртинчи босқич бузилишда эса қайд қилинганларидан ташқари бу ўрмонзорларда ўт ўланларни ҳам қайта тикланади.

Арча ўрмонзорларида асосий дарахт ҳисобланган арчани уруғи орқали арчазорларни тиклаш яхши натижа бермаганлигини ҳисобга олиб, арчазорларни қайтадан тиклашга ёрдам бериш учун дарахт ва буталар уруғини сепиш технологияси ишлаб чиқилди, улар арчага нисбатан яхши сақланиб қоладилар ва очиқ ерларда бутазорлар ҳосил қилади, булар эса арчани табиий кўпайишига олиб келади. Бунда баргли дарахтлар арчага нисбатан тезроқ ўсиши натижасида қияликларда ўрмон кўринишини ҳосил қилади. Бу эса ўт ўланларнинг қайтадан тикланиши учун қулай шароит яратади, намликларда ўсадиган ўтлар кўпаяди, уларни меваларини яхши истеъмол қилади ва улар иккинчи даражали ем хашак ҳисобланиб молларни йиртқич хайвонлардан ва қушлардан асрайди, арчазорларни бир текисда кўпайишига ва ихота вазифасини ўташга олиб келади. Арчазорларни қайтадан тиклаш ишларини биринчи навбатда қўриқхона ва алоҳида қўриқланадиган майдонларда олиб борилади, қайсики, техникани

ишлатмай, зинапоялама ва майдончалар яратмай қайсики уларни амалга оширганда табиий ландшафтлар ва табиий ўсиш шароитлари сақланиб қолади.

Хулоса. Тавсия этилаётган арча ўрмонларини қайтадан тиклаш йўли энг қулай ва арзон бўлиб, унча кўп бўлмаган пул маблағлари ва ишчи кучи талаб қилади. Шу билан бирга ёқолиб бораётган арчазорларни қайта тикланиши учун катта туртки вазифасини бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Александровский Е.С. «Научные основы восстановления арчевых лесов. Научные основы лесомелиорации в Узбекистане». Ташкент 1996 г. 45-49 стр.
2. Бобров Р.М. “Беседа о лесе” Москва “Молодая гвардия” 1979г. 240 стр.
3. Кулыбачный И.А. Арчевые леса Узбекистана. Ташкент, 1968 г
3. Нигматов У Меры содействия естественному возобновлению в арчовниках Узбекистана. Издательства “узбекистан” 1968 г
4. Бутков Е.А. Ўзбекистон арча ўрмонларининг ҳолатини аниқлаш ва уни қайта тиклашга ёрдам бериш тавсияси. Ташкент, 1998, г.

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISHNING AHAMIYATI

Quvondiqova Zilola Dilmurod qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

E-mail: Zilolaquvondiqova37@gmail.uz

Annotatsiya: Maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarining Texnologiya fani darslarida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish texnologiyasikasblarning mohiyati, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish yo’llari yoritib berilgan.

Kalit sozlar: texnologiya, fan, dars, o’quvchi, kasb, hunar, faoliyat, tayyorlash, hamkorlik, samaradorlik.

Аннотация: В статье описывается сущность технологических профессий, трудности выбора профессии и пути их преодоления в курсе технических наук.

Ключевые слова: технология, наука, урок, ученик, профессия, занятие, деятельность, обучение, сотрудничество, эффективность.

Annotation: The article describes the essence of technology professions, difficulties in choosing a profession and ways to overcome them in the course of technology science.

Keywords: technology, science, lesson, student, profession, occupation, activity, training, collaboration, efficiency.

Bugungi kunda o’sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo’naltirish masalalari davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o’rni va shu yerda faoliyat olib borayotgan o’qituvchilarning sayi-harakatlari katta ahamiyatga ega. Texnologiya fani darslarida o’quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ularni maktabdanoq biror bir kasbni egasi qilib tarbiyalash bugungi kunda dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Har bir mamlakatning kelajagi bo’lgan ta’lim shu mamlakatning tizimi qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini rivojlantirish uchun qonun va farmonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 9-moddasining 5-bandida “Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish choralar amalga oshiriladi” deyilgan. Shu munosabat bilan o'quvchilarni mustaqil kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish, ularni raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalashga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil “1- oktiyabir- o'qtuvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan o'tgazilgan tantanali marosimdagi nutqida takidlaganidek vaktab muommosiga birinchi masala deb qarashimiz lozim. Maktab faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, balki yuksak ma'naviyat beshigiga farzandlarimizni bolaligidan boshlab kasb – hunarga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur. Jumladan, maktablarda texnologiya fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsad, o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish kelajakda yetuk kadrlar bo'lib chiqishlariga iqtisodiyotning turli sohalarida mustaqil fikirlovchi ijodiy faolyat ko'rsatuvchi mutaxasis kadrlarni tayyorlab berishdan iborat. Albatta bu maqsadga erishish uchun umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qtuvchilar tomonidan mos ravishda metod va texnologiyalarni to'g'iri tanlay olish bilan belgilanadi. Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni, o'quvchilar bilan ishlashning optimal metod va shakillarini aniqlashni taqazo etadi.

Texnologiya darslarida har bir kasb haqida chuqur ma'lumot berish bilan birgalikda psixolog, ota-onalarning birgalikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya darslarida turli bosqichlarda kasblar haqida ma'lumotlar berish har xil metodlar orqali tushuntirish o'quvchining muayyan kasbga nisbatan qiziqish va qobiliyatini shakllantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida kasblar haqida ilk tushunchalar hosil qilinsa, 5-sinfga kelib 9-sinfgacha bosqichma-bosqich kasblar haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilinadi bu bosqichlar quydagilar:

1-bosqich Kasb tanlashga o'quvchini aqlan va ruhan tayyorlash;

2-bosqich Kasbning ta'rifi va tabiati haqida bilim berish;

3-bosqich Qiziqish tushunchasini ochib berish va o'quvchining qiziqishini aniqlash;

4-bosqich Qobiliyat tushunchasini ochib berish va o'quvchining qobiliyatini aniqlash;

5-bosqich Kasb tanlovini amalga oshirish usullari va algoritmini ochib berish;

6-bosqich Ilovalar asosida kasb tanlovini tajriba tariqasida amalga oshirish.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda texnologiya fanining ahamiyati shundaki, har bir o'quv mashg'uloti jarayonida amaliy ish bajariladi, bu amaliy ish biror bir kasbga borib taqaladi. O'quvchilar ongiga kasblar haqida tasavvur uyg'otishni boshlang'ich sinflardan oq texnologiya darslarida buyumlar tayyorlashni, qog'oz bilan ishlashni jarayonida tushunchalar berib boriladi.

1-4-sinflarda o'quvchilar qog'oz ishlab chiqarishning texnik bosqichlari, uning yaratilish jarayonlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar, qog'oz bilan ishlash usullari, turlari, qog'ozni buklash, geometrik shakllar, qirqish, yelimlash, turli hajmdagi o'yinchoqlar tayyorlash, manzara kompozitsiyasini yaratish, tabriknomalar tayyorlash malakasini egallaydilar. Gazlama bilan ishlash, chok turlari, yumshoq o'yinchoqlar tikish, to'qish va uning turlari, xalq hunarmandchiligi bo'yicha kashtachilikning eng sodda elementlarini tikish, loy va plastilindan turli o'yinchoqlar haykallar yasash ko'nimasiga ega bo'ladilar. Tabiiy materiyallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, turli chiqindi va badiiy materiyallardan o'yinchoqlar hayvon va parranda qushlarni yasash, uyro'zg'or buyumlarni, turli qiziqarli o'yinchoqlarni yasash ko'nikmasini shakllantirib boradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy, badiiy sa'natning sodda elementlari asosida applikasiya, mozaika usullaridan foydalanib, manzara, buyumlardan kompozitsiya qurish yasash malakasini egallash bilan birga o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

texnik modellashtirish orqali kasbga yo‘llashning boshlang‘ich ko‘rinishi namoyon bolib boradi.

O‘quvchilar 5-sinfga o‘tgach esa texnologiya darslarining har bir soatida nazariy va amaliy darslar jarayonida turli kasblar bilan tanishtirib boriladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlash bo‘limida oshpazlik kasbi, mahsulotlarning tarkibini o‘rganish jarayonida laborantlik kasbi, sotuvchilik kasbi, saralovchi ekspert, nonvoylik va boshqa turdagi kasblar bilan tanishib, qiziqib boradilar. Bichish-tikish bo‘limida esa to‘quvchilik, yigiruvchi, tikuvchi, bichuvchi, pardoziylik kabi kasblar bilan tanishibgina qolmay, shu ishlarni bajarish jarayonida qiziqish, xohish-istaklari shakllanib, qobiliyatlari uyg‘onib, rivojlanib shakllanib boradi. O‘quvchida ma‘lum bir sohaga nisbatan xohish-istak qiziqishga aylanib, qobiliyat rivojlanib, tadbirkorlik va biznesga nisbatan qiziqishlari ortib boradi.

6-7 sinflarda o‘g‘il bolalar yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi, metallarga ishlov berish texnologiyasi, uy-ro‘zg‘or buyumlarni ta‘mirlash ishlari, qiz bolalar esa albatta gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, turli xildagi kiym andozalar eskizlarini tayyorlash, pazandachilik asoslari bo‘limlari, qandolatchilig, yuzasidan bilim-ko‘nikmalar hamda malakalga ega bo‘lish bilan birga, bu bo‘lim yonalishlari bo‘yicha turli kasb-hunar turlari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab oladilar..

8-9 sinflarda esa kasbga yo‘naltirish darslarida ishlab chiqarish korxonalarini va turli kasblar, ularni qayerda o‘rganish mumkinligi haqida texnologiya darslarida bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilinadi.

Kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri hisoblanadi. Kasb tanlashga yollash ishi butun texnologiya fani davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o‘zining turli bosqichlarida o‘zgarib turadi.

Darslardan asosiy maqsad – zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda yetuk, barkamol, bilimli insonni tarbiyalash. Yoshlarni o‘z qiziqish, qobiliyati asosida kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlab o‘tish joyizki texnologiya fani darslarida o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish hamda ularni kelajakda biror bir kasbning

egasi qilib tarbiyalash hayoti davomida o'zlari egallagan kasblaridan hayotda unumli foydalanish anashu kasblari ortidan jamiyatga foydasi tegishi hamda kasb tanlashdagi qiyinchiliklar unda uchraydigan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish masalalari yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta'limda innovatsion texnologiyalar” T.: 2008. – 128 b.
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.
7. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T.: "Fan va texnologiya", 2008.
8. Tayloqov N. I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat nashriyoti, 2005.

ОМОНИМЫ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Сайфуллаева Ирода Барат кизи

Узбекский Государственный Университет Мировых Языков

Аннотация. В статье описываются типы омонимов в русском и узбекском языках. В основу методических приёмов работы при изучении данной темы рассмотрены различные определения омонимов, а также описаны и проанализированы примеры употребления различных типов. Результаты анализов свидетельствуют о том, что явление омонимов в русском и узбекском языках имеет регулярный и системный характер. Доказана регулярность взаимоотношений и взаимодействий лексических парадигм сопоставляемых языков в частности, отражённых омонимов.

Ключевые слова: Омонимы, омоформы, омофоны, омографы, морфем, фонетика, лексикология.

Введение

В данной работе рассматривается явление омонимии. Проблема омонимии, ее семантики на протяжении длительного времени привлекают пристальное внимание исследователей. В научной и лингвистической литературе сущность омонимии понимается не однозначно. Слова-омонимы характеризуются прежде всего тем, что они соотносятся с тем иным явлением действительности независимо друг от друга, поэтому между ними не существует никакой ассоциативной понятийно-семантической связи, свойственной разным значениям многозначных слов. Омонимия как языковое явление наблюдается не только в лексике. В широком смысле слова омонимами иногда называют разные языковые единицы. А теперь посмотрим омонимы в русском языке. Слова, одинаково звучащие, но разные по значению, называются омонимами. Звуковое и грамматическое совпадение разных языковых единиц, которые семантически не связаны другом, называется омонимией.

Разновидности омонимов

Лексические омонимы *коса-*, «орудие для срезания травы», *коса-*, «заплетенные волосы».

Омоформы- одинаково звучащие формы разных слов или одного и того же слова. Например: *мой от мыть*, *мой-* местоимение. Омоформы по своей природе выходят за рамки лексики, так как принадлежат иному уровню языка и должны изучать в разделе морфологии.

Омофоны- слова с одинаковым звучанием, но различным написанием. Например: слова *леса-лиса*, *молод-молот*, *везти-вести* совпадают в произношении вследствие оглушения звонких согласных в безударном положении приводит к созвучию слов старожил и сторожил. Одинаково произносятся и слова острова и острого. Следовательно, омофоны- это фонетические омонимы, их появление в языке связано с действием фонетических законов. Омофония может проявляться и шире в звуковом совпадении слова и нескольких слов: Не вы, но Сима страдала невыносимо, водой Невы носима; Лет до ста расти нам без старости. Омофония составляет предмет изучения не лексикологии, а фонетики, так как проявляется на ином языковом уровне- фонетическом.

Нередко к омонимами относят еще и омографы то есть слова, совпадающие в написании, но различающиеся произношением, в частности ударением. К таким словам современные исследователи относят свыше тысячи пар слов *ирИс*(конфеты) – *Ирис*(вид ниток), рассматривая при этом разные типы омографов: лексические *Атлас*(альбом собрание географических карт) – *атлАс*(ткань), лексико-грамматические – *сЕло*(глагол) и *селО*(существительное), стилистические – *кОмпас*(литер.) и *компАс*(используется моряки на профессиональном жаргоне).

По структуре омонимы бывают непроеизводные и производные. Непроеизводные омонимы чаще всего встречаются в кругу имён существительных. Это такие омонимы, которые, как уже отмечалось, возникли в результате совпадений слов

исконных и заимствованных, путём фонетических трансформаций исконных русских слов, а также в процессе словообразования.

Производная омонимия среди глаголов возникает в таких случаях, когда у одного глагола приставка сливается с основой, теряя свою морфологическую выделяемость или отделяемость, а у другого, омонимичного с первым, она сохраняет свои функции отдельной морфемы. Например: *заговорить*, „заговоривать зубы” (*заговор*) и *за-говорить* (*заговаривать, начать говорить*).

Многие из производных омонимичных глаголов являются частичными лексическими омонимами; омонимию производных глаголов *засыпАть*- от спать и *засыпАть*- от сыпать образование подобных омонимов во многом обусловлено омонимией словообразовательных аффиксов, то есть оморфом.

Если полное совпадение внешней формы двух и более слов нарушено, а слов в речевом потоке по тем или другим языковым признакам сближаются, то речь может идти не о лексической омонимии, а о явлениях, лишь в чем-то сходных с ней, но совершенно самостоятельных.

Омонимы в узбекском языке. Омонимия является одним из возможностей языка. Слова, которые совпадают во всех грамматических формах называются лексическими омонимами (лексик омонимлар). Например: слова *bog*' (1) - „сад” и *bog*'(2) - „пучек зелени”, являясь именами существительными, имеют способность присоединять к себе одинаковые аффиксы.

В узбекском языке непроеизводные глагольные омонимы образуются главным образом от основ глаголов. Известно, что инфинитив в узбекском языке выражает при помощи суффикса **-moq**, что соответствует русскому показателю инфинитива **-ть**. Непроеизводные омонимы узбекского языка, по классификации Ш.Рахматуллаева, делятся на два основных вида: 1) омонимы как результат совпадения плана выражения; 2) омонимия как результат расширения лексического значения. Совпадение плана выражения предусматривает трех разных видов омонимии: 1) омонимия между узбекскими лексемами; 2) омонимия между узбекскими и заимствованными; 3) омонимия между заимствованными лексемами.

Ш.Рахматуллаев делит производные омонимы узбекского языка на два вида:

- 1) омонимы, состоящие из производной и производной лексем.
- 2) омонимы, состоящие из производных лексем.

Омонимы второй группы делятся на два подвида:

- 1) омонимы, образованные от одной лексемы:
- 2) омонимы, образованные от разных лексем.

Обе последние групп омонимов, следовательно, делятся на подгруппы по участию в их образовании одних и те же или разных аффиксов.

Производные глаголы-омонимы в узбекском языке образуются как от основ глаголов, так и от основ именных частей речи. Производные глагольные омонимы в основном образуется путем присоединения к основе суффикса *-ла*, *-а*. Следует отметить универсальное для русского и узбекского языков явление отраженной омонимии, производные глагольные омонимы отражают омонимичность своих производящих.

Заключение

Таким образом, следует подчеркнуть, что явление омонимии в русском и узбекском языках имеет регулярный и системный характер. Важное место занимает при этом омонимия, возникающая благодаря омонимии основ. Если производность глагольных омонимов русского языка характеризуется активным участием префиксов и суффиксов, то в узбекском языке производные глагольные омонимы в основном образуются при помощи суффиксов *-ла*, *-а*. Русский и узбекский языки, как разносистемные и неродственные языки, имеют много общего в области омонимы.

Список литературы

1. М.И.Фомина Современный русский язык Лексикология. 1990г.
2. Г.М.Рахматуллаева, Т.Т.Кельдиев Русский язык. 2015г.
3. В.В.Виноградов Русский язык. 1972г.
4. Словарь омонимов. 2010г.
5. www.yaklass.ru
6. journals.rudn.ru
7. new.tdpu.uz
8. www.fio.ru

“RESEARCH AND EDUCATION”

Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/2”

www.researchedu.uz